

**ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ  
ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ  
ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

**халқаро илмий-амалий анжуман материаллари**

**ТЎПЛАМИ**

**2022 йил 15 апрель**



**Бухоро**

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта  
махсус таълим вазирлиги  
Бухоро давлат университети**

**ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ  
ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР  
ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман  
материаллари**

**ТЎПЛАМИ**

**Бухоро - 2022**

**«Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар» халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро – 2022. - 234 бет**

Бухоро давлат университетида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 15 апрел куни **“Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар”** мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани бўлиб ўтади.

### **Масъул муҳаррир:**

**Менглиев Баҳтиёр Ражабович** – филология фанлари доктори, профессор

### **Таҳрир хайъати:**

Н.Б. Атабоев, О.М.Файзуллаев, М.Б. Аҳмедова, З.Р. Собирова, Л.Ж. Жалилова

### **Тақризчилар:**

**Жўраева Малоҳат Муҳаммадовна** – филология фанлари доктори,  
профессор

**Қаршибаева Улжан Давировна** - филология фанлари доктори, профессор

Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Инглиз адабиётшунослиги кафедраси доценти, ф.ф.ф.д. М.Б.Аҳмедова

Ушбу тўпلامда жамланган мақолалар хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий ёндашувлари ва истиқболлари, корпус лингвистикаси масалалари, медиалингвистика ва лингвистик тадқиқотлар, қиёсий адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари, Ўзбекистонда таржима мактаби яратиш ва уни ривожлантиришда инновацион ғоя ва технологияларни қўллаш масалалари доирасида мутахассисларнинг тажриба ва фикр алмашинувини таъминлашга хизмат қилади.

## ТИЛ ЯШАСА, МИЛЛАТ ЯШАЙДИ

Зарипов Ботир Комилович,  
Бухоро вилояти ҳокими

Ўзбекистон миллий мустақилликка эришгандан сўнг маънавият масаласи миллий муаммо, мустақил халқимизнинг тараққиёт шарти сифатида кун тартибига қўйилди.

Аёнки, тил – маънавиятнинг ифодаловчиси ва сақловчиси, бойитувчиси ва узатувчиси. Мустақиллик даврида «Она тили – миллатнинг руҳи» (И.Каримов) ғояси эътироф этилган бўлса-да, тилнинг миллат руҳи ва маънавияти билан боғлиқ жиҳатлари махсус тадқиқ этилмади, бу борада концептуал ишлар амалга оширилмади, ўзбек тилшунослигининг истиқболли йўналишлари шакллантирилмади, мақсадлар қўйилиб, вазифалар белгиланмади. Бунинг сабаблари сифатида қуйидагиларни айтиб ўтиш мумкин:

*биринчидан*, тилнинг маънавиятни сақлаш ва ажодлардан авлодларга узатиш (аккумулятив ва трансформатив) вазифаси тадқиқи ўзбек тилшунослиги анъаналарида йўқ эди;

*иккинчидан*, ғарб ва европа тилшунослигида тил ҳамда маънавият муштараклигини муаммо сифатида қўйиш урф бўлмаган;

*учинчидан*, ўзбек тилшунослиги фани республика маънавий-маърифий тузилмаларидан буюртмалар олмади.

Алоҳида таъкидлаш ўринлики, собиқ шўро даврида ўзбек халқи лисоний онгида «маънавият» концепти мавжуд бўлса-да, бу концептнинг лисоний «қобиғи», яъни ифодаси ижтимоийлашмаган эди. Бунга ўзбек тили бўйича изоҳли ва энциклопедик луғатлар материаллари асосида амин бўлиш мумкин. Айтилганидек, 1981 йилда чоп этилган «ЎТИЛ»да *маънавият* лексемаси берилмаган. Ушбу луғатда мазкур атаманинг моҳиятини нисбатан акс эттирувчи *маънавий* лексемаси изоҳланган: «**Маънавий** (а) 1. Кишининг ички руҳий ҳаётига оид. Маънавий эҳтиёжлар. Маънавий ёрдам. *Ёш совет ўқитувчисининг ҳар бир иши зағчақўз домлага маънавий жиҳатдан ҳам, моддий жиҳатдан ҳам зарба эди.* П.Турсун, Ўқитувчи. 2. *айн. ахлоқий* Кишининг маънавий киёфаси» (ЎТИЛ:1,454-б.).

Хулоса қилиб айтадиган бўлсам, тилни севиш, уни ардоқлаш, миллатни севиш ва уни кадрлаш билан тенг ҳисобланади. Ҳар қайси халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, маданияти унинг тилида ўз ифодасини топади. Тил – миллат кўзгуси, деб бежиз айтилмаган. Халқимизнинг неча асрлик бой тарихи, кўҳна ва серқирра маданияти ўзбек тили таъсирида шаклланган. Улуғ шоиримиз Алишер Навоий шу тилда бебаҳо асарлар яратиб, дунёни лол қолдирган. Бугунги кунда жаҳоннинг барча мамлакатларида давлатимиз делегациялари ташрифи, ёшларимиз ютуқлари, спортчиларимиз ғалабалари шарафига ўзбек тилида мадҳиямиз куйланаётир.

Биз ўз она-тилимизни асраб-авайлашимиз, унинг нуфузини оширишимиз, гўзал ва софлигини авлодларга мерос сифатида қолдиришимиз, дунёга танитишда ўз ҳиссамизни қўшишимиз керак. “Тил яшаса, миллат яшайди”. Агар биз ўз тилимизнинг кўркамлиги, бойлигини дунёга тараннум этсак, миллатимиз янада чароғон бўлади ва бирлигимиз мусяхкам бўлади. Зеро рус тарихчиси Шобелев айтганидек “Миллатни йўқ қилиш учун у ерга қурол кўтариб бориш шарт эмас, унинг тилини, маънавиятини, адабиётини йўқ қилиш керак, шунда миллатнинг ўзи йўқ бўлиб кетади” деган фикри нақадар тўғри эканлигини кўришимиз мумкин.

## КУЧЛИ ЖАМИЯТДА КУЧЛИ МАЪНАВИЯТ МУЖАССАМ

Хамраев Мирали Мухаммеджанович,  
Бухоро вилояти ҳокимининг  
ёшлар сиёсати, ижтимоий ривожлантириш ва  
маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари

Жамият ҳаётида тилнинг ўрни ва унинг тарихий-ижтимоий аҳамияти ҳақида сўз борар экан, унинг энг юксак белгиси – бу давлат тили даражасида эканлигидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида давлат тилининг мақоми ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаб қўйилган. Шу тариқа ўзбек тили мустақил давлатимизнинг Байроғи, Герби, Мадҳияси қаторида турадиган, қонун йўли билан ҳимоя қилинадиган муқаддас давлат рамзига айланди. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 4-моддасига мувофиқ, Ўзбекистонда давлат тили ўзбек тилидир.

Хўш, асосли савол туғилади: миллат қиёфасининг бир бўлаги бўлган Ўзбек тилига давлат тили мақомини берувчи юридик асосларнинг бўлиши унга нисбатан ҳурматни ифодалай оладими? Шундай экан, Она тилимизнинг эҳтироми қандай факторларда кўриниши жоиз!?

Юқоридаги саволларга жавоб битта, бизнингча, бу ҳам бўлса, ўзбек тилида иш юритишни ташкил этиш ҳамда тилимизнинг соф инжуларини амалий мулоқотларда, расмий давраларда, қолаверса, оддий иш жараёнида қўллаш орқали фахр-ифтихорни туя олиш демакдир.

Шу ўринда, дунё олимларининг эътирофига кўра, бугунги кунда ер юзи аҳолиси 2 минг 976 хил тилда гаплашади. Бу тиллар ўзининг лексик ва грамматик хусусияларига кўра тил оилалари ва гуруҳларига бўлинади. Жонажон ўзбек тили – она тилимиз хусусида сўз кетганда, унинг дунё тиллари орасида ўзига хос мавқега эга эканлигини кўрамиз. Юқоридаги катта сонли тилларнинг барчасининг ҳам давлат тили мақомида эмаслиги айтиш ҳақиқат. Ваҳоланки, бу мақом фақатгина миллий мустақилликка эришган халқ ва миллат тилига берилади. Она тилимиз –ўзбек тилига 1989 йил 21 октябрда давлат тили мақоми берилганлиги, барчамизга маълум. Бу мамлакатимиз, юртдошларимиз ҳаётидаги унутилмас, тарихий воқеага айлангани ҳам тилнинг аҳамиятини яққол кўрсата олади, назаримда.

Бу оламшумул ҳодисанинг туб моҳиятини келажак авлод онгига сингдириш, унга муҳаббати, садоқатини янада мустаҳкамлаш шу тил жонкуярлари – ўқитувчилар, тилшунослар, умуман ўзини шу миллатнинг фарзанди деб билган ҳар бир шахснинг ҳар кунлик бурчи бўлиши шарт. Шундагина ўсиб келаётган ёш авлод тил нега миллий ғурур эканлигини ҳис этадиган, турли маънавий, мафкуравий таҳдидлар таъсирига тушмайдиган бўлиб етишади. Айтиш пайтда тилимизнинг ижтимоий мавқеини янада мустаҳкамлаш, юксалтириш учун ҳам беқиёс имконият яратилмоқда.

Шунингдек, 1995 йил 21 декабрда янги таҳрирдан чиққан «Давлат тили ҳақида»ги қонуннинг 9-моддасига кўра, давлат ҳокимияти ва бошқарув органларида иш давлат тилида юритилади ва заруриятга қараб бошқа тилларга таржима қилинади.

Шу билан бирга, «Давлат тили ҳақида»ги қонуннинг 10-моддасига кўра, корхоналар, муассасалар, ташкилотлар ва жамоат бирлашмаларида иш юритиш давлат тилида, ишловчиларининг кўпчилиги ўзбек тилини билмайдиган жамоаларда давлат тили билан бир қаторда бошқа тилларда ҳам амалга оширилиши мумкин.

Мана шу икки қонунда келтирилган ихтилофли ҳолатларни инобага олиб, кўплаб жамоаларда давлат тили – ўзбек адабий тилида эмас, балки унга хос лаҳжа ёки шеваларда, энг ёмони бирор хорижий тилда мулоқотлар олиб борилаётгани айтиш ҳақиқат. Муаммо борки, унга чим топишга интилиш инсонга хос ҳолат экан, юқоридаги долзарб масалага алоҳида бош қотириш зарур. Негаки, миллати ўзбек бўла туриб, бу тилда умуман сўзлаша олмайдиган, сўзлашса ҳам жуда нўноқ ёшларимиз кўпайиб бораётгани сўзимиз исботидир.

Бизнингча, бундай ҳолатни олдини олишнинг, икки йўли мавжуд, бири юридик – қонуний, иккинчиси маънавий-маърифий.

Ўйлайманки, Ўзбек тилининг мақоми янада ривож топиб, яқин келажакда унинг иш юритишдаги мутлақ устунлиги жамиятнинг барча бўғинларида кўзга ташланади!

## **ТИЛ – МИЛЛАТ ҚИЁФАСИНИНГ БИР БЎЛАГИ**

**Обиджон Хафизович Хамидов,  
и.ф.д., профессор,  
Бухоро давлат университети ректори**

Юртимизда ёшларимизнинг билимларни пухта эгаллашлари, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, қобилиятларини ривожлантириш борасида жуда кўплаб амалий ишлар олиб борилмоқда. Айниқса, Президентимиз томонларидан ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича илгари сурилган бешта муҳим ташаббус барчани шу эзгу мақсадлар йўлида янада жипслаштирмоқда. Унда илгари сурилган ёшларнинг исътедодини юзага чиқариш, жисмоний чиниқтириш, компьютер технологияларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш, ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш, хотин-қизларни иш билан таъминлаш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга қаратилган ташаббусларнинг амалга оширилиши ҳам фақатгина ёшларимизнинг бахтли ва порлоқ истиқболи учун. Форумушбу ташаббуслардан келиб чиққан ҳолда бир қатор масалаларни кун тартибига қўймоқда ва ўйлайманки ўз иши доирасида тегишли муаммоларга ечим топа олади.

Тил ўрганишга бўлган талаб ва эҳтиёжнинг тобора ошиб бориши таълим жараёнларида янгича усуларни тадбиқ этиш, адабиётшунослик ва тилшуносликни қиёсий аспектларда таҳлил этиш ва ўрганиш масалаларининг ниҳоятда зарур эканлигини кўрсатади. Шунингдек, адабиётимизни жаҳон адабиётида юксак ўринларда кўришни истар эканмиз, таржима масалаларига алоҳида диққат қаратишимиз, бу соҳаларда малакали мутахассисларни етиштиришни кун тартибига қўйишимиз лозим. Бугунги форум олдида қўйилган мақсад ва вазифаларнинг айнан шу масалаларга қаратирилганлиги билан ҳам долзарб ва аҳамиятлидир.

Она тили – миллатнинг руҳидир. Тил – давлат тимсоли, мулки. Тилни асраш, ривожлантириш – миллатнинг юксалиши демак. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида давлат тилининг мақоми ҳуқуқий жиҳатдан мустақамлаб қўйилган. Шу тариқа ўзбек тили мустақил давлатимизнинг Байроғи, Герби, Мадҳияси қаторида турадиган, қонун йўли билан ҳимоя қилинадиган муқаддас давлат рамзига айланди.

Бундан 27 йил муқаддам ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган эди. Бу ўз даврида том маънода оламшумул воқеа бўлган эди. Чунки, Беруний, Ибн Сино, Ал Хоразмий, Ал Фарғоний, Алишер Навоий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Бобур Мирзо сингари буюк сиймоларни етиштирган халқ тили йўқолиш арафасига келиб қолган эди. Мустақилликка илк қадамлар ташланаётган даврдаёқ президентимиз томонидан ўзбек тилига давлат мақоми бериш масаласи кун тартибига қўйилиб, бу иш амалга оширилган эди. Она тилимиз – ўзбек тилига 1989 йил 21 октябрда давлат тили мақоми берилди. Бу мамлакатимиз, юртдошларимиз ҳаётидаги унутилмас, тарихий воқеага айланди. Агар ўшанда тил тўғрисида қонун қабул қилинмаганда эди, ўзбек тили ҳам тарих саҳифаларидан жой олган бўлармиди?!.

Шуни таъкидлаш керакки, ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши халқимизнинг миллий мустақилликка эришиш йўлидаги муҳим қадамларидан бири бўлган эди. Истиқлол йилларида мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби тилимиз тараққиётида ҳам муҳим ўзгаришлар юз берди. Ўзбек тилининг халқаро микёсда обрўси ошди. “Давлат тили ҳақида”ги қонун она тилимизнинг бор гўзаллиги ва жозибасини тўла намоён этиш билан бирга, уни илмий асосда ривожлантириш борасида ҳам кенг

имкониятлар яратди. Олимлар ва мутахассислар томонидан илм-фан ва турли соҳаларга оид энциклопедия ва луғатлар, дарслик ва ўқув қўлланмалари чоп этилди. Мумтоз адабиётимиз намуналари, саксон мингдан зиёд сўз ва сўз бирикмасини, фан, техника, саноат, маданият ва бошқа соҳаларга оид атамаларни, шеваларда қўлланиладиган сўзларни ўз ичига олган беш жилдлик “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” бу борада амалга оширилган ишларнинг энг муҳимларидандир.

Тил – миллат қиёфасининг бир бўлаги. Дунёдаги барча халқлар ўзининг миллий расмий тилига эга деб айтолмаймиз. Чунки бу халқнинг миллий мустақиллиги билан боғлиқ. Мутахассисларнинг сўзларига қараганда, бугунги кунда ҳар икки ҳафтада битта тил йўқолиб бормоқда. Бу ўз навбатида ўша тилда сўзлашувчи халқларнинг йўқолишини англатади. ЮНЕСКО вакилларининг сўзларига қараганда, қачонлардир одамлар сўзлашадиган тилларнинг сони 7 мингдан 8 минггача етган бўлса, бугунги кунда сайёрамизда 6 мингта тил мавжуд бўлиб, уларнинг 90 фоизи йўқолиб кетиш арафасида турибди. Бу асосан цивилизация туфайли маданиятидан айрилаётган кам сонли миллатларнинг тилларидир. Бу тилларда сўзловчи аҳолининг айримлари ёзувга эга бўлса, айримлари бундан бебаҳрадир. Масалан, Африка тилларида сўзлашувчи аҳолининг 80 фоизи ҳамон ўз ёзувларига эга эмас. Минглаб тиллардан таълим тизимида фойдаланишнинг имконияти йўқ. Интернетдан фойдалана олмайдиган тиллар ҳақида-ку айтмаса ҳам бўлади. Чунки янги технологияларнинг ривожланиши туфайли айрим халқлар ўз тилларидан кўра замонавий тиллардан фойдаланишга мажбур бўлмоқда. Бугун Интернет тилининг 81 фоизи инглиз тилига тўғри келади. Тўғри, авваллари ҳам тиллар пайдо бўлган, муаммолада бўлиб, маълум вақтдан сўнг йўқ бўлиб кетган. Лекин ҳозиргидек тилларнинг жадаллик билан йўқолиши тарихда кузатилмаган. Йўқолиб кетиш ҳавфида бўлган тилларнинг сақлаб қолиш йўлида амалга оширилаётган саъй-ҳаракатларнинг асосий мақсади ҳам маданиятлар ва тиллар хилма-хиллигини таъминлашдан иборатдир. Чунки айнан тил туфайли халқ ва элатларнинг маданияти, урф-одатлари сақланиб қолади, сайёрамизда яшаётган халқларнинг ўтмиши ва маданияти ҳурмат қилинади. Тилшунослар йўқолиб кетиш арафасида турган тилларни сақлаб қолишнинг имкониятлари ҳозирча қўлдан бой берилмаганини айтишади. Тилларни сақлаб қолиш учун эса, БМТ экспертларининг фикрича, бу тиллардан таълим тизимида кенг фойдаланишни йўлга қўйиш керак.

Азиз форум иштирокчилари, барчангизни яна бир бор табриклаган ҳолда форум ишига омад тилайман, илм йўлида изланишдан асло чарчаманг.

#### **УЧ БУЮК ҚАДРИЯТ: МАЪНАВИЯТ, МАЪРИФАТ, МАДАНИЯТ.**

**Лутфия Мирзаева**

“Умрбоқий мерос”

Ўзбекистон маданияти ва

санъати тарғибот маркази директор

e-mail: [umrboqiymeros@mail.ru](mailto:umrboqiymeros@mail.ru)

Мамлакатимиз ўз мустақиллигини қўлга киритгандан сўнг эркин фикрлайдиган, ўз-ўзини англайдиган, жамият мақсад ва манфаатларини тушуниб етадиган, ҳар томонлама етук комил инсонни тарбиялаш вазифаси давлат сиёсатининг устивор йўналиши қилиб белгиланди. Уни амалга ошириш эса энг аввало тарбияланувчиларнинг ички руҳий маънавиятини бойитиш ва мустақил дунёқарашини шакллантиришни тақоза этади. “*Ҳар қайси давлат, ҳар қайси халқ интеллектуал салоҳияти, юксак маънавияти билан қудратлидир.*” – деб таъкидлайди давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев

Маънавият кўп қиррали тушунчадир. У инсон фаолиятининг барча қирраларини, унинг яққол кўзга ташланувчи зохирий ва яширин, ички руҳий – ботиний томонларини ҳам қамраб олади. Аслида маънавият – инсонни жамики бошқа мавжудотлардан ажратиб

турадиган энг бакуват маънавий-рухий омил ҳисобланади. Моддий нарсалар одамга жисмоний озик ва қувват берса, маънавият унга рухий озик ва қудрат бағишлайди.

Маънавият миллатни тараққиётга етакловчи, давлатнинг қудратини оширувчи муҳим омил саналади. Чунки қаерда, қайси мамлакатда маънавият юксак даражада бўлса, ўша жойда, ўша мамлакатда жоҳиллик, ҳасадгўйлик, бепарволик, худбинлик, ялқовлик, манманлик, текинхўрлик, ғийбат қилишлик, кўролмаслик, ёвузлик, қўпарувчилик, ўз ватани ва халқига нисбатан сотқинлик тухмат қилиш каби салбий иллатлар, маънавиятсизлик кўринишларига ўрин қолмайди.

Маънавият ҳар доим маърифат билан яъни билим билан уйғун ҳолда ривожланиб боради. Ҳар иккаласининг уйғунлигига эриша олсақкина ёшларимизнинг маънавий баркамол, иймон эътиқодли, ватанпарвар, инсонпарвар, виждонли, диёнатли, ор-номусли, ҳалол ва пок инсонлар бўлиб тарбия топишларига эриша оламиз. Бу ҳақда Абу Ҳамид Муҳаммад Ғаззолий қуйидаги фикрларни билдирган эди: Гумроҳ кишилар «Илм бўлгач, амалга ҳожат йўқ қаблида фикр қиладилар. Бундай фикрлар илмнинг ўзи билан кифояланиб, шариатни инкор этувчилар эътиқоди бўлиб, улар учун илм ҳосил бўлсаю, амал бўлмаса. Бу каби илмдан фойда йўқлигини билишмайди. Ҳолбуки ўқиб ўрганган илмга амал қилмаган кишининг қиёмат кундаги азоби икки ҳиссадир».

Буюк маърифатпарвар бобомиз Маҳмудхўжа Бехбудий ўтган асрнинг бошидаёқ “Дунёда турмоқ учун дунёвий фан ва илм лозимдур, замона илми ва фанидан бебаҳра миллат бошқаларга поймол бўлур”, деган ҳаққоний фикрлар билан Туркистон аҳлининг онгу шуурини уйғотишга даъват этгани бежиз эмас... Бу сўзларнинг қанчалик ҳақиқат эканини бугунги юксак тафаккур ва технологиялар замони ҳам исботланмоқда”.

Маънавият оламида бадавлат халқимиз,

Маърифат тарқатган донишманд Шарқимиз.

Йигитликда йиғ илмнинг мағзини,

Қарилик чоғи ҳарж қилгил ани.

деб, ёзиб қолдирганлар Мир Алишер Навоий Ҳазратлари.

Глобаллашув шароитида моддий чегаралар тобора нисбийлашиб, маънавий кадриятлар аста-секин умумийлашиб бориши кузатилади. Бундай даврда миллий ўзига хосликни сақлаб қолиш, миллий ўзликни англаш ва кадрига етиш тушунчалари устивор мақсадга айланади. Миллий ўзликни англаш ва кадрлаш жараёни маънавий кадриятларимизнинг пойдевори бўлиб хизмат қилади.

Инсонни инсон миллатни миллат, халқни халқ қиладиган тушунча – бу шу инсоннинг, шу миллатнинг, шу халқнинг кадр-қимматидир. Кадрият шундай маънавий оламки, унинг турфа қирралари, минг бир жилолари, қувончу ташвишлари бор. Ўзбек халқи кадрият, маънавият ва маданият, таълим ва тарбияга оид бой меросга эга бўлиб, асрлар мобайнида ёш авлодга инсонпарварлик, ватанпарварлик, дўстлик, меҳнатсеварлик, меҳр-оқибат, биродарлик ва камтарлик каби умуминсоний фазилатларни ҳар томонлама чуқур сингдириб келган. Зеро, эртанги кун учун қайғурадиган ҳар бир мамлакат, ҳар бир жамятда маънавият ва маърифат каби тушунчалар юксак кадрланган.

Муқаддас Ҳадиси шарифда “*Дунёда биргина тўғри ва диёнатли одам топилар экан, ҳали қиёмат бўлмайди*”, деб ёзилган экан. Яъни, тўғрилиқ–дунёнинг посбони, диёнат борлиги–инсониятнинг мавжудлиги демакдир.

Шубҳа йўқки, ўзбек халқи ўзининг буюк давлатчилик тарихи, урф-одат ва анъаналари, дунё тамаддуни ривожига қўшган ҳиссаси, жаҳон ҳамжамияти ҳақли равишда эътироф этаётган миллий хусусиятлари билан ана шундай миллатлар қаторига киради. Янги Ўзбекистон олдида турган янги вазифалар ичида ушбу буюк мақомни янада юксак поғонага кўтариш, халқимизнинг интеллектуал даражасини ривожлантириш алоҳида аҳамиятга эга.

Кадрият тушунчаси маданиятшуносликнинг асосий тушунчаларидандир. Кадрият – кишилар ҳаётида ўта аҳамиятли ҳодисадир. Уни маданият соҳалари рўёбга чиқарган ҳодиса сифатида боғлиқликда англаш мумкин. Миллий кадриятлар миллатнинг тили,



маданияти, тарихи, урф-одатлари, анъаналарини, жамики моддий ва маънавий бойликларини, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг барча томонларини қамраб олади.

Миллий қадриятлар, анъаналарни тиклаш бўйича «Наврўз», «Ҳайит» каби қадимги халқ ва диний байрамлар расман ҳаётга қайтган бўлса, халқимизнинг бой маданий меросини тиклаш ва ўрганиш мақсадида бир қатор йирик лойиҳалар амалга оширилди. Жумладан, Сурхондарё вилоятида Имом Термизий номидаги, Самарқандда Имом Мотуридий номидаги илмий-маърифий тадқиқот марказлари фаолият олиб бормоқда. Ватанимиз пойтахти Тошкент шаҳрида Марказий Осиё халқаро институти ташкил қилинди.

2017-2021 йилларда мамлакатни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси қабул қилинди, барча туман ва шаҳарларда Маънавият ва маърифат масканлари фаолият юритмоқда. Самарали меҳнати ва ибратли фаолияти учун давлат органлари ва ташкилотлар ходимларига топширилаётган “Маънавият фидоийси” Кўкрак нишони таъсис этилди.

Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги ривожланиш босқичида ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий омиллар билан бирга, маънавий-маърифий жабҳаларда амалга оширилаётган ислохотлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. *“Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи-маънавиятдир”*, деб ёзади “Ўзбекистон стратегияси” асарида давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев. Биз Янги Ўзбекистонни барпо этишда ана шу иккита муҳим устунга, яъни, бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиётга ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган кучли маънавиятимизга таянамиз”.

“Ўзбекистонда адабиёт ва санъат, маданият, оммавий ахборот воситалари, маънавият ва маърифат бизнесга айланмаслиги шарт ва биз бунга ҳеч қачон йўл қўймаймиз, бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган улуг аждодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз бор. Ва мен ишонаман, насиб этса, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажакимиз, буюк адабиётимиз ва санъатимиз ҳам албатта бўлади”, деган фикрни қатъият билан таъкидлайди юртбошимиз.

Ўзбекистонда халқчил, миллий, шу жумладан, анъанавий мусиқа санъати йўналишларига кенг имкониятлар очилмоқда. Айниқса, юртимизда мақом санъатини кенг оммага ёйиш ва тарғиб этиш борасида кўплаб илмий ва амалий ишлар олиб борилмоқда. Айниқса, ёш авлод қалбида миллий мумтоз санъатимизга бўлган қизиқишни, эътиборни уйғотиш-асосий мақсадларимиздан бири, десак, муболаға бўлмайди.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан миллий меросимизни кўз қорачиғидек асраб-авайлаш, уни ёшларга безавол етказиш борасидаги эзгу саъй-ҳаракатлар миллий мақом санъати ривожига кўрсатилаётган ғоят улкан эътибор ва ғамхўрликда ёрқин ифодасини топмоқда.

Давлатимиз раҳбари томонидан 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорининг қабул қилингани санъатимиз ривожига янги истиқболларни очди. Мазкур ҳужжат ўзбек мақом санъатини чуқур ўрганиб, ўзига хос ижро мактаблари ва анъаналарини янги босқичда раванқ топтириш, унинг “олтин фонди”ни яратиш ва бойитиш, халқаро нуфузини ошириш ва кенг тарғиб қилишда ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда, 2018 йил 6 апрелдаги “Халқаро мақом санъати анжуманини ўтказиш тўғрисида”ги қарорига асосан эндиликда ҳар икки йилда бир марта Шаҳрисабз шаҳрида Халқаро мақом санъати анжумани ўтказиб келиниши эса ўзбек миллий мақом санъатини дунёга танитишда улкан хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ана шу эзгу ишларнинг давоми бўлди. Унга кўра, Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати, Маданий мерос илмий-тадқиқот институтларининг ташкил этилиши -давлатимиз ва давлатимиз раҳбарининг миллий маданият ва санъатимизга бўлган навбатдаги эътибори ва ғамхўрлигидир!

*“Агар биз асл, ҳақиқий санъатни билмоқчи, ўрганмоқчи бўлсак, аввало, мумтоз мақом санъатини билишимиз, ўрганишимиз керак. Ана шундай улкан маънавий бойликнинг шаклланиши ва тараққиётида, бу умрбоқий санъатнинг бизгача етиб келишида беқиёс хизмат кўрсатган улуг шоир ва мутафаккирлар, бастакор ва созондалар, буюк ҳофизларнинг хотирасини ҳурмат-эҳтиром билан ёд этамиз”*, дейди давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев.

Маданиятимиз, миллий қадрият ва миллий маънавиятимизни асраб-авайлаш, уларнинг умуминсоний ва умуммиллий қадриятлар билан ҳамоҳанглигига эришиш биз каби нодавлат ноижорат ташкилотларнинг ҳам асосий мақсадларидан биридир.

“Умрбоқий мерос” Ўзбекистон маданияти ва санъати тарғибот маркази ва унинг худудий бўлимлари томонидан миллий қадрият ва анъаналаримизни кенг тарғиб қилиш, миллий маданиятни, санъат, адабиёт, халқ амалий ва тасвирий санъати соҳаларини янада ривожлантириш, моддий ва номоддий маданий мерос дурдоналарини муҳофаза қилиш, сақлаш ва тарғиб этиш борасида қатор ибратли ишлар амалга оширилмоқда. Жойларда ёшларни маънан етук ва юксак маърифатли этиб тарбиялашда, уларда юртга садоқат, маданий меросга ҳурмат туйғуларини мустаҳкамлашга, миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашга, ёшларимизни оммавий маданиятнинг салбий иллатлари таъсиридан ҳимоя қилишга қаратилган турли маънавий-маърифий тадбирлар ўтказиб келиняпти.

Ўзбекистон моддий ва номоддий маданий меросга бой ўлка.

*ЮНЕСКО* (Бирлашган Миллатлар ташкилотининг маориф, фан ва маданият масалалари билан шуғулланувчи *ташкilotи*) *томонидан* 2003 йил қабул қилинган “Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Халқаро Конвенция 2007 йилнинг декабрь ойида бўлиб ўтган Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик Палатасининг кўшма мажлиси Қарорига кўра ратификация қилинди. Шундай қилиб, 2008 йил 29 апрелдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси ушбу Конвенциянинг иштирокчи-давлатига айланди.

Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Конвенция қабул қилиниши муносабати билан муқаддам мавжуд бўлган “Инсониятнинг оғзаки ва номоддий мероси дурдоналари рўйхати”га Ўзбекистондан киритилган номоддий маданий мерос объектлари (“Бойсун тумани маданий муҳити” ва “Шашмақом”) 2008 йилда “Инсоният номоддий маданий меросининг Репрезентатив рўйхати”га ўтказилди. Ушбу рўйхатга 2009 йилда “Қатта ашула”, 2014 йили “Аския - сўзамоллик санъати”, 2016 йилда “Палов маданияти ва анъаналари”, “Наврўз” (бошқа 11 та давлат билан биргаликда), 2019 йилда “Хоразм рақси – Лазги”, 2020 йилда “Миниатюра санъати” (Туркия, Озарбайжон ва Эрон билан биргаликда), 2021 йилда “Бахши санъати” киритилди. Шундай қилиб, ҳозирги кунгача Репрезентатив рўйхатга Ўзбекистон билан боғлиқ 6 та миллий ва 3 та халқаро (бошқа давлатлар билан биргаликдаги) номоддий маданий мерос киритилган.

Ўзбекистон номоддий маданий мероси намуналарини нафақат ЮНЕСКО рўйхатларига, балки унинг Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича Илғор тажрибалар реестрига киритиш бўйича ҳам ишлар изчил амалга оширилмоқда. Шу мақсадда 2016 йилда “Марғилон хунармандчилик марказининг атлас ва адрас матоларини тайёрлашда анъанавий услублардан фойдаланиш тажрибаси” мазкур Реестрга Марказий Осиё давлатлари ичида биринчи номзод сифатида қабул қилинди.

Ҳукуматлараро Кўмитанинг 2022 йилда ўтказиладиган навбатдаги йиғилишида кўриб чиқиш учун Ўзбекистон иштирокидаги яна 5 та халқаро номзоднома Инсоният номоддий маданий меросининг Репрезентатив рўйхатига киритиш учун тавсия этилди. Ушбу Номзодномалардан бири, яъни “*Марказий Осиё анъанавий каштачилиги*” (Тожикистон ва Қозоғистон билан ҳамкорликда) бизнинг ташкилот - “*Умрбоқий мерос*” *Ўзбекистон маданияти ва санъати тарғибот маркази* ташаббуси ва саъйи ҳаракати билан амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги нодавлат нотижорат ташкилотларни (НТТ) ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларни қўллаб-қувватлаш жамоат Фонди томонидан эълон қилинган кўплаб грантлар ННТлар томонидан юқори савияда амалга оширилиб келинмоқда.

Жумладан, “Умрбоқий мерос” Ўзбекистон маданияти ва санъати тарғибот маркази ҳам ўз Уставига мувофиқ мақсадли грант лойиҳаларни амалга оширмоқда.

“Ипак йўлининг анъанавий хунармандчилиги” номли китоб-атласни тайёрлаш ва нашр этиш учун Олий Мажлис ҳузуридаги жамоат Фонди томонидан эълон қилинган грант танловида ғолиб чиқиб, навбатдаги лойиҳасини амалга оширди.

Ушбу китоб-атласда Буюк Ипак йўлида жойлашган 22 давлат қамраб олинган бўлиб, унда 32 хунармандчилик турлари тўғрисида маълумотлар ва уларнинг фото суратлари ўрин олган. Шу ўринда айтиш жоизки, хунармандчилик турларини танлашда бугунги кунга қадар ЮНЕСКОнинг Инсоният номоддий маданий мероси Репрезентатив рўйхатидан ўрин олган ва ЮНЕСКОнинг Илғор тажрибалар рўйхатига киритилган хунармандчилик марказларига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб китоб-атлас ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр қилинди.

“Умрбоқий мерос” тарғибот маркази Бухоро вилоят бўлими томонидан 2022 йилнинг март ойида давлат гранти лойиҳаси доирасида “*Бухоро вилоятида фаолият юритаётган миллий маданий марказлар*” номли китоб-атлас ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилди.

Ташкилот Уставида миллатлараро тотувлик, бағрикенглик, турли миллат ва элат вакиллари билан ҳамжиҳатлик, уларнинг урф-одатларини ҳам кенг тарғиб қилиш каби вазифалар ўрин олган. Миллатлараро тотувлик ва ҳамжиҳатлик умумбашарий қадрият. У муайян жамиятда яшаб, ягона мақсад йўлида меҳнат қилаётган турли миллат ва элат вакиллари аҳиллигининг маънавий асосини мустаҳкамлайди, шу ҳудуддаги тинчлик ва барқарорликнинг, тараққиётининг кафолати бўлиб хизмат қилади. Ушбу лойиҳа Бухоро вилоятида фаолият олиб бораётган 11 та миллий маданий марказларнинг ўзига хос бўлган миллий ва анъанавий маданиятини кўрсатиб бериш, миллатлараро тотувлик, бағрикенглик ришталарини улуғлашда, эъзозлашда ўзига хос бўлган дўстлик кўприги бўлиб хизмат қилади.

Айни кунларда марказ томонидан Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги буюртмасига асосан Олий Мажлис ҳузуридаги Нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш Жамоат Фонди томонидан эълон қилинган танловда ғолиб чиқиб, “*Ўзбекистон номоддий маданий мерос элементларини муҳофаза қилиш*” мавзусидаги давлат ижтимоий буюртма лойиҳасини амалга оширяпти.

Лойиҳадан асосий мақсад-Ўзбекистон номоддий маданий мерос элементларини ҳозирги ҳолатини ўрганиш, инвентаризация қилиш, маълумотлар базасини яратиш, ҳужжатлаштириш ҳамда миллий ва халқаро даражада хабардорлигини оширишдан иборат. Лойиҳа доирасида талайгина ишлар бажарилди, жумладан, мутахассислардан иборат экспертлар гуруҳи республикамиз бўйлаб номоддий маданий меросни ўрганиш, уларни сақловчилар ва етказувчилар билан учрашиб, фаолиятларини ўрганиб 300 дан ортиқ видео, аудио, фото ва матнли маълумотлар тайёрлаб қайтдилар. Айни кунларда ҳужжатлаштириш ва монтаж ишлари давом этяпти. Тўпланган материаллар асосида “*Ўзбекистон номоддий маданий мероси*” номли китоб-атласни уч тилда: ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этиш режалаштирилган.

Ўзбекистонда номоддий маданий мероснинг муҳофазаси, хусусан, унинг халқаро миқёсда тарғиботи йўналишида ҳам жуда кўп ишлар амалга оширилмоқда. Ҳозирги кунга келиб Ўзбекистонда номоддий маданий мерос билан боғлиқ 10 дан ортиқ халқаро танлов ва фестиваллар ўтказилмоқда. “*Бойсун баҳори*”, “*Асрлар садоси*”, “*Шарқ тароналари*”, “*Миллий халқ ўйинлари*”, Наманганда “*Гул байрами*”, Бухоро шаҳрида “*Ипак ва зираворлар*” каби фестиваллар муқаддам ўтказиб келинган бўлса, кейинги йилларда

Марғилон шаҳрида “Атлас байрами”, “Буюк Ипак Йўли” номли фольклор мусиқа фестиваллари, Қўқон шаҳрида “Халқаро ҳунармандчилик фестивали”, Шаҳрисабзда “Халқаро мақом анжумани”, Термиз ва Нукус шаҳарларида “Халқаро бахши санъати фестивали”, Тошкент шаҳрида “Халқаро пазандачилик фестивали”, Нурота туманида “Нурли наволар” номли фольклор жамоалари фестивали, Қорақалпоғистонда “Балиқдан 100 хил таом” кулинария фестивали ўтказилиши йўлга қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 апрелдаги “Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги ПҚ-5098-сон Қарорига асосан 2022 йилнинг май ойидан бошлаб ҳар икки йилда Бухоро шаҳрида ушбу фестиваль ўтказилиши белгиланди.

Таълим тизимида эса дostonчилик санъати, мақом ижрочилиги, фольклор жамоалари учун мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилиб, болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳамда ўрта махсус мусиқий таълим муассасаларида янги йўналишлар, олий таълимда эса Юнус Ражабий номидаги миллий мусиқа санъати институти ташкил этилди. Нукус ва Термиз шаҳарларида бахши санъати бўйича махсус мактаб интернатлар очилди. Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва вилоятларда мақом ва бахшичилик ансамбллари фаолияти йўлга қўйилди. 2022/2023 ўқув йилидан бошлаб Республикадаги барча умумтаълим мактаблари ўқувчилари камида битта миллий мусиқа чолғусини ўзлаштириши учун шароит ва имконият яратиладиган бўлди.

Бугунги кунда давлатимиз ва ҳукуматимиз томонидан мамлакатимизни ривожлантириш ва Янги Ўзбекистонни барпо этиш стратегиясини амалга оширишда фуқаролик жамияти институтлари, нодавлат нотижорат ташкилотлар ҳар томонлама қўллаб-қувватланиб келинмоқда.

Бу жиҳатдан, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жаамиятлари институтлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш-самарали бошқарувни амалга оширишдаги устувор йўналишлардан бири бўлган Ўзбекистонда биз-нодавлат нотижорат ташкилотлар мамлакатнинг иқтисодий- ижтимоий, маънавий-маърифий ривожига ҳисса қўшиб, миллий қадрият ва анъаналаримизни, буюк маданиятимиз ва маънавиятимиз, номоддий маданий меросимиз, ўлмас санъатимизни сақлаб қолиш ва ривожлантиришда, уни бутун дунёга кўз-кўз ва тарғиб қилишда, уларни келажак авлодга қолдиришда ўзимизнинг билим ва меҳнатимизни аямаймиз, қолаверса бу ҳар биримизнинг ватан олдидаги, халқ олдидаги муқаддас бурчимиздир!

## **НАВОИЙ ҚАЛАМИДА БУХОРО ВА БУХОРОЛИКЛАР ТАЛҚИНИ**

**Зиёда ҒАФФОРОВА,**

филология фанлари бўйича фалсафа доктори,  
“Умрбоқий мерос” Ўзбекистон маданияти ва  
санъати тарғибот маркази директори ўринбосари.

Навоий ижоди – кенг уммон. Ўрганганинг сайин янги ғоя, янги талқинлар топилаверади. Асарларининг боқийлиги ҳам – шунда. Бой маънавий мероси бугун комил инсон тарбиясида муҳим аҳамият касб этиши билан биргаликда, тарихий шахслар, авлиёлар, азиз зотлар, географик жой номларидан ҳам китобхонга сўзлайди.

XV асрда яшаб ижод этган бу улуғ шоир хазинасидан улғайиб, камол топган юртинг жамоли ва ундан етишиб чиққан буюк шахслари таърифини ўқиш, ўрганиш ҳар бир кишига фахр туйғусини бериши – тайин.

Шунинг учун бугун олимларимиз Навоий ижод оламининг поёнсиз уммонида ғаввос каби сузишади ва бу асрлар оша давом этиб бораверади.

Алишер Навоийнинг “Наводир уш-шабоб” девонида Бухоро ҳақида мана бу байт келтирилган:

*Азму Бағдоду Бухоро айлаган аҳбоб учун  
Берса тонг йўқ элга ашким Дажлаю Жайхунни ёд.*

Шоир, *Бухоро ва Бағдодга боришни ният айлаган дўстларим учун менинг кўз ёшларим Дажла (Бағдод шахридан оқиб ўтадиган дарё) ва Жайхун (Амударёнинг эски номи)ни эсга солади*, демоқчи. XV асрда яшаб ўтган мутафаккир шоир Бухорони шунчалик қадрлаган. Бу эса шу замин фарзандига юрт ифтихорини беради.

Манбаларда Навоийнинг Бухорога келгани ҳақида ҳеч қандай маълумот учрамайди. Буюк мутафаккир келиб кўрмай туриб, бу ўлкага ва унинг азиз зотларига шу қадар юксак меҳр-муҳаббат кўрсатган экан, бу Бухорои шарифнинг XV асрда ҳам чексиз обрўй-эътиборга эга эканидан далолат беради.

Олимларнинг ўрганишича Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат...” тазкирасида “*Бухоро*” сўзи 19 марта тилга олинган. Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул-футувват”, яъни “Улуғлик хушбўйликларини таратувчи муҳаббат шабодалари” тазкираси шайхлар ҳаёти ва фаолиятини ёритишга бағишланган.

Асарда баъзи шайхларнинг асл Ватани алоҳида қайд этилмаган бўлса ҳам, аниқки, ўзлари – бухоролик. Баъзи шайхларнинг ўзи бухоролик бўлмаса ҳам, бу ерда яшаб қолган ёки қабри ҳам – шу ерда. Айримлари бир муддатга келиб, таълим олган ва ҳоказо.

“Насойим ул-муҳаббат...”да Бухородаги нақшбандия олтин силсиласининг етти пиридан биринчиси Хожа Абдулоҳлиқ Ғиждувоний, иккинчиси Хожа Ориф Ревгарий, учинчиси Хожа Маҳмуд Анжирфағнавий, тўртинчиси Хожа Али Ромитаний, бешинчиси Хожа Муҳаммад Бобо Самосий, олтинчиси Саййид Амир Кулол, еттинчиси Хожа Баҳоуддин Нақшбандларни таъриф ва тавсиф этган. Ундаги фикрларни ўқиб, шу юртга, унинг буюк зотларига эҳтиром туйғусини ҳис этасан, киши.

“Насойим ул-муҳаббат...” тазкирасида етти пир ҳақидаги қайдларга озгина тўхталиб ўтамиз:

**Хожа Абдулоҳлиқ Ғиждувоний:**

Уларнинг равиши тариқатда ҳужжатдур. Барча форукнинг мақбулидурлар. Ҳамиша сидқу сафо йўлида ва Мустафо с. а. в. шаръу суннати мутобаатида ва бидъату ҳаво муҳолафатида қадам урубдурлар ва пок равишларин ағъёр кўзидин яшурубдурлар. Аларга кўнгул зикри сабақи йигитликда Хожа Хизр а. с. дин бўлубдур ва ул сабаққа мувозабат кўргузубдурлар.

**Хожа Ориф Ревгарвий:**

Хожа Абдулоҳлиққа уч халифа эрмиш: Хожа Аҳмад Сиддиқ ва Хожа Ориф Ревгарий ва Хожа Авлиёи Калон. Ва нисбат силсиласи Ҳазрат Хожа Баҳоуддин Нақшбанд қ. с. га бу жамоатдин Хожа Орифқа етишур.

**Хожа Маҳмуд Анжир Фағнавий:**

Ул Хожа Ориф хулафосидиндур.

**Хожа Али Ромитаний :**

Алар Хожа Маҳмуд хулафосидиндурлар ва бу силсилада аларнинг лақаби Ҳазрат Азизондур. Ва аларга олий мақомот ва зоҳир каромот кўп эрқандур. Ва тўқимоқ санъатиға машғул бўлур.

**Хожа Муҳаммад Бобойн Самосий:**

Ҳазрат Хожа Азизоннинг халифасидур ва Ҳазрат Хожа Баҳоуддин ҳазратлариға алардин қабул фарзандлиғқа воқеъ бўлубдур ва алардурларки, Қасри Ҳиндувондин ўтарда дер эрмишларки, бу туфроғдин бир эр иси келадур. Бўлғайки, Қасри Ҳиндувон Қасри Орифон бўлғай. То бир кунки Саййид Амир Кулол манзилидинки, аларнинг хулафосидиндур, Қасри Орифон сари мутаважжих эрдилар. Дедиларки, ул эр исики, бизинг димоғимизға етар эрди, ортуқроқ бўлубдур. Ҳамоноки ул эр мутаваллид бўлубдур. Чун нузул килибдурлар. Ҳазрат Хожа Баҳоуддин валодатидин уч кун экандур, аларнинг жадди бир муомала аларнинг кўксиға кўйиб, аларни ихлос ва ниёз била Хожа Муҳаммад Бобо назариға келтурубдур. Хожа Муҳаммад Бобо дедиларки, ул бизинг фарзандимиздур

ва биз они қабул қилдуқ ва асҳоб сори боқиб, дебдурларки, бу ул эрдурки, бизга онинг иси етиб эрди. Рўзгорнинг муқтадоси бўлғай ва Амир Саййид Кулолға буюрдиларки, фарзандим Баҳоуддин ҳақида тарбият ва шафқатни дариг тутмағойсен.

#### **Саййид Амир Кулол р. т.**

Мазкур бўлгон Хожа Муҳаммад Бобонинг халифасидур. Ҳазрат Хожа Баҳоуддинға суҳбат нисбати тариқат сулуки, одоби таълими ва зикр талқини алардиндур. Бир кун азим мажмаъда Амир Саййид Кулол Хожа ҳазратин тилаб дедики, эй фарзанд Баҳоуддин, Хожа Муҳаммад Бобо нафаси васиятин сизнинг борингизда тамом бажой келтирдим деб. Дедиларки, ҳар не тарбия бобида бормен, сенинг ҳақингда кўргузубмен. Сен фарзанд Баҳоуддин бобида кўргизгил!

#### **Хожа Баҳоуддин Нақшбанд**

Аларнинг оти Муҳаммад бинни Муҳаммад Бухорийдур. Аларға қабул назари фарзандликқа Хожа Муҳаммад Бобойи Самосийдиндур ва одоби тариқат таълими зоҳир юзидин Амир Саййид Кулолдиндур, андоқки, ўтти. Аммо ҳақиқат юзидин алар Увайсийдурлар ва тарбият Ҳазрат Хожа Абдулҳолиқ Гиждувоний руҳидин топибдурлар.

Шоир Бухоронинг етти пирини яхши билган. У асарларида Нақшбандия тариқати гояларини кенг тарғиб этган.

“Лисон ут-тайр” асарида ҳам бухоролик шайхларни қаламган олган. Хожа Муҳаммад Порсо ва у кишининг ўғиллари Хожа Абу Насрни ва Баҳоуддин Нақшбандни таърифлаган.

“Мажолис ун-нафоис” тазкирасида ўтмиш шоирлар хотирасини абадийлаштириш, ҳаёт бўлган қалам аҳлларини рағбатлантиришни мақсад қилган. Бу асарни замондошларига бағишлайди.

Навоий тазкирасида шоир ва адабиёт аҳли қаторида бухоролик қалам соҳибларига ҳам тўхталган. Аввалги мажлисда шоир Хожа Исмадуллони ва у кишининг шогирди Мавлоно Хаёлийни, иккинчи мажлисда нақшбандия тариқатининг машҳур олими Муҳаммад Порсонинг ўғли Хожа Абу Наср Порсони, Мавлоно Кавсарийни, шоир, арбоб Навоий Самарқандда таҳсил олаётганида, яъни 1465 – 1469 йиллари унга мураббийлик ва моддий жихатдан мадад бериб турган, Бухорода вафот этган Аҳмад Ҳожибек ҳақида маълумот берган. Учинчи мажлисда адабиётшунос, шоир ҳаёли, одобли, хушёр, одамшаванда Мавлоно Сайфий ижоди ҳақида фикр юритган.

Навоий Хожа Исмадулло ҳақида шундай фикрлар келтирган: *“Мовароуннаҳр бузургзодаларидан, гоят хуштаъб, шеърға ошно бўлганлиги учун ҳам девони машҳур бўлди. Халил Султонга бағишланган қасидаси – бор. Хожанинг қабри Бухорода ўз хужрасидадир”*.

Хожа Исмадуллодан кейин у кишининг шогирди Мавлоно Хаёлий ҳақида мана бу фикрларни ёзган: *“Бухоролик ва Хожя Исмадуллонинг шогирдидир. Ўзи хушхулқ ва хуштавр (хушфеъл) йигит қабри Бухорода”*.

Навоийнинг “Мезон ул-авзон” асари туркий халқларнинг аруз илмидан баҳраманд этиш ниятида ёзилган. Унда шоир Бухорода яшаб ижод қилган Хожа Исмад Бухорийни ўзбек тилида арузда шеърлар битганлигини ёзган.

Шу асарни нашр тайёрлаган навоийшунос Суйима Ғаниеванинг изоҳ беришича, Хожа Исмад Бухорий Халил Султон саройида хизмат қилган. Халил Султон зиндонбанд этилгандан сўнг шоир саргардонликка учрайди. Шундан кейин узлатда – дарвешлар орасида яшашни афзал кўрган эканлар. Хожа Исмад Бухорийнинг саккиз минг байтдан иборат шеърлар девони, “Иброҳим Адҳам” номли маснавийси – бор. Шоир Улуғбекка, Халил Султонга, Темурий шахзодаларга бағишлаб қасидалар ёзган. У киши *“Исмад”*, *“Исмадуллоҳ”*, *“Насирий”* тахаллусларида ёзганлар. Навоийнинг Хожа Исмад ҳақидаги бундай маълумотлари тарихий бир манба вазифасини бажариши билан биргаликда, Бухоро адабий муҳитидан хабардор этади. Навоийдек буюк шоир Бухорони мана шундай улуғлари орқали кадрлаганлигининг гувоҳи бўламиз.

Шоирнинг асарларидан баъзи буюк шахсларнинг бухорода бўлганлиги ҳақидаги маълумотларни ҳам билиб оламиз. Масалан, Навоийнинг **“Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер” асаридан** тасаввуф мутафаккири, шоир Азиз Насафий илк таҳсилни она юртида олгач, Бухорога боргани ва у ерда илм ўрганганлигини билиб оламиз.

Буларни келтиришимдан мақсад Навоий даври ва ундан олдин ҳам Бухоро номини унинг буюк зотлари, юксак илм-маърифатлари, шеърляти ва маънавий фазилатлари билан кенг дунё аҳлига маълуми машҳур қилишган.

Бугун кўпчилик Хожа Исмадуллоҳ ва етти пирни зиёрат қилишади. Лекин кўпчилик – Навоийнинг улар ҳақида келтирган фикрларидан беҳабар. Навоий қаламида васф этилган бу зотлар ҳақидаги маълумотларни билиш учун ҳам бироз уларга тўхталдик.

Шоир Бухоро ва унинг авлиёлари, буюк зотларини қаламга олган, улар томонидан яратилган асарлар тўғрисидаги тарихий маълумотларни қодирганки, бугун учун катта манба саналади.

Биз Навоий асарларидаги Бухоро таърифи ва бухороликлар ҳақидаги айрим маълумотларнигина келтирдик. Ҳолбуки, бу – алоҳида рисолага мавзу бўладиган масала.

# I ШЎЪБА. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ. МЕДИАЛИНГВИСТИКА ВА ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАР

## СОСА МАНБАЛАРИДА МОРФОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАДҚИҚИ

БухДУ, Хорижий тиллар  
факультети декани, ф.ф.ф.д. (PhD) Н.Б.Атабоев

Электрон лисоний корпуслар тўлиқ мураккабликда морфологик сўз ясаш ёки шакл ўзгартириш жараёнини англашнинг жуда катта мақсадга эришиш учун ривожланишига ҳисса қўшадиган кўплаб усулларни таклиф этиб келмоқда. Корпуслар тадқиқотчиларга сўз ясаш регистрлари, оғзаки тил, ижтимоий ва географик макон ва ҳатто вақт бўйича қандай ўзгаришини ўрганишга имкон беради. Т. МкЭнерй ва Э. Вилсон морфологик тадқиқотларда корпус маълумотларидан фойдаланишнинг ижобий ютуқларини тасдиқлайди, корпуслар «турли морфологик вариантларнинг частоталари ва турли морфемаларнинг маҳсулдорлигини ўрганишда муҳим рол ўйнайди», деб таъкидлайдилар. Бир сўз билан айтганда, корпусдан олинган натижалар орқали сўз ясовчи ва шакл ўзгартирувчи қўшимчаларни таҳлил қилиш имкони мавжуд.

Бугунги кунда морфология соҳасининг мутахассислари қизиқиш билдираётган муаммолардан бири – морфемаларнинг ўзакка қўшилиш тартибидир. Бирдан ортиқ қўшимчалар бир сўз таркибида келганда, уларнинг қайси бири олдин, қайсиси кейин жойлашиши нафақат тилшунослар, балки тил ўрганувчилар учун ҳам қизиқ. Масалан, инглиз тилида сифат ясовчи *-ous* ва мавҳум от ясовчи *-ness* қўшимчалари мавжуд. Улар бир сўз таркибида келиши мумкинми, агар бирга кела олса, қандай тартибда жойлашади, деган саволларга жавобни СОСАда ўтказилган қидирув натижалари асосида бериш мумкин. Қидирув натижалари шуни кўрсатдики, *\*ness+ous* тартибдаги морфемалар бирикиши корпусда мавжуд эмас, бу орқали тилда ҳам йўқ, деган хулосани бериш мумкин. *\*ous+ness* тартибига мос келувчи натижалар 112 ҳолатда кузатилди, бу 10 дан ортиқ сўз-турларнинг умумий қўлланилган сонидир. Масалан, *consciousness, seriousness, nervousness, righteousness, graciousness, dangerousness* ва бошқалар.

Кейинги ўринда маълум бир морфемани ўрганаётган тадқиқотчи унинг қўлланилиши бўйича кенгроқ маълумотга эга бўлишга ҳаракат қилади. СОСAnинг энг оддий қидирув натижаларининг ўзи ҳам бунга етарли бўла олади. Масалан, тадқиқот объекти инглиз тилидаги *\*ism* қўшимчаси бўлса, унинг қўлланилиши учун мисоллар сони 512 тани ташкил этди ва бу 20дан ортиқ сўз-турнинг такрорий қўлланилиши натижасида ҳосил бўлган сондир. Мисол учун, *communism, criticism, nationalism, mechanism, realism, anti-Semitism* ва бошқалар. Юқоридаги микдордаги мисоллар тадқиқотнинг самарали яқунини таъминлайди.

Инглиз тилини ўрганувчилар учун яна бир муаммо – феъл шакллариининг тўғри ва нотўғри формада замонга мослашувидир. Ушбу мураккабликни янада оширадиган жойи шундаки, баъзи феъллар ўтган сифатдош шаклига ҳар иккала услубда ўта олади. Масалан, инглиз тилида исботламоқ, далил келтирмоқ маъноларида келувчи *prove* феълининг ўтган сифатдош (*past participle/perfect form*) шакли *proved* ёки *proven* ҳолатида ифодаланиши мумкин. Бу икки шакл ва уларнинг қўлланилиши бўйича СОСАда қидирув берилганда айнан тугалланган замон формасида келган мисоллар билан қизиқилганда, *have proven* бирикмаси 2616тани ташкил қилган бўлса, 3001талиқ частотани *have proved* грамматик замон формаси кўрсатди. Худди шу тартибдаги қидирув BNC корпусида ҳам ўтказилди. Натижалар *have proven* учун 82 та ва *have proved* учун 1169 тани ташкил этди. Бу фарқ ўзидан америкача инглиз тили ва британияча инглиз тили ўртасидаги сўз, асосан феъл шакллариини ясашда морфологик фарқлиликнинг мавжуд эканини яққол кўрсатди.



Морфология билан боғлиқ яна бир муаммо сифатларнинг даражаланишида кўринади. Бунда асосан мураккаблик инглиз тилидаги икки бўғинли сифатларнинг қиёсий ва орттирма даражаларини ясашда кўзга ташланади. Масалан, *самимий* деган маънони берувчи *sincere* сифати икки бўғинли бўлиб, у ҳам шакл ясовчи қўшимча, ҳам сўз қўллаш орқали орттирма даражага ўтказилади, яъни *sincerest* ва *most sincere* каби. *СОСА*да ушбу шакллар қидирувга берилганда, *sincerest* 85 ўринда, *most sincere* 65 ўринда қўлланганига гувоҳ бўлинди. Айнан шу сўз формалари 15 миллиардан ошиқроқ сўзларни ўз ичига олган *English Web 2015 (enTenTen15)* корпусида ҳам қидирилганда *sincerest* ва *most sincere* шакллари мос равишда 5769 ва 3355 частоталарни кўрсатишди. Ҳар иккала ҳолатда ҳам, инглиз тилида *sincerest*, яъни морфема қўшилиши орқали ҳосил қилинадиган шаклнинг устунлиги аниқланди.

Замонавий КЛнинг энг катта ютуқларидан бири сифатида қаралаётган ўз ичига 560 миллиондан ортиқ сўзли матнларни жамлаган *СОСА* лисоний корпусининг тадқиқот объекти сифатида танланиши аҳамиятлидир. Корпуснинг таркибий тузилиши кўриб чиқилди ва унинг оғзаки (*spoken*), бадий (*fiction*), машҳур журналлар (*popular magazines*), газета (*newspapers*) ва илмий журналлар (*academic journals*) каби бешта жанрга бўлинган матнлардан шакллантириб борилиши аниқланди. Йиллик ҳисобда ўртача 20 миллион сўз миқдорли матнлар қўшиб борилади ва ҳозир унинг умумий ҳажми 570 353 748 та сўздир.

*СОСА*нинг функционал хусусиятларини очиб бериш мақсадида семантик, синтактик, фразеологик ва морфологик тадқиқотлардаги аҳамияти ўрганилди. Унга кўра, сўзларнинг семантикмаъно муносабатларига киришишини аниқлаш жихатидан *cause* ва *result in* феъллари ўзаро солиштирилди. Синтактик тадқиқотлардаги аҳамияти феълнинг бирикуви *love* феълдан кейин келиши мумкин бўлган феъл формаларини ўрганиш ва бошқа мисолларда очиб берилди. Фразеологик бирликларни ўрганиш ва улар ҳақида хулосаларга келиш мақсадида *СОСА*да *way* билан келадиган иборалар таҳлил қилинди. Морфологик бирликларнинг инглиз тилида қўлланилиши юзасидан олиб борилган амалий тадқиқотлар ҳам *СОСА*нинг ижобий функционал аҳамиятларни очиб беришга қаратилди. Бунда, бирикиб келадиган қўшимчалар, феълнинг формалари, морфема татбиқига мисоллар ва икки бўғинли сифатларнинг орттирма даражасини ясашдаги фарқлиқ ўрганилди.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Baayen R.H. *Corpus Linguistics in Morphology: Morphological Productivity*. 2009. – 52 p. Available at URL: <https://www.ling.upenn.edu/~kroch/courses/lx400/BaayenHSK2009.pdf>
2. McEnery T., Wilson A. *Corpus Linguistics*. – Edinburgh: Edinburgh University Press. 2001. – P 109.

### FONOSTILISTIK TAKROR

**Haydarov Anvar Askarovich**  
**BuxDU , dotsent**

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladatakror stilistik vositasi,uning tiplari,nutqdagi vazifasi ingliz va o'zbek nasriy va nazmiy asarlari misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:**takror, fonetik takror, unli tovushlar takrori, undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori, anafora, epifora, halqasimon takror, topilma takror,tizma takror,o'zakli takror,sinonimik takror.

**Kirish.** Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llanadigan sintaktik-stilistik figuradir. Bir xil yoki bir-biriga o'xshash to'vush til birliklarining badiiy nutqda takrorlanish hodisasidir yoki boshqacha aytganda, ayni so'zni takror qo'llash bilan tuzilib ,ko'plik,davomiylik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z,so'zning takroriy formasidir.

Takror haqida fikr yuritilganda,avvalo fonetik takror masalasiga e'tibor qaratish lozim.Fonetik takror ayrim tovushlarning misralararo takroriga asoslanuvchi stilistik figuralar:anaphora, epifora, alliteratsiya, assonanslarda aksini topadi.Tovush takrori termini dastlab O.Brik tomonidan keltirilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan

ishlatilgan. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi.

**Asosiy qism.** Unli tovushlar takrori, undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori kabilar xalq og'zaki ijodi namunalari, poetik nutqda ko'p uchraydi. Fonetik takror asosan, badiiy nutq uslubiga xosdir. Fonetik unsurlarni ataylab takrorlash orqali asar muallifi badiiy tasvir kuchini oshirishga, his- tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi.

Tovush takrori, ayniqsa, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tasvir ob'ektiga ko'proq jalb qilish uchun ishlatiladi. Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir.

Takrorning sintaktik-stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M. Astafyeva, M.N. Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar.

*X was said to have opposed the proposal*'; 'Mr. X was quoted assaying...'). The headlines of news items, apart from giving information about the subject-matter, also carry a considerable amount of appraisal (the size and arrangement of the headline, the use of emotionally coloured words and elements of emotive syntax), thus indicating the interpretation of the facts in the news item that follows. But, of course, the principal vehicle of interpretation and appraisal is the newspaper article, and the editorial in particular. Editorials (leading articles or leaders) are characterized by a subjective handling of facts, political or otherwise. They have much in common with classical specimens of publicistic writing and are often looked upon as such. However, newspaper evaluative writing unmistakably bears the stamp of newspaper style.

**Conclusion.** Thus, it seems natural to regard newspaper articles, editorials included, as coming within the system of English newspaper style. But it should be noted that while editorials and other articles in opinion columns are predominantly evaluative, newspaper feature articles, as a rule, carry a considerable amount of information, and the ratio of the informative and the evaluative varies substantially from article to article.

#### **Works cited:**

1. Арнольд И.В. Стилистика Современного английского языка. Л., 1973.
2. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. Москва 1958.
3. Гвоздев А.И. Очерки по стилистике английского языка. Москва 1952.
4. Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. Пермь 1968.
5. Лазарева Э.А. Заголовок в газете. Свердловск. Изд. Уральского Университета, 1989.
6. Разинкина Н.М. Функциональная стилистика. Пермь, 1989.
7. Медведев Е.В. Рекламная коммуникация. М., 2004

### **THE LANGUAGE AND STYLE OF MASS MEDIA**

**Rakhimova Zarina Uktamovna,  
Master student, BukhSU**

Today, the media is understood as a disseminator of knowledge. Mass media means not only technical means or channels of information, but also social organizations and people involved in the process of disseminating information. It should be noted that language is not always used in the media only for the exchange of information. Information can also be obtained through nonverbal means, images.

The dissemination of information to a certain extent affects the public consciousness and creates a general picture of the world, creating a picture and value of the world around us.

The following features of the media are important in carrying out this task:

- aimed at the general public;
- designed for everyone;
- speed.

Of course, literary language plays an important role in conveying the necessary information. If we look at a language system as an opportunity to adapt to certain language laws, those who speak that language use it.

There is a belief that language is a great force for creativity in conveying information through language.

In his book *Communication in Journalism: Secrets of Skills*, G.S. Melnik considers the following qualities necessary for a journalist: intellectual and spiritual qualities; business; the nature of having a specific character; physical qualities.

In addition, we believe that a journalist should have the following qualities: theoretical knowledge of the basics of journalism; knowledge; imagination; public speaking skills; language skills, speech culture.



The infinite power of spoken language in the media and the fact that language thinking is a necessary tool in generalization activities, in turn, demonstrates its invaluable role in seeing, understanding, and receiving information as a result of information exchange.

The media, as an active channel of linguistic influence, also plays an important role in the application and dissemination of certain information methods.

The concept of "information style" is directly related to mass communication, which serves to express the specific tone of communication with the reader, listener, audience. Every media outlet - newspaper, magazine, radio and television - has such a feature. As you know, every media outlet communicates with its audience in a unique way. In doing so, he uses the expressive mediastilistic and rhetorical tools necessary for any communication (including textual communication).

So how is the concept of "media language" interpreted today?

It is used in three different senses:

- First, the language of the media is a set of all types of texts created and distributed by the media;

- Secondly, it is an internal system of stable language. It has its own linguistic and methodological features and characteristics;

- Third, a separate system of mixed characters, consisting of a balance of oral and audiovisual parts for each media.

From the point of view of describing the language of the media, such an interpretation of this concept is consistent with the idea that "language is universal, systematic and intelligible". Accordingly, language is primarily defined as the manifestation of any type of character system or similar system. Other sign systems, such as the language of music, the language of fiction, and the language of the media, have also been identified.

Professor Rozhdestvensky identifies important socio-linguistic aspects of the language of the media and recognizes the following features: "The mass media is a global text, which includes linguistic communities with different social speech structures."

M.N. Volodina defines the language of the media as follows: "The language of the media is a special language of social interactions that have their own forms of expression that determine how we perceive our environment, creating new meanings and separate "information devices of reality" (both verbal and visual). constructs. It can be both documentary and realistic, and it can be virtual."

According to Kadyrov, in the language of the media, a "national literary language understandable to the public" will appear, form and develop, combining the language of live speech with the art of artistic expression of our classical literary language."

The dynamic processes involved in the stylistics of media language expand the social functions of language. This can be seen in the case of Uzbek, which is recognized as the state language. Thanks to the media, the state language includes the features of the official, national and literary language, and thanks to the media, "Uzbek language has expanded its scope in our country and serves as a means of interethnic communication. is doing." <sup>8</sup>

Recent media definitions acknowledge that the system is divided into national languages. Of course, the first and second definitions are important in developing the overall concept of media language. Accordingly, the language of the media is a stable internal linguistic system consisting of a number of linguistic-methodological qualities and features, as well as a system of specific features of the mixed type, consisting of a balance of oral and audiovisual components.

The modern meaning of the term "media language" is formed within similar definitions and descriptions. The theoretical basis of teaching the language of mass media is a systematic study of the constant issues of language use in the field of mass communication. These include the proportionality of oral and written forms of public communication, the impact of information on language norms, what is the content of media language in terms of functional stylistics, criteria for classifying media texts, media (newspapers, magazines, radio, television), Internet, advertising and broadcasting features of language, etc.

A careful study of each media language has led to an expansion of the concept of “media language”, which has led to a distinction between verbal, media or audiovisual scales.

The study of media language as a system of mixed types of characters has made it possible to identify the linguistic features of each media outlet. The specific features of press language are determined by the interaction of its verbal and graphic components. The font and size, the images, the use of colors, the quality of the paper, the layout of the material on the sheet all come together to form a single syncretic language of the press.

The study of the language of the media requires the study of its functional and stylistic status, as well as its linguistic and stylistic features. The main criteria for determining the stylistic status of the language of the media are reflected in the traditional definition of the functional style and its features.

#### **Works cited:**

1. Арнольд И.В. Стилистика Современного английского языка. Л., 1973.
2. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. Москва 1958.
3. Гвоздев А.И. Очерки по стилистике английского языка. Москва 1952.
4. Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. Пермь 1968.

### **РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ**

**Ахмедов Б.Я.**

РЦШКРНО Бухарской области,  
доцент кафедры «Методика преподавания языков»,  
b.axmedov51@mail.ru

Чтение является одним из видов речевой деятельности, связанных с восприятием и осмыслением письменной речи. Однако чтение способствует развитию всех видов речевой деятельности. На чтение мы опираемся при развитии и совершенствовании навыков аудирования и говорения, при обучении учащихся письменной речи.

Чтение способствует совершенствованию навыков понимания устной и письменной речи. С этой целью проводятся такие виды упражнений, как деление текста, читаемого про себя или вслух, на смысловые отрезки, нахождение в тексте заданного смыслового отрезка, составление плана, постановка вопросов по содержанию и некоторые другие.

Чтение - это рецептивный вид речевой деятельности, в которой во взаимодействии выступают следующие компоненты:

- 1) восприятие графической формы слова,
- 2) произнесение слова,
- 3) понимание прочитанного.

Целью чтения является извлечение информации из печатного текста в соответствии с коммуникативной установкой. Для чтения характерен механизм антиципации (вероятностного прогнозирования, предвосхищения) - умение правильно угадать слово, фразу по отдельным их элементам.

В «Учебной программе по русскому языку школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения» [1] перечисляются умения и навыки, которыми должны овладеть учащиеся национальных школ.

В зависимости от специфики текста и коммуникативной установки различаются следующие виды чтения:

- 1) просмотровое (установление общего представления о содержании текста);
- 2) поисковое (просмотр текста для обнаружения информации, известной из других источников),
- 3) ознакомительное (получение общего представления по интересующему вопросу),
- 4) изучающее (полное и точное понимание содержания текста и критическое

осмысление его).

На уроках русского языка в узбекской школе проводится работа по формированию навыков чтения вслух и про себя. Эти виды чтения выполняют различные коммуникативные функции: чтение про себя дает возможность получить информацию из текста, а чтение вслух - получать и передавать ее слушателям.

На начальном этапе чтение вслух является основным, оно позволяет учащимся овладеть звуковой системой русского языка, а учителю дает возможность контролировать правильность чтения, исправлять ошибки, добиваться отчетливого произношения трудных звуков, слов и т. д.

В традиционной методике к качеству чтения предъявляются следующие требования: 1) правильность, сознательность, 3) беглость 4) выразительность.

Правильное чтение связано с соблюдением основных норм русского литературного языка. Для выработки навыков правильного чтения необходимо систематически упражнять учащихся в произношении трудных звуков, слов и грамматических форм.

Сознательность чтения означает полное понимание учащимися смысла текста, которое достигается при наличии у них достаточного запаса активно усвоенной лексики.

Беглость чтения зависит от быстроты узнавания графического образа слова. Это такое чтение, которое не расходится с пониманием. Беглость чтения связана со скоростью чтения, которая зависит от характера текста и установки на степень полноты понимания.

Выразительность - это высшая ступень качества чтения, она способствует более глубокому осмыслению содержания текста и возможна только на основе правильного и беглого чтения. Выразительное чтение означает понимание авторского замысла, умение передать оттенки выражаемых в тексте мыслей и чувств.

Для выразительности чтения можно использовать следующие средства:

- 1) ускорение и замедление (*быстро — медленно*);
- 2) усиление и ослабление голоса (*громче - тише*);
- 3) повышение и понижение тона (*выше - ниже*);
- 4) применение пластических средств (*мимики, жеста* и др.).

Задача школы - выработать у учащихся технику чтения, научить их понимать то, что читают, прививать им любовь и интерес к чтению. При этом очень важно, чтобы сам учитель всегда читал выразительно. Необходимо добиваться того, чтобы учащиеся как можно больше читали, заучивали наизусть стихотворные и прозаические тексты, соблюдая следующие элементарные требования: читай, как говоришь; читай просто и естественно; читай своим собственным голосом; отчетливо выговаривай слова; научись читать по ролям; и т. д.

Для выработки навыков и умений говорения используется заучивание наизусть и выразительное чтение стихотворений и небольших отрезков текста прозаического характера, а также постановка вопросов и ответы на вопросы по прочитанному тексту, подробный и краткий пересказ прочитанного, составление диалогов по тексту. Для развития монологической речи большое значение имеет информативная сторона читаемых текстов. Поэтому для работы по развитию монологической речи целесообразно привлекать стилистически нейтральные тексты описательно-повествовательного характера с четкой сюжетной линией, тексты, дающие возможность продолжения сюжета, дополнения его какими-либо подробностями, развития его в другом направлении и т.д. Для работы по развитию диалогической речи больше подходят эмоционально окрашенные тексты с быстро развивающимся сюжетом.

Развитие умений и навыков письменной речи также начинается с формирования умения отвечать письменно на вопросы по прочитанному или прослушанному тексту. Непосредственно с чтением связаны такие виды работ, как изложение, отзыв о прочитанной книге, аннотация и др.

Чтение способствует осуществлению связей обучения русскому языку с курсом литературного чтения и русской литературы, что тоже способствует более успешному овладению русской речью.

О понимании прослушанного можно судить, например, по рассказу учащегося, по его ответам на вопросы, по тому, может ли он выбрать среди ряда данных правильные ответы на поставленные вопросы, передать факты, имеющие непосредственное отношение к выражению основной идеи текста и т.д.

По мере продвижения из класса в класс необходимо усложнять сами тексты и условия слушания. В IV классе учащимся предлагаются тексты целиком на изученном материале, в последующих классах в тексты включаются незнакомые слова, чтобы учащиеся понимали их в предлагаемом контексте. Усложнение условий будет заключаться также в подведении учащихся к слушанию речи без зрительной опоры, к восприятию речи разных людей.

Навыки чтения оцениваются с точки зрения правильности, беглости, выразительности и понимания прочитанного. С этой целью учитель наблюдает за чтением учащихся, а также выясняет, как учащиеся владеют навыками работы с текстом. Навыки работы с текстом учитываются с помощью ответов учащихся на вопросы и постановки вопросов к тексту, выделения основной мысли и озаглавливания отдельных частей текста, последовательного пересказа содержания.

Навыки чтения про себя учитель проверяет путем беседы по содержанию и пересказа учащимися прочитанного текста.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Государственный стандарт и учебная программа русский язык для школ общего-среднего образования с узбекскими и другими языками обучения. Ташкент, -2017г.
2. Архипова Е.А. Основы методики развития речи учащихся. – М., 2004.
3. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. «Современные технологии преподавания русского языка и литературы» Т: 2016
4. Ахмедова Л.Т., Кон О.В. «Методика преподавания русского языка». Ташкент – 2013

#### **ПОЭТИК УСЛУБНИНГ ФОНЕТИК ТАЛАФФУЗНИ ТУЗАТИШДАГИ ЎРНИ : ПОЭТИК ЎЙИНДАН ФОНЕТИК ЎЙИНГА**

**Абдуллаева Нилуфар,  
БухДУ ўқитувчиси**

**Кириш:** Чет тили, жумладан, француз тилини ўқитишнинг ҳар қандай босқичида муҳим вазифалардан бири бу – талаффуз кўникмаларини сақлаш ва такомиллаштиришдир. Бу каби кўникмалар шаклланишини осонлаштирадиган фонетик жараён эса қофиядир.

**Асосий қисм:** Маълум бир хорижий тил (жумладан, француз тили) ни ўрганишда фонетик талаффузни тузатиш устида ишлаш кўпинча шу тилни ўрганувчилар учун нафақат мушкул, балки зерикарли вазифадек туюлади (баъзида бунда бу ишни мароқсиз деб ҳисоблайдиган ўқитувчиларнинг таъсири ҳам бўлиши мумкин). Бизга маълумки, француз тилидаги ўзига хос товушларнинг нотўғри эшитилиши, кейинчалик эса шу аснода талаффуз қилиниши шу тил вакиллари билан алоқага киришишга тўсқинлик қилиши ва гоҳида ўз фикрини баён этишга журъат қилолмайдиган баъзи тил ўрганувчилар учун тортинчоқлик манбаи бўлиб қолиши мумкин (талаффуздаги нуқсонлардан чўчиш кейинчалик ўз фикрини ифода қилишдан қўрқишга олиб келади). Шунинг учун мавжуд муаммони ҳал қилишда француз тили амалий дарсларида ўйинлардан фойдаланиш имконини берувчи усулларни қўллаш энг мақбул йўл деб қаралади. Чунки улар тил ўрганувчиларни француз тилидаги махсус товушларнинг мулойимлиги ва ёқимлилигига жалб қилган ҳолда қўрқув ва журъатсизлик ҳисларининг секин-аста бартараф бўлишига

кўмаклашади. Ваҳоланки, талаффуздаги камчиликларни тузатишни самарали амалга ошириш маълум бир вақтни талаб қилади ва бу мақсад сари қўйилган қадам аниқ, ижобий режали бўлиши лозим.

Поэтик услуб нима ? Бу услуб француз мумтоз адабиёти вакиллари Жак Превер, Робер Дено, Раймонд Кено, Поль Элюар каби шоирлар томонидан ёзилган оддий поэмалар билан чекланиб қолмайди. Аксинча, поэтик матн турли хил шаклда : тез айтиш усулида ёзилган кўшиқ, санамачок, мақол, эртақ (француз болалар адабиётидан намуна сифатида олинган мумтоз ёки бошқа тиллардан ўзлашган эртақлар), скетч – кичик ҳажвий пьесалар (Раймонд Дево, Мюриэль Робен), шунингдек, тил ўрганувчи ёки ўқитувчиларнинг ўзлари томонидан яратилган шеърӣй парчалар бўлиши ҳам мумкин. Бу каби турли хил машқлар асосида бирин-кетин қуйидагиларни амалга ошириш мумкин :

→ тингловчининг матн оҳангида мавжуд бўлган баъзи бир товушларни идрок қилиш, фарқлаш ва ёдда тутиш қобилиятини ўстириш ;

→ матнда мавжуд бўлган ва ўрганилган товушларни ёзишнинг турли хил йўллари аввал излаб, сўнг эса топиб, фоно-график боғлиқлик устида ишлаш ;

→ ва албатта, поэтик матнни ёки ундан бир парчани қайта айттириш.

Поэтик услубни қўллашда ўқитувчининг ўрни ва таъсири : поэтик услубни қўллаш товушлар, тилнинг жарангдорлиги, ритм ва оҳанг билан ўйнашни қамраб олади. Шунингдек, талаффузни ўрганаётганда кўпинча бир нечта товушлар бирикмасини ҳам учратиш мумкин. Бу вақтда ўрганилаётган товушлар доираси махсус машқларни талаб қилади. Яна бир ижобий томони шундаки, кўшиқ, шеър, скетчлар билан бирга маданий, маърифий тушунчалар ҳам киритилади. Бу фаолият тури оддий сўз ёки фразаларни такрорлашдан кўра анча қизиқарли ва мароқли ҳамдир. Шу билан бирга, скетч ёки кўшиқ каби ижод намуналарини эшитиш – бу нафақат синфдаги фаолият тури бўлиб, балки тилнинг маданий воқелигида ҳам битиб қўйилгандир.

Талаффузни тўғрилашда асл ижод намуналари : сўнгги ўн йиллик ичида ижод қилган Бенабар, Томас Ферсен, Рафаэл ёки Кристоф Маэ каби кўшиқчиларнинг репертуарларида мавжуд бўлган ва бугунги кун ҳаётини талқин қилувчи кўшиқларидан ҳам фойдаланишнинг ўзига хос афзал томонлари бор. Бу кўшиқларнинг қуйлари ўзининг оҳиста оҳанги билан кишилар кўнглини топган ва бу ҳам ўз навбатида қуйланаётган сўзларнинг ажойиб тарзда идрок қилиниши имконини беради.

Тез айтишлар : тез айтишлар энг завқли ўйин тури бўлиш билан бир қаторда дарс жараёнида ҳам вақтни мароқли тақсимлаш манбаи бўлиб хизмат қилади. Улар анча оммавий тусга эга бўлиб, ҳар бир тил ўрганувчи ўз она тилида тез айтиш билади. Француз тили дарслари жараёнида тез айтишларнинг бир нечтасини айтиб ёки такрорлай билишини кўрсатган баъзи талабаларда бошқа талабалар олдида қандайдир ғурур ҳисси ҳам уйғонади.

Тез айтишлар кўп ҳолларда театр санъати соҳасида овозни қиздириш машқи бўлиб, актёрларнинг ритми ва нутқини ўстиришда қўл келади. Француз тили дарсларида эса улардан талаффуз “гимнастика”си сифатида фойдаланиш мумкин. Бунинг натижасида дарс жараёнида талабаларни кичик гуруҳларга бўлиб мусобақалар ташкил қилиш ва энг яхши талаффуз борасида талабаларни баҳолаш ва рағбатлантиришга эришиш мумкин. Тез айтишларга мисол қилиб эса : “les chaussettes de l’archiduchesse”, “un chasseur sachant chasser” кабиларни олиш мумкин. Буларга қўшимча тарзда тез айтишларнинг товуш ёки омоним сўзларни бир неча марта такрорлашдан иборат бўлган бошқа тури ҳам мавжуд, бу вақтда тез айтиш маъноси ҳам алоҳида эътибор талаб қилади. Масалан : “Si ton tonton tond ton tonton, ton tonton tondu sera” ёки “Si six scies scient six cyprès, six cent six scies scient six cent six cyprès”. Бу пайтда берилган топшириқнинг маъносини тушуниш учун ритм ва бўғинларни ажратиш устида шуғулланилади. Ўқитувчининг ролини махсус талаб қилмайдиган тез айтишларнинг яна бир тури бу айтилиши француз тили сўзларининг талаффузига ўхшамайдиган сўзларни тез айтиш бўлиб, қутилмаган бўғинга ажратиш

натijasida aжиб бир талаффуз келиб чиқади. Масалан : “Pie niche haut, oie niche bas, où niche hibou ?”

**Хулоса** қилиб айтганда, ўйин хусусияти нафақат мавжуд бадий ижод намуналаридан фойдаланиш, балки шу ўйинларни ташкил қилиб билишга ҳам бевосита боғлиқ бўлади. Мамнунлик ҳисси тил ўрганувчиларни чин маънода ўзларини намоён қилишларига имкон яратади ва таклиф қилинган фаолият турларини амалга оширишда уларга рух бағишлайди. Шу билан бирга ва умуман олганда, ўйин хусусиятига эга бўлган ҳар бир фаолият тури талабанинг ақлий тарангликдан чиқишига, зехнини ишга солиб, шу фаолият турини ижро этишига кўмаклашади. Бунинг натijasida эса, табиийки у ўзи йўл кўйиши мумкин бўлган хатоларга жиддий тус беришдан воз кечади ва ўз-ўзини кашф қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Н.Н.Абдуллаева. Мақол ва ҳикматли сўзларнинг паремиологик майдони. “Сўз санъати” халқаро журнали. 4 жилд, 2 сон. Тошкент, 2021.

2. Н.Н.Абдуллаева. Таржимада ёзувчи услубини сақлаш муаммолари. Актуалные научные исследования в современном мире. Выпуск 5(25), Часть 11, стр. 46-49. Украина, изд: Переяслав-Хмельницкий. Май, 2017.

3. N.N.Abdullaeva. Le lexique général et spécial en français. Zbiór artykułów naukowych « Rozwój współczesnej nauki » 2017, Z 40, str. 25-28. Warszawa PL., « iScience Polska ».

4. N.N.Abdullaeva. Quelques propos sur les proverbes. « Tafakkur va talqin » mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 594-601 betlar. Buxoro, 2021 yil.

## **INGLIZ TILIDAGI FRANTSUZ O'ZLASHMA SO'ZLARINI ASSIMILYATSIYA QILISH TURLARI**

**Safarova X.S.**  
BuxDU, o'qituvchi

Zamonaviy ingliz tili etimologik tarkibining yarmidan ko'pini o'zlashma so'zlar tashkil etadi, ular orasida birinchi o'rinni frantsuz tilidan o'zlashgan so'zlar egallaydi. Frantsuz tilining ingliz tilining lug'at tarkibiga ta'siri haqiqati bir necha bor qayd etilgan bo'lsa-da, bu ta'sirning tabiati yetarlicha o'rganilmagan. Ingliz tilida ko'p sonli frantsuz so'zlarining mavjudligi haqiqati yaxshi ma'lum, ammo ularning ingliz tilida rivojlanishi, assimilyatsiya darajasi va tabiati o'rganilmagan. Ayni paytda, aynan mana shu omil ikki til o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini juda aniq ko'rsatib beradi, shuning uchun frantsuz tilidan olingan o'zlashma so'zlarning tabiati va assimilyatsiya darajasi zamonaviy ingliz tili lug'atini o'rganish uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Xorijiy so'zlarni o'zlashtirgan til ularni uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz qoldirmaydi. Bu so'zlar asta-sekin o'zining fonetik, morfologik va leksik qoliplariga mos ravishda o'zgartirilib, butun til tizimiga moslashtiriladi, ya'ni assimilyatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu jarayon natijasida o'zlashgan so'zlar o'zining o'zga tillilik xususiyatini yo'qotadi, o'zlashgan tilning lug'at fonida ajralib turishni to'xtatadi va uning tarkibiy qismiga aylanadi.

Asosiy lug'at fondi yangi so'zlarning shakllanishiga asos, tilning leksik-semantik markazi bo'lib, ko'p jihatdan rivojlanish yo'llarini va o'zlashtirish qonuniyatlarini belgilaydi. U o'zlashtirilgan so'zlarning kirib kelishini tartibga soladi va ularning semantik mazmunini belgilaydi, odatda bu so'zlar o'zlashtirilgan va ma'lum bir xalq uchun yangi tushunchalarni ifodalovchi ma'nolarda tilda o'z ifodasini topmagan bo'ladi. Tilga kirib kelgan o'zlashma so'zlar til tizimida allaqachon o'z ifodasini topgan tushunchalarni bildirsam, ular asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar bilan ma'lum sinonimik munosabatlarga kirishadi va kam qo'llaniladigan sinonimlar pozitsiyasida tildan chekkada qolib ketadi.

Muayyan tilning lug'at tarkibi bilan bog'lanib, o'zlashtirilgan so'zlar asosiy lug'at fondining rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi, ular grammatik tizim bilan birgalikda ularni til rivojlanishining ichki qonuniyatlariga muvofiq o'zgartiradi.

Tilda u yoki bu vaqtda paydo bo'lgan o'zlashma so'zlarning o'zlashtirilishi, ularning til tizimiga kirishi, til me'yorlariga bo'ysunishi va o'zgarishi qonuniyatlari ham tilning ichki

qonuniyatlari harakati bilan bog'liq. O'zlashma so'zlarning tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra o'z grammatik tuzilishi, tovush ko'rinishi va semantik mazmuniga ko'ra o'zgarishiga asoslanib, tilshunoslikda so'z o'zlashtirishning uch turini: morfologik, fonetik va leksik assimilyatsiyani belgilaydi. Ushbu uch xil assimilyatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ularning o'ziga xos xususiyatlari borligi sababli, ularning har birini alohida-alohida qisqacha tavsiflashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

### **Grammatik assimilyatsiya**

Ingliz tilidagi fransuzcha so'zlarning assimilyatsiya qilish jarayoni, birinchi navbatda, ularning grammatik tuzilishiga bo'ysunishida namoyon bo'ladi. Davrlar mobaynida rivojlangan grammatik tuzilma tilning, jumladan, uning lug'at tarkibini ham o'zgartiradi. Fransuz tilidan o'zlashma so'zlar ingliz tilida mavjud bo'lgan paytdan boshlab ingliz grammatikasi qoidalariga muvofiq ishlatiladigan faol grammatik kategoriyalarga kiritilgan. Bu so'zlar ingliz tilidagi nutqning ushbu qismiga xos bo'lgan barcha fleksiya shakllarini oladi va bu shakllarni mahalliy ingliz so'zlari modeliga muvofiq shakllantiradi. O'zlashtirilayotganda, jins va sonni ifodalovchi otlardan oldin ishlatiladigan fransuzcha *le, la, les* artikllari kabi morfologik bezaklar olib tashlandi. Biz o'zlashma so'zlarda grammatik jins kategoriyasining asta-sekin yo'qolishini kuzatamiz, bu ingliz tilidagi otlarning grammatik jinsi yo'qolishining umumiy tendentsiyasi bilan bog'liq. Shuningdek, barcha olingan otlar ingliz tilidagi otlar bilan bir xil tizimga ega. Genitiv birlik va ko'plik *s (es) - beornes, hostages, toures, crunes* va boshqalarni qo'shish orqali yasaladi.

Ingliz tili me'yorlariga muvofiq sifatlar qiyoslash darajalaridan tashqari barcha grammatik qoidalariga bo'ysunmagan. Ingliz tilida mavjud fe'llar shaxslarga ko'ra tuslanadi (conjugation) va ingliz modeliga ko'ra sodda va qo'shma zamonlarni hosil qiladi. Ko'pchilik o'zlashgan frantsuz fe'llari zaif ingliz fe'llari (masalan, *to turn, to evoke, to control, to revenge*) tarzida preterit va sifatdosh II ning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

O'zagi unli bilan tugagan frantsuz fe'llari 1-turning kuchsiz fe'llariga qo'shilgan, masalan, *cryien - qichqirmoq, assayin - urinmoq, obeie(n) - itoat etmoq*. O'zagi undosh bilan tugagan fe'llar birinchi marta Angliyaning janubiy qismida 2-tur kuchsiz fe'llari namunasiga ko'ra konjugatsiya qilingan, ya'ni hozirgi zamonda *i* va preteritda *d* dan oldin unli sinkopatsiyasiga duchor bo'lmagan, masalan, *servi(n) - served*.

Angliyaning shimolida ham, janubida ham 2-turning maxsus shakllari yo'qolganidan so'ng, ular barcha zaif fe'llar qatorida preterit hosil qila boshladilar.

Ingliz tiliga o'zlashgan ko'plab frantsuz sifatlarining o'ziga xos xususiyati ularning ko'plik shaklini saqlab qolishidir. Bunday sifatarni post-pozitiv qo'llanishda tez-tez uchramiz - *letters patents, place delitables, lords spirituels*; ammo, tilshunoslikning keyingi rivojlanish jarayonida ular tomonidan ko'plik shakli *-s* tugatilgan va frantsuzcha o'zlashtirilgan sifatarning postpozitiv qo'llanishi *court martial, heir apparent, knight errant* kabi muayyan turg'un birikmalarda saqlanib qolgan.

O'z so'zlar va bir til doirasidagi murakkab so'zlar ko'pincha o'zlashma so'zlar bilan bog'lanmaydi. Shunday qilib, hosila o'zakli o'zlashtirilgan xorijiy so'zlar bilan, agar bu so'zlar o'zlashtirilgan tilning leksik materiali bilan bog'lanmagan bo'lsa, soddalashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Odatda ona tilidagi so'zlarni soddalashtirishning asosiy sababi zamon o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi, so'zlar soddalashtiriladi, ular oddiy holga keladi. Xuddi shu jarayonni frantsuz o'zlashmalarida ham kuzatamiz.

Frantsuz otlari *control, rendez-vous, char-a-bancs, parterre*, ingliz tilidagi tarkibiy qismlarining ma'nosini yo'qotdi, ya'ni soddalashtirilgan va oddiy so'zlar sifatida qabul qilingan. Ba'zi hollarda ular birgalikda yozila boshlaydi, ularning fonetik o'zgarishi sodir bo'ladi. Bu, masalan, frantsuz tilidan ingliz tiliga *contre-roule* (lotincha *contra rotuladan*) shaklida kelgan va "xazinani qayd etmoq" degan ma'noni bildiradi. Mahalliy va xorijiy so'zlardagi soddalashtirishning farqi shundaki, ona tilidagi so'zlarda bu jarayon juda sekin boradi, o'zlashtirilgan so'zlar esa tilga kirishi bilan darhol sodir bo'ladi.

Natijada, o'zlashgan so'zlarning morfologik tuzilishi bu xalq tomonidan tan olinadi, o'zak morfemalar haqiqiy ma'noga ega bo'lib, keyingi so'z yasash qobiliyatiga ega bo'ladi, ingliz affikslari esa yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, ingliz tilida *-ment, -al, -*

ess, -ance va boshqalarda frantsuzcha kelib chiqishi bir qator qo'shimchalar va prefiksalar paydo bo'ldi.

Frantsuzcha so'zlarning katta qismi -ance, -ence qo'shimchasi bilan tuzilgan: *ignorance, arrogance, entrance, repentance, innocence* va boshqalar. Demak, inglizlar uchun bu qo'shimchani ma'nosi aniq bo'lib, uning yordamida sifat va fe'l o'zaklaridan mavhum otlar yasaladi. Shunday qilib, yangi "*hindrance*" so'zining shakllanishiga imkon yaratadi, bunda frantsuz qo'shimchasi inglizcha "*hinder*" fe'lining o'zagiga biriktirilgan.

Xuddi shunday, ingliz tiliga *government, treatment, agreement* kabi so'zlarning tarkibiga kirgan *-ment* qo'shimchasi ham inglizlar tomonidan tan olindi va uning yordami bilan ingliz o'zagidan yangi so'zlar hosil bo'ldi: *fulfilment, bereavement, amazement, bewilderment*.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Safarova X. S. Syntactic features of loanwords and appendixes from French to English. Чет тилларни ўқитишнинг долзарб масалалари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман 2021-йил 17-18 март. 304-305 pages.

2. Safarova X. S. The structural-semantic analysis of English language embeddings from French language. 167-168 pages.

3. Safarova X. S. Borrowed words from French to English language. Actual problems of modern science ,education and training 2021-йил , март. ISSN 2181-9750. 50-54 pages. <http://khorezmscience.uz> .

4. Safarova X. S. Assimilation features of word learning from French to English. 2<sup>nd</sup> International Conference on Science Technology and Educational Practices. May 15-16,2021. 225-227 pages. <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/491/486> .

### **“НАВОДИР УЛ - ВАҚОЕЪ” – МАЪНАВИЙ МЕРОС ВА НОДИР ТАРИХИЙ МАНБА** **Жумаев Аббосжон Акмалович** **Бухоро давлат университети магистранти**

“Ахмад Дониш, - дейди академик Иброҳим Мўминов, - XIX асрнинг иккинчи ярми шароитларида Бухоро ижтимоий илғор, тараққийпарвар оқимининг асосчиси, ажойиб маърифатпарвар ҳам эди. У маърифатпарвар бўлганидан, феодал ва амирлик тизимига қарши эди. Ахмад Дониш Европа ва рус маданиятини Бухорога ёйиш йўлида хизмат қилди; халқ оммасининг манфаатлари учун ўзига хос йўл билан курашди. У ўзининг ўша вақт тарихий шароитида илғор сиёсий қарашларини назарий фалсафий фикр қодалар орқали асослашга ҳаракат қилди. У истеъдодли олим, файласуф, зўр мутафаккир, ажойиб бир сиймо сифатида манзур бўлди<sup>1</sup>”.

Бу асар ҳақида кўп ёзилган, муаллифлар томонидан унга юксак баҳо берилган, аммо, назаримизда, адабиётшунос олим Р. Ж. Воҳидов (Оллоҳ ўз раҳматиغا олган бўлсин) қадрлаганчалик эътироз кам учрайди: “Тарих саҳифаларидан Ахмад Махдумнинг барча илмий, адабий, тарихий асарлари йўқ бўлиб кетса – ю, ёлғиз “Наводир ул – вақоеъ” авлодлардан – авлодларга кўчиб яшаса, шунинг ўзи Ахмад Дониш ижодиёти ўша давр адабий ҳаётининг чўнг қояси, мусобақа, интилиш чўккиси мақомида салобат тўкиб турган...”<sup>2</sup> эҳтимол филолог олим ушбу қомусий асарнинг бадиий – илмий қимматини назарда тутгандир, аммо, бу маънавий бойликнинг тарихий манба сифатидаги қиммати ундан кам эмас. Бу ноёб ва нодир асар нега шунчалик даражада қимматлими? Бу дурдона Ахмад Дониш бир умрлик илмий тадқиқотларининг қаймоғи бўлган шоҳ асардир.

Бу асарнинг қомусий аҳамияти ҳақида академик Иброҳим Мўминов: “Ахмад Дониш “Наводир ул – вақоеъ”да гоҳ ҳаётни куйлайди, гоҳ умидсизлик, дарвишлик оҳангида сўзлайди, гоҳ мавжуд амирлик тартибларини ҳалок бўлиши муқаррар дейди,

<sup>1</sup> Мўминов И. Из истории общественной и философской мысли Узбекистана конца XIX и начало XX веков. - Самарканд Издании Узбекского государственного университета имени А. Навоий. 1949. – С. 124.

<sup>2</sup> Раҳим Воҳидов, Мэлс Маҳмудов “Устод Садриддин Айний сабоқлари” – Т.: “Фан” 2004. – Б. 303. <sup>25</sup> Ахмад Дониш Наводир ул – вақоеъ – Т.: Фан. 1964. – Б. 16.



гоҳ шу чирик – чиркин амирлик тартибини ислоҳ қилиш йўлида изланиш ҳаракатида бўлади, гоҳ илм мухлиси, замонавий фан жарчиси, гоҳида эса эски диний ақидалар гирдобиди айланади<sup>25</sup>” мутафаккир олим “Наводир ул – вақоеъ” асарининг муаллифини “сода деҳқон демократияси”нинг вакили деб атайдилар, кейинги сатрларда эса уни мутафаккир деб баҳолайдилар.

“Наводир ул - вақоеъ” нинг асосий ғояси Бухородаги камбағал меҳнаткашларнинг оғир ва аянчли турмуши задагонлар ҳаёти орасидаги зиддиятларни таққослаш, қийёслаш орқали очиб беради. Бунда олим қуруқ тушунтириш билан қаноатланмай ривоятнамо воқеалар ва ҳикоялар баёнидан усталик билан фойдаланади. Аҳмад Донишнинг асосий истак - мақсади мамлакат аҳолисининг асосий кўпчилиги ҳисобланган халқни ёруғ кунларга олиб чиқиш муддаоси ётади. Бунинг учун мамлакатда адолат мезонларини ишлаб чиқиш ва уни жорий этиш, халқни янгилик сари интилишга йўналтириш, уни замонавий маданиятдан хабардор қилиш, Европа, рус маданиятининг қабул қилиш мумкин бўлган жиҳатларини тарғиб қилиш, мамлакатни обод қилиш учун техника янгиликларидан фойдаланиш каби ўша давр учун энг илғор бўлган ғояларни илгари сурди. Аҳмад Дониш бу каби тараққийпарвар ғояларни ушбу асардаги “Фаромушхона ҳақидаги ҳикоя” да илгари сурди. Бу ғоялар унинг барча ҳикояларида кўриниб туради. “Одам нима учун ўлади? Шунини ўйлаб топиш керакки у ўлмасин! Одам ҳавога уча олмайди, шундай нарса (аппарат) ни ихтиро қилиш керакки, одам унда учсин!” – каби ўша даврда тасаввур қилиб бўлмайдиган фикрлар ҳам келтирилган. Шунинг учун ўша давр мударрислари ва муллалари уни даҳрийга чиқарганлар.

Аҳмад Дониш Бухоро мадрасаларидаги таълимни ислоҳ қилиш ғоясининг XIX аср иккинчи ярмидаги энг ашаддий тарғиботчиси, амалиётчиси, қўрқмас ва жасур тарафдори бўлиб майдонга чиқади. У яшаган шаҳарда мутаассиблик кучли бўлган чоғда шижоатли қадам қўйиш учун ўша давр ижтимоий – сиёсий ҳаётида катта мавқе ва таъсирга эга бўлиш керак эди. Аҳмад Дониш ана шундай салоҳиятга эга эди. У мадраса муллаларининг унга қарши бирлашиб исён кўтаришларини биларди. Муллалар, эшонларнинг задагонлар ва амалдорлар билан умумий манфаатлари ягоналигини яхши англади эдилар. У ўз замонасининг ана шундай мутаассиблик ботқоғига ботган кучларига қарши бош кўтарди.

Аҳмад Дониш Бухорода XIX асрнинг 2 – ярми жамият иллатларини кўра олган, бу жирканч иллатлар унинг ҳаловатини бузган, бу ҳақда мутафаккир шундай дейди: “... замона аҳлининг қилган ишлари менга ёқмас эди. Жуда кўнглим олиниб, юрагим торайиб кетганда қайғу аламларимни чиқариш учун дўстларим ёнига қалам кўтариб бориб, қоғоз юзини қоралаш билан шуғулланар эдим. Бу қоғоз саҳифаларини қилишимдан ойдин ва равшан маънолар келиб чиқарди<sup>1</sup>”

Аҳмад Дониш томонидан яратилган бу асар, қоғоз варақларидан иборат бўлиб, у бу қоғозларни тартибга солиб бир китоб ҳолига келтиради. Шунинг учун Аҳмад Донишнинг бу асари бир сюжетли асар бўлмай, бир неча ривоятнамо ҳикоялардан иборат бўлган қимматли маънавий мулк даражасига кўтарилди. Бу нодир китоб йигирмага яқин яхлит ҳикоялардан иборат бўлиб, унинг муқаддимасида: “... бир қанча илмий ҳикоя ва ривоятлар, ҳамда эшитган ва кўрган нарсаларим қоғоз парчаларида ёзила бориб тўпланди<sup>27</sup>” – деб ёзади муаллиф.

Аҳмад Дониш ўзининг бу асари юзага келиш даврида файласуф ва тарихчи олим сифатида шаклланган. У асарда Бухородаги мутаассиблик сабабларини таҳлил қилади. Илм – фан ва маърифатнинг тўхтаб қолганлигидан афсусланади. Бухоро ва унинг аҳлини Европа мамлакатлари билан таққослайди. “Замондошларим бу ёзган нарсаларимни олиб ўқир эдиларда таажубланиб яна қайтариб берар эдилар; чунки, илм – ҳунар бозори, ички ва ташқи бир қанча сабабларга кўра касод эди. Замона аҳллари китоб ёзмок, илм олмок кабиларнинг вақти ўтган деб, гумон қилар эдилар. Бу ишни қилиш учун кашф этиш кучига ёки авлиёлик қувватига эга бўлиш керак, агар бу икки сифат бўлмаса, китоб ёзиш

<sup>1</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вақоеъ – Т.: Фан. 1964. – Б. 34 – 35. <sup>27</sup> Ўша асар. – Б. 33 – 34.

мумкин эмас деярдилар. Ҳолбуки, Эрон, Туркия, Фарангистон (Европа) мамлакатларида ҳар йили турли фан соҳаларида беш юздан ортиқ китоблар ёзилади. Бу китобларнинг ёзувчилари ва улар аталиб ёзган подшоҳлар бу кун ҳам тирикдирлар”.

Муаллифнинг ушбу сатрлари Бухорода илм – фан тараққиётининг замонадан орқага қолиб кетганлигини ўз замонасининг илм аҳли унга ва унинг ёзганларига шубҳа билан қарашларига бўғзидан бўғилган чорасиз одамга ўхшатади. Инсон тафаккурининг юксак нуқтаси ижодкорлик, кашфиётчилик эканлигига яна бир қарра ишора қилади, ёзиш учун, ижод қилиш учун авлиё бўлиш шарт эмаслигини яна ва яна такрорлайди. Кишиларни изланишга даъват этади. Ўзини илм – фан фидойиси эканлигини кўрсатади.

Аҳмад Дониш манғит амирлари саройида катта мансабларда ишлайди, саройда берилган нафақа билан роҳат – фароғатда яшаши мумкин эди. Халқ учун, эл – юрт учун, ватан учун ўз ҳаловатини бузди. Ундаги бу журъат ва жасорат ибратдир. Аҳмад Дониш она шахрини обод қилиш учун ўзининг бутун вужудини бахш этган фидойий инсон, у инсонпарвар қомусий олим, у жамият ҳаётининг барча томонларини чуқур ўрганган ва таҳлил қилган. У халқнинг аянчли турмушини англаш йўлларини излайди. Бунинг учун Бухоро амирларига очикдан – очик тавсиялар ва маслаҳатлар беради. Унинг бу дадиллиги, очик, тўғри фикрлари амирларга ёқмайди, бу фаолият эса душманлари сафи кенгайишига олиб келади.

“Наводир ул - вақоеъ” даги ҳикоя ва ривоятлардаги қизил ипдек тизилиб ўтган воқеалар халқ ҳаёти ва уни яхшилашга, фаровонлигини ошириш, бунинг асосий омили сифатида маърифат кўзга ташланади. “Наводир ул - вақоеъ” нинг пайдо бўлиш тарихини Садриддин Айний ўз “Эсдалиқлари” нинг IV қисмида баён этади. Аҳмад Дониш ўзи ёзиб тартибга солган бу буюк асарини Сиддиқхон Ҳашматга тақдим этган экан. “Сиддиқхон Ҳашмат амир Абдулаҳаднинг укаси бўлиб, отаси Музаффар замонида Чоржўйнинг ҳоқими эди. У Музаффарнинг беморлигида уни кўриш баҳонаси билан руҳсатсиз Бухорога келади. Бироқ, у келганда отаси ўлган ва сарой аҳли унинг ўлимини яшириб, валиаҳд Абдулаҳадга тожу – тахтни топшириш учун, уни Карманадан келтирган ва отасининг вафотидан беҳабар Сиддиқхонни қамоққа олган эдилар<sup>1</sup>”. Сиёсий ҳаётдан четлаштирилган Сиддиқхон Бухоро аркидан анча йироқ бир ҳовлига уй қамоғида бўлган ва бу ерда илм, адабиёт билан шуғулланган. Орадан уч – тўрт йил ўтмай донишманд сифатида машҳур бўлиб, ёзган шеърларига Ҳашмат деган таҳаллус қўя бошлаган. Бухоро амирлари саройидан норози бўлган Аҳмад Дониш у билан дўст тутинган. Ундан моддий ва маънавий манфаатни кутмаган ҳолда ўз асарини унга тақдим этган

XIX асрнинг 2 – ярми ва XX аср бошларида ҳам Бухорода мавжуд ижтимоий – сиёсий тузум, деспотизм ва мутаассиблик, иқтисодий ночорлик ва қолоқлик, маҳаллий ва мустамлакачилик зулмининг ниҳоятда кучайганлиги маърифатпарварлик ғояларининг кириб келишига тоғдек тўсиқ бўлди. Ҳар қандай дунёвий илм ва адабиётларнинг кириб келишига йўл бермади. Аҳмад Дониш “Наводир ул - вақоеъ” асарининг муқаддимасида бу ҳақда: “Замондошларимиз бу китобларни кўрмайдилар, эшитганларига ишонмайдилар, ҳатто, ўзлари яшаган ердан бошқа ерларнинг борлигига ишонмайдилар. (бирор китоб) саҳифасида ёзилган нарсаларни топсалар, у гарчи асоссиз пуч бўлса ҳам, шуни қатъий далил деб гумон қиладилар. Шунинг учун кўпчилик бу иш билан шуғулланишни мияси айниганликка жўйиб, бу китобни ёзганим учун менга душманлик қилардилар, қаршилик кўрсатардилар. Менинг ёзган сўзларимни ёлғиз сўз бошқалар воситаси билан тўплаган деярдилар” – деб ёзган эди.

Бошидан охиригача илму – ибратдан иборат бўлган бу асарнинг бизгача етиб келганлиги бир мўжиза, афсуски, ўзбек тилида бир мартагина 1964 йилда форс – тожик тилидан А. Ҳамроев ва А. Шокировлар таржимасида, академик Иброҳим Мўминовнинг умумий таҳрири остида нашр қилинган ҳолос.

“Наводир ул - вақоеъ” китобининг биринчи боби “Мамлакатни бошқариш ва халқни маърифатли қилиш ҳақида рисола” деб номланади. Биз ушбу ишда Аҳмад Донишнинг “Дунё тарихи ва қадимлиги ҳақида” ги боби тўғрисида сўз юритишни лозим

<sup>1</sup> Садриддин Айний Асарлар (Эсдалиқлар) Т – VII. – Т.: 1966. – Б. 153.

кўрдик. Бу боб унча катта бўлмай, унда дунёнинг яратилганлиги, ўшандан бери қанча вақт ўтганлиги масаласи қўйилган бўлиб, Аҳмад Дониш жаҳонда машҳур бўлган ҳинд, хитой, форс ҳукамо (олим) ларининг фикрларини келтиради. Масалан, ҳиндларнинг бутун олам даврларини тўртга бўлганликларини, ҳар бир даврнинг ўз узун (давомий – таъкид бизники) лиги борлигига изоҳ бериб: “уларнинг тахминларича, оламнинг яратилишидан бошлаб шу кунгача бир ирб (миллиард), тўксон юз лак (юз минг), тўрт минг тўққиз юз саксон тўққиз йил ўтган бўлади (бир миллиард тўксон беш миллион эллик саккиз юз тўрт минг тўққиз юз саксон тўққиз – 1.095.584.989)<sup>1</sup>” йил ўтганлигини ҳисоблашларини келтиради. Бу саналарни ҳисоблашда таржимонлар томонидан озгина хатоликка йўл қўйилган шекилли, рақамларнинг ўқилиши бир миллиард тўксон беш миллион тўққиз юз саксон тўққиз бўлиши керак.

Аҳмад Дониш форс ва ажам (араб бўлмаган мамлакатлар) ҳукамоларининг ҳам фикрларини келтиради. Унга кўра: “Оламнинг ҳар бир давраси уч юз олтмиш минг йилдир. Шу давра тамом бўлгач, яна қайтадан давра бошланиб, шу муддат ўтгунча давом этади. Буларнинг айтган даврлари эса сабъаи сайёр юлдузлари ҳамал буржининг биринчи нуқтасида тўпланган вақтидан бошланади. Форс ва ажамликларнинг тахминларича, дунё яратилгандан бошлаб, шу кунгача бир лак, саксон тўрт минг тўққиз юз саксон саккиз йил вақт ўтган”

Аҳмад Донишнинг бу фикрлари унинг буюк фалакиётшунос эканлигини, Шарқ юлдузшунос олимларининг асарларини чуқур билганлигини кўрсатади. Дониш уларнинг бу фикрларини тахминий деб айтади. Осмоний жисмларнинг даврий ҳаракатлари ҳеч қандай ташқи таъсирларсиз давом этаётганлигини тушунади. Аммо, Дониш Шарқ ҳукамоларининг дунёнинг қадимийлигини эътироф этишлари билан бирга унинг ҳадислигини ҳам эътироф этадилар. Унинг ҳадислигини эътироф этиш қиёматнинг муқаррарлигини ҳам тан олишдир. Давомийлиги эса оламнинг такрорланиб туришидир. Унинг давомийлик асосида такрорланиб туришини, бу дунёга одамлар келиб – кетаверадилар деган хулосага келади.

Аҳмад Дониш ўз замонаси ижодкори, у ўз асарларида Бухоро, Ўрта Осиё ва умуман кейинги давр Шарқ мутафаккирларининг илмий, ижтимоий – сиёсий, фалсафий, тарихий, бадиий – адабий ва умуман маънавий қадриятларини бир тизимга солди. Бу тизимда унинг шахсий қарашлари устиворлик қилди. Унинг қарашларида инсонпарварлик, ватанпарварлик, меҳнаткаш халқига чексиз муҳаббат, халқнинг бахт – саодати ҳақида ўйлаш, озодлик учун кураш, ватан тарққиёти, ижтимоий тенгсизликни тугатиш каби ғоялар ҳамиша устиворлик касб этади. Шунинг учун Бухоронинг энг машҳур кишиларидан Абдулмажил Зуфунун (ваф 1902 й) Сиддикхўжа Гулшаний (ваф 1910 й), Абдулхўжа Таҳсин (XIX аср охири – XX бош.), Қори Абулкарим Офарин Дўзахий (ваф. 1893 й), Мирза Азим Сомий Бўстоний (1835 – 1908 йй) ва бошқалар унинг атрофида бўлиб, ундан баҳра олганлар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Аҳмад Дониш. Избранные произведения. Душанбе. 1976.
2. Аҳмад Дониш. Рисола дар назми Тамаддун ва таовун. – Душанбе. 1976
3. Айний Садриддин. Асарлар. Эсдаликлар. Т – V. – Т.: 1965
4. Раҳим Воҳидов, Мэлс Маҳмудов. “Устод Садриддин Айний сабоқлари” – Т.: Фан” 2004. – Б. 67.
5. Фитрат Абдурауф. Амир Олимхон ҳукумронлиги даври. – Т.: “Минҳаж” 1992.
6. Мўминов И. Из истории общественной и философской мысли Узбекистана конца XIX и начало XX веков. - Самарканд Издании Узбекского государственного университета имени А. Навоий. 1949.
7. Тошқулов Д. Дониш. – М.: 1990.

<sup>1</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вакоъ – Т.: Фан. 1964. – Б.92

## ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИЯ, ИНДИВИДУАЛ ВА ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ ВА ФАРҚЛАРИ

Алимова Нозима Ражаббоевна, БухМТИ ўқитувчи  
Исмоилов Иброҳим, БухМТИ талаба

**Кириш.** Бугунги кунда инсоният жамияти, шунингдек, мустақил республикамиз халқи олдида турган ижтимоий-итисодий, ғоявий-сиёсий, таълимий-тарбиявий муаммоларнинг ечимини топиш табиий, ижтимоий, техник фанларни ўзаро алоқадорлиги ва ўзаро муносабатларига боғлиқ. **Асосий қисм.** Чунки, уларнинг барчаси моҳияти, мазмуни, табиати, шакли ва кўламига кўра тизимлилик характерига эга бўлиб, уларга айнан мос ёндашув ёрдамида тадқиқ этилиб, ечими топилади. Бу ўз навбатида таълим-тарбия ишида ҳам тизимли ёндашувдан фойдаланишни кўзда тутди. Кўп сонли манбалар, хусусан педагогик амалиёт соҳаларининг таҳлили таълим-тарбия жараёнининг ривожланишига тўсиқ бўлаётган муаммолар мавжудлигидан гувоҳлик беради. Булар асосан, бизнинг фикримизча, ўрганилаётган объектларнинг баъзи бир жиҳат ва хусусиятларини лавҳалар (фрагмент) шаклида ўрганиш натижасида юзага келиб, мантқан боғланмаган ва тизимлашмаганлигидир. Амалиётдаги бундай ҳолатларни бартараф этишда интегратив ёндашув муҳим аҳамият касб этади. Фанда "Интеграция" тушунчаси XVIII асрдаёқ Г.Спенсер 3 томонидан қўлланилишига карамай, унга давр тақозосига кўра яқин пайтларгача етарли аҳамият берилган эмас. Илмийлик нуқтаи назаридан олиб қараганда интеграциянинг асосини оламнинг яхлитлиги ва уни ташкил этувчи қисм (элемент)ларнинг ўзаро алоқадорлиги, муносабатлари ташкил этади. Таниқли рус психологик олими Г.С. Костюкнинг фикрича: "Табақаланиш дифференциация - рухий жараёнлар ва ҳолат (хусусият)ларни кўпайишига олиб келса, интеграция - тартибга келтириш, субординация ва унинг натижаларини маълум кетмакетликда жойлаштиришга олиб келади. Интеграциялаш йўли билан янги психологик жараён, янги фаолият тузилмаси ҳосил бўлади. Бу янги тузилма илгари алоҳида-алоҳида бўлган элементлардан синтезлаш йўли билан ҳосил қилинади". Генетик жиҳатдан интеграция-узвийлик, предметлараро алоқадорлик, ўзаро алоқадорлик ва ниҳоят ўзаро бир-бирини тўлдирувчи, кенгайтирувчи ҳамда чуқурлаштирувчи, ўқув предметлари мазмунини энг камида таълим стандартлари даражасида синтезлаб, мантқан тугалланган мазмун шакли ва олий даражасидир. Чунки предметлараро алоқадорликнинг ҳар қайси куйи даражаси, ўрганилаётган ўқув предметлари доирасида маълум дидактик бирликлар орасида ўрнатилиб, уларни ўрганиш мазмунини ва муддатларини мувофиқлаштиришни кўзда тутди, бундан фарқли ўлароқ интегратив алоқадорлик асосида ташкил этилган ўқув предмети ёки интеграциялаб ўрганилаётган предмет, ҳодиса ёки жараёнларни яхлит тизим шаклида ҳар томонлама алоқадорлик ва муносабатлар нуқтаи назаридан талқин этишни талаб этади. Бу ўз навбатида ҳозирги ва истиқбол талабларига жавоб берадиган, мустақил фикр юритувчи ва ижодий фаолият кўрсатувчи, малакали мутахассис шахсини шакллантиришга имкон беради.

Педагогик жараёнда талабаларга индивидуал ва дифференциал ёндашув шахс ривожланишида муҳим омил ҳисобланади, чунки айнан шундай ёндашув ёшлардаги иқтидор ва қобилиятни кўра билиш, шахс ривожланишига шароитлар яратишни назарда тутди. Ишни бажариш учун намуна. Босқичлик дифференция технологиясидан фойдаланишнинг асосий мақсади ҳар бир талабани ўзининг имкониятлари ва қобилиятлари даражасида ўқитиш бўлиб, натижада ҳар бир таълим олувчи ўз иқтидорига кўра билим олиш ва шахсий салоҳиятини амалга ошириш (қўллаш олиш) имкониятига эга бўлади. Мазкур технология жараёнини янада самаралироқ бўлиш. Индивидуал ва дифференциал ўқиш бир хил эмас. Дифференциал таълим –ўқув жараёнини ўқувчилар гуруҳининг етакчи хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ташкил этиш бўлса, индивидуал таълим ҳар бир ўқувчининг қобилияти, иқтидорига қараб берилади. Ишни самарали ташкил қилиш учун дастур, дарслик, дидактик материалларнинг янги вариантлари яратилади. Дифференциал, яъни табақалаштирилган таълим сўзи латин тилидан "дифферент", бутунни қисм, шакл, босқичларга бўлиш маъносини англатади. Кейинги

*“In researching this novel I have relied on many sources, but I would like to acknowledge, in particular, The Travels of ibn Battuta; The Conquest of New Spain by Bernal Díaz; The Karankawa Indians: The Coast People of Texas by Albert Gatschet; Crossing the Continent, 1527–1540: The Story of the First African-American Explorer of the American South by Robert Goodwin; We Came Naked and Barefoot: The Journey of Cabeza de Vaca Across North America by Alex D. Krieger; A Land So Strange: The Epic Journey of Cabeza de Vaca by Andrés Reséndez; and The History and Description of Africa by Hassan al- Wazzan (Leo Africanus.)*

*Although I have based this novel on actual events, the characters and situations it depicts are entirely fictional. This is especially true of my protagonist, about whose background nothing is known, except for one line in Cabeza de Vaca’s relation: el cuarto [sobreviviente] se llama Estevanico, es negro alárabe, natural de Azamor. (“The fourth [survivor] is Estevanico, an Arab Negro from Azamor.”)” [6,161]*

L.Lalami hayoti va ijodini tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, bu yozuvchi zamonaivy Amerika adabiyotida turli janrlarda ijod qilib, turli mavzudagi asarlarni yaratib kelmoqda. Uning ijodiga qiziqish juda katta bo‘lib, ko‘plab olimlar bu ijodkorning asarlarini o‘rganib kelmoqdalar.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Author's Narrative Bio, Lalami Narrative Bio, Author's website, 2019. // [https://lailalalami.com/about/?doing\\_wp\\_cron=1612940437.3026909828186035156250](https://lailalalami.com/about/?doing_wp_cron=1612940437.3026909828186035156250)

2. Laila Lalami, "So to Speak" (essay), World Literature Today website, September 2009 // <https://www.worldliteraturetoday.org/so-speak-laila-lalami#.Uazzh0DVCS0>

3. Abu Amrieh, Yousef. “I could right what had been made wrong”: Laila Lalami’s appropriation of Aphra Behn’s Oroonoko. // Arab World English Journal (6), 2015. – P. 191-204.

4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Mustafa\\_Azemmouri](https://en.wikipedia.org/wiki/Mustafa_Azemmouri)

5. Parish, Helen Rand. Estebanico. – New York: Viking Press, 1974. – 128 p.; Herrick, Dennis. Esteban: The African Slave Who Explored America. Albuquerque: University of New Mexico Press, 2018. – 304 p. MacDougald, James. The Pánfilo de Narváez Expedition of 1528: Highlights of the Expedition and Determination of the Landing Place. St. Petersburg: Marsden House, 2018. – 240 p.

6. Lalami, Laila. The Moor's Account. – United Kingdom: Penguin Books, 2015. – R.161.

7. Хажиева Ф.М. Лайла Лаламининг “The Moor’s Account” тарихий-биографик романида паремиялар тахлили.// Чет тилларини ўқитишнинг долзарб масалалари. Республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро – 2021, Б. 335 – 338.

<https://papers.econferenceglobe.com/index.php/ecg/article/download/312/310>

8. Хажиева Ф.М. Лайла Лаламининг “The Moor’s Account” тарихий-биографик романида интертекстуал стилистик восита тахлили.// Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва истикболлар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро – 2021, Б. 212-214. <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1839>

## ESSENTIAL CRITICISM OF “ADOLAT MANZILI” (“JUSTICE VENUE”) BY ADIL YAKUBOV

O.Kh.Ganiyeva

PhD, senior teacher of BSU

[ganiyeva\\_orzigul@mail.ru](mailto:ganiyeva_orzigul@mail.ru)

Z. Tilakova

MA student, BSU

**Annotation:** Adil Yakubov is a great literary representative whose contribution to the development of Uzbek literature is invaluable. The following article draws some views about the author's peculiar literary style, the novel “Adolat manzili” (“Justice Venue”) and social, spiritual problems discussed in the novel, themes focused on the work.

**Key words:** Adil Yakubov, XX century, theme, novel, literary style, prose, writer, fiction, novelist, spiritual, moral, social, situation.

It is crucial to study the history, the period and conditions, contributing factors in the success of any work that is going to be discussed, because it helps to comprehend the topic, problem, main idea focused in the literary work. Regarding these aspects several similarities between the following novels that are about to be compared are observed. Both works were written at the end of the authors' creative path and could be evaluated as the product of the writers' life and creative experience.

One of prominent representatives of Uzbek literature Adil Yakubov's novel “Adolat manzili” (“Justice Venue”) is also the result of a long life experience and creative maturity. The author experimented different artistic skills in various genres and styles, working creatively in the period when it was the time of complex socio-political changes. But in all his works, the deep understanding of the essence of the nation's spirituality, high moral and aesthetic values, was always the basis of his creative artistic research. The depiction of the spiritual, moral and social interrelationship between the people and the period dominates in the novel. According to the writer's point of view, both these problems of the society should be comprehended; the conclusions achieved during the discussion should be transmitted to the reader, thus these both gain a deep aesthetic value. The author pays special attention to the description of the essence of poetic research in the socio-psychological development of human existence. The content expressed in the “Adolat manzili” (“Justice Venue”) is interrelated with the interests and aspirations of the people.

Literary critic Naim Karimov describes the novel as follows: “The novel is a literary genre that can reflect deeply and distinctly all classes of society, the lives of people of all categories, their inner experiences, details of everyday life and life problems” [1]. Indeed, in the novel, Adil Yakubov describes the people belonging to different classes of the ruling society, their feelings, and the problems of the time. The novelist created his work at a time when the spiritual, moral and social situation in the country was complicated. Naturally, this discomfort and anxiety was reflected in his creative pattern.

Adil Yakubov's “Adolat manzili” (“Justice Venue”) is watered down with concern and sympathy for the present and future of the nation. The writer rebels against the injustice of the ruling system and mourns the plight of the people in the example of the fate of his heroes. In some places characters show their discontent in the dialogues, but in some places they express their dissatisfaction with the help of internal monologues. Azmiddin Nosirov notes that in Adil Yakubov's novel “Adolat manzili” (“Justice Venue”) the text consists of logically connected communicative connections [3]. This connection consists of a stream of mythopoetic thinking based on the legend of Marjantav (Marjan Mountain). Describing the protagonist's appeals to Marjantav, his warm impressions on a happy day, on sorrowful times waiting for salvation from nature, the novelist transfers the gap between grandparents and grandchildren from the soul to the being. The description of the rural way of life carries a specific purpose in the novel. The

writer sprinkles rural life on the analogy of the characters (Veteran-Suyun Burgut-Mansur Mesh-Marjonoy). The logical connection between Marjantav's songs and the tragedy of Suyun Burgut fills the literary gap. In fact, this tragedy was an expression of the suffering and anxiety that befell the nation. So, the author tries to penetrate the consciousness and worldview of the nation by covering the tragedy of an individual. In the novel, through the strong and amiable old man, who spared both his life and health for the government, the aspirations of the government towards the human destiny are exposed [4]. Exposing the inferior methods and tricks of the political-legal forces in the colonial mood, their original appearance is revealed. The Veteran, who has devoted half a century of his life to government affairs, feels helpless like a child and regrets his past as he encounters dishonest, irreligious, quarrelsome, corrupt, accused officials. It seems that the scope of traditional realism changes and improves in a positive way according to the opportunities provided by objective conditions and the life experience of a particular writer, his way of thinking, his intellectual weight, coverage and style of expression. In the example of the heroes, the writer describes honesty, loyalty, courage, pride that exists in the nation. The following themes are common for the novel:

<i>№</i>	<i>Themes</i>	<i>Explanation through examples:</i>
1.	<i>friendship</i>	<i>close relationship between Lochin, Kumush and Salim, support between them</i>
2.	<i>family ties</i>	<i>depiction of sincere relationships, family traditions and values on the example of Veteran's extended family</i>
3.	<i>Love</i>	<i>love between Suyun Burgut and Marjonoy</i>
4.	<i>betrayal</i>	<i>Mansur Mesh's betrayal to his neighbors</i>
5.	<i>respect for ancestors</i>	<i>Suyun Burgut appreciates national traditions</i>
6.	<i>father-child problems</i>	<i>a warm father-child relationship is expressed</i>
7.	<i>loyalty</i>	<i>Marjonoy's loyalty as a wife and as a son Lochin's trust to Suyun Burgut, his father</i>
8.	<i>honesty</i>	<i>as one of the qualities of the protagonist Suyun Burgut</i>
9.	<i>courage</i>	<i>Suyun Burgut's superiority over the ruthless defenders of law, his desire for justice, and his steadfastness to death</i>

The principle of a new interpretation of man and his socio-spiritual and biological world is clearly reflected in the novel. In it the inextricable link between man and nature, man and society can be observed. The image of both relationships was aimed at the same goal. While the creative novel expresses the way of life of mankind, the continuity of spiritual relations has paved the way for a full understanding of the beginning and end of human life, destiny and existence. The deepening of interpretation and analysis of Adil Yakubov's creative thinking can be noticed in the work.

In short, Adil Yakubov expresses his concern about the changes and vices in the society of the time. One of the attractive factors of the novel's success is the idea expressed by the author. Naturally, themes such as friendship, respect for ancestors, family, child rearing, betrayal, love, loyalty and courage take the lead in the novel "Adolat manzili" ("Justice Venue").

#### **References:**

1. *Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Birinchi jild. (1991) Toshkent: Fan.*
2. *GO Khayriddinova (2021) Description of social problems in " Cannery Row" by John Steinbeck - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary ... ..*
3. *Karimov N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. Toshkent: O'zbekiston.*
4. *Karimov H. (2010) adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari. Toshkent: Yangi nashr.*

5. Murodov G. (2018). *Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi muammolari. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. Toshkent.*
6. Nosirov A. (2018). *Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. Samarqand.*
7. Solijonov Y. (2013) *Ko'zgdagi hayot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.*
8. Yoqubov I. (2011). *O'zbek romanining ma'naviy-ruhiy asoslari. Sharq yulduzi, № 4, p.109-112.*
9. Yoqubov O. (2019). *Adolat manzili. – Toshkent: Yangi nashr.*

## ERNEST HEMINGUEY – MOHIR NOSIR

**O.X.Ganiyeva**

*f.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi, BDU*

[shaxnozxojdjayeval@gmail.com](mailto:shaxnozxojdjayeval@gmail.com)

**Sh.B.Xodjayeva**

*magistrant, BDU*

**Annotation:** *Ernest Hemingway is a great literary representative whose contribution to the development of American literature is invaluable. The following article draws some views about the fiction of the author, his peculiar literary style, the novels or short stories written in simple, direct, unadorned prose.*

**Key words:** *Ernest Hemingway, XX century, war, theme, novel, short story, literary style, prose, writer, fiction.*

Har bir millat adabiyotida bo'lganidek, XX asr AQSH adabiyotida ham rivojlanish hamda taraqqiyot davri bo'ldi. Ayniqsa, ikki jahon urushi orasidagi yigirma yillik “oltin asr” bo'lganini bir qator adabiyotshunoslar ta'kidlashdi. XX asr 20-30-yillarida AQSH realistik adabiyoti rivoji yuqori nuqtalarga yetgani bois bu ikki o'n yillik ikkinchi uyg'onish davri deb ataldi. Bu jarayonda yaratilgan asarlar ijtimoiy muammolarning keskin yoritilishi, milliy ruh, xalq dardi va jamiyatdagi adolatsizlikka qaratilgan g'oyaga egaligi bilan ahamiyatlidir.

1920-yillar “buyuk o'n yillik” (“big decade”) deb atalib, butun Amerika adabiyotida eng sermahsul davrlardan biri bo'ldi. Shervud Anderson “yangi nasr”i bilan, Yujin O'Nil “yangi drama”si bilan, bir qator yozuvchilar asarlarining boy tematikasi hamda shakily yangiliklari bilan ushbu dekada rivojiga hissa qo'shishdi. 1920- yillar adabiyotida “yo'qotilgan avlod” namoyandalari ijodi muhim o'rin tutdi. Ularning qatoriga Ernest Heminguey, Uilyam Folkner, Jon Dos Passos va Frensis Skott Fitsjerald kiradi. Ularning asarlarida ham xuddi tanqidiy realistlar singari Amerika demokratiyasiga bo'lgan umidsizlik, AQShda inson shaxsiyatining fojiali taqdiri, gumanistik an'analar ustuvorlik qiladi. Mazkur “avlod” vakillari ijodining asosiy mavzularidan biri urushdan keyingi AQSH jamiyatida yosh ziyolilarning taqdiriga urushning mantiqsiz ta'siri bo'ldi.

Garchi ikki jahon urushi orasidagi davrda Amerika nasri mazmun va shakl borasida ko'plab tajribalar guvohi bo'lgan esa-da, Yevropa adabiyoti vakillariga qaraganda AQSH adiblari ancha realistik asarlar yaratishdi. Ernest Heminguey jahon urushlari, turli mamlakatlar va odamlar haqida yozgan bo'lsa, Uilyam Folkner o'ziga xos, betakror, keskin uslubi bilan inson fojialarini eng yuksak gumanizm nuqtai nazaridan yoritadi. Amerika hayoti, tarixi realliklarini, tang vaziyatlarni haqqoniy, qiziqarli tasvirladi. Uning barcha asarlarida voqealar, qahramonlar o'zaro chambarchas bog'lanib ketdi va realizm, naturalizm, modernizm yorqin, ta'sirchan adabiy-badiiy hodisa kabi hayratga sola oldi.

Xemingueyning dastlabki asarlari o'zining badiiy uslubi bilan e'tiborni tortadi. Uning Ezra Pound va Gertruda Steyn adabiy ta'siri ostidagi uslubi sodda va ko'pincha monoton, lekin mavzuga juda mos keladi. Uning adabiy holati barqaror bo'lsa-da, u bugungi kunga qadar juda ziddiyatli yozuvchi bo'lib qolmoqda. Muallif romanlari va qissalari juda ko'p tanqidiy hamda

tahliliy bahslarga sabab bo'ldi. Uning tor doiradagi xarakterlari, zo'ravonlik va jasorat mavzusiga e'tibor qaratganligi, shuningdek, qisqa va xolis nasri ba'zi tanqidchilarni uning ijodini yuzaki va befarq, deb sanashiga sabab bo'lgan.

Ernest Xemingueyning ijodiy yutug'i, asosan, "The Sun Also Rises" (1926) va "A Farewell to Arms" (1929) romanlari, "Chol va dengiz" (1952) qissasi bilan baholansa-da, uning hikoyalari tobora ko'proq tanqidchilar e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. 1920-yillarda, yozuvchilik faoliyatining boshida Ernest Xemingueyning yozish uslubi ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Dastlabki asarlarida muallif voqealarni yetkazish uchun og'zaki dialogga ko'proq tayangan va kamdan-kam hollarda uzoq tavsiflovchi qismlarni kiritgan.

Aslini olganda, Ernest Xemingueyning tipik romani yoki qissasi oddiy, to'g'ridan-to'g'ri, bezaksiz nasrda yozilgan. Bunday uslub uning dastlabki jurnalistik tayyorgarligi tufayli rivojlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda ikkala janr ham keng o'qiladi va Ernest Xeminguey zamonaviy adabiyotda eng ko'p taqlid qilingan yozuvchilardan biri bo'lib qolmoqda. Ernest Heminguey ijodining boshlanishi Birinchi jahon urushidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. "In Our Time" (1925) hikoyalar to'plamida yozuvchi Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida so'zlar ekan, urushning oddiy inson taqdiriga ne chog'lik ta'sir ko'rsatishini ham batafsil yoritadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda urushga qarshi qahramonning noroziligi bayon etiladi. Adib hikoyalarida, asosan, hayoti xavf-xatarga to'la insonlar taqdirini yoritadi. Uning qahramonlari – askarlar, baliqchilar, sportchilar, buqa jangchilari hamda ular hayot zarbasini mardona bir jasorat bilan qarshi olishadi. Muallifning asarlarining o'ziga xosligi ham uning ana shunday betakror uslubida ekani ayon bo'ladi.

"Farewell to Arms" (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqichni tashkil etadi. Asarda Birinchi jahon urushi yillarida Avstraliya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati leytenant amerikalik Genri urushning butun dahshatlari – ochlik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o'limini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayoldan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italyan soldat va ofitserlari bilan samimiy suhbat va munosabatlar uni milliy xudbinlik va mag'rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urushdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat Shvetsariyaga o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Berkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham, dunyo mashaqqatlaridan ham qutulishga intiladi. Ketrin tug'ruqxonada o'lganidan so'ng, Genri butunlay umidsizlik iskanjasida qoladi.

Hemingueyning 30-yillar o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O'sha yillari ocherk shaklida yozgan "Death in the Afternoon" (1932) kitobida o'lim mavzusi yana ham ochiq ko'rinadi. Asarda buqalar jangi va unga bog'liq qoidalar batafsil aks ettiriladi. Buqalarni o'ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar fojea ustiga fojea va ayniqsa jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

A.Qozixo'jaev o'zbek qissachiligi bilan bir qatorda jahon adabiyoti qissa namunalari orasidagi eng mukammallaridan biri sifatida Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asarini keltiradi. Jahon adabiyotida bu asarni XX asr qissachiligi cho'qqilaridan biri deyish mumkin, deya ta'kidlaydi munaqqid. Nazariyotchi Amerika realizmi namoyandalaridan biri hisoblangan muallifning ushbu asarida shafqatsiz realizm yo'lidan bormay, majoziy uslubdan foydalanganini, hayot haqiqati u kashf etgan dunyoda tasvirlanishini qayd etadi. Inson va dunyo, inson va e'tiqod, inson va kurash mavzulari qissa mohiyatiga singdirib yuboriladi. "Insonni parchalab tashlash mumkin, lekin yengib bo'lmaydi" degan bosh so'z atrofida barcha harakatlar, tasvirlar, manzaralar, qiyofalar, xarakterlar, so'zlar birlashadi va san'at asarining mukammal ko'rinishi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi bebaho asarlar muallifi Ernest Xeminguey XX asr Amerika adabiyoti rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Uning hali hanuz kitobxonlar qo'lidan tushmay sevilib o'qilayotgan asarlari buning yaqqol isbotidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American literature of the XX century. A group of writers. – USA: Boston University Press-2005.
2. Андреев Л.Г. История зарубежной литературы. 1945-1980. — М.: М.У., 1989.—416 с.
3. Андреев Л.Г. Зарубежная литература XX века. — М.: Высшая школа, 2004.—559 с.
4. OK Ganieva DEPICTION OF RELATIONS BETWEEN A PERSON AND SOCIETY IN AMERICAN REALISTIC LITERATURE - Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020
5. Засурский Я.Н, Злобин Г, Ковалёв Ю. Писатели США. Краткие творческие биографии. – М.: Радуга, 1990. – С.454.
6. Засурский Я.Н. Американская литература XX века. – М.: МГУ, 1984. –С.504.
7. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. – Т: Фан, 2012. – Б. 248.

### ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nazarova Navbahor Ahrorovna,

BuxDU ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi va etimologiyasi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, antroponimlar ba'zi ism-shariflar misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** antroponim, antroponimika, onomastika, til, madaniyat, lingvistik,

O'zbek tili lug'at boyligining kattagina qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil qiladi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim so'zining lug'aviy ma'nosini anglashdan oldin biz antroponomika atamasiga nazar tashlashimiz lozim. Ismlarni o'rganish borasida tilshunoslikda ismshunoslik yoki nomshunoslikning bir sohasi – onomastika bo'lib, antroponomikada kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilar o'rganiladi

Hamma narsaning nomi bo'lgani kabi insonlar ham atab qo'yilgan nomiga ega.

“Inson” deganda yaxshimi, yomonmi shaxs ko'z o'ngimizda shakllansa, “kitob” so'zi umumiy atama bo'lgan turdosh otdir. Xohlagan tilga bu so'zlarni tarjima qilish mumkin. Atoqli otlar esa tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil talaffuz qilinib yoziladi. Masalan, Bahora, Karim, Jill, Carol, Анна, Максим.

Kishilarning atoqli otlari bo'lmish antroponimlar bu –avvalo so'z. Ammo, u oddiy so'z emas, atoqli ot. Tilshunos olimlar uchun ayni paytda antroponimlar hali ham chuqur tadbiq etilmagan jihatlari mavjuddir. Antroponimlar haqida qancha fikrlar bildirilmasin, turli tillarda ularning qiyoslanib o'rganilishi hamon oxirigacha to'liq yoritilmagan.

Barcha tillarda ismlar shunchalik ko'pki hammasining ham ma'nosi anglab yetilmagan. Nom qancha kam ishlatilsa va ko'hna bo'lsa vaqt o'tgan sari u noyob hisoblanadi va etimologiyasini o'rganishni talab qiladi. Ma'nosidan tashqari barcha nomlar atash vazifasini o'taydi. Kishilik jamiyati uchun antroponimlarning eng muhim va zaruriy vazifasi nom bo'lib xizmat qiladi. Demak, kishi nomi bir insonni ikkinchisidan ajratish va farqlash uchun muhimdir. Antroponimlar tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumotga ega. Shuningdek, eng asosiysi antroponimlarning semantik xususiyatlariga ega bo'lishidir.

Antroponimlar lisoniy, nutqiy va qomusiy ko'rinishga egadir. Lisoniy ko'rinishda shaxslar atalishi nazarda tutilib, ularni bir-biridan farqlaydi. Nutqiy ko'rinishda esa ismga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Masalan: “Ofat” ismli ayol ko'z o'ngimizda janjalga moyilligi bo'lgan shaxs gavdalanib unga nisbatan salbiy munosabat ifodalanadi. Uchinchi qomusiy ko'rinishda esa (appilyativ) sinonim ma'noga ega nomlar nazarda tutiladi: Mohichehra, Mohigul, Mohlaroyim ismlarda oyga xos bo'lgan nurlilik, go'zallik ma'nolariga tayanadi.

Odatda ismlarda milliylik, qadimiy ,zamonaviylik nafasi ufurib turadi. Masalan, Otabek, Anora, Hurmatoy,Umriya, Parvina, Nargiza.

Ismlar tarixi har bir davrning o'ziga xos ism berish odati borligidan darak beradi.Urug'chilik davrda berilgan nomlarda jasurlik,mardlik fazilatlar ko'rinadi: Alp, Er,Kuchbars

O'zbek ismlarida ba'zan g'oyaviy qo'pol bo'lgan ismlarga duch kelamiz bu esa o'z o'rnida otanoning farzandini noqulay holatlarga qolishiga yo'l beradi: Teshaboy, Boltaboy,Oллоqul, Gadoyboy.

“Familiyalar sizning oilangiz tarixi haqida ko'p narsalarni ochib beradi, ammo ular noto'g'ri ma'lumotlar koniga aylanishi mumkin” degan edi mashhur ingliz aktyori Paul Bleyk o'z maqolasida. Darhaqiqat, avom xalq o'z o'rnida ism bolaning kelajak- taqdiriga ta'sir ko'rsatadi deb ishonganlar, kishi ismi uning o'ziga o'xshaydi degan holda ularning ongida yaxshi va yomon ismlar mavjud degan aqidaga suyanganlar. Turli millatlar onomastikasida bu ishonch yaqqol namoyon bo'la oladi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yishmaydi. Shuningdek, goldlarning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham fikrimiz dalilidir. Bolada yaxshi xislatlarni uyg'ota oladigan bu xosiyatli nom bo'lib kishini baxtli qiladi, yomon nom esa kishiga baxtsizlik, dard, o'lim, balo keltiradi deb o'ylashgan. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, Y.L. Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni yozib qoldirishgan.Yuqorida qayd etilgan noto'g'ri tasavvurlar tufayli nafaqat o'zbek, balki arab millatida ham o'zlarini turli tasodif va zararlardan saqlamoq uchun o'z shaxsiy nomlarini sir tutishgan. Bolaga bitta emas ikkita nom berishgan, asosiy nomi sir tutulib ikkinchi nomi bilan chaqirishgan. Bola qulog'iga asl ismi Muhammad deb azon o'qitib, ikkinchi nomi Yusuf deb amalda qo'llashgan.

Ism tanlashda rasm- rusum hisoblanmish o'tmishdagi ajdodlar,ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi odatidir. Bunga esa Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlar ham O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar.Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir: Muhammad, Ibrohim, Ismoil, Muhammadkarim, Fotima

Xulosa qilganda, ismlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'analari, dunyoqarashi madaniyatini ifodalaydi.Ular shaxslarni o'zaro ajratish ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifaga ham ega bo'lib muayyan maqsadni ham o'zida aks ettiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahrorovna, N. N. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 90-96. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/download/619/575/>
2. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110-112. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/59>.
- 3.Nazarova, N., & Yoqubovna, S. M. (2022). Lingvistikada lacuna muammosi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 113-115. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/60>
4. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Akhmedova Marjona. (2022). Effective Language Learning. Eurasian Research Bulletin, 4, 104–107. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/435>



## FALSAFIY-PSIXOLOGIK ROMAN XUSUSIYATLARI (“GERSTOG” ROMANI MISOLIDA)

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna.

Farg’ona davlat universiteti,

Amaliy ingliz tili kafedrasida o’qituvchisi. [lingomaster555@gmail.com](mailto:lingomaster555@gmail.com)

**Kirish.** Sol Bellouning 1964 yilda yozilgan “Gertsog” romani yozuvchi ijodida salmoqli o’ringa ega. Bu o’rta yoshlardagi jabrdiyda va hazilkash, motamsaro va maftunkor Moses Gertsog ismli kishining hayotiy va ruhiy ziddiyatlari haqida hikoya qiluvchi roman. Garchi uning hayoti sekin-asta parchalanib borsa-da – yozuvchi, o’qituvchi va ota sifatida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, rafiqasining unga nisbatan muhabbatini yo’qotadi, eng yaqin do’stidan xiyonatning achchiq alamini tortadi – u o’zini shaxsiy falokatlardan omon qolgan kishi sifatida ko’ra oladi. U hech qachon jo’natishni maqsad qilmagan xatlarni yozadi. Do’stlari va dushmanlariga, birinchi turmush o’rtog’i va marhum onasiga, hamkasblari va mashhur insonlarga, ba’zi kasb egalariga yozgan maktublarida Moses dunyoni o’zgacha idrok etishini va qalbining eng tubiga yashiringan ichki sirlarini oshkor etadi.

**Asosiy qism.** Romanda barqaror xronologik syujet mavjud emas, aksincha, u xotirot shaklida – retrospektiv syujet asosida yaratilgan. Hodisalar asosan Moses ongida sodir bo’ladi. Qahramonning ruhiy-hissiy holatini tasvirlash uchun muallif introspektiv usuldan, ya’ni ichki monologlardan juda ko’p foydalangan. Bunda Bellou hikoyachi sifatida Uilliam Folkner yoki Vijiniya Vulf uslubiga taqlid qilgan deya olmaymiz. Ammo romandagi uzundan-uzun, o’zgaruvchan, parchalangan ichki monologlarni Gogolning “Telbaning kundaliklari”, ya’ni muallif nutqi yordamida an’anaviy bayon usuli orqali emas, balki, markaziy xarakterning ruhiy holati orqali boshqarilgan tarqoq idrok natijasi aks etgan asarga o’xshatish mumkin. Roman o’ziga xos kompozitsiyaga ega. Qahramon tomonidan bitilgan va ko’p hollarda tugallanmagan maktublar asarda epistolyar roman elementlarini belgilash bilan birga roman syujetida kechiktirilgan ekspozitsiya vazifasini o’taydi. Masalan, bosh qahramon Moses Gertsogning Medlinga uylanishdan avval Deyzi ismli ayol bilan turmush qurgani va bu nikohidan Marko ismli o’gli borligi haqida bosh qahramonning sobiq rafiqasiga yozgan xati orqali ma’lum qilinadi. Kichik-kichik lavhalar asosan uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi, ba’zida esa bayon usuli birinchi shaxs nutqiga ko’chadi. Bu esa o’z navbatida yozuvchi tomonidan romanda badiiy psixologizmning qator usul va vositalaridan unumli foydalanilganligini ko’rsatadi. Personaj ruhiyatini ochib berishda “ichki monolog”, “ong oqimi” kabi psixologik tasvirning bevosita shakllari, shuningdek, personaj hatti-harakatlari, yuz-ko’z ifodasi, fiziologik holatini ko’rsatish orqali psixologik tasvirning bilvosita shakllari xizmat qilgan. **“Who!” said Herzog. All his blood rose, and as quickly and massively left his brain. “You mean Gersbach?” “That’s right.” Asphalter now had no control whatever over the nerves of his face; it had gone soft with the pain he felt. His mouth looked chapped, with black lines.** (“Kim?!” so’radi Gerzog. Birdan tanasidagi qon ko’tarildi va zudlik bilan miyasini tark etdi. “Sen bu odam Gersbax demoqchimisani?” “Haqsan” Esfalter endi yuzining asab tolalarini boshqara olmay qoldi; ular qalbida his qilib turgan og’riq tufayli bo’shashib ketgan edi. Og’zi esa lang ochilib qolgan edi.- tarjima o’zimizniki). Romanda bosh qahramonning ismi va uyi ramziy ma’noga ega. Asar bosh qahramonining ismi Moses - "Musso" nomi ibroniy tilidan kelib chiqqan bo’lib, "suvdan tortib olmoq" degan ma’noni anglatadi. Yahudiylarning muqaddas kitobi Tavrotda keltirilishicha, Fir’avnning qizi Nil daryosida o’qib ketayotgan go’dakni qutqargan va unga bu ismni qo’ygan. Gertsog esa nemis tilidan olingan bo’lib, ma’lum bir hudud va mulkni boshqaradigan, qonun yoki an’analarga ko’ra gertsoglik unvoniga ega bo’lgan insonni bildiradi. Qadimdan Yevropa hududlarida gertsoglik unvoni ostida feodal boshqaruvni amalga oshirgan hokimiyat vakillari mustahkam qurilgan qal’a yoki qasrda yashaganlar va bu ularning kuch-qudrati va salobatini aks ettirgan. Asar qahramoni Moses Gertsogning uyi ham qal’adek mustahkam va og’ir, unga kirishga hammaning ham haddi sig’maydi. U ana shu tevarak-atrofdagi yolg’iz, unda yashagan yoki tashrif buyurgan insonlar qoldirgan buyumlar va xotiralarga to’la.

Shu bilan birga go'zal tabiat manzarasi uni o'rab turadi. Moses xuddi uy kabi og'ir va yolg'iz, xotiralar azobida qolgan inson.

Mosesga “depressiv holat” tashhisi qo'yilgan. Buni asarni o'qishga kirishgan kishi birinchi sahifadanoq anglab oladi. *If I am out of my mind, it's all right with me, thought Moses Gersog.* (Agar aqldan ozgan bo'lsam, hechqisi yo'q, o'yladi Moses Gertsog. – tarjima o'zimizniki) Ammo u ko'p hollarda optimistik kayfiyatda namoyon bo'lganiga ham guvoh bo'lish mumkin. Vaqtini qizchasi Jyun bilan birga o'tkazgan damlarda tez-tez bolalar qo'shig'ini kuylaydi va u bilan bolalar o'yinini o'ynaydi. Roman yakunida u o'zi va borliq o'rtasidagi qarama-qarshilikarni qabul qilgan holda xotirjamlik topa oladi.

**Xulosa.** Muallif ijodining o'ziga xosligi shundaki, odatda uning protagonistlari intellektual soha vakillari va aksar hollarda muallif romanlari bosh qahramon ismi bilan nomlangan. A.S.Mulyarchikning ta'kidlashicha, Sol Bellou asarlaridagi ziyoli qahramonlar muallif shaxsiyatiga juda yaqin. U o'zining bir necha romanlari syujetida shaxsiy hayoti va o'zi tanigan insonlar hayotiga oid faktlarga tayanganligi yaqqol sezilib turadi. Xususan, “Gertsog” romani bosh qahramoni – Moses Gertsog ismli professor siymosida yozuvchining shaxsiyatiga xos xususiyatlari va roman syujetida esa adibning hayot yo'llaridagi chigalliklar, xiyonat, oilaviy muammolar kabi o'xshashliklar mavjud. Fikrimizni yozuvchining “badiiy adabiyot eng yaxshi avtobiografiya” degan e'tirofi dalillaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bellow, Saul. “Herzog” Penguin books, New York. 2003
2. Мулярчик А. С. Современный реалистический роман США (1945-80) / А. С. Мулярчик. - М.: Высшая школа, 1988. - С.171.
3. Mel Gussow and Charles McGrath, [Saul Bellow, Who Breathed Life Into American Novel, Dies at 89, The New York Times](https://www.nytimes.com/2005/04/05/books/saul-bellow-who-breathed-life-into-american-novel-dies-at-89.html) 6 April 2005.<https://www.nytimes.com/2005/04/05/books/saul-bellow-who-breathed-life-into-american-novel-dies-at-89.html>
4. Roth, Philip. “Introduction. Rereading Saul Bellow”. Penguin books, New York. 2003

## ONA MAVZUSIDAGI SHE'RLARNING BADIY XUSUSIYATLARI (TASHBEHLAR TAHLILI)

**Xabibullayeva R.M.**

BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

**Abstrakt:** Ushbu maqolda o'zbek adabiyotshunosligida mo'tabar zot Onaga bag'ishlangan asarlarni o'rganish onani ulug'lovchi va ona ta'rifidagi tashbehlarni tahlili kuzatiladi. Mazkur she'rlar badiiy jihatdan ancha pishiq, tashbehlarga boy, kompozitsion va janriy jihatdan rangbarangdir. Onaga tenglashtirilgan ulug' qadriyatlar sanoqli. Bu tashbehlarda onagagina xos fazilatlar asos bo'lib xizmat qilgan, qolaversa, dunyo adabiyotida an'anaviylashgan.

**Kalit so'zlar:** She'riyat, ijodkorlik, adabiyot, tasvir, san'at, qadrlash, ohang, tavsif, ifoda

Onaga tenglashtirilgan ulug' qadriyatlar sanoqli. Bu tashbehlarda onagagina xos fazilatlar asos bo'lib xizmat qilgan. Taniqli shoir Shuhrat Zulfiyaga bag'ishlangan “O, Ona...” she'ridagi quyidagi misralar e'tiborli:

*O, ona mehringda quyosh yashirin,  
Ne ajab gul unsa har izingda. (23)*

Onaning mehrida quyosh yashirin. To'g'ri, onaning mehri qiyoslangan narsalar ko'p. Ko'p ko'p takrorlanadigani esa quyosh bilan bog'liq. Chunki quyosh tafti nihoyatda baland. Biroq shoirning mubolag'ali tashbehi ohorli. U onaning mehri taftini quyoshga tenglashtirar ekan, unda quyosh yashiringan, deydi.

Yoki Sh.Shomuhamedov “Ona so'zi emasmi hayotimda shamchiroq” deb yozadi. Bunda Ona so'zi ulug'lanmoqda. U farzand yo'lidagi shamchiroqqa qiyoslanmoqda. Yong'in Mirzo onani hayotiy sifatlashlar, ko'ngilga yaqin tuyg'ular orqali ta'riflaydi. “Hayotim ustuni”,

“Ko’zimning nuri”, “Shifokorim”, “Chamanzorim”, “Madadkorim” kabi sifatlashlarda onaga xos fazilatlar o’z tajassumini topgan.

Ona zamin, Ona yer, Ona tuproq birikmalariga tez-tez duch kelamiz. E.Vohidovning “Zamin va fazogir” she’ri bu jihatdan e’tiborli.

*Zaminim, men senga farzand erurman,  
Onamsan, toabad dilband erurman (34).*

Bunda Ona zaminga tashbehlantirilgan.

A.Oripovning “O’zbek onasi” she’rida Vatan Onaga tenglashtirilganiga guvoh bo’lamiz:

*Vatanni Ona deb bekor aytilmas,  
Ona buyurganda yo’ldan qaytilmas.  
Sen o’zing Ka’bamsan, Baytul muqaddas,  
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,  
Ey, o’zbek onasi, o’zbek onasi (37).*

Shoir Vatanni Onaga tenglashtirish barobarida uni musulmon ahlining sajdagohi Ka’baga qiyoslaydi. Bu bilan ona muqaddas zot degan fikrni ta’kidlaydi.

“Ona degan nom” she’ri falsafiy mazmuni bilan alohidalik kasb etadi. Unda shoir til, Vatan insoniy qadriyat yanglig’ so’zlar Onaga tenglashtirilishi sabablari hayotiy yoritilgan:

*Deydilar, qahrli bahodirlar ham  
Janglarda jon berar chog’i mardona,  
Behad azoblarga chidab so’nggi dam,  
Bitta so’z dermishlar shivirlab: Ona.(45)*

Shoir aytmoqchi, qahrli bahodirlar janglar chog’ida, azoblar iskanjasida birinchi eslaganlari Ona bo’lgan.

*Ulug’ bir donishmand olamni sharhlab,  
Axiyri tanibdi tuqqan elini.  
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,  
Ona, deb atabdi ilk bor tilini.*

Ona tili degan ulug’ ifoda bor. Bu bejiz emas, deydi shoir. Donishmand olim dunyo ilmini egallab, o’zligini tanidi va eliga, so’zlayotgan tiliga Ona nomini qo’shdi.

*Dunyo shoirlari Vatan sha’niga  
Sifat axtarmishlar qator va qator.  
Nihoyat, kelmishlar bitta ma’niga:  
Ona-Vatan deya bitmishlar ash’or.*

Vatan ulug’ umuminsoniy qadriyat. Zero, bu qatorda faqat yaratuvchi zot Ona so’zini qo’shib aytish mumkin. Shular asosida shoir muhim hayotiy xulosaga keladi: “Bu yorug’ olamda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda Ona degan nom”. Bu aforizm xarakteridagi fikr Vatan va Ona tushunchalarining mushtarak tushuncha ekanligini o’zida ifoda etadi.

Umuman olganda, A.Oripovning ona mavzusidagi she’rlari chuqur falsafiy mazmunga ega. Shoirning fikriy jihatdan teran satrlari qatida onaning betakror qiyofasi yaraqlab turadi.

Omon Matjonning “Ona degan so’z” she’rida bu ulug’ so’zning qudrati o’z ifodasini topgan.

*Yulduzlardan sirqilib shabnam,  
Ufq bilan ko’rishganda yer,  
Oftobga kiprigim bilan  
Ona so’zni yozdim go’yo she’r.*

Shoir tabiatdagi go’zal holatlarga hamohang tarzda ulug’ so’zni she’rga yozmoqda.

*Har ko’kat, har bargning nomiga  
U eltadi tog’lardan ta’zim,  
Ona degan so’zning yoniga  
Chizgim keldi MAYSAning rasmin.*

Maysa go’zal tabiat ramzi. Unda beg’uborlik, yashash barq uradi. Shu bois shoir maysa so’zi yoniga Ona so’zini yozadi.

Kapalak rang, bulbullar ohang  
Kashfi bilan mast bo'lgan lahza,  
Ona so'zin qavatiga man  
Yozib qo'ydim BAHOR deb asta...

Ona so'zi tabiatning eng go'zal manzaralari, ayniqsa, bahor fasli bilan uyg'unlik kasb etadi. Bahor ko'm ko'k dalalari, bepoyon kengliklari, qip qizil lolazorlari bilan inson ko'ngliga yaxshi kayfiyat, iliqlik olib kiradi. Shundanmikan, shoir uni ona so'zi bilan barobar yozib qo'yadi.

Men jo etdim Ona nomiga  
Yerning so'nggi gardigacha to,  
Endi Ona so'zi yoniga  
Dadil yozib qo'yaman: DUNYO!

Yuqoridagi tushunchalar birlashsa, dunyo so'zini keltirib chiqaradi. Onaning yaratuvchilik qudrati Dunyoga tenglashtirilmogda.

Men yulduz deb uni kuylayman  
U Vatandir. U Arshi a'lo.  
Men unga ming tashbeh o'ylayman,  
Yetkazurman millionga hatto.

Shoirning xulosalari samimiy va hayotiy: Ona yulduzga qiyoslanmogda. U Vatan. Farzand uchun Arshi a'loday aziz. Shu bois Onaga tashbehlar millionta bo'lsa ham oz, demoqchi shoir. Ko'rinadiki, Ona bilan aloqador tashbehlar nihoyatda jozibali va hayotiy mazmunga ega. Shoirlarimiz bu mo'tabar zot sha'nini ulug'lamoq uchun hayot ummonidan sifatlar izlaydilar va ular orasidan topgan eng bebaholarini faqat onalargagina tenglashtiradilar. Yuqorida tahlil etganimiz A.Oripov, Sh.Shomuhamedov, E.Vohidov, O.Matjon singari taniqli shoirlarning she'rlari mulohazalarimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Dusenbaev O. O'tkir Hoshimov asarlarida harakter drammatizmi: Adabiyotshunoslik // Til va adabiyot ta'limi, 2007, #3. – B.23-27.
2. Dusenbaev O. O'tkir Hoshimov ijodida Ona obrazi. NDA. – Toshkent, 2011. –B.24.
3. Oripov A. Munojot. Saylanma. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san"at nashriyoti,1992, –432 b.
4. Roza Khabibullaeva Muhammadayubovna. (2020). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN ENGLISH AND UZBEK POETRY. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 160-164. Retrieved from <http://www.summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/331>
5. Khabibullaeva, R. M. (2020). Analysis of pastiche in the novel "The lightning thief" by Rick Riordan. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 958-961.
6. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
7. , F. T., Turaeva, K. T., & Zaripova, R. I. (2021). Analysis Of The Protagonists Of The Novel Of The "Days Gone By". The American Journal of Social Science and Education Innovations, 03(02), 203-209. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue02-33>

# O'ZBEK ('QIZIMGA MAKTUBLAR'-O'. UMARBEOV) VA AMERIKA (TUESDAYS WITH MORRIE-A. MITCH) ADABIYOTI XOTIRA ASARLARINING QIYOSIY ANALIZI VA ULARNING MUSHTARAK XUSUSIYATLARI

Xamdamova Gulnoza Xotam qizi

*O'Z DJTU Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Abstract.** The article focuses on the comparative analysis of two works, namely Uzbek novel 'Qizimga maktublar' by U. Umarbekov and American one 'Tuesdays with Morrie' by Albom Mitch. This literary analysis is aimed to show identical elements in plot and characters though each book was written in a different years and continent from each other. Both authors have taken a profound look into the lives of sick people who, carry on their lives no matter what disease they suffer from. Though there are different plot lines in details, both novels develop the theme of inner strength of patients through the protagonist's characteristics, the sufferance in the plot and setting. Literature from across the globe, regionally and locally was reviewed to provide not only various perspectives, but also common destinies at the same time.

**Key words:** memoir works, similarities and differences in plot and characters, memories, real events, Venn diagram

## Kirish

Hozirda adabiyotshunoslikning yo'nalishlaridan bo'lgan qiyosiy adabiyotshunoslik rivojlanmoqda. Ayni paytda badiiy tarjimashunoslik ham bundan mustasno emas. Kitobxonlar orasida '**Morrining seshanba darslari**' nomi bilan tanilayotgan asar- badiiy tarjima namunasi o'zbek qissalaridan biri bo'lmish 'Qizimga maktublar' asari bilan hamoxang-ki, bu maqolada ayni shu xususda so'z boradi

## Asosiy qism

Asarlar asosan yozuvchinig hayot tajribalaridan kelib chiqib yaratilgan rangorang badiiy to'qima hikoyalari, lekin ba'zi asarlar to'g'ridan to'g'ri, real- hayotiy voqeliklar in'ikosidir. Yuqorida sanab o'tilgan ikki asar real voqelikni hikoya qiluvchi, ayni damda kitobxonda deyarli bir xil kayfiyat uyg'otuvchi, boshqa millat va yillarda yozilganligiga qaramay insonlar hissiyotlari mushtarakligini ifodalovchi asarlardir. Ulardagi o'xshashliklarni ilg'ash uchun asar motivlarini bilish kerak:

'Qizimga maktublar' asari qissa janrida yozilgan bo'lib, O'lmas Umarbekovning tomoq raki kasalligiga chalinganida qizi Umidaga gapirib berolmagan hodisotlarni xotira sifatida yozgan asari hisoblanadi. Adib qizining bir necha yillar oldin qarindoshlari haqida gapirib berishini so'raganida bunga vaqt topa olmaganligini, mana shunga endi achinayotganini aytib asarni boshlaydi va o'z hayot tajribalaridan kelib chiqqan xotiralarini qalamga oladi.

'Tuesdays with Morrie' ('Morrining seshanba darslari') ham xotira roman bo'lib, yozuvchi-Mitchning sobiq ustoz, sotsiologiya professori Morri Shvarznikiga qilgan seshanba tashriflarini ifodalaydi. Ayni paytda professor Alzgeymer (ALS)-tuzalmas kasalligiga chalingan. Adib Mitch- mashhur sport sharhlovchisi televizion ko'rsatuvda o'z ustozini nogohon ko'rib qoladi. Professorning kasalligini bilgan avtor Massachusetts shtatiga Morrini ko'rgani uchib boradi. Adib bir necha yillar oldin o'zi bilan juda yaqin bo'lgan bu professorni yo'qlab turishga va'da berganligi-yu, keyinchalik o'z ishlari bilan ovora bo'lib, va'dasini unutilganligiga achinayotganini va bundan uyalayotganligini o'ylab mo'ljallangan manzilga yetib boradi. Ustoz bilan 14 seshanba kunlari ko'rishib uning hayot tajribalaridan kelib chiqqan xotiralarini yozib olishga muvaffaq bo'ladi. Quyida ikki asardan keltirilgan, bir xil kayfiyat beruvchi kasallik haqidagi jummalarni keltirib o'tish o'rinlidir:

(1.1) *By the end, if you are still alive, you are breathing through a tube in a hole in your throat, while your soul, perfectly awake* (7-bet)

(1.2) *Boshim osmonda edim. Xudoga shukur. Demak, bir qancha vaqt tomog'imni radiatsiya nurlari bn davolashadi...*(11-bet)

Ikki qahramonning dardga tik boqishlari ham aynan o'xshashdir:

(2.1) *He was intent on proving that the word “dying” was not synonymous with “useless.”* (8-bet)

(2.2) *Hafa bo'lmang, nurlanish bilan davolanayapsiz, o'tib ketadi.... Men quloq solmay chiqib ketdim* (28-bet)

(3.1) *“There are some mornings when I cry and cry and mourn for myself. Some mornings, I'm so angry and bitter. But it doesn't last too long. Then I get up and say, ‘I want to live ...’ “So far, I've been able to do it. Will I be able to continue? I don't know. But I'm betting on myself that I will.”* (13-bet)

(3.2) *Peshanamga shu yoshimda hayotdan ko'z yumish yozilgan bo'lsa, mayli shu daqiqani kutib olaman. Faqat Umida mensiz eziladi. O'n to'rt yoshida otasiz qolishi, o'rtoqlari oldida qiynaladi...* (63-bet)

Keyingi o'rinlarda esa bosh qahramonlarning qadrli va sevuvchi insonlar qarshisida ekanliklari ham insonlar his-tuyg'ularining o'xshash ekanligini adabiy dalillaydi:

(4.1) *Shu o'rinda aytib o'tishim kerak, men ham baxtli odam ekanman. Kasallikka chalinaverganimdan keyin atrofimda nihoyatda yaxshi odamlar ko'p ekanligini ko'rdim: Tohir Malik, Mahmud Murodov, Davlat Alimov, Prezidentimiz I.A.Karimov.....* (78-bet)

(4.2) *Then again, how many business or law students ever visit their old professors once they leave? Morrie's students did that all the time. And in his final months, they came back to him, hundreds of them, from Boston, New York, California, London, and Switzerland; from corporate offices and inner city school programs. They called. They wrote. They drove hundreds of miles for a visit, a word, a smile. “I've never had another teacher like you,” they all said.* (54-bet)

Asardagi deyarli bir xil gap va frazalarni o'qigan kitobxon, ikki yozuvchi xuddi o'zaro kelishib olgan degan taasurootda bo'ladi. Xuddiki ular bir gapni ikki tilda bayon etayotgandek. Bu o'xshashlikni **Venn diagrammasi** orqali analiz qilish yanada maqsadga muvofiqdir:

<b>Kitob qahramonlarining qiyosiy analizi</b>		
<b>Farqlar ('Tuesdays with Morrie')</b>	<b>Ikki asardagi o'xshashliklar</b>	<b>Farqlar ('Qizimga maktublar')</b>
Adib Mitchning sotsiologiya o'qituvchisi Morri Shvarz	Bosh qahramonlarda erkak obrazi	Adibning o'zi, ya'ni O'lmas Umarbekov
70 yosh	Juda ham yosh, juda ham qari bo'lmagan obrazlar	60 yosh
Alzgeymer kasalligi	Da'volab bo'lmas kasallikka chalinish	Tomoq raki
Sotsiologiya o'qituvchisi Sharlotta Shvarz	Gumanist tipdagi xarakterlar	Yozuvchi
Dialog tariqasida, o'qituvchi o'z studentiga, to'g'ridan to'g'ri qilgan suhbat	Asarlarning suhbatlar asosiga qurilganligi	Monolog tariqasida, ota o'z qiziga, kitob (maktublar) yozish orqali qilgan suhbat
<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (2.1)</i>	O'limga tik boqish	<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (2.2)</i>
<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (3.1)</i>	Hayot haqida o'z falsafiy qarashlariga ega bo'lish	<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (3.2)</i>
<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (4.2)</i>	Qadrli va sevuvchi insonlar davrasida bo'lish	<i>Yuqoridagi misolda keltirilgan (4.1)</i>
<b>Kitoblar syujetidagi, voqealaridagi, ikkinchi darajali qahramonlardagi o'xshashlik va farqlarning qiyosiy analizi</b>		
1997-yil	Voqealar yili (bir xil o'n yilliklarda)	1994-yil
Sotsiologning hayot tajribalari 14 seshanba suhbatlari asosida	Xotira asarlari	Yozuvchining o'z qarindoshlarini tasvirlash orqali xotiralarini bayon qilish asosida

Adib ustozini tez-tez borib ko'rmaganligiga nisbatan	Achinish kayfiyatining mavjudligi	Adib qizining iltimosini qilmaganligiga nisbatan
Biografik, falsafiy	Badiiy to'qima emas, real voqeliklarga asoslanganligi	avtobiografik
191 bet	Xattoki asar hajmi (betlar soni)ning o'xshashligi	111 bet
Asar davomida bemorning dardan azob chekayotganligi tasviri	Sog'lom bo'lishlikning muhimligi haqidagi taasurootga boyligi	Asar boshida bemorning dardan azob chekayotganligi tasviri
14 seshanba	Voqealar vaqtining berilishi	Oktabr va noyabr oylari
Ma'naviy tushunchalar haqida to'gridan to'g'ri pand-nasihatlar	Didaktik ruh ustuvorligi	Pand-nasihatlarni o'tmish xotiralari orqali berish
3-shaxs hikoyasi	Hikoya-tasvirlash usuli	1-shaxs hikoyasi
Qahramon o'z uyida 6 oy darddan azob chekishi	Retrospeksiyaning mavjudligi	Qahramon o'z uyida va Moskvada 3 yil darddan azob chekishi
onasi	Ikki qahramonning ham yaqinini yoqotish to'g'risadigi hikoyasi	Ukasi
Butun tanada	Tanadagi nosog'lomlik	Tananing yuqori qismida

### Xulosa

Ba'zi adiblar o'z asarlarini turli yillarda, turli millat vakillari haqida yozsalarda inson his-tuyg'ularini o'zlari anglamagan holda, oldindan kelishmagan holda hamohang va mushtarak ifoda etadilar. Demakki inson turlicha bo'lgani bilan uning ko'ngil kechinmalari deyarli bir xil bo'lishi mumkin. Aynan shu mushtaraklikni esa biz adabiy asarlarni adabiy tahlil qilib yanada chuqurroq anglaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Albom Mitch- 'Tuesdays with Morrie' <https://royallib.com/search/>
2. O'lmas Umarbekov- 'Qizimga maktublar'  
[http://www.ziyouz.com/index.php?option=com\\_content&task=view&id=4208&Itemid=228](http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=4208&Itemid=228)
3. <https://www.mitchalbom.com/about/>

#### Foydalanilgan internet va video manbalar ro'yxati:

4. [https://www.youtube.com/watch?v=V1N4W7\\_Qhao](https://www.youtube.com/watch?v=V1N4W7_Qhao)
5. <https://www.youtube.com/watch?v=E463tZdAGn4>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=f8tsIBixa9Q>

### O'ZBEK VA XORIJ ADABIYOTIDA EVFEMIZMLARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.

**Sobirova Zarnigor Rahimovna**  
PhD, Ingliz adabiyotshunosligi  
**Gayratova Dilnoza G`ayrat qizi**  
BuxDU 1 kurs magistr

**Annotatsiya.** Maqolada evfemizmlar haqida qisqacha ma'lumot aks etgan. Ularning o'zbek va xorij adabiyotida paydo bo'lishi va rivojlanishi bayon etilgan. Evfemizmlar va ularning asosida o'zbek nutqida shakllanuvchi murojaat vositalari borasida qarashlar ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** evfemizmlar, evfemizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

**Kirish.** Evfemizmlar insoniyat tildan foydalanish jarayonidagi keng tarqalgan fenomenlardan biri, u odamlar orasida muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi, muloqotni bir tekisda ketishini

ta'minlaydi, suhbatning yanada ta'sirli olib borilishini ta'minlaydi. Evfemizmlar ko'pgina chet ellik olimlarning ham e'tiborini tortgan.

*Heimat* so‘zini etimologik tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘zning paydo bolishi (Mittelhochdeutsch-1050 yildan 1350 yilgacha bolgan) 1050 -1350 yillarga borib taqaladi va *heimote, heimuote, heimoti* “joy, makon inson tug‘ilgan joyi, o‘zini o‘z uyidek his qiladigan joy ma‘nosini anglatadi. Nemis tilida *Heimat* so‘zi fonetik o‘zgarishga XV duch kelgan. XVII asrgacha bu so‘z sredniy rodga qo‘llanilgan. Hozirgi kunda biz bu so‘zni jenskiy rod bilan ishlatamiz, ammo hozirgi kunda ham ba‘zi hududlar shevasida sredniy rodga ishlatilyapti. *Heimlich* sifati ham XVIII asrdan boshlab olmon tilda qollanilgan va “vatanga ta‘luqli, tugilib o‘sgan joyga ta‘luqli ekanligini bildiradi”. Aka-uka Jakob va Vilhem Grimmning “*Deutsches Wörterbuch*” kitobida *Heimat* va *Vaterland* so‘zlarining asosiy ma‘nolari haqida ma‘lumotlar mavjud. *Vaterland* so‘zi *Heimat* so‘zidan keyin paydo bo‘lgan. [8]

“*Das grosse Wörterbuch der deutschen Sprache*” kitobida *Heimat* leksemasini ikkita ma‘noga ajratadi: a) *Land, Landesteil oder Ort, in dem man [geboren und aufgewachsen ist] oder sich durch ständigen Aufenthalt zu Hause fühlt (oft als gefühlbetonder Ausdruck enger Verbundenheit gegenüber einer bestimmten Gegend); b) Ursprungs-, Herkunftsland eines Tiers, einer Technik oder anderes.*

Ularning birinchisida, insonning muayyan joyga, uning qaerda tug‘ilganiga bog‘liqligi haqidagi insoniy tuyg‘ularga asoslanadi, bu qiymat insonning biror joyga bog‘lanishiga asoslanadi. Leksemaning ikkinchi ma‘nosi sof moddiy asosni aks ettiradi, chunki u mamlakatning kelib chiqishini yoki hayvonot dunyosi yoki texnologiya dunyosining yaratilishini, kabi ma‘nolarni ko‘rsatadi.

“Meyer neues Lexikon”da quyidagi fikrlar berilgan: “*Heimat, subjektiv von einzelnen Menschen oder kollektiv von Gruppen, Stämmen, Völkern, Nationen erlebte territorial Einheit, zu der rein Gefühl besonders enger Verbundenheit besteht*”. Ushbu talqinda yana ma‘lum bir hududga bog‘lanish tuyg‘usini haqida gap ketgan bo‘lib, ammo bu bog‘lanish shaxs yoki odamlar guruhida ularning subyektiv dunyoqarashi asosida shakllangan, lug‘at tuzuvchilar bu odamning tug‘ilgan joyiga bog‘liqligini ko‘rsatmaydilar. “Das Psychologie - Lexikon” kitobida insonning tug‘ilgan joyga intilishi haqida gap boradi. Odatda bu inson o‘tib-ulg‘aygan va bolaligini o‘tkazgan joyga bog‘liqlik tuyg‘usi ko‘proq ma‘lum bir landshaftda, o‘ziga xos muhitda va millat va xalqida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, “ota-ona uyi” tushunchasi inson hayotida katta ahamiyatga ega, chunki vatandan uzoqda, “chet elda” yoki “begona yerda” inson o‘z bolaligini, tug‘ilib o‘sgan joyini sog‘inib yashaydi. [7]. Nemis tilida “Vatan” konsepti ikkita leksema bilan beriladi: *Vaterland* va *Heimat*. Bu ikki so‘zning qo‘llanilishi tarixiy voqealarga borib taqaladi. Germaniya ministiri bo‘lagan faylasuf Y. Gebbel (16-mart, 1942 yilda) o‘zining farmoyishida har bir kishi vatan uchun o‘zini qurbon qilib, qahramon bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi. Shu farmoyishdan so‘ng olmon xalqi *Heimat* so‘zi o‘rnida *Vaterland* so‘zini ishlata boshlashdi. [3]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Monografiya. Fanlar akademiyasining “Fan” nashryoti. – Toshkent, 2016
2. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filolog fan diss Toshkent, 2017. – B. 45; 48



3. Игнатова.Е.М Концерт Родина в социально-культурном контексте Германии.Вопросы филологии-2006-№С-8
4. Аскольдов С. Концепты слова Русская Словесность. М, 1997, – С.269
5. Арутюнова Н. Д. Воля и свобода / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Космос и хаос. Концептуальные поля порядка и беспорядка. – М. :Индрик, 2003. – С. 73–100.
6. Пименова М. В. Концепт сердце : Образ. Понятие. Символ : монография / М. В
7. Das Psychologie – Lexikon.-Deutschland,2008
8. Akademie der Wissenschaften zu Göttingen Deutsches Wörterbuch von Jacob Grimm und Wilhelm Grimm.-Berlin,2013.
9. Rahmatov, A. (2021). FLIP TEACHING» КАК ИННОВАЦИОННЫЙ СПОСОБ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/1542](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1542)
10. Hayotova D.Z (2021). NATIONAL-CULTURAL LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF HEIMAT (HOMELAND) IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES . ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/939](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/939)
11. Lola Ikromova Scientific And Theoretical Views About The Description Of The Notion Frame In Linguistics  
<https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/3147>
12. Mahmudova D.H. Sadridin Salim Bukhariy's role in the development of the literary environment of Bukhara in the late XX and early XXI centuries. Scholastico-2021. Angliya – 2021. 92-96 b.
13. Kuldasheva N.B. THEORETICAL VIEW POINTS OF LINGUISTS ON TERMINOLOGY. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2019 Issue: 12 Volume: 80. 2019. – P. <http://T-Science.org>;
14. Juraeva M.M. Theoretical Views of Concept, Frame, Tale-Concept, Tale-Frame in Cognitive Linguistics. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) Volume-8, Issue-5S3, 2019. – P. 392-395. <https://www.ijeat.org/wp-content/uploads/papers/v8i5S3/E10840785S319.pdf>
15. Abbarova M.X. TWO STORIES - TWO DESTINIES Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 2, 2021 <http://uniwork.buxdu.uz/hujjat.asp?id=4456>
16. Juraeva Nilufar Shukhratovna "THE MAIN AREAS (SPHERES) OF EUPHEMISMS AND TABOOS IN FRENCH LINGUISTICS"  
[https://buxdu.uz/docs/jurnallar/ilmiy\\_axborot/ilmiy\\_axborot\\_5\\_son\\_2020.pdf#page=136](https://buxdu.uz/docs/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_5_son_2020.pdf#page=136)
17. Adizova, O. (2021). В НАУЧНО-БИОГРАФИЧЕСКИХ РАБОТАХ АЗИЗА КАЮМОВА ОБ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКАХ СОЗДАТЕЛЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 6(2). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2055](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2055)
18. Jumayev, E. (2021). Семантические особенности аффикса -(и)бди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2432](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2432)
- 19.. Bobokalonov R.R. , Bobokalonov P.R., Hayatova N. "Meaning of canonical words-sentences in the spirit of tolerance" PHILOLOGY, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, N2(26), Volgograd 2020, 40-43 pp.  
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/562>
20. Akramov, B. (2021). Osobnosti terminologii turizma vo fransuzkom yazike. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 2(2).  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/1616](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1616)
21. Hayitova.G.B. Terminology in Agriculture  
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/614>  
[cejsr.academicjournal.io](https://cejsr.academicjournal.io)(<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/614>)

22. Hayitova.G.B. **Lexical-Semantic Analysis of the Terminological System of Agriculture and Water Management**

<https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/241>

23. Juraeva M.M. The national, cultural and linguocognitive peculiarities of modality of the french and uzbek fairytales. GIF. LangLit. An International Peer-reviewed Open Sccess Journal. V.3, №2. 2016. India, 2016. – P. 81–86.

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=juraeva+malohat&btnG=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=juraeva+malohat&btnG=)

**MATEMATIK TERMINLAR SHAKLLANISHIDA LEKSIK DERIVATSIYANING O‘RNI.**

**Ruzmetova Ozoda Alimovna**

Urganch davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası

tayanch doktoranti [ozoda.r@urdu.uz](mailto:ozoda.r@urdu.uz)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematika sohasiga oid terminlarning derivatsion shakllanishi, ularning derivatsion shakllanish usullari haqida muhokama boradi. Leksikaning boyib borishida, uning taraqqiyoti va rivojlanishida so‘z yasash, leksik derivatsiya muhim ro‘l o‘ynashi va matematika sohasiga oid terminlarning ham o‘ziga xos derivatsion xususiyat va imkoniyatlari mavjudligi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** derivatologiya, derivatsiya, leksik derivatsiya, derivatsiya usullari, affiksatsiya, suffiksatsiya.

Har bir tilning leksikasi doimiy harakatda bo‘ladi va bu harakat leksika tarkibining turlicha o‘zgarishiga olib keladi. Leksikaning boyib borishida, uning taraqqiyoti va rivojlanishida so‘z yasash, leksik derivatsiya muhim ro‘l o‘ynaydi.

Yasama so‘zlar shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan derivatsiya ko‘rinishlari manbalarda leksik derivatsiya tarzida tadbiiq etiladi. So‘z yasashning morfologik tipi, grammatik so‘z yasash usulining affikslar yordamida so‘z yasash jarayonini leksik derivatsiya jarayoni sifatida o‘rganiladi.

Matematika sohasiga oid terminlarning ham o‘ziga xos derivatsion xususiyat va imkoniyatlari mavjud. Barcha tillarda turli terminlar kabi matematik terminlar ham so‘z yasash usullari orqali hosil qilinadi.

Derivatologiya nazariyasida derivatsiya usuli muhim deb qaraladi. Lekin termin yaratish jarayoni haqida gap ketganda, umumiste‘mol so‘z qatlamini yaratishga qaraganda, termin yaratish ancha murakkab jarayon deb qaraladi. Bu haqida 1977 yil V.P Danilenko o‘zining olib borgan ilmiy tadqiqotida mavjud so‘z yasash usullari umumiste‘mol uchun so‘zlar yaratishga yetarli darajada deb qaraydi, ammo terminning mazmuni va definitiyasini ochib berish talab qilinadi, zero definitiyasiz, bir terminni ikkinchisidan farq qilish mumkin bo‘lgan o‘ziga xosliklarini farqlamay turib, uni to‘liq termin sifatida hisoblablash bo‘lmasligini qayd etadi[1].

Yasama terminlar hosil qilishda affiksatsiya usuli juda muhim ahamiyatga ega. Affiksatsiya yangi so‘z hosil qilishning eng sarmahsul turi hisoblanadi va asosan so‘zga affiks qo‘shish orqali so‘z o‘zagining ma‘nosidan yiroqlashmagan holda, asosan o‘zak ma‘nosiga aloqador so‘z yasaladi. Bunday holatlarda so‘zning ma‘nosi sezilarli darajada o‘zgarmaydi, balki uning so‘z turkumi jihatdan o‘zgarish holati uchraydi. Yangi leksemalarni hosil qiluvchi affikslar yasama terminlarni yasash uchun xizmat qiladi. Ba‘zi affikslar ma‘no jihatdan bir xil bo‘lgan so‘zlarni, ba‘zi bir boshqalari turlicha ma‘nolarga ega bo‘lgan so‘zlar yasaydi. Shuningdek ba‘zi affikslar bir xil so‘z turkumi doirasiga tegishli so‘zlarni hosil qilsa, boshqalari esa xar xil so‘z turkumga oid leksemalarni yasaydi. Demak, yasama so‘zning so‘z turkumini derivatsion affiksga qarab aniqlash mumkin bo‘ladi. Infleksiya jarayoniga zid ravishda derivatsion jarayonni to‘liq leksik planda o‘rganish mumkin.

Affikslar prefiks, suffiks va infiks xarakterida kuzatiladi. Sermahsul affikslarga suffiks xarakterdagi affikslarni, kam mahsul affikslarga prefikslarni va unumsiz hisoblangan affikslarga infikslarni ko'rsatish mumkin.

Bizning tadqiqotimizda ham qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi tahlil qilinayotgan matematika sohasiga oid aksariyat terminlar suffiksatsiya usulida yasalgan.

O'zbek tilida –chi, -lik suffikslar asosan matematika sohasiga oid terminlar derivatsion jarayonida faol ishtirok etadi:

-chi suffiksi asosan harakat nomidan ot hosil qilishda ishlatiladi:

O'zbek tili	Ingliz tili
qo'shiluvchi	addend
ayriluvchi	subtrahend
k'paytiruvchi	multiplicand
bo'linuvchi	dividend
bo'luvchi	divisor

-lik suffiksi quyida keltirilgan misollarda sifatdan ot yasash uchun xizmat qilgan:

O'zbek tili	Ingliz tili
kattalik	size
tekislik	plane
qalinlik	thickness

Suffiksatsiya eng sermahsul so'z yasash usullaridan bo'lib, shuningdek mazkur so'z yasash usuli eng qadimiy usullardan ham hisoblanadi. S.V Shvesova o'zining ilmiy tadqiqotida ingliz tilidagi terminlarning yasash, qo'llanilish chastotasini o'rganib tahlil qilgan va eng sermahsul usul sifatida suffikslar vositasida termin yasashni ta'kidlagan[2]. O'zbek tilshunosligi bo'yicha o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borgan tilshunos olimlar, I Yo'ldoshev va O' Sharipovalar olib borgan terminologik tadqiqot natijalaridan shuni qayd qilganlarki o'zbek tilida ham affiksatsiya usuli so'z yasashning eng faol usullaridan hisoblanadi[3].

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического анализа. – Москва.Наука, 1977. – с94.
2. Швецова С.В Лингвистический анализ способов терминообразования в современной офтальмологической терминосистеме. Автореферат диссертации канд.филол. наук. – Иркутск. 2005. - 22 с.
3. I Yo'ldoshev, O' Sharipova. Tilshunoslik asoslari. Toshkent. Iqtisod-moliya7 20077 B. 112.
4. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". P-Harfi; Davlat ilmiy nashriyoti; Tashkent.
5. Douglas Downing PhD "Dictionary of Mathematics terms" Copyright by Barron's Educational Series. 2009.

## INGLIZ ADABIYOTIDA HIKOYA JANRI RIVOJI

**Jalilova Lola**

dotsent, filologiya fanlari nomzodi,

Buxoro davlat universiteti

**Sharopova Farida,**

BuxDU, magistrant

**Kirish.** Ingliz adabiyotida hikoya janrining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi to'g'risida ingliz olimlari tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. Shunday olimlardan biri bo'lmish Charles Mey izlanishlariga ko'ra hikoya janrining ilk ildizlari Renessans davriga borib taqaladi va 20- asrga kelibgina hikoya to'liq janr sifatida shakllanadi. Uning fikriga ko'ra, albatta, Bibliya hamda Qur'on kitoblaridagi hikoyatlarda ham hikoya janrining uchqunlarini ko'rishimiz

mumkin. Ammo, Charlesning aniqlashiga ko'ra, 14-asrda yashab, ijod etgan buyuk yozuvchilar Bokachcho va Chouserlar hikoya janrining eng birinchi mualliflari bo'lib, ular adabiyotda o'sha davrdagi afsonaviy janrlardan bugungi kundagi realistik janrga ozgina bo'lsada siljish qilganlar.

**Asosiy qism.** Haqiqiy hikoya janri adabiyotning mustaqil janri sifatida 19-asrda rivojlana boshlagan va bu asrda uning taraqqiy topishiga o'z hissalarini qo'shgan yozuvchilar: E.T.A. Hofman, Gogol, Vashington Irving, va albatta, Edgar Allen Poe kabilardir. Ularning o'zlari hikoyalar yozishlari bilan bir qatorda, hikoyaning nazariy asoslarini ham o'rganib, uning ustida izlanishlar olib borganlar. Ulardan tashqari yana O. Genri, Genri Jeymes, va Jozef Konrad kabi yozuvchilar ham o'zlarining "The Secret Sharer" asarlari bilan hikoya janrining nazariy asoslarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

20- asr ingliz adabiyotiga nazar tashlaganda esa Charles Mey fikriga ko'ra, Heminguey o'z asarlari bilan xuddi rus yozuvchisi Chexovning avlodidek uning hikoya yozish an'alarini davom ettiradi. Keyingi hikoyanavislar qatoriga esa Mey Ketrin Anna Porter, Villiam Folkner, Jon Chiver, Bernard Malamud va Eudora Velti kabi yozuvchilarni kiritadi. Ammo, bugungi kunda ularning hikoyalari unchalik ommabop emas, o'quvchilar tomonidan unchalik ko'p o'qilmaydi. Ularning ta'siri muhimmi yoki yo'qligini vaqt ko'rsatadi.

Zamonaviy hikoya janrining uzoq yillar rivojlanish davrida asosiy iz qoldirgan yozuvchilar qatorida Virjiniya Vulf va Nadin Gordimer kabilarning nomlari muhim ahamiyatga egadir.

1937- yilda Elizabet Bovenning yozishicha, "Hikoya – bu yosh san'at... Ushbu 20- asrning bolasidir". Hikoya janri 20- asrda kino va suratlashlik san'ati bilan bir qatorda rivojlanib boradi.

Charles Mey o'zining hikoya janri kelib chiqishi va rivojlanish davrlari to'g'risida olib borgan kuzatishlariga ko'ra hikoya – bu eski roman janrining metaforik shakli hamda yangi realizmning metonimik shaklining qo'shilmasidan hosil bo'lgan janrdir. Mana shu kabi hikoyaning nazariy asoslari ustida ko'p izlanishlar olib borgan olimlar adabiy tanqidchilar emas, balki hikoyanavislarning o'zlaridir. Bular: 19 – asrda Edgar Alan Po, German Melvil va Anton Chexov bo'lsa, 20- asrda Genri Jeymes, Flenneri O' Konnor, Julio Kortazar va Eudora Velti kabilardir.

Ayniqsa, Alan Poning 19 – asrning o'rtalarida bildirgan tanqidiy fikrlari hikoya janrining alohida janr bo'lib ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Hikoya janrining birinchi nazariyotchisi sifatida u bahsli masala sifatida hikoyaning shakli, uning tuzilishi, hajmi, uslubi, mualliflik maqsadi, o'quvchiga bo'lgan ta'siri kabi mavzularni muhokamaga qo'ydi. Ushbu masalalar ustida bugungi kunda ham muhokamalar olib boriladi.

Har bir hikoyanavis, albatta, o'z yozish uslubi orqali boshqalaridan farqlanadi. Masalan, Ernest Hemingueyning hikoyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, u hikoyasini yozishdan ko'zlagan maqsadiga erishish uchun unda an'anaviy afsonaviy simvollarni qo'llaydi (suv, baliq va shunga o'xshash). Heminguey hikoyalarini bir vaqtning o'zida Villiam Folkner hikoyalari bilan qiyoslaganimizda, uning hikoyalari ko'proq ertakka o'xshashdek tuyuladi. Folkner esa o'z hikoyalarida o'tmish sadosini tarannum etishga harakat qiladi va ularni milliy an'analari bilan boyitishga intiladi. Uning hikoyalarini faqatgina Janub an'analari haqida bilimga ega bo'lgan o'quvchigina to'liq tushunishi mumkindir. Ernest Hemingueyning ayrim hikoyalarida ("A Clean, Well- Lighted Place" ("Toza, Charog'on joy") 1933) strukturasi yo'qdek tuyuladi, unda harakat, voqea kam rivojlanib, asosan psixologik strukturaga ega bo'ladi. Uning bir nechta hikoyalari, shuningdek D. H. Lourens, Ketrin Mensfild kabilarning hikoyalari ham mana shunday tuzilishga ega. Ular o'z hikoyalarida sodir bo'ladigan voqea-hodisani emas, balki hikoya qahramonlariga tegishli bo'lgan psixologik his-tuyg'ularni, insonning xarakterini, kechinmalarini birinchi o'ringa qo'yadilar. Ular uchun insonlar orasidagi munosabat, inson ichki dunyosi muhimdir.

20- asrning yana bir iste'dodli ingliz yozuvchilaridan biri Shervud Andersendir. Uning kuzatishlariga ko'ra, uning zamonida yaratilayotgan barcha hikoyalar mazmun(plot) va tushuncha asosida yozilishi lozim edi. Ammo, Andersenning fikricha bu butun hikoyanavislikni zaharlayotgandek ko'rinaradi. Uning maqsadi faqat mazmun emas, balki hikoyani shakli jihatdan ham to'g'ri yoza bilishga erishish edi.

Mashhur ingliz hikoyanavislari to'g'risida gapirganimizda, albatta, amerika yozuvchisi Jek Londonni ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Ushbu yozuvchi 19- asr oxiri 20- asr boshlarida yashab ijod etgan bo'lib, hayoti davomida juda ko'p asarlar yaratgan. U nafaqat hikoya janrida, balki qissa va roman janrlarida ham ijod qilgan. U o'z ijodi davomida 19 roman, 152 hikoyadan tashkil topgan 18 to'plam, 3 pyesa, 8 avtobiografik va publitsistik xarakterdagi kitoblar yaratgan. Jek Jondon ijodiy faoliyati davomida turli mavzularga qo'l uradi, ularning orasida indeyslar hayotiga bag'ishlangani ham "Olis o'lkada", "Ayol mardligi"; hayvonot olamiga bag'ishlangani ham "Yovvoyi kuch", "Oqso'lyoqtish"; sarguzasht asarlari ham "Chandiqli odam", "Oltin dara" va boshqa shu kabi asarlari mavjud.

Yuqorida bir qancha ingliz hikoyanavislarning asarlari va fikrlarini kuzatdik. Ular o'zlarining hikoyalari bilan, janrni nazariy jihatdan o'rganib, uning shakli, tuzilishi, uslubini ishlab chiqqanliklari bilan janr taraqqiyotiga ulkan hissalarini qo'shdilar.

Kuzatishlarimizdan ko'rinib turibdiki, har bir til, ya'ni ingliz hamda o'zbek tillaridagi hikoyanavislik o'z rivojlanish bosqichlariga ega ekan. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa chiqargan holda, bularning tarixiga nazar tashlasak, ikkala tilda ham hikoya janri bundan bir necha asrlar avval paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bular faqat boshqa nom bilan atalgan xolos, chunki hali bunday janr kashf etilmagan bo'lgan. Kichik hikoya, janr sifatida 19- asrda shakllana boshlaydi va 20- asr boshlarida u janr sifatida gullab yashnaydi. Har bir tilda hikoya o'ziga xos, ularning mentaliteti va ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda shakllanib boradi.

**Xulosa.** Har bir tilda ijod qilgan yozuvchilar esa o'zlarining o'ziga xos uslubi hamda yo'nalishiga ega bo'lganlar. Barcha yozuvchilar hikoyani uni yozish me'yorlariga amal qilgan holda yozganlar. Ular yozgan hikoyalar hajmi, qisqa-lo'nda bo'lishi, asosan voqealar rivojidan iborat bo'lishi bilan inglizhikoyalaridan ajralib turadi. Ingliz yozuvchilarining hikoyalari esa ko'proq tasviriy ifodaga ham asoslangan bo'ladi, ular voqealar sodir bo'layotgan atrof-muhitni, qahramon holati, kechinmalarini tasvirlashga alohida e'tibor beradilar. Kichik hikoya janri ustida nazariy izlanishlar olib borgan olimlarni yuqorida nomlarini keltirib o'tganimizdek, ko'proq ingliz va rus adabiyotida uchratishimiz mumkin. O'zbek adabiyotida hikoyaning ko'plab betakror namunalari yaratilgan bo'lsa-da, kichik hikoya janri nazariy jihatdan kamroq o'rganilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berkman S. Katherine Mansfield: a critical study. New Haven: Yale UP, 1951
2. Alpers A. Katherine Mansfield: a biography. New York: A.A. Knopf, 1953.
3. Meyers J. Katherine Mansfield: a biography. New York: New Directions Pub. Corp., 1980
4. May, Charles E., The Short Story: The Reality of Artifice, New York and London: Routledge (2002)

### **THE COMBINATION OF WAR AND LOVE IN THE NOVEL "A FAREWELL TO ARMS"**

**Jabborova Ruxsora Jobirovna**  
Master student of BSU  
[ruxsor\\_jabborova95@mail.ru](mailto:ruxsor_jabborova95@mail.ru)

**Introduction.** The First World War had a devastating effect on the lives of many people in many parts of the world. The war then dealt a severe blow to the social, political and economic consequences, including the death of innocent people, mental illness, depression, poverty and great losses. In his novel "A farewell to arms" author Ernest Hemingway portrays the First World War as meaningless, horrific, and devastating, and thus describes its negative effects, both physically, spiritually, and spiritually to many people. Plus, he demonstrates the horrific realities of war through numerous negative influences on the protagonists of the work.

"A farewell to arms" is not a complicated book. Rather, his plot can be summarized as follows: a guy meets a girl, a guy lives with a girl, and a guy loses a girl. Ernest Hemingway narrated the

story in chronological order, in a strictly linear manner, with no memorable scenes. In fact, the novel contains very little exposure. We never know exactly where his storyteller and protagonist, American ambulance driver Frederick Henry, came from or why he joined the Italian army. (So, we read chapter by chapter before we know his name.) We also don't know much about his lover Catherine Barkley's past, we can find out only from her story of her ex-boyfriend being killed in battle in France.

**Main part.** "A farewell to arms!" (1929) vividly expresses the irrationality of war, human rights, aggression, and, at the same time, the superiority of human courage, dignity, and love over any evil forces. In Hemingway's work, the first journalistic observation is replaced by analytical, comparative, and observational observations. He condemns any war, drawing attention to the fact that humanity is suffering because of it. In the image of ordinary people, he expresses the catastrophic consequences of being alone in the struggle for human rights and freedom. "A farewell to arms!" and other works have been translated into Uzbek by Ibrahim Gafurov. Nevertheless, "A farewell to arms" is a creative work that reflects the violence of the war and the ideas of mass destruction. He also criticizes the psychological damage that the war inflicts on people and the population and the brutal destruction of its survivors' lives. In the face of such devastation, novel positions, victory and defeat are meaningless terms. Unlike many novels that glorify bravery in battle, "A farewell to arms" is a terrifying and realistic depiction of a new type of war during World War I. He recalls one incident in the war: "In Madrid, we, the military correspondents, witnessed the killings for nineteen days last month. It was carried out by German artillery, which was a well-organized massacre. "

Hemingway himself has always been very critical of the war, of those who caused it: "I've been in a lot of wars, so I'm very, very strong. The author of this book has consciously come to the conclusion that the people who fight in wars are the most wonderful people in the world, and the more you enter the hot fronts, the more you encounter such wonderful people. But those who started the war, those who set it on fire again, are pigs who think only of economic competition and profit. I believe that those who have made a fortune in the war, those who kindle the flames of war, should be shot by the country's civilian authorities in the first days of the war. "

The protagonists of the novel grow and change in every way with the novel. For example, Henry's transition from an easy life to a real and serious life. When he came to the army, he was not a man of many emotions: he was not even interested in war and was disappointed in everything, ate and drank a lot, and regularly visited brothels. When he meets Catherine, he quickly becomes involved in the war, defeating the enemy and returning to Catherine. His love affair turned him from a drunkard, a depraved soldier into a kind, caring land. However, by the end of the novel, both his life, his war and his love life, remain vague and insignificant. Because Henry has no significant reasons left over from either.

When Henry falls in love with Catherine, he not only feels safe, but also tries to spend time with her. Their love distracts them from the consequences of a brutal war, and also allows them to temporarily escape the realities of war and its turmoil. It describes how both individuals struggle to keep their relationship a secret, and how difficult it is to be together. In addition, Henry escapes from the Italian army and decides to stop the war when he returns to find Catherine. She chooses to focus her full attention on her love and affection for him. It shows the devotion and sacrifice that Henry was willing to make to be with Catherine.

In addition, there are scenes in the play where the words of the protagonists reveal the shortcomings of the political sphere. When Henry was wounded by a mortar, Rinaldi told him that he would receive a medal, "[you] will receive an order ... [b] because you were seriously wounded. They say you can get silver if you prove you are a hero. Otherwise it will be bronze. " Thus, Henry is rewarded with a medal of bravery, despite the fact that he did not do any heroism during the battle. Hemingway portrays corruption in war through this scene because he wants to reward his people and reward them with medals, regardless of whether their actions are heroic or not. In addition, war influences people to change their moral values, which is described by Italian-American soldier Ettore Moretti boasting about his medals, the wounds of war, and the

career he aspires to. Ettore encourages Henry to join the American Army because it pays him more than the Italian Army. Moretti's moral values are reflected in his idea of joining the U.S. Army because he prefers to serve in an army that pays him more for his services. Henry's experiences of the Great War changed his outlook and attitude, making him feel disconnected as he participated in a war that would destroy and kill lonely, disgusting, and innocent people. In fact, it is the combination of love and war that makes this book so powerful and memorable. The protagonist of Hemingway's novel "The Bell Rings" says to himself about the woman he loves: "If you love her so much and you have to fill in the gaps for the continuation of the relationship, you have to fill it with urgency." Frederick Henry in "A farewell to arms" could have said the same thing about his relationship with Catherine Barkley. Since they meet every day at a time and place that could be their last, Frederick and Catherine should appreciate every drop of the love and passion in their relationship.

**Conclusion.** A farewell to arms is the best novel ever written about World War I (Erich Maria Remark's Silence on the Western Front ranks second) and is one of the best American books on World War II, Norman Meyler's Naked, It is compared to works such as Joseph Heller's The Dead and the Handcuffs-22, James Salter's The Hunters, and Tim O'Brien's What They Carry. And yet, "A farewell to arms" is also a delicate love story, one of the most delicate and moving stories ever written. It is compared to William Shakespeare's Romeo and Juliet and the information is correct. Both stories are about young lovers who have been confronted by their communities. (In Shakespeare's play, Montague-Capule has a problem with blood feuds; in Hemingway's novel, the Great War is to blame.) Both stories seem to vibrate with a sense of painful destruction, intensifying as these stories approach their conclusions. And both end in a heartbreaking tragedy. If not one of the greatest love stories ever told, "A farewell to arms" is one of the greatest of the twentieth century.

**Used literature:**

1. Baker, Carlos. *Ernest Hemingway A Life Story*. New York: Charles Scribner's sons. 1969. Print.
2. Bloom, H. E. (2010). Bloom's guides: A farewell to arms. Infobase Publishing: New York.
3. Bressler, C. (2003). *Literary criticism: An introduction to theory and practice*. Pearson Educational Limited: London.
4. Clerk, G. (2007). *Farewell to arms: A brief economic history of the world*. Princeton University Press: New York. Farley, A. (2013). *Elements of Modernism in American Literature*. The Classroom.
5. Hering, F. (2010). *Teaching Ernest Hemingway's a farewell to arms from multi critical perspective*. Prestwick House:

**О.ХЕНРИ ҲИКОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЁЗУВ УСЛУБИ**

**Насридинова Ситора Уткировна,**

БухДУ 1- боқич магистранти

[sitora\\_nasridinova@mail.ru](mailto:sitora_nasridinova@mail.ru)

**Илмий раҳбар: ф.ф.ф.д М.Р.Киличева**

О. Ҳенри таҳаллуси остида уч юздан ортиқ бетакрор ҳикоялар яратган Уилям Сидней Портер ўзининг ҳеч кимга ўхшамас ёзув услуги билан жаҳон адабиётида муносиб ўрин эгаллади. Ҳикояларда юморнинг кучли ифодаси, кинояларнинг моҳирона қўлланилиши, асарда кечаётган ҳодисаларнинг усталик билан очиб берилиши, асар қаҳрамонлари ўртасидаги чин муҳаббатнинг тараннум этилиши ва ўқувчи ўқиётган асарининг охирини тахмин қилаётган бир пайтда, воқеаларнинг умуман кутилмаган ҳолатда яқун топиши – адибнинг ўзига хос ёзув услубига хос жиҳат ҳисобланади.

Услуб деганда, тилнинг инсон фаолиятининг муайян соҳаси билан боғлиқ вазифаларга кўра ажратилиши тушунилади. Бадий услуб эса тилнинг коммуникатив ва эстетик вазифалари бирлиги билан бошқа услубларга хос унсурлардан кенг фойдаланиши,

экспрессив ва тасвирий воситаларнинг кўп ишлатилиши, сўзларнинг образли, кўчмаметафорик қўлланиши белгилари билан ажралиб туради. Сўз бойлиги уларнинг ранг-баранглиги, тўғри ва кўчма маъноларни бадиий нутқда ифодаланилиши бадиий адабиётнинг барча жанрларида намоён этилса-да, сўз ишлатиш, сўз танлаш, тасвир усули, тил воситаларининг қўлланилиши имкониятларига бир мезон билан ёндашиб бўлмайди. О.Ҳенри ўзининг ҳикояларида бадиий услублардан кенг фойдалана олган ёзувчилар сирасига киради. Адиб ҳикояларининг халқ тилига хос ва мос тарзда аниқ, тушунарли ва лўнда қилиб ёзганлиги – ўқувчининг диққатини жамлаб, уни воқеа-ҳодисаларнинг ниҳоясини билишга тобора қизиқишини орттиришини унинг дунёга машхур **“The Gift Of The Magi”** (“Афсунгарлар совғаси”), **“The Last Leaf”** (“Сўнги япроқ”), **“A Retrieved Reformation”** (“Обращение Джимми Валентайна”), **“After Twenty Years”** (“Йигирма йилдан сўнг”) каби ҳикоялари орқали билишимиз мумкин. Ушбу ҳикояларда адиб севги-муҳаббат, садоқат ва дўстлик мавзуларига алоҳида урғу беради. Ёзувчи сюжетли бурилиш бадиий қурилмасининг кутилмаган ниҳоя услубини ҳар бир ҳикоясида ўзгача тарзда тасвирлайди.

**Сюжетли бурилиш** – бадиий асарда сюжет йўналишини ёки кутилган натижасини тубдан ўзгартирувчи бадиий қурилма ҳисобланади. Сюжетли бурилишни бадиий асарда қўллаш учун турли хил усуллар қўлланилади, масалан, муаллиф маълумотни ўқувчидан яшириши ёки уни ноаниқ ёхуд нотўғри маълумотлар билан чалғитиши мумкин. Сюжетли бурилиш бадиий қурилмасининг асарда қай тарзда қўлланилишига қараб бир неча турларга ажратилади:

1. **анагнорисис** ёки **кашфиёт** категорияси – бу асар қаҳрамонининг ҳақиқий кимлигини, шахсини бирданига тан олиниши. Ушбу техника орқали олдиндан кутилмаган характер маълумотлари очиб берилади.
2. **Ёдга олиш (flashback)** ёки **аналепсис** категорияси – бу бирданига ўтмишдаги сирли воқеага қайтиш, китобхонни жумбоқни ечадиган, илгари номаълум бўлган айрим маълумотлар билан ҳайратда қолдириш.
3. **Cliffhanger** яъни башорат қилиб бўлмайдигин ҳолат – бу бадиий адабиёт сюжет қурилмаси ҳисобланиб, унда аросатда қолган бош қаҳрамон эпизоднинг охирида ҳайратланарли ишорага дуч келади ва ўқувчи қаҳрамоннинг қайси ҳолатни танлашига кучли қизиқиш билдиради.
4. **Ишончсиз ҳикоячи (unreliable narrator)** категориясида муаллиф олдинги воқеанинг уйдирма эканлигини очиб, охирини бураб қўяди ва шу тариқа китобхоннинг контекст ҳақидаги олдинги тахминларини шубҳа остига қўйишга мажбур қилади. Бу категория Агата Кристининг **“The Murder of Roger Ackroyd”** (Рожер Акройднинг ўлдирилиши) романида ишлатилган.
5. **Кутилмаган ниҳоя** бадиий услуби ҳикоянинг охирига яқин қўлланилганда, китобхоннинг олдинги воқеалар ҳақидаги бутун тасаввурини ўзгартириши ёки умуман бошқа бир зиддиятли масалани келтириб чиқариши мумкин. Кутилмаган ниҳоя услуби жуда самарали ҳисобланади, чунки бу услуб китобхонни асарга боғлаб қўяди. Мутолаа қилаётганда ўқувчи муаммонинг калитини қидириш учун қайта-қайта китобни орқага варақлайди.

О.Ҳенрининг куйидаги ҳикояларида бу услубдан моҳирона фойдаланганлигининг шохиди бўламиз. **“The Gift Of The Magi”** (“Афсунгарлар совғаси”) ҳикоясида *“Делла турмуш ўртоғи Жимнинг унга берган совғасини шоша-пиша очиб курганида кўзларидан шайқатор ёшлар оқа бошлайди. Қачондан бери бу қимматбаҳо тошлар билан безатилган, тошбақа пўстидан ясалган бу тароқлар ўзида бўлишини жуда хоҳлаган эди, лекин энди анча вақтгача унга керак бўлмаслигини дарҳол англаганди. Чунки севгилиси Жимга Мелод кунги совғасини олиш учун у бисотидаги ягона қимматбаҳо хазинаси, жилодор сочларини қирқтириб, сотиб ҳам бўлган эди. Делла бу пулга Жимга бобоси ҳамда отасидан мерос қолган тилла чўнтак соатига тақаладиган платина занжир сотиб олган эди. Аммо бу занжирнинг энди кераги йўқ, чунки Делла учун олинган тароқлар шу тилла соатнинг*



пулига олинган эди”. Айнан шу парчада адиб киноя (dramatic irony) ва кутилмаган ниҳоя (twist ending) услубини қўллаган.

“**The Last Leaf**” (“Сўнги япроқ”) ҳикоясида ўлим тўшагида ётган, зотилжам касалига йўлиққан Жонси ўзининг умрини дерезадан кўришиб турган печакгулнинг бирма-бир тўкилаётган япроқларга боғлайди. Гўёки, энг охириги барг тўкилса унинг жони ҳам узиладигандек. “*Бир неча кун тинмай ёгган ёмғирдан кейин ҳам, қаттиқ эсан шамол таъсирида ҳам ўша биргина барг тўкилмасдан ҳамон деворда кўришиб турарди. Чунки бу ҳақиқий барг эмас балки, ўлимини кутиб ётган Жонсига умид бераётган, ўша машъум, совуқ тунда деворда чизилган сурат эди холос. Бу сурат зотилжам касаллигидан вафот этган жаноб Берманнинг шоҳ асарини эди...*” О .Ҳенри бу ҳикоядаги кутилмаган бурилишни шундай тасвирлаган: Жаноб Берман ўз ҳаёти эвазига Жонсининг ҳаётини қутқариб унга яшашга бўлган умид учқунларини қайта жо этди ҳамда қачондан бери режалаштириб келаётган шоҳ асарини яратиш учун ўз жонини фидо қилди. Ҳикоядаги доктор ҳамда Жонсининг дугонаси Сю суҳбатини эсласак, доктор Сюдан “ – *Жонсининг ҳаётида бирор эркак борми, севгилисими, хушторими унга умид берадиган*” – деб сўрайди. Ҳолбуки, немис фамилиясида инглизча “man” (эркак) сўзи бўлган Берман Жонсининг ҳаётига умид бағишлайди.

“**A Retrieved Reformation**” (Обращение Джимми Валентайна) ҳикоясида севгиси учун эски жиноий хунарини ташлаган кулфбузар Жимми Валентайн Аннабел Адамс – банкирнинг қизига аввалида ғаразли мақсади учун яқинлашмоқчи бўлади ва бу учун Элморе шаҳарчасига кўчиб келади. Ҳақиқатда Аннабелни севиб қолиб, жиноятдан воз кечиб ҳалол яшамоқчи бўлади. Элморда поябзал дўконини очишга қарор қилади ва ўзини Ралф Д. Спенсер деб таништиради. Эски хунари учун асқотадиган асбоб- анжомларини қадрдони Биллига етказмоқчи бўлган Жимми нонуштадан кейин мистер Адамс, Аннабел, Аннабелнинг турмушга чиққан опаси ва унинг беш ҳамда тўққиз ёшли қизлари биргалашиб банкка киришади. Мистер Адамс янги, ҳаво ўтказмас сейфнинг ишлаш механизми ҳақида Жиммига тушунтираётган пайтида қизалоқлардан бири сейфга камалиб қолади. Ҳамма саросимага тушади, чунки сейф хали созланмаган эди. Шу пайтда Ралф Д. Спенсер ўрнини Жимми Валентайн эгаллайди. Қачондан бери кулфбузар Жиммининг жиноят устида қўлга олмақчи бўлган терговчи Бен Прайс айни дамда бу ҳолатни кузатиб туради. Жимми содир этадиган ҳаракатидан кейин қамоққа тушишини ва Аннабелдан умрбод айрилишини била туриб, қизалоқни тезроқ қутқаришга бел боғлайди ҳамда мохирона тарзда сейф кулфини бузиб, беҳуш ётган қизалоқни олиб чиқади. Жиммининг бу ишидан ҳайратланган Бен Прайс уни қамоққа олиш фикридан қайтади ва банкдан чиқиб кетади. Қинғир мақсади учун банкирнинг қизини кўз остига олган Жиммининг кейинчалик севгидан сархуш бўлиб, ҳақиқатда севиб қолиши, чамадони ичидаги асбоблар фақат китобхонга аёнлиги, ҳикоя охирида Жимми сейф кулфини бузиб, асл кимлигини кўрсатгандан кейин ҳам терговчи уни танимаганликка олиши – ёзувчининг киноя турларидан кенг фойдаланганлигидан далолатдир.

Хулоса қилиб айтганда, О. Ҳенри ҳикоялари шундай тузилган-ки, унга китобхон беихтиёр боғланиб қолади. Ҳикоя бошида муаммоли мавзу ташланади, кейинги қисмида сиз ҳикоя охирини тахмин қилаётган пайтингизда, воқеалар тамоман ўзгача тус олади ва сиз кутмаган бурилиш юз беради. Ҳикоя охирида ечим берилади ва муаммолар ҳал қилинади. О. Ҳенри ҳикояларида қўлланилган услубий воситалар ҳикояларнинг янада қизиқарли бўлишини таъминлаган. Ҳикоялардаги воқеа ҳодисалар фақат бир хил давом этмасдан, ўзгариб туради. О. Ҳенри ёзган ҳикоялар оддий туюлсада, жуда чуқур маъно касб этади. У ёзган ҳикояларида киноя, юмор, метафора ва кутилмаган бурилиш услубий воситаларидан кенг фойдаланиб, жаҳон адабиётида юксак мерос қолдирди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. [http://americanenglish.stat.gov/files/ae/resource\\_files/1-the\\_gift\\_of\\_the\\_magi\\_0.pdf](http://americanenglish.stat.gov/files/ae/resource_files/1-the_gift_of_the_magi_0.pdf)
2. [https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource\\_files/a-retrieved-reformation.pdf](https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/a-retrieved-reformation.pdf)
3. [https://www.booksite.ru/fulltext/gen/ri/genri\\_o/stories/obrash.htm](https://www.booksite.ru/fulltext/gen/ri/genri_o/stories/obrash.htm)

4. [https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource\\_files/the-last-leaf.pdf](https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/the-last-leaf.pdf)
5. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/o-genri-1862-1910-aqsh/o-genri-so-nggi-yaproq-hikoya>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Uslub>

**A.QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR VA MEHROBDAN CHAYON"  
ASARLARINING INGLIZCHA TARJIMA TURLARIDAGI FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLAR VA ULARNING MADANIY XUSUSIYATLARI.**

**Kholmurodova Osiyo Iskandarovna**

BuxDu ingliz tili adabiyotshunosligi fakulteti magistranti

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikda roman janri muammosi dolzarb bo'lishi barobarida uni tadqiqu-talqin qilish, hamda tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etishi inkor etib bo'lmaydigan hodisa sanaladi. Jahon adabiyotida kuzatilgani kabi o'zbek adabiyotida ham roman janri bugungi kunda eng ommabop janr bo'lib, aksariyat yozuvchilar epik turning bu ko'rinishida ijod qilishni va turli uslublarda hayotni keng ko'lamda tasvirlashni, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishni, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy xolatini aks ettirishga moyilligini kuzatish mumkin. Roman janrining sintetik xususiyati tufayli bunday asarlarning rangba-rang ko'rinishlari yaratilmoqda. Kitobxon didiga mos keladigan, epik bayon orqali hayotiy g'oyalarni ilgari suradigan, estetik sayqal berilgan roman milliy adabiy muhitni boyitib kelmoqda.

**Asosiy qism:** O'zbek romanining salkam bir asrlik taraqqiyot yo'li ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va adabiy muhitdagi keskin o'zgarishlar bilan bog'liqlikda kechgani sir emas. XX asr milliy romanchiligimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo, uch buyuk iste'dod soxiblari – **Qodiriy, Cho'lpon** va **Oybek** asarlarining ushbu janr imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi muhim o'rnini eslab o'tishimiz zarur. O'tgan asr boshlarida Hamza "Yangi saodat" asarini milliy roman deb atagan, bu boradagi ilk izlanishlarni boshlab bergan edi. Qodiriy "O'tgan kunlar"i bilan dunyodagi "oltinchi romanchilik maktabi"ga asos soldi. Yozuvchi romanida mumtoz adabiyotimiz va o'zbek xalk og'zaki ijodiga xos ifoda uslubidan, romantik va realistik tasvirning mushtarak usullaridan mohirona foydalandi. Tilimizning turli qatlamiga mansub so'z va iboralarni, ifoda va vositalarni asariga olib kirib, ularga qaytadan hayot bag'ishladi. O'zbek prozasida romanning janr sifatida o'rin egallashida beqiyos xizmat qildi.

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ham xalq tilidagi frazeologizmlarni mohirona qo'llash usuli bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Iboralar epik bayon, personajlar nutqi, obrazlar tasviri va boshqa qismlarda o'rinli keltirilib, asarning ta'sirchanligi, ekspressivligi, obrazlilikini oshirishga, badiiyligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu xususiyat romanning dastlabki o'rinlaridayoq ko'zga tashlanadi.

Ziyo shohichining xonadonida bo'lgan ziyofatda ishtirok qilayotgan Otabekning holati shunday tasvirlanadi: "...Xayol surar ekan, uning ko'zlari ixtiyorsiz kabi qarshisidagi qutidorg'a qaraydirlar, qutidorning ko'zi o'ziga tushdi deguncha ko'zini undan olib dasturxondagi ko'ngli tilamagan narsalarga urina boshlaydir..."

Bu o'rinda ikkita iborani uchratamiz: ko'zi tushmoq, ko'zini olmoq. Bu ikkita ibora asarda o'ziga xos uslubiy yuk ko'targan. Ya'ni ko'zi tushmoq iborasi qutidorning birdan Otabekka qarash holatini ifodalagan. Ko'zi tushmoq – lug'aviy ma'nosi bexosdan, birdan ko'rish degani. Ko'zini olmoq iborasining lug'aviy ma'nosi –qarashni to'xtatmoq degan ma'noni bildiradi. Romanda Otabekning qutidordan o'ng'aysizlanib, qarashga botina olmayotganlik holati shu yo'sin tasvirlangan.

Kumushning ham holatiga ta'rif- u tavsif berishda yozuvchi iboraga murojat qiladi. Adib Kumushbibini salbiy bo'yoq bilan gapga kirmaydir demaydi. Aksincha ijobiy bo'yoq bilan "quloq osmaydir" iborasini qo'llaydi. Ya'ni uning vujudi o'ziga bo'y sunmayotganligini ham anglab olishimiz mumkin.

Quloq osmaslik- 1. “Birovning gapiga kirmaslik; 2. Gapirilayotgan gapni eshitmaslik, idrok qilmaslik”

Bu o‘rinda birinchi ma’noda, ya’ni yangalarning gapini eshitmaslikni, unamaslikni xohlayotgan Kumush tasvirlangan.

“ — O‘ylash qayerda, siz bo‘lursiz, deb ko‘nglimga ham kelmagan edi, — dedi-da, tag‘in kulib yubordi...”

“Kutilmagan baxt “ bobida Kumush tilidan “ko‘nglimga kelmagan” iborasi qo‘llangan.

Ko‘ngliga keldi- 1)o‘zicha o‘ylaydi; 2) Biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og‘rinib qabul qilish; 3)Xohlamoq.

Asarda birinchi o‘rindagi bo‘lishsizlik ma’nosi orqali yoritilgan. Ya’ni Kumush o‘zimcha ham shunchaki o‘ylamagandim demoqchi.

O‘zbek xalqining boy meroslaridan biri bilgan Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" hamda, “Mehrobdan chayon ” romanlari o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini ifodalabgina qolmay, o‘sha davrda xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklarni tasvirlagan. Asarda xonliklar o‘rtasidagi taxt uchun kurashlar va bu kurashlar natijasida jabrlangan oddiy xalq turmushi yaqqol ochib berilgan. Badiiy tarjimada juda murakkab masalalardan biri ham jonli xalq tili, yani jaydari til xususiyatlarini ifodalashdir.

Bizning tarixan yaratilgan minglab durdona asarlarimiz to‘gridan-to‘gri O‘zbek tilidan boshqa tillarga (vositasiz tillar orqali emas) tarjima qilinishi birinchi darajali masala va vazifa bo‘lib turibdi. Biz tarjimashunoslikni puxta o‘rganib, rivojlantirib uni mustaqil xalq xizmatiga jalb qilishimiz kerak.

“O‘tkan kunlar” romani tilini badiiy nutqda so‘z qo‘llash jihatidan o‘ziga xos ibrat maktabi deyish mumkin. Qodiriy tilidagi so‘zlarning semantik qurilishida bir paytning o‘zida aks etib turadigan ham ifodalanayotgan predmet, ham nutq subyekting bu predmetga o‘z munosabati, uning so‘zlash paytidagi hissiy holati, ruhiyati haqidagi axborotlarni nozik ilg‘aganligi uchun bu axborotlarning barchasini o‘z estetik niyatiga ustalik bilan xizmat qildirgan.

Qodiriy tildagi ma‘nodosh so‘zlar orasidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so‘zni saylab qo‘llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, qahramon ruhiyati, tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatishga erishgan.

Qodiriy nafaqat tildagi iboralar, zid ma’noli so‘zlar, balki xususiy-muallifiy zid ma’nolilik asosida ham tazod, zidlantirish, kontrastlik, qarshilantirish san’atining go‘zal namunalari yaratilgan.

Qodiriy xalq donishmandligining nodir namunalari bo‘lgan iboralardan, xususan, obrazli ifodalarning yetuk namunasi hisoblangan frazeologik iboralar va maqollardan juda katta mahorat bilan foydalangan. Roman matni o‘zbek tilining nutqiy qoliplashgan obrazli ifodalarga naqadar boyligini yana bir bora namoyish etadi.

Adib o‘zbek tilidagi ko‘chimlarning milliy-ruhiy, badiiy-lisoniy voqelanish ildizlari, jarayonlari, mexanizmlarini to‘liq anglaganligi uchun ham betakror tasvitiy obrazlar yaratgan. Qodiriyning badiiy til borasidagi mahorati shunda ham namoyon bo‘ladiki, o‘zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yoqotgan an’anaviy o‘xshatishlarni ham tasviriylilik, obrazlilikni yaratishga xizmat qildirgan.

Qodiriy metaforalarning konnotativ ma‘no ko‘lamlarini kengaytira olgan. Uning o‘zigagina xos bo‘lgan va eng muhimi, mantiqiy-estetik mohiyatining juda ham boyligi bilan kitobxon diqqatini tortadi.

Jonlantirishlar muallif nutqida qo‘llanilib qahramon ruhiyati, muhit va tabiat tasvirining ta’sirchanligini ta’minlash uchun xizmat qilgan. Adib yaratgan metaforalar asosida yuzaga kelgan g‘ayriodatiy birikmalar o‘zlarining yangiligi, odatiy emasligi bilan kitobxonni ayni o‘ziga xos obrazlilik ustida to‘xtalishga majbur qiladi.

**Xulosa:** Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon” romanlarida o‘zbek tili frazeologizmlaridan voqea-hodisalarni aniq, ixcham, obrazli tasvirlashda, satira va yumor ruhini, kinoya, piching kabi salbiy jihatlarni uslubiy ta’sirchan ifodalashda mahorat bilan foydalangan. U faqat umumtil frazeologizmlarini qollash bilan qanoatlanmay, ozi ham yangi frazeologizmlar,

perifrazalar yaratib, ozbek tili frazeologiyasini boyitgan. Romanlarining sahifasida u yoki bu qahramon nutqida, ba'zan adib nutqida qollangan maqol hamda matallar asarga ko'rk, milliylik, jozibadorlik, falsafiylik baxsh etish barobarida timsollar induvidalligini ta'min etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma'rufov. Z.M. "Ozbek tilining izohli lugati" I tom , 1981-yil
2. Мукаррамов. М. Ўзбек тилида ўхшатиш- Т.: Фан, 1976.
3. Pinxasov. Ya. Hozirgi zamon ozbek tili leksikasi. Toshkent, 1960,167 bet.
4. Qoshjonov. M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. - T.: Fan, 1966.
5. Қўнғуров . Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Т.: Фан, 1977.
6. Mengliyev "O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati" " Yangi asr avlodi" T.2007
7. A.Qodiriy "O'tkan kunlar" "Sharq" T. 2018
8. www.arxiv.uz

## **“ALISA MO’JIZALAR MAMLUKATIDA” ERTAK MATNIDA ALLEGORIK TUSHUNCHALAR**

**Raximova Nilufar G'iyosovna**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**Ingliz adabiyotshunosligi magistri**  
[nilufaram1987@gmail.com](mailto:nilufaram1987@gmail.com)

Allegoriya (yun. allegoria - o'zgacha ifodalash, kinoya, qochirim)-ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Masalan, "to'ti" so'zining "gapdon", "bulbul" so'zining "yaxshi qo'shiq aytuvchi" ma'no ifodalari bo'lsa, "bo'ri", "tulki" so'zlaridan "yomonlik", "yovuzlik", "ayyorlik"ni ifodalovchi salbiy ma'nolarda foydalaniladi. So'z bilan obraz o'rtasidagi aloqa o'xshashlik yoki uyg'unlikka asoslanadi (masalan, qalb-sevgi). Sharq adabiyoti, o'rta asrlar (Uyg'onish davri) G'arb adabiyotida barokko, klassitsizm ruhida san'atda allegoriya vositasida yaratilgan obrazlar ko'plab uchraydi (masalan, adliya sohasida "adolat" tarozu ko'tarib turgan ayol shaklida ifodalangan). Allegoriya masal va ertaklarning ayrim turlarida keng qo'llaniladi.

Adabiy vosita yoki badiiy shakl sifatida allegoriya xarakter, joy yoki hodisani axloqiy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan yashirin ma'noni ifodalash uchun talqin qilinishi mumkin bo'lgan hikoya tasviridir. Mualliflar murakkab g'oyalar va tushunchalarni tomoshabinlar, o'quvchilar yoki tinglovchilar uchun tushunarli yoki hayratlanarli tarzda tasvirlash yoki etkazish uchun san'atning barcha shakllarida allegoriyadan bir necha davrlardan beri foydalanib kelmoqdalar. Yozuvchilar va notiqalar odatda ramziy figuralar, harakatlar, tasvirlar yoki hodisalar orqali (yarim) yashirin yoki murakkab ma'nolarni etkazish uchun allegoriyalardan foydalanadilar, ular birgalikda muallif yetkazmoqchi bo'lgan axloqiy, ma'naviy yoki siyosiy ma'noni yaratadi. Ko'pgina allegoriyalarda mavhum tushunchalarning timsoli qo'llaniladi.

2. Ruether, Rosemary Radford Women Healing Earth: The third of women on Ecology, Feminism, and Religion. New York: Orbis book 1996.
3. Shiva Vandana Staying alive: Women, Ecology and Development. London: Zed books 1994.
4. [www.worldatlas.com](http://www.worldatlas.com).
5. Françoise d'Eaubonne "Le Féminisme ou la Mort". Paris: 1974.



### 3 – ШЎЪБА. АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК, АДАБИЙ ЖАРАЁНЛАР, АДАБИЁТДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ВА МАЊАВИЯТ МАСАЛАЛАРИ.

#### “МА’НАВИЯТ” TUSHUNCHASINING TAHLIL ETILISHI VA TURLICHA TALQINLARI

Ahmedova M.B.,  
BuxDU, dotsent, PhD  
Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası

**Kirish.** Ma’naviyatning tushuncha sifatidagi mazmun mohiyati, ijtimoiy vazifalari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tog’risida ko’plab tadqiqotlar, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar paydo bo’ldi. Ammo, “ma’naviyat” tushunchasining kelib chiqishi va shakllanish tarixi hali to’liq tarzda o’rganilgani yo’q. Ma’naviyat masalasini o’rganishga, tahlil qilishga, uning inson va jamiyat hayotidagi o’rnini hamda boshqa sohalar bilan aloqalarini yoritishga qaratilgan turli mualliflar tomonidan yozilgan ilmiy risola va maqolalar, o’quv qo’llanmalari va darsliklarda ba’zi bir chalkash, o’zaro bir biriga mos kelmaydigan fikrlar ko’zga tashlanadi. Turli tadqiqotchilarning yondashuvlari ba’zan biri ikkinchisini inkor etib, o’zaro bir-biriga mos kelmaydigan fikrlar mavjudligi o’qitishda chalkashliklar yuzaga chiqishiga sabab bo’lmoqda.

**Asosiy qism.** A.Erkaev o’z qarashlarini ifodalab, “ma’naviyat” tushunchasi kelib chiqishiga ko’ra, ikki o’zakka borib taqalishini aytadi. Uning birinchi farazi bo’yicha bu tushuncha arabcha “ma’ni” o’zagidan hosil bo’lgan. Bunda ilk islom ilohiyotchilari va faylasuflaridan bo’lgan mu’taziliylar – Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd Qur’oni sharhlash ilmiga (“ilm at-tafsir”ga) asos solishib mohiyat haqidagi fanni “ma’ni” deb ataganlar. Narsa va hodisalarning, jarayonlarning, tabiat, jamiyat va Xudoning mohiyati haqidagi ta’limotni ular “ma’na” deb ataganlar, shu tariqa ma’naviyat tushunchasini o’zagi – “ma’na” ga atama sifatida asos solganlar. Ikkinchi faraz: ma’naviyat ham, uning o’zagi “ma’na” ham qadimgi hind falsafasining asosiy tushunchalaridan biri “ma’nas” tushunchasiga borib taqaladi. “Ma’nas” sanskrit tilida aql degan ma’noni anglatgan. U aql, fahm farosat, hissiyot, tuyg’ular, sezgilar va irodaning manbai bo’lgan.

Tarixdan ma’lumki, Yaqin Sharq, Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston o’rtasida doimiy ravishda iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yaxshi o’rnatilgan bo’lgan. Ajdodlarimiz Islom diniy-falsafiy ta’limotini yaratishda hind falsafasiga ham tayanganlar. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, ma’nas aynan hindlar ishlatgan shaklda Markaziy Osiyo va Eronda ham qo’llangan va bu tushuncha so’fiylik ta’limotida ifodalangan. “Farhangi zaboni tojiki” lug’atida ma’nas “mahalli unsu ulfat” – do’stlar va ulfatlar joyi deb sharhlangan va misol tariqasida Rumiyning quyidagi bayti keltirilgan:

“Qasrho xud mar – shohonro ma’nas ast,  
Murdaro xonu makon go’re bast ast”.

Mazmuni: agar shohlar uchun qasrlar do’st-yor joyi bo’lsa, o’liklar uchun esa xonu makon go’rdir.

Bu yerda “ma’nas” – do’st-yor, ya’ni Xudo yashaydigan joydir. Ma’nas qalb ma’nosida ishlatilib, har bir insonning qalbida Xudo mavjudligi ifodalanmoqda. Shohlar deganda Haq yo’lida yashovchi Komil insonlar nazarda tutilmoqda. O’liklar deganda o’z nafsu hirsining qurboni, hech ishga rag’batsiz, loqayd, befarq kishilar nazarda tutilib, qalblari qabrga qiyoslanmoqda. Ushbu baytda qasr ham, qabr ham qalbning ma’juziy ma’nosidir. Darvoqe, A. Erkaev o’zining “Ma’naviyat – millat nishoni” kitobida “ma’nas” sanskrit tilida aql degan ma’noni anglatishini aytgan. Ammo “Farhangi zaboni tojiki” lug’atida “ma’nas” arabcha so’z deb berilgan. Boshqa lug’atlarda, xususan rus tilida chiqqan “Философский энциклопедический словарь” lug’atida ma’nas sanskrit tiliga oidligi qayd etilgan. Demak, bizningcha “ma’nas” atamasi kelib chiqishi sanskrit tiliga borib taqalsada, butun musulmon

olamida arab tili orqali keng tarqalgan degan xulosaga kelish mumkin. Balki, "ma'nas" fors tiliga sanskrit tilidan bevosita o'tgandir. Chunki Eron Hindiston bilan chegaradoshligidan tashqari, fors tili va sanskrit tili bir oilaga mansub tillardir. Yana shuni nazarda tutish kerakki ilk islom ilohiyotchilari ya'ni mu'taziliylar hind diniy – falsafiy qarashlarini ham o'rganganlar va shu tariqa "ma'nas" atamasi arab tiliga kirib kelgan va o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin.

Professor M. Imomnazarov ma'naviyatni ilohiy hodisa sifatida talqin qiladi: "Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini "Haqiqat asrorining ganjinasi" deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga aqli bashar qudrati yetmaydi". Bu fikrdan ma'naviyat insonga Olloh tomonidan berilgan bir xususiyat degan xulosaga kelish mumkin. Muallifning qarashlari ba'zi bir tanqidlarga sabab bo'lganligi bois, u yana boshqa bir kitobi – "Milliy ma'naviyatimiz asoslari" o'quv qo'llanmasida o'zining majoziy ta'rifini ilmiy tilda sharhlab, "Ma'naviyat – inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik" deya masalaga biroz aniqlik kiritadi.

Muallif dastlab bergan ta'rifini tasavvufiy talqinlarga suyangan so'fiyona, ramziy ta'rif ekanligini ta'kidlaydi va ma'naviyatni inson aqliga Olloh tomonidan berilgan bir fayz ekanligini aytib –uning mohiyatini yana diniylikka borib bog'laydi<sup>56</sup>. Ammo, mazkur mulohazani "ma'naviyat" tushunchasining mohiyatini to'laqonli ochib beradi deya olmaymiz. Sababi – din ma'naviyatning asosi emas balki, muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismidir. Ilm-fanni diniy-mistik qarashlar yordamida yoritish mumkin emas. Ilm-fan faqatgina aniq faktlarga va mantiqiy mulohazalarga tayanadi. Shunda u obyektivlik va haqqoniylik kasb etadi. Ma'naviyat rivojlanib borayotgan mustaqil ijtimoiy hodisadir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimiz, M. Imomnazarovning ushbu o'quv qo'llanmasi ("Milliy ma'naviyatimiz asoslari". 2006-yil) asosan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi oily o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalariga darslik sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan. Darslikda aniq va tushunarli bo'lgan ilmiy atamalar va iboralar yordamida mavzularning mazmuni yoritilishi lozim. Darslikda muallif "ma'naviyat"ni diniy, badiiy hamda majoziy mazmunda ta'riflaydi va mulohaza yuritadi.

Q. Quronboyev va V. Qo'chqorovlar inson ma'naviyatini o'zini shaxs sifatida anglaganidan boshlab, umrining oxirigacha shakllantirishi va rivojlantirib borishi, bu borada insonning imkoniyatlari va ehtiyojlari cheksiz ekanligini aytadi. Mualliflar ma'naviyatning rivojlanuvchi hodisa ekanini ko'rsatadi. Lekin ular ma'naviyatning tuzilmasini, shaklini, mazmunini yetarli darajada ochib bermaydi. Bundan tashqari ta'rifda ma'naviyat faqat insonga xos bo'lib, jamiyatga va uning tuzilmalariga, darajalariga tegishli bo'lmay qolyapti. Ulardan farqli M. Hamdamova ma'naviyatga "jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha" sifatida qaraydi. "Ma'naviyat keng ma'noga ega bo'lib, ma'rifat, madaniyat kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi" – deb tarif beradi. Mazkur ta'rifda yuqoridagi ta'rifga nisbatan ma'naviyatni faqat insonga xosligi bilan chegaralanmay balki, jamiyat, millatga ham mansub ekanligi aytib, masalaga kengroq yondashilgan. Ammo, ta'rif bir yoqlama bo'lib qolgan.

Birinchiidan, Hamdamova ta'rifida ma'naviyat faqat ichki hayot bilan chegaralanib qolgan. Insonning ma'naviyati faqat uning orzu-havaslari bilan emas, shuningdek xulq-atvorida, hatti-harakatida, ijodida va odamlar bilan o'zaro munosabatida ham namoyon bo'ladi. Ikkinchiidan, qobiliyat bu tabiat ato etgan imkoniyat, ma'naviyat emas. Chunki qobiliyatli, bilimli odamlar orasida faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin, poraxo'r, ochko'z kishilar ham uchraydi va aksincha qobiliyati o'rtacha bo'lgan kishilar orasida hushfe'l, hayrixoh, mehr-oqibatli, ko'ngilchan, saxovatli, ya'ni ma'naviyati yuksak odamlar kam emas.

A. Erkaev ma'naviyatni ijtimoiy hodisa deb hisoblaydi va unga kengroq ta'rif beradi: "Ma'naviyat faqat insonga xos. Lekin u ilohiy yoki g'ayri tabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa bo'lib, inson faoliyati bilan bog'liq. Tabiatda ma'naviyat yo'q. inson ma'naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi". Muallif ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati ekanligini uqtirib, uni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat,

iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmui deydi.

Bu keltirilgan ta'riflarni barchasini bekorga chiqarmoqchi yoki bo'lmasa butkul noto'g'ri deb baholamoqchi emasmiz. Albatta, yuqorida keltirilgan ta'riflarda ma'naviyatning u yoki bu qirralari o'z ifodasini topgan. Tadqiqotchilar bu tushunchaga o'zlarining qarashlari nuqtai nazardan yondashganlar. Mukammal ta'rif esa turli qarashlarni umumlashtirish va ilmiy asoslash natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham ularni ilmiy tahlil qilish va munozaralar bildirish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Ma'naviyat muammosi juda ham murakkab va serqirrali bo'lgani sababli unga berilgan ta'riflar ham rang-barangdir. Birinchi Prezident Islom Karimov ma'naviyat haqida uning barcha qirralarini o'zida mujassam ettirib quyidagicha yozadi: "Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin".

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bahodirovna, Akhmedova M. "Lexicographic Analysis of "Spirituality" Terms in English and Uzbek Languages." International Journal on Integrated Education, vol. 2, no. 5, 2019, pp. 140-143, doi:10.31149/ijie.v2i5.190 (<https://dx.doi.org/10.31149/ijie.v2i5.190>).
2. Akhmedova M.B. Ways of translation of 'spirituality' terms in English and Uzbek languages. Proceedings of the ICECRS, November 2019 (<https://doi.org/10.21070/icecrs.v4i0.124>), DOI 10.21070/icecrs.v4i0.124
3. Islomov Eldor, Ahmedova Mehrinigor Bahodirovna. The Essence of Spirituality in the Uzbek Language. XIII Международная Научно-Практическая Конференция " Язык И Культура", Челябинск, 26 апреля 2018 года

### **ИСАЖОН СУЛТОН ИЖОДИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАБИАТИ ВА УСЛУБ МАСАЛАСИ ("ОНА ЮРТ СОҒИНЧИ" ҲИКОЯСИ МИСОЛИДА)**

**Давронова Шохсанам Ғайбуллоевна,**  
филология фанлари доктори, БухДУ  
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти

**Калит сўзлар:** ҳикоя, бадиий образ, характер, бадиий маҳорат, ижодийлик, миллийлик, Исажон Султон ижоди, "Она юрт соғинчи" ҳикояси.

**Аннотация.** Мақолада "Она юрт соғинчи" ҳикояси мисолида ёзувчи Исажон Султоннинг бадиий образ яратиш маҳорати, услубий изланишларига оид қарашлар баён этилган.

Бадиий образ табиатига хос бўлган характерли жиҳатлардан бири ундаги умумлаштирувчилик, жамлаш хусусиятидир. Айниқса, шеърятда хилма-хил образлар инсон оламига хос бўлган муайян бир белги, одат, хислат, ҳаракат, феъл-атворни ўзида уйғунлаштириб ифодалайди. Масалан, адабиётшунос Н.Раҳимжоновнинг куйидаги фикрига диққат қаратайлик: "Шоирнинг кўнглини, ижодини билмоқчи бўлсанг, унинг она юртини бориб кўр, деган ҳикмат бор. Шоирнинг Ватани – бу унинг сеҳрли, пурҳикмат маъноларни ўзига сингдирган сирли қиёфалар дунёси. Р.Прафи лирикасидаги Сўз, Кўз, Қушча, Булоқ, Дарахт, Чироқ, Хаёл, Нур сингари образлар тағдор, пурмаъно мазмун ифодалашига кўра тимсолга айланаётир. Улар Туронзамин, Туркистон халқларининг тарихий ҳаёти саҳифаларини суратлантиради. Туркий халқлар тақдиридаги фожиали воқеалар моҳиятини акс эттиради" [9.101].

Истиклол даври ўзбек адабиётида бадиий образ табиатига хос бўлган бундай хусусият насрий асарларда ҳам кўзга ташланмоқда. Жонли ва жонсиз табиат, нарса-предметлар инсон маънавий оламига хос бўлган характерли жиҳатларни рамзий йўсинда бадиий ифода этилиши кўзга ташланмоқда. Жумладан, Исажон Султон ижоди бу борада муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Адибнинг "Боқий дарбадар", "Озод" романларидан тортиб, "Муножот" қиссаси ҳамда бир қанча ҳикояларида бу борада кўплаб мисоллар учрайди.

Адиб асарларида табиатнинг турли неъматлари, ҳодисалари муайян поэтик вазифа бажаришга хизмат қилади ва ёзувчи ифода этмоқчи бўлган ғоявий қарашларни ўзида жамлаган ҳолда юзага чиқади. Масалан, адиб ҳикояларида учрайдиган оғрик тоғи (“Оғрик тоғи”), кўриқчи (“Кўриқчи”), ўргимчак (“Ўргимчак”), Ойдинбулоқ (“Ойдинбулоқ”), манзил (“Манзил”), тўфон (“София”) каби тимсолларда юкланган бадиий юк борлиқнинг фусункорлиги, инсон оламининг буюклиги, иродасининг мустаҳкамлиги, кадр-кимматининг баландлиги, унда илоҳий мўъжизанинг кароматлари мужассамлиги ҳақидаги фалсафани ўзида акс эттиради.

Ёзувчининг “Она юрт соғинчи” ҳикоясида миллий руҳ ва маънавий кадриятларга эътибор қишлоқнинг умумлашма тимсолида жамланади. “Бадиий образ – адабиёт ва санъатнинг фикрлаш шакли, олам ва одамни бадиий идрок этиш воситаси, бадииятнинг умумий категорияси” [15.43] ҳисобланишини инобатга олган ҳолда, ушбу ҳикоядаги қишлоқ образига ёндашадиган бўлсак, бунда ёзувчининг халқ, миллат, туғилиб ўсган маскан табиати, давр ва инсон шахси, руҳияти каби тушунчаларни қишлоқ тимсолида бадиий идрок этган ва ифодалаганига иқдор бўламиз. “Бу ҳикоя – одамлар, воқеалар, ҳодисалар ҳақида эмас, бу ҳикоянинг қаҳрамони – қишлоқ” [11.348], деб бошлайди адиб ўз ҳикоясини. Ижодкор тасвирида қишлоқ жонлантирилади, у ўзига хос табиатга, ажиб одатларига эга бўлган инсонни, бетакрор кўринишга эга бўлган оламни мужассам этган жонли мавжудлик сифатида гавдалантирилади. “У нозланади, чаппар уради, бағрида борини муҳайё қилади, гоҳо тўрсайиб-хўмраяди, хуллас, бир тирик жонзот нимаики қила олса, барини у ҳам қилади” [11.348], деб ёзади муаллиф қишлоқ ҳақида.

Ҳикоя сюжети қаҳрамоннинг хаёлот оламида кечаётган кечинмалар асосида шакллантирилган. Чиндан ҳам “Ёзувчи асарларида воқеадан кўра инсоннинг руҳияти таҳлили етакчилик қилади. Одатда, бадиий асарда руҳий таҳлил воқеалар тасвирига хизмат қилса, Исажон Султон ҳикоясида воқеа-ҳодиса тасвири руҳий ҳолатни очишга, ўқувчи тасавурида бу ҳолатнинг аниқ, таъсирли гавдаланишига кўмаклашади” [5.154]. Жумладан, “Она юрт соғинчи” асарида ҳикоячи қаҳрамон тилидан юртини севган ва уни соғинган инсоннинг дил изҳорлари ифода этилган. Унинг қишлоқ деган тушунча атрофидаги тасавурлари анча кенг бўлиб, у табиатнинг ажиб бир манзараси намоён бўлган Ватаннинг бир бўлагидир. Ҳикояда юрт ва юртдошлар тушунчалари боғлиқликда, уйғунликда анланади ва тасвирланади, уларни бир-биридан айро тасаввур қилиб бўлмайди. Қишлоқнинг умумий манзарасида қишлоқдошларнинг ҳам жисмоний ва маънавий қиёфаси жамулжам сифатида идрок этилади бадиий ифода қилинади: “Одамлар қишлоқ билан уйғунлашиб кетганини ҳам айтайми? Кучукчасини замбилга солиб кўтариб кетаётган, қум ўйнаб ўтирган ёки дарахт шохларига чиқиб осмонга қараб қичқираётган болачалар, кенг гулдор кўйлак кийиб олган жувонлар, жамалаксоч қизчалар, мўйлови энди сабза ура бошлаган, қўлини кўксига қўйиб салом беришни ўрганиб олган, тўй-маросимларда беминнат дастёрлик қиладиган новдадай-новдадай ўсмирлар... буларнинг бари қишлоққа ярашиғли безак бўлиб, ўша умумий манзарага ажойиб нақш бўлиб тушибди” [11.350]. Умуман олганда, қишлоқ тасвирини яхлит гавдалантирувчи деталларнинг барчаси умумий манзаранинг муайян бир қиррасини ташкил этишга хизмат қилади. Адибнинг талқинига кўра қишлоқ ота, она, дўст, хола, амаки маънавий оламининг жамулжам сифатида тасаввур қилинади: “У гоҳ отам, гоҳ онам, гоҳ севгили дилдор, гоҳ дўст, гоҳ қавму қариндош қиёфаларига кира бошлади” [11.351]. Ёзувчининг бадиий маҳорати, бетакрор ифода тарзи натижаси ўлароқ ҳикояда қишлоқ манзараси ҳикоячи қаҳрамон нигоҳида гоҳ “бир дам ҳорғин ёнбошлаган, бўйи чўзилиб кучга тўлиб келаётган ўғилларига бир дам кўнгли кўтарилиб боққан” [11.351] ота, гоҳ тупроқ йўлдан ортидан эргашиб келаётган она [11.353], гоҳ “қўлида ҳассаси, елкасида тўни, кафтини кўзига соябон қилиб” йўлга қараб турган амаки [11.353] қиёфасида жонланади ва уни муттасил ўзига чорлаб туради. Ҳикоячи қаҳрамон ҳатто унинг яхлит оламида ўзини ҳам кўради: “Ўша ораларда ингичка, узун бўйли бир ўсмир менга қараб турганга ўхшайверади. Яқинлашиб таниб қоламан: у ўзим бўлиб чиқади” [11.353].

Демакки, қишлоқнинг умумлашма тимсолида унинг жамики жозибаси, катта-кичик деталлари, одамлари қаторида қаҳрамоннинг ўзи ҳам намоён бўлади. Қишлоқнинг умумий манзарасига буларнинг бари сингишиб, бирикиб, бир бутун қишлоқнинг бадиий оламини юзага келтиради. Адибнинг поэтик маҳорати ўлароқ қишлоқ тимсоли воситасида она ватан тушунчасини теран идрок этиш имконияти кенгайган.

Қаҳрамоннинг тасаввурларига кўра нафақат унинг ўзи қишлоғини соғинган, балки қишлоғи ҳам уни бағрида ўсиб-улғайган боласидек соғинган, ҳамиша ўзига томон чорлаб туради, унга интизор.

Ҳикоячи қаҳрамон нигоҳида қишлоқ шу қадар чиройли, шу қадар сўлим, шу қадар сулувки, унинг водийлари, сойлари, далалари бутун борлиғи билан гўзалликка бурканган. “Сўлим ва сулув водий аро бир томони тоғлар, бир томони дашту дала узра ясланган, гулчечак таққан бир нозли сулувдай экан” [11.352]. Қолавеса, қишлоқ гўзал ва бетакрор табиати билангина эмас, оддийлиги, табиийлиги билан жозоба касб этади. “Сут тўла пақирни тепиб ағдарган сигирни худди одамдай койган, шивалаб эзиб ёққан ёмғирларга, шамолларга, жазирамаларга сўзлаган кишилар” [11.2349] қаҳрамон учун айни ҳолати билан қадрли.

Ёзувчи қишлоқнинг табиати, қишлоқ одамларининг ўзига хос олами, қиёфаси, юрт манзарасига оид характерли деталларни топа олган ва маҳорат билан ифодалашга эришганлиги кўзга ташланади. Ёзувчи асар орқали ифода этишни мақсад қилган ватан соғинчи билан боғлиқ ғоявий қарашларини моҳирлик билан акс эттирилган қишлоқ манзараси тасвири орқали китобхонга англантишга эришган. Ёзувчи қишлоқ тасвирини гўё рассом қалами билан чизади. “Ўша илонизи йўллар, ораларида шамол ўйнаган қамишлар, боғлар, дарахт шоҳларига тирмашган болақайлар...” [11.350].

Адиб асарларида кенг талқин этилган маънавий қадрият масаласи инсоннинг рухий олами, табиат билан боғлиқлиги, азалий анъаналарга дахлдорлиги билан алоқадорликда ёритилган. Жумладан, “Она юрт соғинчи” ҳикоясида адибнинг инсон ҳаёти давомида она юртига ҳамиша интилиши, туғилиб ўсган масканнинг нақадар қадрли эканлиги, болаликдаги таассуротларини, ёддан чиқариб билмаслиги, яқинларининг меҳрини бошқа ҳеч бир жойдан топа олмаслиги ҳақидаги қарашлари ифодаланган.

Умуман олганда, ёзувчи Исажон Султон ҳикоялари мазмун жиҳатидан ранг-баранглиги ва шаклий хусусиятларига кўра ҳам серкирралиги билан характерланади. Ёзувчининг услубий изланишларида кўзга ташланган хилма-хиллик, янгичаликни ҳикояларда янада кенгроқ кузатиш мумкин.

#### Адабиётлар:

1. Ахмедова Ш. Н. ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 12-14.
2. Amonova Z. K. et al. MANSUR HALLAJ AND HIS IDEAS IN AHMAD YASSAVI'S WORKS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 964-967.
3. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
4. Davronova S. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
5. Исажон Султон насри бадиияти. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2017. – 384 б.
6. NEMATOVNA A. S., SAIDBURKHONOVNA K. N., BEKMURODOVNA K. O. METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 5.
7. Norova N. TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 3. – С. 100-111.
8. Rajabova M. B. Expression of images related to national traditions in a. Navoi's work //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 141-146.

9. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 262 б.
10. Safarova N. ГУЛЛАРИНГНИ АЙЛАДИ ЧЎП ҚАРҒА, БОЙҚУШ, ЗОҒ, ТИЛИМ...”: (Шоир Самандар Воҳидов ижоди мисолида) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Султон И. Асарлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 392 б.
12. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
13. Eshonqulov N. The Alisher Navoiy oshiqona gʻazallarining badiiy qurilishiga oid oʻziga xosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
14. Qodirova N. S. SOME CHARACTERISTIC FEATURES, SKILLS AND STYLE OF THE LITERARY CRITIC //Web of Scholar. – 2018. – Т. 5. – №. 2. – С. 32-35.
15. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.
16. Қодирова Н. Научно-литературное мышление и проблема стиля //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
17. Қодирова Н. Ibrohim Naqulov ijodida muallif nutqining oʻziga xosligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

#### **ARTUR KONAN DOYLNING “YO`QOLGAN DUNYO” ASARIDA ILMIY-FANTASTIKA JANRI IFODASI**

**Kasimova Ra’no Raxmatulloeyeva**

f.f.f.d. (PhD), dotsent, BuxDU doktoranti (DSc)

**O`roqova Mexriniso O`ktamovna**

Adabiyotshunoslik (ingliz) mutaxassisligi

2-kurs magistranti

**Kirish.** Artur Konan Doylning mashhur asarlaridan biri “Yo`qolgan dunyo” ilmiy-to`qima romani, 1912 yilda nashr ettirilgan. Asarda Janubiy Amerikaning Amazon havzasidagi tepalikka qilingan sayohat natijasida duch kelingan muammoli vaziyatlar, yo`qolib ketgan hayvonlar haqida hikoya qilinadi. Romanning har bir bo`limi dastlab Strend jurnalida ketma-ket chop ettirilib, 1912 yilning aprel-noyabr oylarida Nyu Zellandiyalik rassom Garri Rountri tomonidan rasmlar bilan ishlov berilgan. Asarda, shuningdek, mahalliy aholi va maymunsifat insonlar o`rtasidagi urush ham tasvirlangan [3; 240].

Ilmiy-fantastik asarda xayoliy tafsilotlarga boy va kelajakda sodir bo`lishi mumkin bo`lgan voqealar, ilm-fan, texnologiya, koinotga sayohat, kelajakka sayohat qilish, o`xshash olamlar, yerdan tashqari hayot haqidagi g`oyalar ilgari suriladi. Ilmiy-fantastik janr ijodkorlikka undovchi janrlardan bo`lib, kitobxonni uzoq gallaktikalararo, qadimiy zamonlarga, suv ostidagi dunyolarga sayohatga chorlaydi. Ilmiy-to`qima asarlar genezisi fantaziya, qo`rquv, super qahramonlar haqidagi tasavvurlar, qadimiy mifologik qarashlarga borib taqaladi va bir necha kichik guruhlarga bo`linadi [2; 240].

**Asosiy qism.** K.Doylning “Yo`qolgan dunyo” asarida ilmiy-fantastik asar belgilaridan biri vaqtlararo sayohat elementlarini kuzatish mumkin. Professor Chellenjer uni Janubiy Amerika tomon yetaklagan va`jlar haqida Meloun bilan suhbatlashib, sayohati davrida qutqara olmagan sayyohning cho`ntagidan ajoyib topilmalarning suratini ko`rib qolganini tasvirlab beradi:

*“This is an excellent monograph by my gifted friend, Ray Lankester!” said he. “There is an illustration here which would interest you. Ah, yes, here it is! The inscription beneath it runs: “Probable appearance in life of the Jurassic Dinosaur Stegosaurus. The hind leg alone is twice as tall as a full-grown man.” Well, what do you make of that?”* [1; 31].

Keltirilgan parchada Yura davri haqida so`z yuritilgan. Radiogeologik metod bilan aniqlanishicha, Yura davri Mezoviy erasining 2-davri bo`lib, 190-195 million yil avval boshlanib, 69 million yil davom etgan va asarning bosh qahramoni Chellenjer xuddi shunday

davrda yashagan dinozavr-stegozavrni Janubiy Amerikada uchratadi. Dinozavrlarning tarixda yashagani haqiqat, lekin ularning hozirgi hayotda ham mavjudligi to`qima hisoblanadi. Bu yerda adib kitobxonni vaqtlararo sayohatga yetaklaydi. Mana shunday topilmalar professor Chellenjerni qiziqtirib, uni Janubiy Amerika tomon sayohatga yetaklagan. Ushbu sayohati mobaynida u allaqanday qush yoki ko`rshapalakka o`xshash maxluqni ko`rganini uni suratga olganini, biroq to`fon sabab yo`qotib qo`yganini aytib, u aslida qadimiy qushlar turkumidan biri ekanligini isbotlaydi:

*“Here” said he, pointing to the picture of an extraordinary flying monster, “is an excellent reproduction of the dimorphodon, or pterodactyl, a flying reptile of the Jurassic period. On the next page is a diagram of the mechanism of its wing...”*

Bundan shuni aniqlash mumkinki, dimorfodon bundan 180-200 million yil ilgari Yura va Bo`r davrida yashagan uchuvchi kaltakesak. Oldin sudralib yurib, keyinchalik uchishga moslashgan. Qanotlarining uzunligi 2 metrgacha, boshidan quyrug`ining uchigacha 120 santimetr, kallasining diametri esa 30 santimetr bo`lgan qush. Pterodaktil esa bundan 65-150 million yil ilgari Yura va Bo`r davrlarida yashab, qirilib ketgan uchuvchi kaltakesak turi bo`lib, ptenozavrlar vakili hisoblangan. Professor Meloun taqdim etilgan dalillarga asoslanib, professor Chellenjerni yo`qolib ketgan dunyoni kashf etgan “fan Kolumbi” deb ta`kidlaydi.

*“...You will observe that both the pterodactyl and the stegosaurus are Jurassic, and therefore of a great age in the order of life. They have been artificially conserved by those strange accidental conditions [1; 37]”.*

Ko`rinib turibdiki, Chellenjer o`sha ajoyib mavjudotlarni o`tmishda emas, balki hanuz insoniyat bilan “birga yashayotgan zamondoshlar” deb ataydi. Unga ishonmaganlarni Janubiy Amerikaga sayohat qilib, o`z ko`zlari bilan ko`rishga chorlaydi. Zero, Yura davriga mansub jonivorlar, juda katta hayvonlarni ham tilka-pora qilib, yutib yubora oladigan dahshatli hayvonlar makoniga boradigan kishidan sabr-qanoat, chidam-matonat talab qilinadi.

Qahramonlar ibtidoiy davrlarga xos hayvonlar, tabiat manzaralaridan tashqari maymunsimon odamlarni ham uchratishadi. Bunga janob Meloun katta daraxtga kuzatuvga chiqqanda guvoh bo`ladi:

*“It was human face – at least it was far more human than any monkey’s that I have ever seen. It was long, whitish, and blotched with pimples, the nose flattened, and lower jaw projecting...The eyes, which were under thick and heavy brows, were bestial and ferocious, and as it opened its mouth to snarl what sounded like a curse at me I observed that I had curved sharp canine teeth [1; 126].*

Yuqorida keltirilgan misollar bu asarning ilmiy-fantastik asar ekanligiga yaxshi dalil bo`la oladi. Bu misollarga qo`shimcha ravishda yana bir isbotni asardan keltirish mumkin:

*The place was a small clearing in the center of a palm grove. In this was one of those boiling mud geysers which I have already described. Around its edge were scattered a number of leathern thongs cut from iguanodon hide, and a large collapsed membrane which proved to be the dried and scraped stomach of one of the great fish lizards from the lake. This huge sack had been sewn up at one end and only a small orifice left at the other. Into this opening several bamboo canes had been inserted and the other ends of these canes were in contact with conical clay funnels which collected the gas bubbling up through the mud of the geyser. Soon the flaccid organ began to slowly expand and show such a tendency to upward movements...*

Shunday ibtidoiy atrof-muhitda yashab turib, to`rt asosiy qahramonlar bu yerdan ketish yo`llarini izlaydilar. Professor Chellenjer bir yalanglikda qaynarbuloqlarga duch keladi. Bu qaynarbuloqlar erkin holatda vodorod ajratib chiqarardi, shundan Chellenjer havo shari yasashni ixtiyor qiladi. Gazni yig`adigan narsani esa u qurigan baliq oshqozonining pardasimon po`sti yotardi. Bu pardoning teshiklaridagi ikki uchini loy voronka bilan birlashtirib, uning ichiga qaynarbuloqdan ajralib chiqayotgan pufakli gazlarni yig`adi. Tezda xalta shishib, harakatga kelib ko`tarila boshlaydi. Qahramonlar xuddi parashutda osilgandek arqon bilan unga osilishdi. Gazga to`lgan qop Chellenjerni va unga birin-ketin osilgan qolgan uch qahramonni ham ko`tarib havoda uchib borardi. Arqonlar kuchi yetmagani uchun ular uzilib qahramonlar ham birma-bir yerga

qulashadi. To`g`ri gaz bilan to`ldirilgan qopning havoda uchishi ilmda isbotlangan, lekin hayvon oshqozoniga uni joylash va uni havo shariga aylantirish bu haqiqatdan yiroq bo`lib to`qimaga aylanadi [1; 179].

**Xulosa.** Artur Konan Doyl kitobxonlar mehrini qozongan serqirra ijodkor sanaladi. Detektiv yo`nalishdagi Sherlok Xolms hikoyalari-yu, ilmiy-fantastik janrdagi “Yo`qolgan dunyo” asarlari muallifning turli janrlarda buyuk asarlar yarata olganining isbotidir. A.K.Doylning “Yo`qolgan dunyo” asari kitobxonni Yura va Bo`r davrlari sari yetaklaydi, dahshatli maxluqlarga ro`para qiladi. Bundan tashqari maymunsifat insonlar va haqiqatdan yiroq bo`lgan tadqiqotlarni namoyish etadi. Umuman olganda, mazkur asar zamon va makon tasviri bilan kitobxon e`tiboriga molik asardir.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Arthur Conan Doyle. “The Lost World”. – Created and published by Global Grey, 2019.
2. Conor Reid. The Lost Worlds of Arthur Conan Doyle’s Professor Challenger Series //Journal of the Fantastic in the Arts, 2017.–Vol.28, No.2 (99). – pp. 271-289.
3. James M.D., Ravin G. “Sir Arthur Conan Doyle: the author was ophthalmologist”//*Survey of Ophthalmology*, Volume 40, Issue 3, November - December 1995, pp. 237-244.
4. Mahmud Yahyoyev. Yoqolgan dunyo. Roman / “Ilmiy-fantastik roman” –T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 336 b.
5. <https://www.arthurconandoyle.com/>
6. <https://litpriest.com/authors/arthur-conan-doyle/>

#### **БАДИЙ АСАРЛАРДА БИОГРАФИК МЕТОД АСОСИДА ИЖОДКОР ШАХСИЯТИНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ**

**Адизова О.И.**

Бухоро давлат университети доценти  
Филология фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

#### **Аннотация**

Мақолада Биографик метод орқали ижодкорнинг шахсий жихатларининг акс эттирилиши ҳақида сўз боради. Унда ижодкорларнинг биографик усулдан фойдаланиш маҳорати ёритилган бўлиб, бу метод воситасида асарларда ижодкор биографиясига оид маълумотлар берилиши асосланган.

**Таянч сўзлар:** ижодкор, бадий образ, адабиётшунос, биографик усул, биографик характер, қомусий мутафаккир, шоир, академик олим, ватанпарвар, илмпарвар.

**Кириш.** Биографик метод – адабиётшуносликдаги алоҳида илмий тадқиқот, бадий асарга ижодкор шахси орқали назарий-амалий жиҳатдан ёндашув усулларида бири. Бу метод мазмун-моҳиятида инсон шахсияти турганлиги билан кишилиқ тафаккури орқали шакллантирилган барча фанларга оид билимларга, мавжуд оқимлар ва қарашларга таяниб иш кўрадики, шу жиҳатига кўра, у маълум маънода универсаллик касб этади ва ўзига хос яхлит тизим шаклида намоён бўлади..

**Асосий қисм.** Биографик метод ёзувчининг ҳаёт йўлини ҳамда унинг томонидан яратилган бадий асарни ўзаро жуфтликда, бирини иккинчисидан ажратмаган ҳолда, диалектик боғлиқликда, ижодкор ва ижод маҳсулини синтезлаб текширади. Унда муаллиф, яъни ёзувчи-ижодкор, аввало, инсон сифатида ўрганилади. Унинг асарларида ёзувчининг ҳаёти билан боғлиқ нуқталар акс этгани далилланади. Ижодкорнинг биографиясига кириб борилиб, шу орқали унинг шахсидаги энг муҳим қирралар очиб берилади. Ёзувчи ҳаётидаги айрим эътиборли ҳолатлар ижодида ҳам акс этгани асосланади. У орқали ижодкорнинг шахсий ҳаётига, яшаган муҳитига, рухий-психологик ҳолатига, шахсий қизиқишларига, асарни ёзишга туртки берган илҳом факторларига, ижодкор лабораториясига ва шу каби қатор тарихий-индивидуал масалаларга жиддий



эътибор бериллади. Яратилган бадий асар ёзувчи шахсияти, рухий-маънавий ҳолати нуқтаи назаридан ўрганилади. Биографик метод воситасида, асосан, ёзувчининг ижодий лобараторияси тадқиқ қилинади. Ижодкор ҳаётидаги маълум бир воқеа-ҳодисалар унинг ёзган асарларида қайсидир тарзда ўз аксини топгани айнан биографик метод воситасида далилланади. Биографик метод бу жиҳатдан ўзига хос имкониятларга эгадир. А.Расулов биографик методни “бадий матнга тарихий-биографик ёндашув” сифатида қараб: “Бадий матнга биографик – ижодий-генетик ёндашув жараёнида бадий асар ўзининг муаллифи, яратилган замони ва муҳити ҳақида “сўзлайди”.<sup>1</sup> Худди ҳар бир шахс, ҳар бир ижодкорнинг ўз биографияси бўлгани каби бадий асарнинг ҳам “ижодий биографияси” мавжуддир. XX аср ўзбек адабиётига назар ташлаганда, айрим асарлар худди ўз ёзувчилари каби “мураккаб тақдир”ни бошдан кечирганини кузатиш мумкин. “Ўтган кунлар”, “Сароб”, “Бой ила хизматчи” каби асарларнинг тарихий тақдирига назар ташлаганда, биографик метод нафақат ёзувчи таржимаи ҳолини ўрганишда эмас, балки бадий асар талқинида ҳам кўл келганини англаш мумкин”,<sup>2</sup> – деб ёзади. Биографик метод тадқиқотчини муаллифнинг индивидуал ҳаёт тарзи, шахсий турмуши, ҳаёт йўли, кечмиши, ички кечинмалари, характер-хусусияти, бир сўз билан айтганда, биографияси (ёки автобиографияси)га қизиқтиради. Негаки, А.Расулов айтганидек: “Бадий асар ёзувчининг ботиний ҳолати кўзгуси. Бадий асарни англаш, талқин қилиш, баҳолашда ёзувчи таржимаи ҳоли беқиёс аҳамиятга эга. Ҳаққоний ёзилган таржимаи ҳол бадий матн руҳини, моҳиятини очишда бебаҳо манбадир. Тийрак талқинчи асар орқали ёзувчи ҳолати ҳақида кўп нарсаларни сўзлаб беради”.<sup>3</sup>

А.Расулов тарихий-биографик ёндашув жараёнида “биография”, “таржимаи ҳол”, “ҳасби ҳол”, “ҳолот-маноқиб” сингари адабий ислоҳларнинг қўлланилиш доираси ва тарихини ҳамда улар ташиган маънолар ҳақидаги баҳсларни эслатиб ўтади. Унинг фикрича, биринчидан, бадий асарни таҳлил қилишда биографик маълумотларнинг ёрдамчи моҳият касб этишини аниқлаш; иккинчидан, биографик асарлар таҳлилидагина ёзувчи таржимаи ҳолига мурожаат қилиш каби икки турли ёндашувни фарқлаш лозим. Булардан биринчиси самарали таҳлил йўсини бўлиб, у жаҳон адабиётшунослигида тарихий-биографик метод сифатида шаклланган.

Таъкидланганидек: “Биографик метод адабиётни шундай ўрганиш усулики, бунда ёзувчи биографияси ва шахсиятига бадий ижодининг асосий белгиловчи моменти тарзида қаралади”.<sup>5</sup>

Маълумки, автобиография (таржимаи ҳол) – инсоннинг ўз-ўзини англашидан иборат ёзма матнни ифода этса, биография бир инсонни бошқа бир инсоннинг англаши натижасида пайдо бўлган ёзма матндир. Бундай матнларда, албатта, ижодкорнинг туғилиши ва вафоти, оилавий шароити, оила аъзолари, фарзандлари, ёру биродарлари, ижтимоий келиб чиқиши, насл-насаби, яшаш жойи, маълумоти, фаолияти, диний эътиқоди ва бошқалар эътиборга олинади. Адабиётшунос Баҳодир Каримов биографик метод хусусида тўхталар экан, шуни назарда тутиб, уни автобиографиядан фарқлаш муҳимлигини алоҳида эслатиб ўтади: “Бу методни таржимаи ҳолдан иборат тарзида содда тушунмаслик керак. Зотан, биографик метод ижодкор таржимаи ҳолининг оддий хронологик тавсиф ва таснифи эмас; ёзувчининг туғилган йили, яшаган жойи ёки муҳити, асарларининг ёзилган йили ва ниҳоят, ижодкорнинг вафот этган йили – буларнинг бари биографик маълумотлар ҳисобланади... Бунда биографик воқеликнинг изи асарларда қолишини ҳеч ким инкор қилмайди”.<sup>4</sup>

Б.Каримов фикрича, бадий ижод моҳиятини, ижодкор психологиясини, бадий асар илдизларини очишда биографик метод муҳим аҳамият касб этади. Ижодкор меросини тўлақонли тушуниш ва холис баҳолаш учун унинг ҳаёт йўли ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўлиш талаб этилади. Бунда биографик методга таяниб иш юритиш эса муҳим самара беради.

Бадиий асарларда ижодкор шахсияти баъзан ёрқин, баъзан эса яширин акс этган бўлади. Буни фақат асар контекстидан билиб олиш мумкин. Шу жихатига кўра, яратилган асарларни икки хил:

б) муаллиф биографияси контекстида ёрқин акс этмаган асарлар

а) муаллиф биографияси контекстда ёрқин акс этган асарлар тарзида фарқлаш мумкин.

Ёзувчи биографияси контекстида ёрқин акс этмаган асарларга кўпинча тарихий мавзуда яратилган айрим асарлар мисол бўла олади. Бундай асарларда гарчи муаллиф ўз биографиясини ёрқин баён этмаса-да, унинг мазмунидан ўша ижодкорнинг ўтмиш давр воқеликларига ижтимоий-руҳий муносабати, шахсий қарашлари англашилиб турадики, натижада, унда биографик аломатлар пайдо бўлади. Масалан, Одил Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” романи шоҳ, фалакшунос олим Мирзо Улуғбек яшаган таҳликали онлардан, унинг биографиясидан ҳикоя қилади. Бу асарда муаллиф биографияси эса йўқдек гўё. Лекин, бизнингча, ҳар қандай асарда унинг муаллифи биографиясига оид нимадир чизгилар бўлади. Шунинг учун ҳар қандай асарни биографик контекстда олиб ўрганиш мумкин. Айтайлик, Одил Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” романи биографик контекстда олиб ўрганилса, қуйидаги икки ҳолат намоён бўлади:

биринчидан, Мирзо Улуғбекнинг ҳукмдор ва олим қиёфаси, ҳаёт йўли, яқинлари, бошидан кечирганлари ёришади;

иккинчидан, асар муаллифи, XX асрнинг забардаст адибларидан бири Одил Ёқубовнинг ўтмиш тарихимизга, Мирзо Улуғбек яшаган XV аср давр воқеликларига, ўша замонга хос ижтимоий-сиёсий муаммоларга муносабати, бу ҳақдаги шахсий мулоҳазалари, тарихий воқеликни бадиий идрок этиш салоҳияти, уни кўргандек талқин этиш маҳорати, ўша давр ва унинг одамлари ҳақидаги фикр-кечинмалари англашилади. Шуниси борки, биографик методни фақат адабиётшуносликнинггина тадқиқ усули деб қарамаслик керак. У орқали фақат ёзувчи ва шоирлар ҳамда улар яратган бадиий асарлар тадқиқот объекти сифатида танланмайди, балки ижоднинг ҳар қандай турида, хоҳ у бадиий, хоҳ у илмий-назарий ёки амалий бўлсин, шахс дунёқараши билан боғлиқлиги сабабли бу метод учун манба бўла олади. Шунингдек, биографик метод орқали ижоднинг фан-техника, санъат, сиёсат, маданият каби ҳар хил шакллариغا нисбатан ёндашиш мумкин. Бундан эса биографик методнинг универсал характер касб этиши янада ойдинлашади.

Шу ўринда бадиий асар илдизларини очишда биографик методнинг ўрни ҳақида сўз юритар эканмиз, Навоий ижодига бир назар ташлаймиз. Шарқ адабиёти анъаналарига кўра, ҳар бир асар муқаддимасида ҳукмрон подшоҳга мадҳия бўлиши шарт ҳисобланган. Шоир асарларининг бошланишида ҳам у ўз ҳукмдори ҳақида алоҳида сатрлар келтирган. Демак, ўз даврининг ижодкор вакили сифатида Навоий ҳам бу белгиланган тарихий анъанадан узилиб иш кўролмаган. Шу қоидага кўра, Навоий “Хамса”сидаги деярли ҳар бир дostonда Хуросон подшоҳи Султон Ҳусайн Бойқаро тавсифига бирор бобни бағишлаган. Айтайлик, “Хамса”нинг биринчи достони “Ҳайрат ул-аброр”нинг XVI боби Ҳусайн Бойқаро мадҳига бағишланган. Бу мадҳ ўзига хос шаклга эга. Унда Султоннинг номи араб тилидаги сифатлов ва дуо билан ўралган ҳолда келтирилган. “Хамса”нинг иккинчи достони “Фарҳод ва Ширин”да Султон Ҳусайн Бойқаро мадҳи X бобни эгаллаган бўлса, учинчи дoston “Лайли ва Мажнун”да шоҳ Ғозий мадҳияси VII бобни ташкил этган. Тўртинчи дoston “Сабъаи сайёр”нинг IX боби Ҳусайн Бойқарога бағишланган бўлиб, султон мадҳи анъанавий васф (мақтов) тарзида тузилган. “Сабъаи сайёр”нинг ўнинчи боби Султон Ҳусайн Бойқаронинг рафиқаси, малика Хадичабегим мадҳида битилган. Навоий уни афсонавий аёл қаҳрамонлар Билқис, Сора, Узролар билан қиёс қилади ва “Хадичаи кубро” (“Кибор Хадича”) деб атади. Бу бобнинг сарлавҳаси ушбу аёлнинг таърифлари билан бошланади. У покизалик, тозалик, баҳор боғининг гуллаб яшнаган чоғдаги кўринишини эслатади.

Бундан ташқари, “Хамса”да Навоий Султон Ҳусайн Бойқаронинг катта ўғли Бадиуззамон номига ҳам мадҳия бағишлаган. Яна Бадиуззамон, Абул Фаворис Шоҳ Ғариб, Султон

Увайс ва Музаффар Ҳусайн каби шахзодаларга дostonлар сўнгида мадҳлар, панд-ўғитлар қилган. Бу мадҳия ва панд-ўғитлар ўша бобларнинг сарлавҳаларида ўз аксини топган. Навоий ўз ҳукмдорининг тавсифини осмоний тушунчалар орқали бошлайди. Султон Ҳусайн мадҳи учун фалак хизмат қилади. Қуёш ўз саҳифасини тайёр тутади. Шоир Зухал, Муштарий, Баҳром, Зухра, Аторуд, қамар каби осмоний жисмларни шоҳ хизматига жалб этади. Ана шу таърифлардан кейингина “Шоҳ Султон Ҳусайн бин Мансур”нинг тавсифи бошланади. Унда подшоҳнинг, унинг ота-боболарининг баланд даражаси эслатилади, Шоҳнинг қудратли ҳокимияти улуғланади”. Фақат бунда Навоий қуруқ таъриф билан чекланиб қолмасдан, Султон Ҳусайн шахсиятининг белгиларини бадиий бўёқлар орқали кўрсатиб ўтишга интилади. Айниқса, муболағали безаклардан кўп фойдалангани сезилади. Шундай бўлса-да, шоир ёрдамида ўқувчи тарихий шахс – Султон Ҳусайн тўғрисида муайян бир тасаввур пайдо қилади.

Алишер Навоий Султон Ҳусайн Бойқарони яқиндан билган инсон сифатида унинг ҳарбий маҳорати, шуқуҳу савлати, мусиқа санъатига ошўфталиги тўғрисида маълумот беради. Шоҳнинг санъатга илиқ муносабатини у саройда ташкил этган базмларда янграган туркий наволар, форсий сурудун нағмалар ҳамда Ироқу Ажам куйлари тасвири мисолида кўрсатиб беришга уринади. Ҳукмдорнинг бу тароналардан гоҳ баҳори хандондек кулиб нашъа қилишини, гоҳо кўзидан ёшлар тўкишини, ҳар бир оҳангни мана шундай ўта таъсирчанлик билан тинглашини; тарона чертган созандаларга катта инъомлар ҳадя этишини таъкидлайди. Шоирнинг айтишича, Султон Ҳусайн Бойқаро “Май ичиб беҳисоб маст бўлмай, нафс ҳукмига зердаст бўлмай” айш қиларди.

Бу тасвирлар орқали Навоий гувоҳлигида Султон Ҳусайн Бойқаронинг бой эмоциялар эгаси экани билиниб қолади. Навоий фикрича, подшоҳ кишиларни ширин сўз, хандон юз билан кутиши, халқ бошидан зулмни кетказиши, адолат билан эл кўнглини шод этиши, ҳамманинг ишини саранжом қилиши лозим. Зеро, Навоий ҳассос лирик шоир бўлиш билан бирга, йирик давлат арбоби, ҳушёр фикрли олим ва фозил бир зот эди. Шунинг учун Навоийнинг ҳокимиятни бошқариш борасида ўз тилак ва қарашлари бор эди. Бунда у ҳақпарварлик ва адолатпарварликни, инсонпарварлик ва халқпарварликни бош мезон деб билган. Ўз даврида давлатни бошқариш билан боғлиқ камчиликларни, юрагини тўлдирган дардларини бир-бир изҳор этиб, кўнглини сал бўшатган. Унинг тутган сиёсий йўли адолат ва инсонпарварликни тарғиб этиш ва бу мақсадларни ўз имкони даражасида муттасил амалга оширмоққа қаратилган эди.

Навоий асарларининг аксариятида “Ҳайрат ул-аброр” дostonидаги Шоҳ Ғозий, “Сабъаи сайёр” дostonидаги Баҳром сажиясидаги қирралар аслида Султон Ҳусайн характеридан олинганлиги таъкидланади. Айниқса, Султон Ҳусайн характеридаги зиддиятларни очиқ-ойдин намоён этишда Навоий “Сабъаи сайёр” дostonи қаҳрамони шоҳ Баҳром образидан унумли фойдаланган. Навоий шоҳ Баҳромнинг давлат иши билан шуғулланмай қўйганини аниқ мисолларда кўрсатишга уринади. Ишқ туфайли унинг мулк ва сипоҳга бокмай, додхоҳларни қабул қилмай қўйиши эл оғзига тушганини, ҳар бир одам подшоҳнинг хатти-ҳаракатидаги бу нуқсон тўғрисида гапираётганини сўзлар экан, Баҳромнинг хатти-ҳаракатидаги бу ўзгаришларнинг психологик асосларини очиб беришга, унинг кечинмаларини тадқиқ этишга интилади. Шу орқали шоир Баҳромдаги бу руҳий ўзгаришларнинг тасодифий эмаслигини, табиатан Баҳром ғоят қизиқувчан табиатли киши эканини, энг муҳими, у ғалаба қозонишга одатланиб қолганини, шунинг учун севгида эришган ғалабаси шаробидан маст Баҳром давлат ишларини унутиб қўяётганини таъкидлайди. Бундан келиб чиқиб, шоир ошиқлик ва шоҳликнинг бир танга сиғмаслигини асослашга ҳаракат қилади.

Навоий ўзи яратган подшоҳлар образи, уларнинг характеридаги зиддиятлар тафсилотлари асосида ўз давридаги сарой ҳаёти, ундаги нопок шароит ва разил унсурларни фош этишни кўзда тутгани аёнлашади. Айни пайтда, бундай тасвир ва тафсилотлар шоир асарларининг ҳаётийлигини ва реаллигини таъминлашга хизмат қилган. Зеро, маълум бир муддатда умри подшолик саройида кечган Навоий у ердаги реал муҳитни ўз кўзи билан кўрган шахс

сифатида тасвирлайди. Шоир подшо саройидаги хиёнат, ҳасад, кўрқоқлик, зулм-зўравонлик, ишончсизлик, сурбетлик, чақимчилик каби ярамас иллатларни рўй-рост очиб ташлайди. Азиз Қаюмов таъкидлаганидек: “Бундай аҳвол Навоий яшаган замонда, хусусан, унинг ўзи мансуб бўлган шоҳ саройи муҳитига ҳам хос кўринишлар эди. Навоий бундай ҳолатни қоралайди; амалдорларнинг тубан ва номуносиблигини кўрсатади. Шоир ўз ҳикояларини замона ва ундаги мавжуд шароит билан боғлаб боради”.

Шунингдек, “Сабъаи сайёр”нинг ўттиз еттинчи бобида Навоий ва Хусайн Бойқаро, Навоийнинг шахсиятига оид масалалар анча ёритилган. Айтиш мумкинки, бу бобда Баҳромнинг Навоийга қарата, унинг Султон Хусайн хизматида содиқ эканини қайд қилган мисраларнинг мазмуни аслида Навоийнинг Султон Хусайн Бойқарога содиқлиги ва шоирнинг подшоҳ қошидаги мавқеидан дарак беради. Бу сўзлар Навоийнинг шахсияти тўғрисида аниқ тасаввур туғдиради ва улуғ гуманистнинг кўнгил розларини билдирган дилномасидир, дейиш мумкин. Негаки, “улуғ мутафаккир Навоий молу-дунё, бойликка мутлақо бепарво эди. Унинг шахсияти, улуғ рухий дунёси ғоят бой, интилишлари олий, хатти-ҳаракати, рўзғори ўта камтарона эди. Достонда Баҳром сўзлари орқали шоирнинг ана шу изҳори холи баён этилган”. Демак, Навоий – ҳаётини замирида туриб қалам тебратган шоир. Унинг Султон Хусайнга садоқатини, ўзи учун молу жоҳнинг керак эмаслигини, фақат кўнгли тилаган ишгагина қўл ураганини, кўнгил тилаги эса эзгулик йўлида тинмай меҳнат ва ижод қилишдан иборат эканлигини билдирган мисралари талайгина. Шундан кўринадики, шоирнинг фалсафий ва тарбиявий қарашларида дунёга хирс қўймаслик кераклиги, барибир ундан қуруқ қўл билан кетилаганини эслатиш муҳим ўрин тутди.

**Хулоса.** Бадиий асарларни очиб беришда биографик методнинг аҳамияти катта. Бу методда ижод қилган асар муаллифи қаҳрамоннинг ички дунёсига кириб боради. Муаллифнинг бадиий-эстетик қарашларини туғдирган, унинг кечинмаларига, изтиробларига сабаб бўлган омилларни аниқлайди ва бу ҳақда ўқувчиларга тушунча етказди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд, 2-китоб. Ишқ водийси чечаклари. “Лайли ва Мажнун”. Етти саёҳатчи. “Садди Искандарий”. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2008. – Б.235-236.
2. Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд, 2-китоб. Ишқ водийси чечаклари. “Лайли ва Мажнун”. Етти саёҳатчи. “Садди Искандарий”. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2008. – Б.164.
3. Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.166
4. Расулов А.Р. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси: Филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. – Т., 2002. – Б.17-19.
5. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида тарихий-биографик метод / Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари (60-70-йиллар): Филол. фан. доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.37-42.
6. O.I.Adizova —World literature and biographical method. ISJ Theoretical & Applied science. Year: 2018. Issue: 10.volume: 66. Section29. Literature. Folklore. Translation. P.327-330.
7. Dilthey W. Gesammelte Werke. Bd. VII. Stuttg, 1992. – S.246.
8. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. – С.54.

#### **ҲОФИЗ ХОРАЗМИЙ ИЖОДИДА МАНСУР ХАЛЛОЖ ТИМСОЛИ**

**Амонова Зилола Қодировна,**

Бухоро Давлат университети  
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти,  
филология фанлари доктори

Ўзбек мумтоз адабиётида XIV асрнинг охири XV асрнинг бошларида яшаб фаолият кўрсатган ва ўзидан салмоқли ижодий мерос қолдирган шоирлардан бири Ҳофиз

Хоразмийдир. Шоирдан йирик ҳажмли девон етиб келган. Девонда ғазал асосий ўрин эгаллайди. Шоир шеърлари мавзу жиҳатдан ранг-баранг. Уларда оламнинг яратилиши, инсоннинг мукаррамлигию, ишқнинг илоҳийлиги васф қилинса, нафсоний иллатлар, инсоний кусурлар танқид қилинганлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, Ҳофиз Хоразмий шеърлярида Мансур Ҳаллож ва “Анал - Ҳақ” ғояси талқини ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Бу борада матншунос олим Ҳамид Сулаймон шундай ёзади: “Қатта замондоши Имоиддин Насимий каби феодал зулмга қарши ўта исёнкор бўлмаса ҳам, расмий исломнинг разил вакиллари томонидан ваҳшийларча ҳалок этилган суфизм идеологларидан бўлган Мансур Ҳалложни ғазалларида ҳурмат билан эслайди”.

Шоҳ Мансур ишқи ва мардонавор шиддати таърифи Ҳофиз Хоразмийни ҳам бефарқ қолдирмаган:

Агар Мансур бўлмоқлик тилар бўлсанг муҳаббатда,  
Ҳамеша Ҳофизи шабхез янглиғ зинда дор изда .

Таъкидлаганимиздек, ишқ ва унинг юксак мақоми Мансур Ҳалложга насиб қилган. Шунинг учун уни тасаввуф оламида шоҳ Мансур деб ҳам тилга олишади. Ҳофиз ҳам муҳаббатда Мансур мақомини тилар бўлсанг, доимо у каби шабхез (туни билан уйғоқ) бўлиб, зинда (тирик) дор иста, дейди. Чунки ишқи илоҳий эгалари, яъни ориф кишилар жуда кам миқдорда ухлаб, доимо Оллоҳ зикри билан машғул бўлганлар. Зеро, тасаввуфдаги риёзат босқичларидан бири қилъати маом, яъни кам ухлашдир. Зинда дор иста, дейиш билан шоир Ҳалложнинг тақдирини талмеҳ воситасида эслатиб ўтади. Ҳалложнинг муҳаббатига ҳавас қилган Ҳофиз кейинги ғазалларида ҳам унинг ишқи, қисмати билан боғлиқ мушоҳадаларга ишора қилади:

Ишқдин ўзгага йўқ олам ичиндаким вужуд,  
Сирр-и анал ҳақни бил, воқифи асрор бўл .

Шоир олам ичида ишқдан ўзга нарса йўқлигини, фақат ишқгина мавжудлигини айтади. Биламизки, ишқ бениҳоя кенг тушунча бўлиб, ҳар бир жаҳада бўй кўрсатади. Жумладан, халқ орасида “мутолаага ишқи баланд”, “расм солишга ишқи бор” каби турли иборалар кенг ишлатиладики, ҳаммаси ишқ тушунчасига бориб тақалади. Айрим манбаларда Ишқ азалий тушунча бўлиб, Ҳақ таоло томонидан яратилганлиги зикр этилади: “Аллоҳ таолонинг энг аввал яратгани Расулуллоҳнинг нури эди. Шундай кейин ул нурни тўртга бўлиб, бир бўлагидан Арши Аълони, бир бўлагидан Қаламни, учинчи бўлагидан Жаннатни ва сўнги бўлагидан мўминларни яратди. Кейин ул тўрт бўлакни яна тўртга бўлиб, биринчи бўлагидан азиз ва мукаррам Расулуллоҳни яратди, иккинчи бўлагидан Ақлни, учинчи бўлагидан Уятни, ва тўртинчи бўлагидан Ишқни яратди” . Тасаввуф адабиётларида эса ишқнинг икки томонлама эканлигига, яъни Холиқнинг махлуққа, махлуқнинг Холиққа ишқи борасида фикрлар ифода этилади. Шу нуқтаи назардан Ҳофиз оламда ишқдан ўзга вужуд (мавжуд) йўқлигига, ишқ оламнинг асоси эканлигига урғу беради. Қолаверса, Ҳалложнинг “Анал – Ҳақ”и сирини англаган киши, асрор (сирлар)дан воқиф (хабардор) бўлиши мумкинлигини таъкидлайди. Чунки Анал - Ҳақ Аллоҳ ва одам ўртасидаги ишқу бирлик моҳиятини ўзида мужассам этган тушунчадир.

Ҳофиз Хоразмий учун фанийликдан кечиб боқийликка интилиш – Мансурга яқинлашиш ёки Мансурга ўхшаш бўлиш кабидир. Айни масалани куйидаги байтда зикр этади:

Бу дори фанийдинким кечдим бақо юзинга,  
Ҳофиз, ўзумни ул дам Мансурвор кўрдум.

Дарҳақиқат, Мансур жами фанийликдан кечди ва бақога эришди. Мазкур ҳолатга иштиёқ билан қараган шоир ўзини Мансурга ташбеҳ этади. Ҳаллождаги илоҳий ишқ ва жазба, шижоат ва мардлик Шарқ мумтоз адабиёти ижодкорларини руҳлантирган. Хоразмий ҳам ана шу руҳдан озикланиб, Мансур ғоясига хайрихоҳлик кайфиятини шеърларида сингдиради. Ҳофиз Хоразмий Ҳаллож ҳақидаги фикрларини бошқа бир

ғазалида давом эттирар экан, унинг дунёдаги дўсти дор эди, дея Мансур қисматига талмех воситаси билан ишора қилади:

Дори дунёда бўлганкан Мансур,  
Кўргасан дўст ани бар сари дор.

Маълумки, инсоннинг дўсти унинг энг яқин кишиларидан бўлиб, мақсадига эришишида ҳам ҳайрихоҳ, ҳам ёрдамчи саналади. Шу боис шоир Мансур учун дор мақсадига эришишида кўмаклашган дўст сифатида эди, дея мулоҳаза юритади.

Ҳофиз Хоразмий ғазалларига эътибор қаратсак, мусалсаллик, яъни фикр таъсирчанлигининг ошиши билан боғлиқ ҳолатлар тез-тез кўзга ташланади. Шунинг учун матншунос олим Ҳамид Сулаймон шоир шеърляти ҳақида қуйидагича ёзади: “Ўзбек тилида юксак бадиий маҳорат билан ва ғоят содда ва равон ғазаллар яратишда уни Навоийгача бўлган ўзбек ғазалиётининг беназир устоди, деса арзийди”. Шоир ғазалиётдаги мусалсаллик Ҳаллож ва унинг ғояси таърифи берилган байтларда ҳам кузатилади. Жумладан, юқоридаги байтда дор Мансур учун дўст сифатида талкин этилган бўлса, бошқа ғазалда эса тўғрилиқ сари олиб борувчи “ийд” – байрам дея зикр этилади:

Дам урса Анал - Ҳақдин ўшул ошиқи бедор,  
Ул дамда анга рост сари дор эрур ийд.

Шоир дорни таърифлар экан, унинг лирик қаҳрамони ҳам шу дорга иштиёқманд эканлиги кўзга ташланади:

Дори дунёда баса боғу гулистон бор экан,  
Ҳофизи сўхта Мансурсифат дор тилар .

Хоразмий дор дунёсида ажиб бир боғ ва гулистон мавжудлигини, ана шу боғу гулистон ҳар бир Анал - Ҳақ сирини англаган ошиқни ўзига мафтун этишига урғу беради. Шу жумладан, ишқда “сўхта” (куйган) Ҳофиз ҳам Мансур каби дор талаб эканлигини маълум қилади. Яъни кўпгина Шарқ мумтоз адабиёти вакиллари сингари Ҳофиз Хоразмий ҳам Ҳаллож ва унинг Анал - Ҳақ ғоясига хайрихоҳ бўлган. Шунингдек, у бир қанча шеърларида Мансур ва Анал - Ҳақ тушунчаси билан боғлиқ асосли фикрларни қайд этар экан, ўзининг Ҳалложга бўлган муносабатини очиқ-ойдин билдиради. Жумаладан, қасидасида “Анал - Ҳақ” моҳиятини англаб етган шахс ва унда зоҳир бўладиган каромат ҳақида ёзади:

“Анал - Ҳақ” дин дам урса олам ичра не ажаб бўлғай,  
Чу зоҳирдур ўшанинг жуббасида рамзи субҳоний .

Шоир “Анал - Ҳақ”ни зикр этган, ундан сўйлаган ва уни мушоҳада этган одамнинг жуббаси (тўнида)да рамзи субҳоний зоҳир бўлишини таъкидлайди. Шу ўринда Шайх Нажмиддин Кубронинг мазжуб Бобо Фараж билан учрашувини эслаб ўтиш жоиз саналади. Бу учрашувни Нажмиддин Кубронинг ўзи ҳикоя қилган. У Табризда Абумансур Ҳафдах ҳузурда ҳадис илмига бағишланган “Шархус-сунна” китобидан сабоқ ўқирди. Бир кун мадраса дарсхонасига дарвеш кириб келади. Нажмиддин уни аввал кўрмаган эди, аммо унга кўзи тушиши билан қалбида меҳрли бир ўзгариш содир бўлади. Сабоқдошларидан бу дарвешнинг мазжуб Бобо Фараж эканлигини билиб олади. Тонгда устози ва сабоқдошлари билан дарвешнинг ҳузурига боради. Шунда дарвешнинг хизматкори унинг “Тангрининг даргоҳига келгандай бўлиб, кира олсалар киришлари мумкин”, деб айтган фикрларини айтади. Буни тўғри англаган Кубро дарҳол кийимларини ечади, ҳамроҳлари ҳам унга эргашадилар. Улар бир чеккада дарвешни кузатиб туришди. Бобо Фаражда бир ажиб ўзгариш содир бўлади. Вужудини азим бир қудрат чулғаб олади ва қуёш парчасидай порлаб кетади. Йиртиқ тўнининг ёриқларидан нур тарала бошлайди. Бобо Фараж бирор соатдан кейин ўзига келиб, ўрнидан туради ва тўнини ечиб, Кубронинг устига ёпади. Кубронинг қалби ёришиб, ҳақдан ўзга барча нарсани юрагидан сидириб ташлагандай бўлади . Демак, тасаввуфда шайхларнинг тўни ва у билан боғлиқ кароматлар уларнинг ҳаққа етишганлигига ишора қилувчи восита саналади. Қолаверса, мазкур манокӣбда дарвешнинг “Тангрининг даргоҳига келгандай бўлиб, кира олсалар”, деган фикри ҳам Анал - Ҳақ ғояси билан боғлиқ мушоҳадаларга ишора қилади. Қолаверса,

асосий масала тўн ва унда “рамзи субҳоний”нинг акс этиши билан боғлиқ фикрларга эътибор қаратсак, Бобо Фаражнинг йиртиқ тўни ёриқларидан нур тарала бошлаши ва Ҳофиз таъкидлаганидек, “Анал - Ҳақ”ни мушоҳада этган одамнинг жуббаси (тўнида)да рамзи субҳонийнинг зоҳир бўлиши – айна бир масала саналади.

Анал - Ҳақ тасаввуфда тавҳид билан биргаликда эътиборга олинган тушунчалардан бўлиб, қатор мутасаввиф ва шоирлар унга алоҳида эътибор қаратган. Айниқса, буюк ҳақшунос мутасаввиф Мансур Ҳаллож жоҳил шариат пешволари, сиёсат жаллодлари ҳукм-фармойиши билан дорга осилгандан сўнг Шарқ тасаввуф адабиётида дор севгиси ёки дор ишқи деган тушунча пайдо бўлди. Шу жумладан, Ҳофиз Хоразмий ҳам ўз шеърларида Мансур Ҳалложнинг ишқ бобида эришган даражаси ва унинг юксак кийматини тарғиб қилган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Axrorova Z.R. Uvays Qaraniy Attor va Navoiy talqinida. BuxDU Ilmiy axborotnomasi 2020yil 2-son, B. 219-223
2. Amonova Z.K. Voprosy vliyaniya xurufitskogo ordena na uzbekskuyu klassicheskuyu literaturu XV – XVII vekov. Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya; Iskustvovedeniye. Vypusk 53. – Chelyabinsk: Izdatelstvo Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, 2011 g. – № 11 (226), – S.8 – 12.
3. Amonova Z.Q. Mumtoz adabiyotda munojot talqini. Actual problems and solutions of modern philology. Collection of materials of the international online conference. www.e- science.uz. 2020. 210-215-bet
4. Вақоевна R. М., Охунjonovна S. Н., Qodirovна A. Z. ANALYTICAL AND SYNTHESIZED FOLKLORISM IN NAVOI'S WORK //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – Т. 27. – №. 2. – С. 1626-1633.
5. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1 - китоб. – Тошкент. 1981. – 547 б.
6. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 - китоб. – Тошкент. 1981. – 298 б.

#### **SELF-HELP GENRE: FACTORS AND GENDER READERSHIP**

**Mekhriniso Rajabovna Kilicheva**

*mekhrishafate@mail.ru*

*PhD, Bukhara State University, Uzbekistan*

Self-help books are often known by other names, such as self-improvement or personal development books. The terms self-improvement, personal development, and self-help are frequently interchanged in the publishing industry. It's also worth noting that, unlike many other genres, self-help books aren't classified as part of any formal literary canon, but rather as part of the “popular genre of self-help literature” [8;56].

The definition of self-help has evolved over time. The Merriam Webster Dictionary defines it as “the action or process of bettering oneself or overcoming one's problems without the aid of others” or “the coping with one's personal or emotional problems without professional help” (“self-help”) [6]. As can be observed, the word currently places a strong emphasis on the individual and their psychological inclinations.

At their essence, self-help books are works that assist readers in solving at least some of their issues and improving their lives. Self-help books, according to Cherry, are all about the self, or “a celebration of the self, or the self as achievement” [3;32].

Self-help book readers appear to be a diverse group of people. There are several factors that are associated with reading self-help books:

- a) general enjoyment of reading;
- b) psychological mindedness;
- c) a stronger self-control orientation;
- d) a higher level of life satisfaction. [5;136]

Furthermore, the ordinary self-help book reader is more likely to presume a link between feelings, thoughts, and actions, and views self-help literature as a means of self-improvement. As a result, self-help literature and its reading might be considered a coping technique that is part of a culture that values individualism [1;347].

There is a gender divide in the readership of self-help literature too. Women, for example, are more likely than men to be enthusiastic about self-help reading [5;136]. Furthermore, scholars, publishers, and writers have long recognized that “self-help reading is a strongly gendered activity”, according to Scott McLean and Brandi Kapell [4;58]. A tendency that may be exacerbated by the fact that self-help books, marketing initiatives, and literature research primarily target women [4;58].

McLean and Kapell discovered two major disparities between men and women in their empirical investigation on the experience of self-help reading. To begin with, there is a distinction between the types of self-help books that women and men read. Women are more likely to read self-help books aimed at assisting them in maintaining and improving interpersonal relationships. Men, on the other hand, are more likely to read books about business and finance. Men and women, on the other hand, read books about careers and health. Second, men and women behave differently during and after reading a self-help book. The fact that women must carry the majority of the emotional effort in interpersonal relationships explains why women are more likely to read literature about interpersonal relationships. “[W]omen have a greater stake in their engagement with self-help books, and thus [are] more proactive, deliberate, and linear in their reading”, the study concludes [4;69].

People were increasingly familiar with Eastern religions which gave them fresh insights on how to live their lives. They learnt about a variety of techniques and experiences that did not always include the five senses, and a new sense of inner serenity evolved [8;73]. Society's rising interest in Eastern religions has affected self-help literature.

Happiness and success are said to be dependent on a person's physical, emotional, mental, and spiritual balance, according to models of mind/body, medicine, and treatments, as well as self-help strategies based on them [8;77]. Many people seek spiritual advice and experience from New Age and Eastern religious groups, which they cannot obtain in regular churches [8;77].

Self-help books, as can be seen, are a significant reflection of the culture and time in which they were created. They are markers of what a society considers significant and worthwhile, and analyzing them provides for a greater understanding of the self, self-making, and being aware of human existence.

### *References*

1. Bergsma, Ad. “Do Self-Help Books Help?” *Journal of Happiness Studies*, vol. 9, no. 3, 2007, pp. 341–360.
2. Cherry, Scott. *A Critical Study of Self-Help and Self-Improvement Practices*. Edwin Mellen Press, 2011
3. Dolby, Sandra K. *Self-Help Books: Why Americans keep reading them*. University of Illinois Press, 2005.
4. McLean, Scott, and Brandi Kapell. “She Reads, He Reads: Gender Differences and Learning through Self-Help Books.” *European Journal for Research on the Education and Learning of Adults*, vol. 6, no. 1, 2015, pp. 55–72
5. Miller, Toby, and Alec McHoul. *Popular Culture and Everyday Life*. SAGE, 1998.
6. Merriam Webster Dictionary
7. Mur Effing, Mercé. “The Origin and Development of Self-help Literature in the United States”. *Journal of the Spanish Association of Anglo-American Studies*, vol. 31, no. 2, 2009, pp. 125-141.
8. Mur Effing, Mercé. *US Self-Help Literature and the Call of the East: The Acculturation of Eastern Ideas and Practices with Special Attention to the Period from the 1980s Onwards*. 2011. Universitat Autònoma de Barcelona, PhD dissertation. [ddd.uab.cat/pub/tesis/2011/hdl\\_10803\\_285656/mme1de1.pdf](http://ddd.uab.cat/pub/tesis/2011/hdl_10803_285656/mme1de1.pdf). Accessed 10 Aug. 2020.



## JO'RA FOZIL HIKOYALARI POETIKASI XUSUSIDA

**Qodirova Nasima Saidburxonovna,**

*BuxDU filologiya faulteti o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)*

**Abdullayeva Farangiz Azim qizi,**

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

Ma'naviy qadriyatlar, axloq, tarbiya masalalari o'tmish davrlardan bugunga qadar hamisha muhim muammolar sifatida talqin etib kelinadi. Insoniy munosabatlarning murakkab qirralari talqin etilgan asarlarda xarakterlar va ularning ruhiyati talqiniga alohida diqqat qaratiladi. Bu borada o'zbek adabiyotining taniqli namoyandaligidan biri Jo'ra Fozil ijodi e'tiborni tortadi.

Jo'ra Fozil 1949-yil Buxoro viloyati Romitan tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetini tamomlagan. O'ndan ortiq kitoblari nashrdan chiqqan. Hozirgi kunga qadar "Romitannoma" gazetasining mazmunan boy chop etilishiga bosh-qosh bo'lib kelmoqda.

Ijodkorning tarixiy va zamonaviy mavzuda yaratilgan roman, qissa va hikoyalari o'ziga xos ma'naviy olam va ruhiyatga, murakkab taqdirga ega bo'lgan inson talqin etiladi.

Biz quyida tahlilga tortmoqchi bo'lgan "Jazo" nomli hikoyamiz ijodkorning "Muhabbatning bayramlari" nomli hikoyalar to'plamidan o'rin olgan. Bu to'plam muallifning ilk kitobi. Ushbu hikoyada jamiyatimizdagi qora illat – ayollarning umr yo'ldoshiga xiyonati, ayni chog'da, har bir ayolning baxtli bo'lishga haqqi borligi va baxt shu baxtga munosib insonlarga berilishi haqida so'zlanadi.

Hikoyada Muhammad Solihning quyidagi misralari epigraf qilib olingan:

Har kim hech bo'lmasa, bitta odamni

Boshiga ko'tarib bilmog'i kerak.

Har kim toza bo'lishi kerak bir qadar.

O'tirish-chun boshida bitta odamning.

Yozuvchi nima uchun aynan uchbu misralarni hikoyaga epigraf qilib tanlaganini asar syujeti bilan tanishganimizda teran anglaymiz. Voqealar syujeti 16 yoshli o'smir yigit tilidan hikoya qilinadi. Bir qarashda, asar hikoyachi qahramonni ta'sirlantirgan bir voqeaga asoslangan va asar uning o'y-kechinmalari va ruhiy holatlari tasviriga bag'ishlangandek taassurot uyg'otadi. Biroq yigitga ta'sir ko'rsatgan ushbu voqea kitobxonni ham o'yga toldiradi. Ehtimol, ushbu hikoya real voqeaga asoslangan. Zero, ijodkorning "Muhabbatning bayramlari" nomli hikoyalar to'plamida bolalik xotiralari asoslangan bir qancha hikoyalar mavjud.

Shom vaqti jo'xori poya tomondan eshitilayotgan "biri nozli, biri ehtirosli – titroq g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovush" yigitni beixtiyor jo'xoripoya tomonga yetaklaydi. Umr yo'ldoshi to'shakda mixlanib qolgan Xumor yanga va qo'shni qishloqlik, "badnafsligi va suyuqoyoqligi bilan dong chiqargan" usta Karimning ovozi tanigan yigit darhol do'sti Hamidnikiga chopadi. Shu o'rinda do'stlarning bir-biriga bo'lgan mustahkam ishonchini ham ko'rishimiz mumkin. Negaki, do'sti Karimni chaqirganda hech bir savol bermay ortidan ergashadi, chunki o'rtog'i uni hech qachon yomon yo'lga boshlamasligini biladi. Qo'llaridan kelganicha suyuqoyoq usta Karimning "jazo"sini berishadi.

Yillar o'tib bu voqeani suygan qiziga so'zlab bergan yigit undan kutilmagan javob oladi: "bechora".

Asar syujeti qisqacha shundan iborat. Bechora kim? Bir umr to'shakda mixlanib, ayolining qo'lga qaram bo'lib qolgan Hakim akami, yo bo'lmasa, umri nogiron insonga qarash bilan o'tayotgan, ayollik baxtini tuymagan Xumor yangami?! "Kasal – kasalmas, kasalni boqqan – kasal", – deydi xalqimiz. Xumor yangaga ham oson emas, u ham ayollik baxtini tuyishni, turmush o'rtog'i boshqa erkaklar singari baquvvat, ayolining qalqoni bo'lishini istaydi. Lekin bularning bari ollohning sinovi ekanligini, bu sinovlarga sabr bilan bardosh bersagina Ollohning unga atalgan baxti muqarrarligini unutib qo'yadi. Jamiyatimizda bunday ayollar yo'q emas, afsuski. Yozuvchi Xumor obrazi orqali o'zbek ayollari uchun yot bo'lgan sadoqatsizlik, behayollik, iffatsizlik, qanoatsizlik illatlarini qoralaydi.

Hikoyaning “Jazo” deb nomlanishi xususida to’xtaladigan bo’lsak, bizningcha, zohiran qaraganda, jazo yigitlar tomonidan toshbo’ron qilingan usta Karim nazarda tutilsa-da, botinan bu qaysidir gunohi uchun bir umr to’shakka mixlanish bilan jazolangan Hakim aka, nogiron umr yo’ldoshi bilan jazolangan Xumor yanga, xalq orasida obro’sizlangan Karim aka jazosidir.

Yozuvchi asar qahramonlarining har biriga keng tavsif berish yo’lidan bormaydi. Balki kitobxon qahramonlar haqida hikoyachi yigitning tuyg’ulari ifodasi orqali tasavvur paydo qiladi. Ammo adibning mahorati o’laroq o’quvchi hikoyadagi har hech bir qahramon taqdiriga befarq qaray olmaydi. Tabiiyki, Xumor yanganing tuyg’ularini ham beixtiyor his eta boshlaydi. Hakim akaning taqdiriga ham kuyunadi. Ammo bunda, bizningcha, usta Karimning xatti-harakatini hech qanday asos bilan oqlab bo’lmaydi. Chunki nochor holatga tushgan, ma’lum bir vaqtda barqaror bo’lmagan ruhiy holat qurshovida qolgan ayolning holatidan foydalanish, axloqsizlik va ma’naviy tubanlikning yo’liga kirgan insonninggina qo’lidan keladi. Shu boisdan, bo’lsa kerak, yozuvchi bunday insonlarning jazosini berishni istagan ko’rinadi. Hikoyachi qahramonning nafрати va do’sti ham Hamid bilan usta Karimni tartibga chaqirish uchun o’ylab topgan jazo usullari, ayni paytda, yozuvchining ham ma’naviy tubanlikka qarshiligini ifoda etishga xizmat qilgan, deyish mumkin.

Hikoyada ilgari surilgan g’oya shuki, inson boshiga g’am keladimi yoki bo’lmasa baxt, bunga insonning o’zi sababchi bo’ladi. Zero, inson oldida har doim tanlash uchun ikki yo’l bo’ladi. Asarning epigrafida keltirilganidek, har bir inson hech bo’lmaganda, bitta insonni baxtli qilishi kerak, ammo u inson shu baxtga munosib bo’lishi lozim. Ushbu satrlarda hikoyaning mazmun-mohiyati to’la aks etgan. Bu esa ijodkorning epigraf tanlashdagi yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi.

Adib hikoyalarining mutoalasiga kirishar ekanmiz, uning so’z qo’llash bilan bog’liq mahorati e’tiborni tortadi. Ijodkor so’zni tejab, birgina jumla mag’ziga ko’plab ma’nolarni singdirishga harakat qiladi. Xususan, asarlarda peyzaj tasviri berilganda Jo’ra Fozil har bir so’zning ichki va yondosh ma’nolarini ham inobatga olinganligini ko’ramiz. Adib hikoyalarida peyzaj shunchaki qo’llanilmaydi, u asardagi qaysidir g’oyaviy-badiiy maqsaddan kelib chiqqan holda yaratiladi va asar kompozitsiyasi yaxlitligi va jozibasini ham ta’minlaydi. Adabiyotshunoslikda inson va tabiat tasviri muammosini o’rganish doimo dolzarb masala bo’lib kelgan. Zero, “...yozuvchi o’z g’oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o’rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o’quvchiga ta’sir etishni, undagi go’zallik tuyg’ularini tarbiyalashni ham ko’zda tutadi”, deb yozgan edi taniqli olim M.Sultonova.

Jo’ra Fozil peyzaj yaratar ekan, uni qahramon ruhiyati bilan bog’lashga intiladi. Bunda ham ikki xil holatni kuzatish mumkin:

1. Peyzajning hikoyada keltiriladigan voqea yoki qahramon ruhiyati bilan qarama-qarshi qo’yilishi. Bunday holat nosirning “Nastarin ifori” hikoyasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Hikoyada ikkinchi jahon urushi manzaralari peyzaj bilan bir butunlikda tasvirlanadi. “Tank gusinitalari ostida toptalgan yam- yashil maysalar, anvoyi gul ko’katlar faryod chekayotgan bo’lsalar-da, ularning nolasida baribir ko’klam tarovati ufurib turardi. Vayron etilgan bog’larda qiyg’os gullagan olma-yu, gilos daraxtlari, nofarmon nastarin gullari kishi qalbiga allaqanday sarmast bir tuyg’u olib kirib, shuncha vayronagarchilik, qon, o’limlar aro yashashga umid uyg’otardi”[3,8]. “Yo’l chekkalarida” paydo bo’lgan “askariy qabristonlar” jangchilar ruhiyatida tushkunlikni uyg’otsada, tongda boshlangan mayin bahor yomg’iri ularga dalda bo’layotgandek edi. Shu o’rinda ijodkor yomg’ir tilidan askarlarning orzusini, ular boryo’g’i o’z yurtiga qaytib tinchgina mehnat qilishni istashlarini ifodalaydi: “Tongda boshlangan yomg’ir askarlar qulog’iga, “Bardam bo’l, o’g’lon! G’alaba manzili yaqin, intiqom tongi albatta otajak! Va sen ona yurtingga qaytasan, tinchgina mehnat bilan mashg’ul bo’lasan!” deya shivirlardi”[3,8]. Ijodkor yomg’irni nutqlantirish orqali tabiat va inson bir butunligini, tabiat insonni hamisha qo’llashi, unga dalda bo’lishini isbotlamoqchi bo’ladi. Va ayni paytda insonning tabiatga bo’lgan adolatsiz munosabati ham hikoyada o’z aksini topadi. Urush dahshatlari orasida askarlar qalbiga umid, ertangi kunga ishonch, iliqlik olib kirgan yam- yashil maysalar, nastarin gullari “tank

gusinitsalari ostida” majaqlanganini ko‘ramiz. Insonning tabiatga bo‘lgan bunday munosabati Jo‘ra Fozilning ko‘pgina hikoyalarida o‘z aksini topgan. Yozuvchi bilan suhbatda bo‘lganimizda ham ilgari alvon lolalar bilan qoplangan adirlar yo‘qolib borayotganligi haqida kuyunib gapirdi ijodkor.

2. Peyzajning qahramon ruhiyati va voqeaga uyg‘un holda kelishi. “1937- yil qavs oyi o‘rtalari. Qor aralash yomg‘ir yog‘ar, huvillagan bog‘larni makon tutgan qora zog‘lar ho‘l qanotlarini og‘ir silkitib, shoxdan- shoxga uchib o‘tishar, poyonsiz dalalar chetidagi yalang‘och tut daraxtlari bor- budidan mosuvo odamlardek nochor mung‘aygan...”. Ushbu boshlanmaga ega bo‘lgan “G‘oziyon zindoni” hikoyasida ham ijodkor o‘z odaticha vaqt ko‘rsatkichini eski yil hisobi bilan beradi. Qavs oyi 23- noyabrdan 21-dekabrgachaligini inobatga olsak, hikoyadagi voqealar dekabr oyining boshida sodir bo‘lgani ayonlashadi. “G‘oziyon” Buxoro shahridagi madrasa nomi bo‘lib, sho‘rolar undan zindon sifatida foydalanishgan. Ushbu hikoyada peyzaj, asosan, qahramonlar hayotining qanchalik ayanchli ekanligini ko‘rsatishga va voqealar emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Jo‘ra Fozilning deyarli barcha asarlarida barcha zamonlar, turli makonlar uchun dolzarb bo‘lgan muammolar o‘z aksini topgan. Adib asarlarida o‘quvchini o‘ylashga, mulohaza yuritishga yo‘naltiradigan mavzular, xilma-xil xarakterlar yaratilganki, ijodkor asarlarini o‘rganish adabiyotshunoslikda ijodkor mahorati va zamonaviy o‘zbek adabiyotining tamoyillariga oid muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Jo‘ra Fozil hikoyalari o‘ziga xosligi, mavzu ko‘lamining rang-barangligi, shaklan ixchamligi, qahramonlar tasviri va harakatlarida milliy ruhiyatning aks etishi, jamiyat hayotidagi dolzarb illatlar, muhim muammolarga diqqat qaratilishi bilan ahamiyatlidir. Jo‘ra Fozil peyzaj yaratishda har bir voqeaning xarakteridan kelib chiqadi. So‘z va tasvirlarni mahorat bilan, rassom nigohi bilan tanlaydi va chizadi. Peyzaj tasviri asarda muallif g‘oyaviy-badiiy maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Фозил Ж. Биз лола термаган баҳор. – Бухоро:2010.
2. Фозил Ж. Мухаббатнинг байрамлари. – Бухоро:1991.
3. Фозил Ж. Шарк юлдузи. – 2020.12-сон .
4. Ахмедова Ш. БУХОРО ТАРИХИГА БАҒИШЛАНГАН ШЕЪРЛАР ҲАҚИДА //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2021. – Т. 6. – №. 6.
5. Amonova Z. K. et al. MANSUR HALLAJ AND HIS IDEAS IN AHMAD YASSAVI’S WORKS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 964-967.
6. Ахмедова Ш. Н. ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 12-14.
7. Davronova S. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES.
8. Davronova S. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
9. Eshonqulov H. The Alisher Navoiy oshiqona g‘azallarining badiiy qurilishiga oid o‘ziga xosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
10. Eshonqulov H. Ma'shuqa va oshiq holiga xos istioralashgan epitetlarning qofiyalanishi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
11. Qodirova N. S. Problems Of Style And Creative Individuality In Literature //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 2. – С. 254-260.
12. NEMATOVNA A. S., SAIDBURKHONOVNA K. N., BEKMURODOVNA K. O. METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 5.
13. Safarova H. ГУЛЛАРИНГНИ АЙЛАДИ ЧЎП ҚАРФА, БОЙҚУШ, ЗОҒ, ТИЛИМ...”: (Шоир Самандар Воҳидов ижоди мисолида) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

14. Қодирова Н. APPEARANCE OF A CRITICAL STYLE IN RELATION TO NEW UZBEK LITERATURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
15. Қодирова Н. Научно-литературное мышление и проблема стиля //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
16. Қодирова Н. Ibrohim Naqqulov ijodida muallif nutqining o'ziga xosligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
17. Rajabova M. B. Expression of images related to national traditions in a. Navoi's work //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 141-146.
18. Rajabova R. Z. The Influence Of Folk Riddles On The Creation Of Literary Riddles //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 07. – С. 278-284.
19. Rajabova R. Z. PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK //ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ. – 2020. – С. 9-11.
20. Norova N. TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 3. – С. 100-111.

## SAN'ATGA OID LISONIY BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR

(fransuz va o'zbek tillari misolida)

Hojiyeva Gulchehra Salimovna  
BuxDU o'qituvchisi, [durbora@mail.ru](mailto:durbora@mail.ru)

Ma'lumki, o'zlikni anglash va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik — til orqali namoyon bo'ladi. Zero, har bir o'rganilgan til insonga yangi hayot bag'ishlaydi. Mazkur maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi san'atga oid terminlar vositasida hosil bo'lgan frazeologik birliklar (bundan keyin – FB) haqida fikr yuriladi. Qolaversa, FBlar leksikologiyada katta qiziqish bilan o'rganilayotgan sohalardan biridir.

Tilshunoslikda har bir tilning lug'at tarkibi o'ziga xos leksik va frazeologik qatlamlardan iborat bo'lib, aynan lug'at tarkibidagi frazeologik qatlam frazeologiyani tashkil etadi. Tilning leksik tarkibiga faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham taaluqlidir. Bir butunlikda ko'chma ma'no ifodalaydigan iboralarni o'rganishda, ayniqsa, sinonimlik turli xil xususiyatlari bilan e'tiborni tortadi.

«Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, ikki iborani o'zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart [1,5]». Quyidagi misollarda o'zbek tilidagi san'atning turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar tahlilini misollar asosida kuzatish mumkin.

**1-misol. *nog'orasiga o'ynamoq (kim kimning) - nog'orasiga o'ynatmoq (kim [o'zining])*** kimni izmi bilan, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rmoq [1,183].

Sinonimlarning odatda bir yoki bir necha xususiyatiga ko'ra farqlanishini inobatga olsak, ushbu misolda iboralarning *ma'no qirrasiga ko'ra farqlanishini* ko'rish mumkin. Ya'ni, ikkinchi ibora ham «t» orttirma nisbat qo'shimchasini olgan, ham undagi ma'no birinchi iboraga qaraganda nisbatan kuchliroq semaga ega.

**2-misol. *nog'orasiga o'ynatmoq – childirmasiga o'ynatmoq*** [1,183]

Mazkur frazeologizmlar tarkibidagi komponentlarining o'zgarishiga qaramasdan, ma'no yaxlitligini saqlagan holda o'zaro sinonim bo'lib keladi va «birovni o'z izmiga solmoq»ni anglatadi.

**3-misol. *Yuragi o'ynadi. – Yuragi chapak chalib yubordi.*** [1,320]

Bu o'rinda birinchi iborada «qalbi hayajonga to'ldi» ma'nosi aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi frazeologik birlik «jo'shmoq, to'lib toshib hayajonlanmoq»ni ifodalab, unda birinchisiga qaraganda ma'no ustunligi birmuncha yuqoriligini ko'rish mumkin. Xuddi shu xususiyat quyidagi misolda ham aks etgan:

**4-misol.** *qulog'iga tanbur chertmoq (kim) – hokizning qulog'iga tanbur chertmoq (kim kimning)* [1,378]

4-misoldagi iboralar tarjimasida «gap uqtirishga behuda urinmoq»ni anglatib, mazkur o'rinda ham ikkinchi ibora nisbatan kuchli ma'noga, uslubiy bo'yoqdorlikka ega ekanligi namoyon bo'ladi.

San'at terminlari asosidagi FBlar foydalanish fransuz tilshunosligida ham keng tarqalgan bo'lib, bu borada ikki noqardosh til me'yorlari deyarli mushtarakdir.

**5-misol.** *C'est toujours la même musique.* – Har doim bir xil musiqa (leksik tarjimada) [2].

«Musika» termini vositasida yasalgan ushbu ibora «siyqasi chiqqan narsa», «har doimgi, bir xil gap, mavzu», «siyqasi chiqqan qo'shiq» ma'nolarini ifodalab, polisemantik (ko'pma'nolilik) sinonimiyaga misol bo'ladi.

**6-misol.** *connaître la musique* – musiqani tanimoq, bilmoq (leksik tarjimada) [2].


Mazkur ibora frazeologik nuqtai nazardan «biror ishni barcha tavsilotlari bilan, kichik detallarigacha bilish» ma'nosini anglatib, o'zbek tilidagi «hadisini olgan», «ustasi farang», «uddaburon» FBlariga sinonim bo'lib keladi.

**7-misol.** *aller plus vite que la musique* – musiqadan-da tez bormoq (leksik tarjimada) [2].

Ushbu FB o'zbek tilidagi «oyog'ini qo'lga olmoq», «oyog'ini qo'lga olib chopmoq» iboralariga ma'nodosh bo'lib, «tezlashish, juda tez borish, toqatsizlik yoki sabrsizlik» xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Yuqorida tahlilga tortilgan 5-, 6-, 7-misollarda fransuz tilidagi «*la musique*» – musiqa termini asos – yadro vazifasini bajarib, undan yasalgan iboralar pereferya bo'lib kelmoqda.

Yuqorida fransuz va o'zbek tilida keltirilgan «*no'gora*», «*childirma*», «*o'ynamoq*», «*o'ynatmoq*», «*chapak chalmoq*», «*tanbur chertmoq*» hamda «*la musique*» - «*musika*» singari bir qator san'at terminlari doirasida olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagicha xulosalar berish mumkin:



1-rasm.

- 1) Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un birikmasidir.
- 2) FBlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'noga birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi.
- 3) Agar erkin so'z birikmalari nutq davomida yaratilsa, turg'un so'z birikmalari, ya'ni iboralar nutq davomida yaratilmay, tayyor holda qo'llaniladi.
- 4) Iboralar ba'zan so'zga, so'z birikmasiga va ba'zan butun bir gapga teng ma'noni anglatishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Qomuslar bosh tahririyati, T., 1992, - B. 379.
2. <https://fr.babel.com/fr/magazine/les-expressions-francaises-artistiques>
3. Juraeva Malokhat Mukhammadovna Theoretical Views of Concept, Frame, Tale-Concept, Tale-Frame in Cognitive Linguistics. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) Volume-8, Issue-5S3, 2019.–P.392-395. <https://www.ijeat.org/wpcontent/uploads/papers/v8i5S3/E10840785S319.pdf>;
4. Juraeva Malokhat Mukhammadovna Category of modality: research and interpretation. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Volume: 86/6. 2020. – P. 149-154. <http://www.t-science.org/arxivDOI/2020/06-86/PDF/06-86-29.pdf>;
5. Hojiyeva G.S. Linguovoculary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages). International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). ISSN: 2509-0119. Vol. 25 No. 1. February 2021, pp. 09-15. <http://ijpsat.es/index.php/ijpsat/article/view/2746>
6. Gulchehra Hojiyeva. NATIONAL IDENTITY AND LINGUISTICAL ANALYSIS OF TRANSLATION OF ART TERMS IN UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. P-ISSN: 2204-1990. Vol. 27, No. 2, 2021. Pages 1651-1660. [https://cibgp.com/pdf\\_9597\\_1a767661e994277ad507b83995037dbd.html](https://cibgp.com/pdf_9597_1a767661e994277ad507b83995037dbd.html)
7. Hojiyeva G.S., "SAN'AT" TERMINING FRANSUZ VA O'ZBEK TILI LUG'ATLARI ASOSIDA LINGVO-MADANIY TAHLILI. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK: MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOLLAR. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro, 2021. –B.62-68. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC)
8. Hojiyeva G.S., SAN'AT TERMINLARI TARJIMASINING LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI (fransuz va o'zbek tillari misolida). "O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI YANGI TARIXI VA FALSAFIY TAFAKKURINING DOLZARB MUAMMOLARI" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari SAMARQAND, 2020 yil. – B.433-436. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)
9. Hojiyeva G.S., [SAN'AT VA MUSIQA TERMINLARI TARJIMASIDA MILLIY O'ZBEK TILIDA XOREOGRAFIK TERMINLARNING SHAKLLANISHI: BUGUNGI HOLATI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI](#). Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Toshkent, 2021. –B.69-74. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C)
10. Hojiyeva G.S., [SAN'AT, XUSUSAN, MUSIQAGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK HAMDA MILLIY-MADANIY TAHLILI \(fransuz va o'zbek tillari misolida\)](#). O'ZBEK TILIDA XOREOGRAFIK TERMINLARNING SHAKLLANISHI: BUGUNGI HOLATI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Toshkent, 2021. –B.60-69. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
11. Jo'rayeva M.M., Hojiyeva G.S., O'zbekcha-fransuzcha fransuzcha-o'zbekcha lug'at (dictionnaire ouzbek-français français-ouzbek). Musiqa va san'at sohasiga oid ikki tilli lug'at. Buxoro, 2019.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation\\_for\\_view=LFhC4PMAAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LFhC4PMAAAAJ&citation_for_view=LFhC4PMAAAAJ:u-x6o8ySG0sC)

12. Khaitova G.B., Lexical-Semantic Analysis of the Terminological System of Agriculture and Water Management. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Vol 2 No. 2. <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/241>

13. Kuldasheva N.B. THEORETICAL VIEW POINTS OF LINGUISTS ON TERMINOLOGY. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2019 Issue: 12 Volume: 80. 2019. – P. <http://T-Science.org>:

14. Bozorova R.Sh. Johann Wolfgang Gytotening “Yosh Verterning iztiroblari” romanida poetonimlar talqini Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 2019 yil 12-son [Ахборотнома 12-сон.pdf](#)

15. Norova M.F. Topical issues of teaching foreign languages, Republican scientific-practical online conference, 2021. – P. 396-400. <https://e-conference-globale.com>

16. Таирова М.Х. Обучение французскому языку в школах, как второму иностранному языку. — Жиззах.: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари, 2021.

## TARJIMA QILISHDA BA’ZI YONDASHUVLAR

**Bozorova Rufina Sharopovna**

Bux.DU o‘qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima san’ati va tarjima qilishdagi ba’zi yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Ma’lum asarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo’llari to’g’risida ba’zi olimlarning qarashlari bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** tarjima san’ati, original asar, muloqot, tarjimon, badiiy tarjima, mazmun, mohiyat, muallif.

Ma’lumki, til insoniyatning eng muhim muloqot vositasidir. Til yordamida kishilar o‘zaro fikr almashishadi va bir-birlarini tushunishadi. Til orqali aloqa qilish, ya’ni muloqot ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: og‘zaki va yozma shaklda. Agar muloqot qilayotganlar barchasi bir tilda so‘zlashsa, muloqot bevosita amalga oshadi, ammo kishilar har xil tilda muloqot qilishsa, bevosita muloqotning imkoni bo‘lmaydi. Bu holatda tarjima yordamga keladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bir tilda ifodalangan fikrlarni boshqa tilda ifodalashni aniqlashgan. Demak, tarjima insonlar o‘z fikrlarini turli tillarda ifodalashlarida eng muhim yordamchi vosita bo‘lib hisoblanadi. Tarjima turli xalqlar o‘rtasida fikr almashishda katta rol o‘ynaydi va jahon madaniyati durdonalarini tarqatishga xizmat qiladi. A.S.Pushkin tarjimonlarni “Sivilisatsiyaning xat tashuvchi tulporlari” deb bejizga aytmagan. Tarjima qadimgi zamonlardan buyon mavjud bo‘lgan. Ikki xalq qo‘shnichilikda yashasa, ular o‘zaro jang qilishadi, yoki savdo-sotiq qilishadi. Har ikkala holatda ham har ikkala xalqni tilini biluvchi va biror fikrni bir tildan boshqa tilga tarjima qila oluvchi tilmochlarga ehtiyoj tug‘iladi. Tarjima – nima? Bir qarashda juda oddiy. To‘g‘ri gaplar tuzish orqali boshqa tildagi fikrni bayon qilish kerak. Ammo diniy maktab o‘quvchisi haqida bir hajviya bor. U lotin tilidan “ Spiritus quedem promptus est, caro autem infirma”. “Ruh tetik, tana esa bemajol” ma’nosini beruvchi hikmatli iboralardan birini u quyidagicha tarjima qilgan: “Spirt yaxshi, go’sht esa aynigan”. Bu tarjima shunisi bilan to‘g‘riki, har bir so‘zni shunday tarjima qilish mumkin, ammo gapning asl ma’nosini bermaydi. Demak, gapni tarjima qilishda uni qanday holatda va nima maqsadda aytilgani yoki yozilganini tushunish kerak. Tarjima asl nusxaga so‘zma-so‘z to‘g‘ri kelishi shart emas. Eng muhimi o‘sha tarjima qilinayotgan asar uni o‘qiyotgan o‘quvchiga tushunarli bo‘lishidir. Buyuk nemis tilshunosi Vilhelm von Gumbold yozganidek: “Har qanday tarjima menga yechib bo‘lmaydigan masalani hal qilishda to‘liq urinishday tuyuladi. Shunga ko‘ra har bir tarjimon o‘z ona tilining jozibasi hisobiga originalning ma’nosini boyitishi yoki original hisobiga o‘z ona tilining o‘ziga xosligini saqlab qolishi kerak. Uning qarashlarini ko‘p olimlar ilgari suradi. Ularning xulosalari bo‘yicha

biz ekvivalent deb hisoblaydigan soʻz aslida turli til vakillarida turlicha taassurot uygʻotadi. Masalan, har bir tilda “uy”, “xonadon” maʼnosini beruvchi soʻz bor. Ammo uning tashqi koʻrinishi va ichki jihozlanishi rus, oʻzbek, ingliz, nemis yoki yaponlarda butunlay farq qiladi[1]. Til tizimida soʻzlar turlicha yasaladi: ular oʻzakdan turli maʼnolarda hosil boʻlishi turli grammatik xususiyatga yaʼni oʻz sinonimlariga ega boʻlishi mumkin. Shuning uchun boshqa tilda maʼnosi boʻlgan soʻzni ham aniq yetkazishni imkoni yoʻq. Farq faqatgina soʻzda emas, balki har bir til grammatikasining qurilishi turlicha boʻladi. Oʻzbek va rus tillarida zamon shakllari uchta boʻlsa, nemis tilida ular soni beshta, ingliz tilida esa ular oʻn oltitani tashkil etadi. Gaplardagi soʻz tartibi ham turli tillarda turlicha boʻladi. Masalan, nemis va ingliz tillarida soʻz tartibi qatʼiy, yaʼni darak gapda kesim doimo ikkinchi oʻrinda turadi. Oʻzbek tilida esa kesim hammavaqt gapning oxirida qoʻllaniladi. “Kutubxonada ishlayaptilar” gapini nemis tiliga tarjima qilsak “Die Studenten arbeiten in der Bibliothek” boʻladi. Ammo uni soʻzma-soʻz tarjima qilsak oʻzbek tilidagi soʻz tartibi buziladi, yaʼni “Talabalar ishlayaptilar kutubxonada” shaklida boʻladi. Demak, har bir gapni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda tarjimon har bir tilning grammatik qoidasini puxta oʻrgangan boʻlishi kerak. Tillar dunyoni turlicha “koʻradi”, shu tilda soʻzlashuvchilarning ongini turlicha shakllantiradi. Shunday ekan dunyoni koʻrishni tarjima qilish mumkinmi? Xoʻsh amaliyotga murojaat qilsak. Bir sheʼrning oʻnlab tarjimasi bor. Biror matnni nemis yoki ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qiladigan boʻlsak original matndagi baʼzi maʼnolar yoʻqolishi tabiiy hol. Lekin shunday holatlar ham boʻladiki, originaldan chekinish tarjimonga xalal bermaydi. Bunday tarjima teng qiymatli yaʼni teng maʼnoli deyiladi. Deylik maishiy hayotda vaqt, manzil, narx-navo va hokazolarni soʻrash yoki uchrashuv tayinlashda ikkita muloqot qilayotgan turli tilda soʻzlashuvchi inson bir-birini tushunsa yetarli. Texnik tarjimada ham shu narsani kuzatishimiz mumkin. Masalan, televizor instruksiyasini tarjima qilayotgan tarjimon oʻzbekcha matnning oʻquvchisi qaysi tugmani bossa, original matnning oʻquvchisi ham shu tugmani bosishi kerakligini taʼminlashi kerak, boshqa mayda detallarga, yaʼni badiiylikka eʼtibor berilmasa ham boʻladi. Rasmiy va siyosiy hujjatlarni tarjima qilishga qoʻyiladigan talablar esa juda muhim va aniq boʻlishi kerak. Ammo bunda standart ifodalarning koʻpligi, ularning har xil tillarda deyarli bir xilligi turli tushunmovchiliklarga chek qoʻyadi. Falsafiy, diniy va ayniqsa badiiy matnlarni tarjima qilish juda qiyin. Ulardagi har bir soʻz juda koʻp maʼnoga ega boʻladiki, tarjimon maʼlum matnni tarjima qilish jarayonida uni qaytadan yaratadi[2]. Badiiy tarjimaga koʻpgina qarama-qarshi talablar yuzaga keladi. Ularni amerikalik filolog T.Seyvori “Tarjima sanʼati” kitobida jamlagan: A.Tarjima original soʻzining aynan maʼnosini berishi kerak; B. Tarjima originalning fikrini berishi kerak; A. Tarjima tarjimadek oʻqilishi kerak; B. Tarjima originaldek oʻqilishi kerak (yaʼni oʻquvchida uning oldida turgan asar tarjimadek tuyulmasligi kerak); A.Tarjima originalning (stilini) uslubini aks ettirishi kerak; B.Tarjima tarjimon uslubini aks ettirishi kerak; A.Tarjimon originalga biror nima qoʻshish yoki kamaytirishga haqli emas; B.Tarjimon originalga biror nima qoʻshish yoki kamaytirishga haqli; A.Sheʼrlarni nasrda tarjima qilish kerak; B.Sheʼrlar sheʼr shaklida tarjima qilinishi kerak. Koʻrib turganimizdek fikrlar har xil. Baʼzilar ona tili ruhiga mos kelishini muhim deb hisoblasa, boshqalar oʻquvchini boshqa tilning fikrlashi, madaniyatini qabul qilishni oʻrgatish zarur deb hisoblaydi. B punktida berilgan talablarni bajarish erkin tarjimaga olib kelsa, A punktida berilgan talablar soʻzma-soʻz tarjimaga olib keladi. Ammo tarjima oʻquvchiga xuddi originaldek taassurot qoldirishi uchun B punktida berilgan talablarga amal qilish oʻsha tarjima qilinayotgan asar oʻquvchida katta qiziqish uygʻotishi, undagi badiiy toʻqima, aforizmlar, maqollarning aynan tarjimasini emas, balki ularning ekvivalentini keltirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, nemis tilidagi “Übung macht den Meister” maqolini oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilsak “Mashq usta qiladi” degan maʼno anglashiladi. Ammo badiiy asarda uning “Takrorlash bilimning onasi” shaklidagi ekvivalentini bersak oʻzbek oʻquvchisiga tushunarli boʻladi. Soʻzma-soʻz tarjimada esa maʼno mutanosibligi yoʻqoladi. Tarjimon tarjima qilayotgan asari badiiy jihatdan mukammal boʻlishi uchun unga badiiy sayqal berishi, yaʼni qoʻshimchalar kiritishi yoki baʼzi fikrlarni qoldirib ketishi ham mumkin. Masalan Shekspir asarlari tarjimoni tragediya haqidagi tasavvurlari oʻzining tasavvurlariga (Shekspirning tasavvurlariga emas) mos kelishiga harakat



qilgan. Shu tasavvurlarni ko‘zlab u she‘riy o‘lchamlarni almashtirgan, ba‘zi replika yoki butun sahnalarni ham qoldirib ketgan. Katta syujetli o‘zgartirish ham o‘sha paytlarda, ya‘ni XVII asrlarda tabiiy hol bo‘lgan. Turli davr va turli madaniyatlarda tarjima haqida u yoki bu tasavvurlar paydo bo‘lgan. Odatda Gomer, Vergiliy, Dante, Shekspir asarlariga yangicha qarash yangi tarjimalar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Har bir tarjimaga yangicha qarash ularning har xil tarjimalarga olib kelishiga sabab bo‘ladi. She‘rlarning tarjimasi – katta va qiyin san‘at. Bu borada qator nazariyalar bor. 1. She‘rni tarjima qilish imkoni yo‘q. 2. She‘rda so‘zni emas, balki o‘sha she‘rning ruhini berishi kerak. Mashhur tarjimon M.Loziyskiyning fikricha chet tilidagi she‘rni o‘z ona tiliga tarjima qilishda, tarjimon o‘sha tilning barcha qiyin va jonli aloqalarining barcha elementlarini hisobga olgan holda o‘z ona tilida asl nusxada aks ettirilgan qiyin va jonli aloqa zamiridagi emotsional ta‘sirini bera olishi kerak. Shu tarzda u o‘z ona tiliga sodiqligi va shoirona o‘ziga xosligini saqlagan holda, uning uslubi, tili, ohangi va ritmini qabul qilib go‘yoki tarjima qilinayotgan asar muallifiga aylanishi kerak. Mashhur adabiy asarning tarjimasi ham xuddi shu tarzda talqin etilishi lozim. Aytishlaricha, tarjima muammolari haqidagi bir konferentsiyada ma‘ruzachi o‘z ma‘ruzasini quyidagi fikrlar bilan boshlagan: “San‘at – muhim muammo. Tarjima san‘ati esa juda muhim muammo. Haqiqatdan ham tarjimon oldida turgan mashaqqatning sonsanog‘i yo‘q. Ulardan eng birinchisi – bu originalni tushunish. Agar tarjimon originalning kuchi, xilma-xilligi yoki uyg‘unligini berishni uddalay olmagan bo‘lsa bu uyat emas. Mo‘jizani faqat orzu qilish mumkin, uni talab qilib bo‘lmaydi. Matnning tushunmaslik oqibatida qilingan xato esa tarjimon obro‘sigacha jiddiy putur yetkazadi. Tarjimonning ko‘p xatolariga ikkala tilda mavjud bo‘lgan, ammo boshqa-boshqa ma‘nolarni anglatadigan so‘zlarning borligi sabab bo‘ladi. Masalan: ingliz tilidagi “paragraph” so‘zi paragraf ma‘nosini emas, balki “absats” degan ma‘noni beradi. Ko‘plab xatolarning ikkinchi sababi – bu idiomalar, frazeologik birikmalarni tushunmaslik. Ingliz tilidagi “to catch cold” (поймать холод) “sovuqni tutish” emas, balki aralashmoq degan ma‘noni beradi. Ba‘zi xatolar esa tarjimonning u tarjima qilayotgan asar tilida so‘zlashuvchi xalqning madaniyatini bilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Badiiy matnning tarjimasi ham badiiy chiqishi uchun eng avvalo har bir tarjimon o‘z ona tilida yaxshi yoza olishi kerak. Hatto asar originalni tilini bilmasada, ba‘zan yaxshi shoir va yozuvchilardan yaxshi tarjimonlar chiqishi mumkin. Demak, asar badiiy jihatdan mukammal chiqishi uchun faqat bilim emas, balki o‘zgacha mahorat ham kerak bo‘ladi. Albatta, barcha shakl va ma‘no elementlari aniq talqin etishning imkoni yo‘q. Ammo har qanday turdagi tarjimada quyidagilar sodir bo‘ladi: a) materialning qaysidir qismi asliday tasvirlanmaydi va tashlab ketiladi; b) materialning qaysidir qismi aynan emas, balki ekvivalent orqali beriladi. Masalan tarjima qilinayotgan asarda mavjud maqollar, hikmatli so‘zlar yoki frazeologik iboralar aynan berilmaydi, balki ularning ekvivalentlari beriladi; c) asl nusxada bo‘lmagan material keltiriladi[3]. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ma‘lum bir asarni tarjima qilishda tarjimonning eng asosiy vazifasi asl nusxaning kommunikativ funksiyalarini berish uchun tarjima nazariy asoslarining barcha elementlariga tayanishi lozim. Badiiy tarjima, nasriy yoki nazmiy usulda yozilgan bo‘lishidan qat‘iy nazar-bu san‘at. San‘at - bu ijod mahsuli. Demak, tarjima san‘at bo‘lsa, unda tarjimonda yozuvchilik qobiliyati mujassam bo‘lishi kerak. Bir asarni ma‘lum bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda tarjimon o‘sha tilni mukammal bilishi talab etiladi. Tarjimonning oliy maqsadi – asar g‘oyasini, jozibasini, qahramonlar his-tuyg‘u va kechinmalarini asl holatda saqlab qolishdir.

#### **Adabiyotlar**

1. Бархударов Л.С. Уровни языковой иерархии и перевод. – Тетради переводчика М 1969.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М. Международные отношения, 1975.
3. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М. Международные отношения, 1973
4. Bozorova R.Sh. Nemis kundalik muloqot tili to‘grisida Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 2019 yil 3-son [Ахборотнома 3-сон.pdf](#)
5. Bozorova R.Sh. Johann Wolfgang Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romanida poetonimlar talqini Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 2019 yil 12-son [Ахборотнома 12-сон.pdf](#)

6. Tursunov Z.Z., Bozorova R.Sh. Nemis xalq ertaklaridagi turg'un birikmalarni o'zbek tilida qayta yaratishga doir. Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 2020 yil 5-son [Ахборотнома 5 сон 2020.pdf](#)

7. Kuldasheva N.B., Kuldashev A. SOME DIFFERENT DIFFICULTIES IN SPORTS EXERCICES. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2019 Issue: 12 Volume: 80 Published: 30.12.2019, <http://T-Science.org>;

8. Khaitova G.B., Lexical-Semantic Analysis of the Terminological System of Agriculture and Water Management. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Vol 2 No. 2. <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/241>

## НЕКОТОРЫЕ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЛОВОГО ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА

**М.Гаирова,**  
преподаватель

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются лексические особенности делового французского языка. Выделяется специфика деловой корреспонденции в целом.

**Ключевые слова:** лексическая система, лексический состав, деловая переписка, слово, речевые формулы.

Для деловой переписки характерны устойчивые словосочетания.

Многие из них принадлежат профессиональной терминологии. Наблюдается высокая степень употребления терминов, к которым примыкает большой пласт номенклатурной лексики: наименования и должности. Используется достаточно много аббревиатур.

Однородность стилистической окраски лексики деловой письменной речи достигается за счет высокой частотности процедурной лексики (с обобщенным значением), представляющей в тексте документа конкретное действие, предмет или признак в официально-правовой интерпретации. Термины и процедурная лексика составляют по отдельным жанрам документов от 50% до 70% всех словоупотреблений.

В текстах документов не допускается употребление бранных слов и вообще сниженной лексики, разговорных выражений и жаргонизмов, тем не менее, в язык деловой переписки попадают профессиональные жаргонные слова: *кадровик, платежка и т.п.* Использование подобной лексики в деловых письмах так же неуместно, как и канцеляризм в бытовой беседе, поскольку она закреплена только за устной сферой общения.

All the above processes of generating lexical meaning play important role in determining the types of axiological lacuna and describing the mechanism lacunization when comparing language systems and contexts. For the purpose of accurate description of the lacunization mechanism and application of the lacuna phenomenon within the framework of the theory translation is also possible back to the notion of equivalence. The most important characteristic of the phenomenon equivalence is its approximation, expressed in the semantic intensity of the gap.

• **Conclusion**

A lacuna is a semantic value that determines the type of equivalent relations. The semantic degree of equivalence and the semantic value of the gap are inversely proportional to each other: the more semantic intensity gaps, the lower the semantic degree equivalence and vice versa. Equivalence and lacuna are associated with a change in the denotative structure of lexical meaning in cross-cultural comparison of languages. Both the concepts of lacuna and equivalence are different sides of the same coin. Non-equivalent in denotative terms, units of lexical meaning can context to be appropriate. The problem of adequacy is the central problem of translation, because it is connected in a way with the invariance of meaning in translation.

**References:**

1. Основы общей теории межкультурной коммуникации. Харьков: Штрих, 2001.
2. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов / Под общей редакцией Е.С. Кубряковой. М., 1996.
3. Манакин В.Н. Сопоставительная лексикология. Киев: Знание, 2004.
4. On Linguistic Aspects of Translation. In: Browsers, R. (Ed.): On Translation. Cambridge/Mass.: Harvard University Press, S. 232-239.
5. Jakobson, Roman (1960): Linguistics and Poetics. In: Stephen Rudy (Ed.): Selected Writings. Poetry of Grammar and Grammar of Poetry. Mouton Publishers. The Hague, Paris, New York 1981, S. 18-51.

**DESCRIPTION OF THE THEME EDUCATION IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY CHARLOTTE BRONTË**

**Gulruh Jurakulova**

1<sup>st</sup> course student of Master’s Degree of English literature,  
the Faculty of Foreign Languages, BSU  
[gulruhjurakulova@gmail.com](mailto:gulruhjurakulova@gmail.com)

**Abstract:** *In this article, the life of the English writer, who lived in XIX century, Charlotta Brontë, the similarities between her and the main pratonist of the novel “Jane Eyre”, and the description of the theme “EDUCATION” are described.*

**Key words:** *autobiographical, governess, charitable institution, plucky, respectable, prospects, status.*

***“Prejudices, it is well known, are most difficult to eradicate from the heart whose soil has never been loosened or fertilized by education: they grow there, firm as weeds among stones”  
Charlotte Brontë, “Jane Eyre”[XXIX, 381]***

Charlotte Brontë, born April 21, 1816, was one of six siblings whose mother died when they were all still small; her father, Patrick Brontë, a brilliant clergyman on a modest salary, brought the children up in Haworth, England, by the desolate moors of Yorkshire, in a stone house surrounded by a graveyard on all sides but one.[3,6]

As a child, and even as an adult, Brontë was small and so shy among strangers that one host recalled her twisting herself around in her chair so that she could converse without making eye contact. In 1824 Charlotte was sent with Elizabeth, Maria and Emily to a school for daughters of clergy. While at school two of her sisters died of typhus. She had a mordant wit, which could protect her only so much from the series of losses that left her so fragile. She was



the last sibling who lived longer than others. All of her sisters and brother passed away before her eyes. How did such tragedies suffer the young and lonely woman? We can find out about the sorrows of her by reading her some letters to her friends, as she wrote once: “It is useless to tell you how I live” or “I endure life — but whether I enjoy it or not is another question.”[2,476] For deeper feeling the author’s thoughts during her harsh times and inner world, one should also be familiar with her novel “Jane Eyre”, which provides somehow an accurate view of the author’s life. The course of Jane’s life in regard to her own education and her work in education are largely autobiographical, mirroring Charlotte Brontë’s own life. Charlotte Brontë did a good job in connecting her real life with Jane’s character and living out some of her own fantasies throughout her heroine. During the process of writing the novel, Charlotte Brontë told her sisters she would show them a “heroine as plain and a small as myself [2,392]. That is exactly what she proceeded to do. Both had incredibly heavy childhoods. Jane’s parents died when she was very young and, similarly, five-year-old Charlotte also lost her mother to cancer. Both attended unfit boarding school as children. While reading the book we become a witness of a number of similarities between the author and her fictional protagonist. Jane Eyre’s upbringing is in many ways similar to that of Charlotte Brontë’s. She expressed her inner words through the “voice” of Jane in the novel, while she describes herself: “I was brought up a dependent; educated in a charitable institution” [XXIX,389] or ‘I had the means of an excellent education placed within my reach; a fondles for some of my studies, and a desire to excel in all, together with a great delight in pleasing my teachers, especially such as I loved, urged me on: I availed myself fully of the advantages offered me’.[X,95] In these examples we can come into conclusion that, the statements not only describe Jane, but also do Charlotte.

“Jane Eyre” ranks as one of the greatest and unfailingly popular works in English literature. Although the heroine in the novel was poor and outwardly simple, she was not only plucky by her spirit, but also had the strong will and deep wit. She, as an orphan young girl, was thrown to the boiling point of the cruel guardians, harsh employers and rigid social order. Nevertheless, she found strength to conquer and gain her victory through these difficulties and, eventually, became both an independent, broad-minded teacher and a governess, as this was a respectable status for someone of an orphan girl. In the novel Jane was also lucky to receive such a quality education to set up for later life, as she had very good jobs in her life considering her age and ability.

Charlotte Brontë confronts the importance of education in this Victorian novel as she portrays Jane as a young lady who sees the importance of education for her future. In “Jane Eyre” education provides the only road for someone who isn’t individually wealthy to improve his character and prospects. Education is also a safe place, something that provides emotional satisfaction in a protected haven separate from the hardships of the world. Through her novel, Brontë proved that women are also deserving to receive a formal education and make use of its advantages, so they should exercise their minds and maintain themselves morally as Jane Eyre.

#### **References:**

1. Brontë, Charlotte. *Jane Eyre*. Great Britain: Wordsworth Editions Limited, 2019.
2. Brontë, Charlotte, editor Smith, Margaret “The letters of Charlotte Brontë”, Clarendon, 1995
3. John Gaskell, Chapple: *The Early Years*. Manchest: Machester UP, 1997.
4. D'Amica, "Jane Eyre and Education". *Student Publications*: 2018.
6. Godfrey, Esther. “Jane Eyre, from Governess to Girl Bride.” *SEL Studies in English Literature*: 2005
7. Marielle, Hampe B.A. “To grow up clean”: *Jane Eyre* and education, Washington, DC. April 24, 2016

## O‘ZBEK SHE’RIYATIDA QISH FASLI TASVIRI VA RAMZIY MA’NO

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna

BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti

kafedrası tayanch doktoranti

+998934553400

[sohibovazarnigor81@gmail.com](mailto:sohibovazarnigor81@gmail.com)

**Annotatsiya:** She’riyatida yil fasllarini badiiy talqin etish o‘zining chuqur ildizlariga ega. Mumtoz va zamonaviy shoirlar nazmida yil fasllarining poetik tasviri inson umriga nisbat berilishi, lirik qahramonning ruhiyat manzaralarini aks ettirishi, she’riy asardan falsafiy xulosalar chiqarishning muhim vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qish fasliga bag‘ishlangan she’rlar tahlilga tortilgan, bu fasldagi tabiat manzarasi va inson ruhiyati o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qish fasli, ramz, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, tashxis, metafora, ijtimoiy mazmun.

Adabiyotda qish fasliga bag‘ishlangan she’rlar bahor va kuzga qaraganda nisbatan kam uchraydi. Mumtoz adabiyotda zimiston deb tilga olinadigan bu fasl inson umrining keksalik davriga qiyoslanadi. Jumladan, M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarining turli o‘rinlarida qish va yoz bahsiga bag‘ishlangan yigirmadan ortiq to‘rtliklar mavjud. Ushbu to‘rtliklarda qish kuz bilan uyg‘unlikda bahor va yozga qarshi qo‘yiladi. Fasllar jonlantirilib, o‘zlarining ustun tomonlaridan bahs etadilar. Ushbu bahsda esa qish yengiladi. Bunda tashxis – jonlantirish san’ati asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotdagi qish fasli tasvirini birlashtirib turadigan umumiy jihatlar qish – azob va qiyinchilik, yoz – farovonlik, baxt-saodat ramzi sifatida gavdalanishida ko‘rinadi. Shuningdek, Navoiy va Ogahiyning “Qish” radifli g‘azallari, Boburning qish haqidagi ruboiylari insoniy dardlar va xalq hayotiga yaqinligi bilan badiiy qimmat kasb etadi.

Abdurashid Abdurahmonov Qoshg‘ariy “Devon”idagi to‘rtliklarga munosabat bildirib, yozadi: “Mavsum – Yoz yoki Qish haqidagi qo‘shiq deb bo‘lmaydi. Balki u adabiy san’at – hayotdagi ma’lum bir tiplar, voqealarni ramziy obrazlar orqali tasvirlash usulidir. Zotan, qadimgi turkiy xalqlar adabiyotida yaxshilik Yoz, yomonlik Qish majoz bilan tasvirlanishining o‘ziga xos an’analar mavjud” [Abdurahmonov, 1997: 55]. Olim fikrlarini asoslash uchun “Oltoy turkiylarining qadimiylik qatlamlari saqlangan” “Maday qora” eposini keltiradi.

Turkiyshunos S.V.Kiselyevning qish va yoz obrazlari haqidagi fikrlari ham ahamiyatli. Unga ko‘ra “...qadimgi turkiylar o‘rtasida Yoz va Qish faqat fasllar nomi sifatida emas, balki qahramonlar fazilatini ifodalovchi umumlashma tasvir ekanligi” [Abdurahmonov, 1997: 56] aytiladi. N.Rahmonovning tadqiqotlarida ham Yoz va Qish turkiylarning majoziy tasvirlaridan biri bo‘lganligi ta’kidlanadi. “Fusuli arbaa” qasidalar turkumining manbalarini o‘rgangan olim G.Boltayeva qish fasli haqida mumtoz adabiyotda yozilgan asarlar haqida ishonchli ma’lumotlarni beradi.

Cho‘lpon “Yana qor”, “Qish kechalari”, “Qish oldida”, “Qor”, “Bu yerning qishi” kabi she’rlarida qish faslining o‘ziga xos obrazini yaratadi. Bu she’rlarda mumtoz an’analar davom ettirilgan. Shoirning “Qish kechalari” she’rida qish kechasi tasvirini berish bilan birga bolalikning ikki xil: baxtiyor bolalik va yo‘qsil yetim bolalar taqdiriga achinish tuyg‘ulari aks etgan.

Tashqarida qor-bo‘ron, // Zahar to‘kar qora qish.

Undan qo‘rqib to‘xtalmas // Sizda o‘ynash va kulish.

Ammo bu xil sevinchlar // Hammada ham bo‘lmaydi.

Hammaning ham bolasi // Qishda o‘ynab-kulmaydi [Cho‘lpon, 1991: 430].

Yuqoridagi satrlar ijtimoiy mazmun bilan sug‘orilgan. Qor aslida oqlik, poklik ramzi bo‘lsa-da, oddiy va yupun xalq uni sog‘inib kutmaydi. Chunki xalq farzandlari qorbo‘ron o‘ynashi uchun oyog‘ida va ustida issiq kiyimi bo‘lmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoir qorni zaharga

o'xshatadi. "Qora qish" sifatlashi ham uning sovuq havosi, izg'irinlariga ishora. Bunda yetim bolalar hayotidagi mushkulot va qiyinchiliklar qish bilan parallel qo'yiladi.

Cho'lponning "Qish oldida" she'ri tabiiy muvozanatga muvofiq ko'klam, yoz va kuzdan so'ng qishning kelishi bilan boshlanadi. Shoir qishning boshlanish oldidagi manzarasini "yana bo'shlik", "har narsada bir qayg'i", "rangi so'lishlik", "har narsada tinsizgina bir dod" kabi ifodalar bilan beradi:

Ko'klam ketidan yozni uzatdik, u-da ketdi,

Kuzning-da bulutli, qora davri kelib o'tdi.

Barglar yana sarg'aydi, to'kildi... yana bo'shlik...

Qushlar yana to'p-to'p qochalar... qarg'a, faqat, shod!

Har narsada bir qayg'i, kadar, rangi so'lishlik...

Ichdangina, tinsizgina har narsada bir "dod"... [Cho'lpon, 1991: 448]

Keyingi bandda dunyoning bir kamligi "dunyo kiyimi yirtiq", oq va qora, yaxshilik va yomonlik, zulmat va nur singari qarashlar esa "oqlik ichida qop-qora ko'z" tarzidagi ifodalar bilan beriladi. Ushbu fikrlar Cho'lponning Sharq mumtoz falsafasi sarchashmalaridan suv ichgan yuksak tafakkuridan dalolat berib turadi.

Cho'lpon she'riyati bilan yaqindan tanish kitobxon ushbu she'rda shoirdagi isyonkor ruhning tin olishi, tabiat, zamon va ijtimoiy muhit bilan biroz murosaga kelish kayfiyatini tuyadi. Bunda kurashchanlik emas, balki tabiat va jamiyatga teran nigoh bilan boqish, zohirdagi har bir holdan hikmat izlash ruhi hukmron. Shoirning tili bilan aytsak, "Ichdangina, tinsizgina har narsada bir dod" holati ifodalangan.

Elbekning tabiat mavzusidagi she'rlarida ham Cho'lpon an'analariga ergashish yorqin sezilib turadi. "Qish she'ri" bu jihatdan e'tiborli:

To'ngdirguvchi, muzlatguvchi oppoq qush,

Parlarini yerga socha boshladi...

Oqar suvning nag'masini tindirdi,

Qo'lidagi cholg'usini sindirdi [Elbek, 1990: 81].

E'tibor berilsa, qishning qorlari "to'ngdirguvchi, muzlatguvchi oppoq qush"ga o'xshatiladi. Parlar esa qor parchalari. Manzara juda tabiiy: qor parchalari qush parlari yanglig' yerga sochiladi. Yoxud qishda daryo, ariqlarning suvi oqishdan to'xtaydi. Buni shoir poetik usulda she'rxonga yetkazadi. Shoirning ushbu she'ri mohiyatan Cho'lponning "Yana qor" she'riga hamohang. Buni ular yaratgan ohorli tashbehlar va poetik manzaralar misolida kuzatish mumkin. Cho'lpon, avvalo, qorning oqligini nazarda tutib oq kafanga o'xshatadi. Bu she'riyatimiz uchun yangi tashbeh. Qolaversa, uni parlarga qiyos etadi:

Yana qor. Oq kafan o'raldi yana,

Yana ko'k quydi yerga parlarini [Cho'lpon, 2013: 95].

Yoxud Cho'lpon yozadi:

To'ngdirguvchi zahar sovuq tunda

Beva-bechoralar yomonlaylar [Cho'lpon, 1991: 424].

Elbekda:

To'ngdirguvchi, muzlatguvchi oppoq qush...[Elbek, 1990: 81]

Ko'rinadiki, fikr ifodasida mushtaraklik mavjud. Ikkala shoir ham qishning xususiyatlaridan kelib chiqib, sifatlashlar va o'xshatishlar (to'ngdirguvchi zahar sovuq tun, to'ngdirguvchi, muzlatguvchi oppoq qush) qo'llaganlarki, bunday ifodalar qish manzarasini o'zida yorqin ifoda etadi. To'ngdirguvchi so'zi jadid adabiy tilida qo'llangan. Ushbu so'z "to'ngmoq" fe'lidan olingan bo'lib, "muzlab qotib qolmoq", "muzlamoq" degan ma'nolarni bildiradi [O'TIL, 2007: 239]. Demak, ikkala shoirda ham "to'ngdirguvchi" sifati "muzlatguvchi" so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, har ikki shoirda ham qishga bag'ishlangan she'r faqat tabiat mavzusidan bahs etmaydi, balki o'sha davrdagi muhit, xalqning og'ir yashash tarzini ham ifoda etadi. Chunki sovuq qishning kelishi xalq uchun xursandchilik hisoblanmagan, issiq kiyim, issiq uy ular uchun orzu bo'lgan. Ko'rinadiki, she'rda peyzaj lirikasi bilan birga ijtimoiy mazmun ham ta'sirchan ifoda etilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek she'riyatida qish fasli tasviri berilgan she'rlarning o'ziga xos o'rni bor. Tahlillardan ko'rinadiki, bunday she'rlar faqat peyzaj lirikasining namunasi emas. Qish faslning poetik tasviri o'zida bir qator ramziy ma'nolarni ham tashiydi. Jumladan, tahlil qilingan she'rlarda qishning "qarigan qish boboy", "qora qish", "har tarafda bir qayg'i" sochgan tarzidagi ifodalarida xalqning sermashaqqat va og'ir turmushi, qalban yolg'iz lirik qahramon kechinmalari, uning ruhiyatidagi mahzunlik kabi ma'nolari ifoda etilgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов А. "Қиш ва Ёз" мунозараси... // Мулоқот, 1997. № 3. – Б. 55-57.
2. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. III том. Хазойин ул-маоний: Бадойиъ ул-васат. – Т., 1965. – 416 б.
3. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Маҳрами асрор топмадим. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 80 б.
4. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Ғарибинг андижонийдур. – Т.: Шарқ, 2008. – 288 б.
5. Boltayeva G. Alisher Navoiy "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Monografiya. – Navoiy, 2020. – 100 b.
6. Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 392 б.
7. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 576 б.
8. Чўлпон. Асарлар. I жилд. – Т.: Akademnashr, 2013. – 372 б.
9. Элбек. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 1999. – 288 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 606 б.

#### **“ҒАРБУ-ШАРҚ ДЕВОНИ”ДАГИ ТАСАВВУФИЙ ҒОЯЛАР САДРИДДИН САЛИМ БУХОРИЙ ТАРЖИМАСИДА**

**М.М.Маҳмудова**

БухДУ немис ва  
француз тиллари кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада ўзбек таржимашунослигида ўзининг беқиёс ўрнига эга мутаржим, серқирра зуллисонайн ижодкор, тасаввуфшунос олим, шоир, Садриддин Салим Бухорийнинг “Ғарбу-Шарқ девони”даги тасаввуфий ғояларни таржима қилишдаги маҳорати ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** таржимашунос, Гётешунос, ижодкор, таржима, таржимонлик, образ, фаолият, дурдона, тадқиқ, мутаржим, девон.

Садриддин Салим Бухорий Гётенинг “Ғарбу Шарқ девони” таржимаси жараёнида ҳам шоир, ҳам тасаввуфий олим сифатидаги маҳоратини тўлиқ намоён эта олган.

Й.В.Гётенинг “Ғарбу Шарқ девони” “Муғаннийнома” қисми билан бошланади. Унинг бошланишида эса “Ҳижрат” шеъри келтирилган. Бу шеърда шоир Шимол, Мағриб, Жанубда тахтлар қулаб, ҳаммаёқ хароб бўлиб турган бир пайтда Шарққа ҳижрат қилиш зарур деб ҳисоблайди. Негаки, Шарқда бу дунёнинг ўткинчи ҳою ҳавасларига берилиш бефойдалигини англаган, ҳаммаси Оллоҳ иродаси билан боғлиқлигини тушуниб, фақат унгагина ишқ қўйган инсонлар етишиб чиққанини, улар таълимоти тўғрилиги боис эргашиш мумкинлигини билган. Шу ишонч билан шоир ёзади:

Унда ишқу маю мутриб

Ҳамда Хизр суви бордир,

Бокий умр сенга ёрдир.

Шу тариқа шоир хаёлан чўпонларга ҳамроҳ бўлиб, дашту сахро кезиб, қаҳва, шохи, мушку анбар савдоси мақсадида карвон билан шому сахар йўл юриб, бекас ва ҳеч ким билмас сўқмоқлардан юриб, беҳад хатарли қоялардан ўтиб, Шарққа йўл олади. Бу машаққатли сафар давомида шоир Ҳофиз байтлари ҳаммага рухий мадад бўлишидан,

унинг шеърларини эшитганда карвонлар кушандаси – қароқчилар ҳам кўрқиб қолишидан ҳайрати ошади. Бу саёҳат ўзига бир дам эркинлик бахш этганидан ҳам қониқиш ҳис этади. Шарқда юлдузлар илми кашф этилгани, шу илм асосида карвонларнинг қуруқлик ва сувда уларни маёқ қилиб, адашмаслигидан завқланади. Умуман, борлиқнинг тилсимларга бойлигидан ҳайратланади ва ўзи тушган йўл Ҳақ йўли эканига ишонади:

Шарқни яратгандур Худо,  
Мағрибни этгандир бино.  
Офат йўқдир ўнг-сўлида  
Шимол, Жануб Ҳақ қўлида.

Шундан сўнг шоир Оллоҳга ҳамд ўқийди:

Ул ўзи қози эрур,  
Барча эл рози эрур.  
Ардоқлаймиз юз номин,  
Шарафлаб деймиз: “Омин!”

Хато этиб адашсам гар,  
Ўзинг мендан бўл боҳабар.  
Ҳар юмушда, ижодда ҳам,  
Тўғри йўлга бошла, Эгам.

Шоир нафас олмоқ ҳамда чиқармоқни инсон ўзи учун ато этилган эҳсон деб англаши зарурлигини, нафас кирган онда ҳам, нафас чиқарганда ҳам Аллоҳга шукур айтиш кераклигини эслатади. Яратган арабларга марҳамат кўрсатиб, тўрт нарса берганини эътироф этади. Булар:

биринчиси – чиройда шоҳ тожидан устувор бўлган салла;  
иккинчиси – ҳар жойда тиксанг, тайёр бошпана бўла оладиган чодир;  
учинчиси – ботир учун бешак истехком вазифасини адо қиладиган шамшир;  
тўртинчиси – хуррак қизни ром айлагувчи қўшиқдир, дейди.

Шуни билган ҳолда шоир ҳам ошиқлик йўлига кириб, унинг озорларидан чўчимай, муҳаббат қўшиқларини куйлашга жазм этади. Қалбини кучли илоҳий ишқ эгаллаб бораётганини яширмайди, иқроп бўлади:

Ишқни ким дер яшириб бўлар,  
Кўзлар уни билдириб кўяр.  
Илҳом пайти дилни тарк этиб  
Чикқан шеърни бўлмас беркитиб.

Девондаги “Аносир” шеърида муҳаббат билан бошланган, ҳар калому, ҳар садоси ишққа омихта бўлган, ёқутранг май тўла қадах жарангидай оҳанг берган, жанглар “урҳо”си-ла мисралари безатилган, охирида қабоҳатга нафрат билдирилиб, гўзаллик улуғланган шеър асил ва қудратли қўшиқ бўлиши, унинг ижодкори Ҳофиз каби халқлар тилидан мангу тушмаслигига ишонч билдирилган. “Ташриф” шеърида эса шоир шу қўшиқ сабабли Ҳофизга рўбарў бўлганлигини, риндона ўтаётган дамнинг азизлигини таъкидлайди.

“Беадаблик” шеърида шоир хотиржам ижодкоргина завққа тўлиб куйлай олишини уқтириб, шу сабабли унга барча тўсиқларни батамом йўқотиш лозимлиги, ўз дардига ўзи нажот топиши кераклигини ўргатади.

Шоир девоннинг “Муғаннийнома” боби якунида келтирилган “Саодатбахш азият” (“Selige Sehnsucht”) ашъорида Шарқ шеъриятига алоқадор анъанавий парвона тимсолини қўллаш асосида фикр юритиб, у орқали ҳақиқий ошиқлик азиятини саодатбахш деб атайди. Зулматдан қочиб нурга интилган парвонани алқаб, унинг устидан кулувчи нодонларга нафрат билдиради. Булар орқали ижодкор одатдаги ҳаёт чегарасидан чиқиб, руҳан қайта янгилиниш учун инсон Оллоҳ висолига интилиши керак, деган тасаввуфона ғояни илгари суради.

Маълумки, Ҳофиз ғазалиётига сингдирилган бош ғоя ишқ-муҳаббат эди. Лекин бу инсоннинг инсонга муҳаббати эмас, балки инсоннинг Оллоҳга бўлган илоҳий ишқидир.

Шоир маъшуқаси сиймосида Оллоҳ тажаллисини англайди. Шоирнинг маъшуқа висолига етиши аслида Оллоҳ висолига етмоқликка тенгдир. Бундай ишққа етишган инсон эса ўзини унутиш даражасига етади. Шунинг учун Гёте бу борада Ҳофиздай фикрлаб, унга эргашиб ёзган шеърларида ўзликни йўқотмаслик ҳақида алоҳида уқтириб дейди:

Нени кўлдан бой берсанг ҳам

Ўзни бой берма аммо.

“Арзу дод” шеърида инсонлар йўлига тузоқ қўйишни пойлагувчи иблислар тузоғига ёлғончи, нокаслар илинишидан огоҳлантиради. Сохта мажнунваш, ўз сўзига амал қилмайдиган шоирларни танқид қилади. Олимлару, аҳли мусулмонга мурожаат қилиб, тақво таълимини аён этишга чорлайди. Ҳофизлар ҳамон ринду савдойи эканини айтади.

“Фатво” шеърида бир муфти Мизрий шеърларини бобма-боб ўқиб, сўнгра ҳар варағини йиртиб, ёнаётган гулхан ичига отиши, хушхат китоб ёниб, кулга айланиши, муфтининг одамларни ким агар Мизрий сўзларига эътиқод қилса, шундай ўтда ёндирилишидан огоҳ этиши баён қилинган. Лекин шоир, Гёте таъкидлаганидек, ўт балосидан озод, чунки унга Худодан илҳом берилган. Агар шоир чалғиса, гуноҳга ботиб, Аллоҳга ўзи жавоб беради”. Бу билан шоир илоҳий илм эгалари, шоирларнинг ҳаминша Аллоҳ назарида бўлишини таъкидламоқчи.

Маълумки, тасаввуфда “ломакон”, яъни “беҳудудлик” тушунчаси мавжуд. Шоирнинг девондаги бир шеъри айнан мана шу мавзуга қаратилганлиги билан эътиборни тортади. Унда шоир қўшиқчилик, ғазалчиликни беҳудудликка менгаб, унинг кўхна ва лекин навқиронлигини таъкидлайди. Девонда бундан кейин келтирилган “Пайравлик” шеъри юқоридаги шеърни мантиқан давом эттиради. Унда шоир ўзидай бир олмон қалбини шарқона шеърият оташи шайдо этгани, унинг ҳар бир байтига тақлид қилмоқ, пайрав боғламоқ ҳаваси уйғонгани, бу айти пайтда ўзи учун шараф экани ҳақида сўз юритган. Унингча, шеър гарчи янги вазн, қофия билан гўзал бўлса-да, пайрав билан яратилса-да, ҳар янги вазн ажалдай олдинги вазнга таъсир кўрсатиб, уни ўлдириб, янги бир шеърни ҳосил қилади.

Бўса – тасаввуфий шеъриятдаги муҳим рамзий тимсоллардан биридир. Шунинчун олиб, Гёте шу руҳдаги шеърларида бўса талқинига алоҳида ўрин ажратган:

Қошу кўзи, лабидан олдим **бўса**,

Дардларимга, нетай, дармон шу бўлса?

Худди шунингдек, май тимоли, уни қуйиб берувчи соқий образи ҳам Шарқ мумтоз шеъриятида сўфиёна мазмун ташийдди. Мана шу боис Гёте тасаввуфона руҳдаги шеърларида бу рамзий тимсол ва образларга алоҳида ўрин ажратган. Шоир соқийга мурожаатни худди тасаввуфий шеъриятдагидек “Аё, соқий” мурожаати билан келтиради:

Ёнаётир ўт ичра тан

Аё, соқий, қадаҳ тут!

Бир ё икки қадаҳ бирлан

Сўнарму бу оташ – ўт?

Баъзан шоир соқийнинг ёш йигит эканига эътиборни тортади:

Соқий йигит муаллимга

Қадаҳ тутади боз-боз,

Шак келтирмас у таълимга

Рухга май берар парвоз.

Бу мисраларда мутаржим матндан келиб чиқиб, “пир” сўзи ўрнида муаллим” сўзини қўллаган кўринади.

Салла – мусулмонлар рамзига айланган бош кийим турларидан биридир. Мусулмонликка бор вужуди билан ихлос қўйган Гёте салла ўрашга ҳам таёр. У маҳбубаси Зулайҳога мурожаат қилиб дейди:

Кел, маҳбубам, салла ўраб бер

Нафис кўлинг билан менга.

Шоир саллага Эрон шоҳи Аббос ҳам меҳр билан лаъл қадаганини, салла жаҳонгир Искандарга ярашгани ва маъқул бўлганию ўз саркарда ва амирларига дастор боғланг деб фармон берганини, аммо салла қимматбаҳо лаъл билан безатилса, тож аталишини, тожни ҳукмдор кийса, шону шуҳрати юксак бўлажагини айтиб, ўзининг бунақа саллалар эмас, балки Шарқ авлиёларига ўхшаб оппоқ салла кийиш истагини изҳор қилади.

Шоир девонида тасаввуфона шеърятда кўп учрайдиган “майхона” образи ҳам келтирилган:

Майхонада базм этсам

Хоҳ кулбада мен якка,

Хаёл доим сен билан банд

Рух боғлиқ сен малакка.

Қуйидаги мисрада ҳам сўфиёна фикр ўзига хос бадиий ифодаланган:

Ўргимчакни ўлдириб, шу дам

Ғоят ғамгин бўлдим, ажабо,

Унга ҳаёт берган-ку, Худо

Ҳақли мендай яшашга у ҳам.

Девоннинг “Ишкнома” қисмида Рудоба ва Рустам, Юсуф ва Зулайҳо, муродга етмай ўтган Фарҳоду Ширин, бир-бири учун яралган Лайлию Мажнун, кексайганда ҳам ёниб севган Жамил ва Ботина, висолдан масту беармон бўлган Билқис билан Сулаймон, Вомиқу Узро ишқ ҳамда вафо тимсоллари сифатида тилга олинган. Улар ҳақидаги қиссаларни жаҳондаги ҳар бир мардум билишини, ишқ-муҳаббат риёзатдан иборатлигини, у фақат гумроҳлар наздидагина роҳат саналишини, унга на зар, на зўр билан етиб бўлмаслигини, чин ошиқлик ҳатто инсонни девона этишини шоир эслатиб ўтади. Шу орқали илоҳий ишқ моҳиятини илғаб етганини намоён этади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримова Д.Х. Вариантность в переводе (на примере произведений Братьев Гримм). Журнал «Вестник науки и образования». Издательство «Проблемы науки». 2019. №4 (58). Часть 2. Российский импакт-фактор: 3,58. Научно-методический журнал. Стр 43-46.
2. Karimova D.H. Variability and invariability in Fairy tales (as the exsample of the translation of Grimms Fairy Tales). International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192. Volume 27 January 2020. P. 138-144
3. Каримова Д.Х. Ака-ука Гриммларнинг “Бир хумча шовла” эртагининг таржима вариантлари қиёси. *Ilm sarchashmalari*. – Urganch, 2021. № 4 –Б. 166-171.
4. Каримова Д.Х. Особенности перевода препозитивных атрибутивных конструкций. Грамматик ва семантик муаммолар ҳамда уларнинг қиёсий-типологик тадқиқи. Республика илмий-амалий банжуман материаллари. – Самарқанд, 2016. –Б. 40-41.
5. **M Muattar** “Sadriddin Salim Bukhariy’s Role in the Development of the literary Environment of Bukhara in the Late xx and Early xxi Centuries”. Euro-Asia Conferences 2021. 92-94.
6. **MM Makhmudova**. Fundamentals and ideological content of the creation of Y.V. Goethe's "West-east collection of poems" SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. 2021/5-6(87/88)
7. **MM Makhmudova**. “Skill of Translating Mystical Ideas in Sadriddin Salim Bukhari's "G’arbu Sharq Devoni (West-East Devon)”. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. **2021/1. 153-157**
8. **MM Maxsatilloeyevna**. “Yo.V.Gyote "G'arbu Sharq devoni"ning Maqsud Shayxsoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar”. *Ilm sarchashmalari*. 2021/1.
9. “Preservation of Originality in the Translation of Goethe's Works”. **MM Maqsatullayevna** - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020
10. **MM Махмудова**. “Эффективные методы перевода (на примере перевода Гёте)”. Вестник науки и образования. 2019/2/25. ISSN 2541-7851.

## **“ҚУШ-РУХ” БИЛАН БОҒЛИҚ ЭЪТИҚОДИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ НЕМИС ВА ЎЗБЕК ЭРТАКЛАРИДАГИ ЎХШАШ ТАЛҚИНИ**

**Жумаев Акмал Ахматович**

Бухоро давлат университети

Немис ва француз тиллари тадқиқодчиси

Дунё халқлари фольклорида қушлар билан боғлиқ мифологик мотивлар, мифологик образлар анча кенг тарқалган. Айниқса, халқ эртакларида қушлар образи ўзига хос бадий-эстетик вазифалари билан алоҳида диққатни тортади. Ўзбек фольклорида эса нафақат эртаклар, балки дostonларда ҳам қушлар образи муҳим ўрин тутди. Уларда Семурғ, Анқо, Хумо каби мифологик ҳамда бургут, бойўғли, укки, турна, қалдирғоч, ғоз, лайлак, кўктубулғон, ўрдак, товуқ, бедана, чумчуқ каби қуш турлари кўп образлантирилгани кузатилади. Чунки худди шу каби қушларни кишилар ғайриоддий деб қараган.

Маълумки, кўпгина ўзбек эртакларида ота хотини вафотидан сўнг болаларимга қарар деган мақсадда бирор аёлга уйланади, аммо ўғай она етим болаларга жуда қаттиқ зулм ўтказади. Етим болалар машаққатли ва ташвишли ҳаёт кечира бошлайдилар. Немис адабиётида ака-ука Гримм (Gebrüder Grimm, Jacob (1785–1863) und Wilhelm (1786–1859)ларнинг “Рапунзел” (“Rapunzel”, ), “Шумшук қиз” (“Aschenputtel”) каби эртаклари ўғайлик мотиви асосида қурилган. Хусусан, “Рапунзел” эртагида қахрамон ота-онаси тирик бўлса-да, жодугар кўлида катта бўлиши эътиборни тортади. “Шумшук қиз” (“Aschenputtel”) эртагида эса бир қизчанинг онаси ўлиб, ўғай она кўлида қолиб қийналиши тасвирланган. Ушбу эртакни 1991 йилда Хуррам Раҳимов ўзбек тилига ўгирган. Эртак қахрамони бўлган етим қиз аслида ўзига тўқ оиланинг яқка-ю ёлғиз фарзанди бўлади. Афсуски, онаси вафот этгач, отаси бошқа аёлга уйланади. Бу ўғай она икки тантик қизи билан уларнинг хонадонига кириб келади. У ўз қизларига сира иш буюрмай, барча оғир ишларни етим қизга бажартиради. Қиз уйда эмас, ўчоқ бошида тунашга мажбур қилинади. Шунинг учун унинг ҳаммаёғи кул, чанг ва ифлос бўлганидан ўғай опалари “шумшук” дея камситишади ва масхаралашади. Лекин ўғай она қандай иш буюрмасин, қиз ўз онасидан олган тарбияси, ўғитлари сабаб барча ишни эплай олади.

Эртакда қизнинг ҳақиқий исми айтилмай, ўғай опаларининг уни калака қилиб айтган “шумшук” сифати эртакка ном қилиб танланган. Эртакда қизнинг онаси вафотидан кейин қуш қиёфасига эврилиб, ҳар доим қизи аҳволидан огоҳ бўлиб туради, қийин вазиятларда уни кўллаб-қувватлайди. Ўлган инсоннинг руҳи қуш қиёфасида қайта тирилиши мотиви эса эртаклардаги анъанавий поэтик мотивлардан биридир.

Баъзи халқлар орасида руҳ айнан маълум бир қушларгагина кўчади деган ишонч мавжуд. Жумладан, славян ва болқон халқлари марҳум руҳи ўлимдан сўнг фақат каккуга, австралияликлар қарғага ёки кузғунга, океанияликлар эса каркидонга кўчади деб қараганлар. Шунинг учун славян ва болқон фольклорида яқинидан жудо бўлган аёллар каккуга ўз дарду ғамини айтиб қуйлайдиган йиғи қўшиқлари учрайди. Бунда какку ғам рамзини ифодалаб келади. Юқоридаги эртакларда каптар ва мусича шу маънода талқин қилингани кузатилади.

Таҳлилга тортаётган эртакларимизда она руҳининг қуш қиёфасида қайта тирилиши тасвирида қушларни бевосита Аждодлар култи тушунчаси билан боғлаш анъанаси намoён бўлади. Шунга кўра, кўриб чиқиладиган эртаклар сюжетида руҳи қушга эврилиш орқали бу дунёга қайтган она руҳи болаларига, оиласига ҳомийлик қилиши, мадакдор бўлиши тасвирланган. Эртакларда руҳ-қушларнинг кўпинча ҳомий, ёрдамчи, хабар етказувчи, йўл кўрсатувчи, бахт келтирувчи, давлат ҳадя этувчи, оғир юмушни бажаришда кўмак берувчи эпик вазифалари анъанавийлашган.



“Шумшук киз” эртагида баён этилишича, кунларнинг бирида қизнинг отаси бозордан қайтар экан, ўгай қизларига чиройли кўйлақлар ва тақинчоқлар, ўз қизига эса унинг талабига биноан ўрмон йўлидаги ёнғоқ дарахтининг шохасини келтиради. Қиз отасига миннатдорчилик билдириб, ёнғоқ шохасини онасининг қабри бошига суқиб қўяди. Шоха қизнинг кўз ёшлари билан суғорилиб, кўкаради ва чиройли дарахтга айланади. Қиз бу ерга ҳар куни уч маҳал келиб, хабар оларкан, ҳар гал қабр ёнига келганида, битта оқ қушча дарахтга келиб қўнади. Агар киз бирон нарсани истаб, ундан илтимос қилса, ўша нарсани дарров муҳайё қилиб беради.

Бир куни қиз яшаб турган юрт қироли ўғлини уйлантирмоқчи бўлиб, уч кунлик зиёфат ўтказиш баҳонасида унга гўзал қизларни кўрсатмоқчи бўлади. Табиийки, бу ҳақда ўгай она ҳам хабар топиб, қизларини роса ясантирганча зиёфатга жўнатади. Лекин ўгай қизнинг боришига розилик бермайди. Қайтага унинг олдига бир товоқ тариқни кулга аралаштириб, икки соат ичида тариқни кулдан ажрата олса (айириб ола олса), уни ўзи билан бирга зиёфатга олиб боришини ваъда қилади. Шунда қиз орқа эшикдан бокқа чиқиб, каптар, мусичалардан ёрдам сўрайди ва қушлар кўмагида бажариш имкони бўлмаган бу ишнинг уддасидан чиқади. Буни кўриб дарғазаб бўлган ўгай она қизнинг чиройли кўйлаги, оёқ кийими йўқлигини баҳона қилиб, қирол саройидаги тантанали зиёфатга боришини тақиқлайди. Шунда қиз ўзи эккан ёнғоқ дарахтидан ёрдам сўрайди. Унга дарахтда яшовчи қушча (аслида онасининг руҳи) кўмак беради. У қизга дарахт устида туриб, тилла ва кумушдан тикилган кўйлақ ва зардўзи туфли ташлайди. Уч кун ҳам қуш қизнинг базмда иштирок қилиши учун кўллаб-қувватлайди. У тортиқ қилган кийим-кечаклар билан қизнинг чиройига чирой кўшилиб, шох саройида нафақат шахзоданинг, балки йиғилган барчанинг эътиборига тушади. Шаҳзода уч кун фақат шу қиз билан рақсга тушади. Зиёфат тугаши билан ўзининг кимлигини яшириш учун гўзал қиз уйи яқинидаги каптархонанинг бир томонидан кириб, иккинчи томонидан чиқиб, тўғри ёнғоқ дарахти ёнига боради. У ерда ўзининг чиройли кўйлагини ечиб, қабрнинг устига қўяди. Қуш келиб кўйлақни қайтариб олиб кетгач, қиз яна ўзининг эски кийимларини кийиб олиб, тезлик билан ошхонага қайтиб келади. Бу ҳолат уч кун такрорланади. Ниҳоят, учинчи куни шаҳзода гўзал қизнинг кимлигини билиш учун қасрдаги барча зинапояларга қатрон суртиб чиқади. Қиз зинапоядан тушаётганида чап оёғидаги туфлиси қатронга ёпишиб қолади. Шаҳзода қарасаки, туфли кичкинагина, нозиккина, соф тилладан ясалган. Эртасига эрталаб шаҳзода туфлини олиб, қизнинг отаси олдига боради ва унга туфли қайси қизининг оёғига тўғри келса, ўшанга уйланажagini айтади. Ўгай она қистови билан ўгай опаларнинг бири бошмалдоғини, иккинчиси товонининг бир парчасини кесиб, олтин туфлини кийса-да, туфли уларга тўғри келмайди. Буни кўриб турган етим қизнинг онаси қабри ёнидаги ёнғоқ дарахти устидаги икки каптар қур-қурлашиб, уларни калака қилади.

Ўгай опалардан бирининг бошмолдоғидан, иккинчисининг кесилган товонидан оққан қонни кўриб, шаҳзода ҳақиқатни фаҳмлайди ва туфлининг ҳақиқий эгаси бўлган етим қизни топиб, уни отига миндириб кетаётганида бояги каптарлар яна қур-қурлаб сайраб, иккаласини олқишлайди. Сўнгра каптарлар қизнинг ўнг ва чап кифтларига қўниб, уларни кузатиб боришади. Никоҳ вақтида эса ўгай опаларнинг кўзини чўқиб, уларни кўр қилишади. Бу аслида ўгай она учун берилган жазо бўлади.

Мазкур эртақда қушнинг она тимсолида қайта тирилиши ва ўз фарзандига ёрдам бериши мотиви моҳирона ифода этилган.

Кўпгина эртақларда қушлар билан шеърый сўзлашиш мотиви учрайди. Юқоридаги эртақда ҳам шундай ҳолат кузатилади.

*Rucke di guck, rucke di guck,*

*Blut ist im Schuck. (Schuh):*

*Der Schuck ist zu klein,*

*Die rechte Braut sitzt noch daheim.*

*Кувёв тўра, хон тўра,*

*Оёқ кийимига қара,  
Туфли торга ўхшайди,  
Қони борга ўхшайди.*

Эртақларда қушлар суҳбати ёки сўзлари шеър тарзида келтирилиши ҳам ўзбек, ҳам бошқа халқ эртақларида кузатилади. Жумладан, ака-ука Гриммларнинг “Aschenputtel” (“Шумшук киз”) эртагида кабутарларнинг, “Қарғанинг қаллиғи” номли немис халқ эртагида қарғанинг гаплари шеърӣ тарзда баён қилиниши кўринса, қуш тилидан келтирилган қўшиқ “Опа-сингиллар” номли ўзбек эртагида ҳам учрайди. Бунга эртақдаги қушга айланган она образини мисол қилиш мумкин. Эртақда ҳасадчи опа ўз синглисини дарёга итариб ўлдириб, унинг эрига ўзини синглиси қилиб кўрсатиб, хотини эканига ишонтирмоқчи бўлади. Синглисининг ўғли 9 ёшга етганда пода боқа бошлайди ва у бир куни ўз подаси билан онаси чўкиб кетган дарё бўйига келади. У эндигина сув ичмоқчи бўлиб энгашганида дарёдан чиройли қушча учиб чиқади (бу қуш ўз онасининг арвоҳи эканлигини бола ва отаси фақат эртақ якунидагина билишади ва эртақ хайрли якун топади). Қушча дарахтга қўниб қуйидаги қўшиқни айтади:

*Эҳ, етимча, етимча,  
Мол боқасан тунгача.  
Ўтин ташиб ўрмондан,  
Овқатсиз, кун ботгунча.  
Кўндан бери сен иўрлик,  
Ўғай онага малай,  
Туққан онанг эмас-да,  
Қийнайди, чунки ўғай.*

Бола бу қўшиқни эшитгач, атрофга қараб қушчага кўзи тушади. Ундан кўзини узолмай, унинг қўшиғини тинглаб турганида моллари бировларнинг экинига кириб, пайҳон қилади. Дехқонлар боланинг отасига шикоят қилганларида бола қушчани кўрганлигини айтмай, бошқа баҳоналарни рўқач қилади, яъни биринчи кун бошида рўмоли йўқлиги ва ҳаво иссиқлиги учун салқин жойда ўтириб, молларини беқаров қолдирганини, кейинги кун эса кечкурун онаси битта юпқа бергани сабаб совуқ қотиб чиқиб, кундузи офтобда исиниб ўтириб ухлаб қолганини айтади. Яна бир кун ўтгач, бола тагин молларини дарё бўйига хайдаб боради. Бу сафар ҳам дарёдан ўша қушча чиқиб, боланинг боши устидан айланиб учиб қўшиқ қўйлайди. Бола қушнинг қўшиғини эшитиб хайрон бўлиб турганда, моллар яна ўша экинзорга кириб кетади. Бундан хабар топган отаси фарзандидан жаҳли чиқиб ўғлини урмоқчи бўлганида, ўғил отасига бўлиб ўтган воқеани бирма-бир айтиб беради. Отаси ишонч ҳосил қилиш учун ўғли билан бирга дарё бўйига борганда ўғлининг айтганлари ростлигига ишонч ҳосил қилади. Ота-ўғил қушчани уйларига олиб келиб, қафасга солиб, қафасни ҳовлисидаги дарахт шохига илиб қўйишади. Қушчанинг қўшиғини уй олдидан ўтувчилар ҳам эшитишади. Бир куни у ўғай онани ёмонлаб қўшиқ айтади. Ўғай она бу сўзларни эшитиб, ғазаби қайнаб, қафасдаги қушчани, яъни синглисини иккинчи марта ўлдиради. Шунда қафасдаги қушчанинг ўрнида дастлаб бир парча суяк, кейин янги қайчи пайдо бўлади. Бахил хотин қайчини олиб, уйига яширади. Кечкурун ота-ўғил қайтиб келиб қушчани сўраганларида, у кўрмаганлигини айтади. Бироқ ўғай она эрталаб уйга кирганида қайчи ҳамма нарсаларни қиймалаб ташлаганини кўрадию жаҳл қилиб қайчини олиб улоқтиради. Эртақ давомида қайчини бир кампир топиб олиб уйига келтиради. Қайчи товукқа айланади. Кампир далага кетганида товук гўзал бир кизга айланиб, овқатлар пишириб, уйни саранжом-сарипта қилади. Буни кўрган кампир гўзал кизга айланган товукдан бўлиб ўтган барча воқеани эшитиб билиб олади.

Эртақда воқеалар ривожидида бола ўз онасини таниб қолиши, отаси эса хотини ва унинг ўрнини эгаллаган жодугар опасини синаш учун ҳар иккаласидан ялангоёқ ҳолда тиканзордан ўтишини талаб қилиши, боланинг онаси сновдан яхши ўтиб, ўғай она тиканзорда йиқилиб ўлиши тасвирланган. Кўринадики, барча эртақлардагидек бу эртақ якуни ҳам яхши инсонларнинг мурод-мақсадларига эришиши билан тугайди.

Одам ўлганидан кейин ёки уйқусида руҳи қушга айланиб учиб кетиши ҳақидаги тасаввурлар халқ одатлари ва фольклорда, хусусан, “Майна”, “Опа-ука”, “Дев қиз”, “Туноҳсиз мусича”, “Рустам” каби ўзбек халқ эртақларида ўз аксини топган.

Умуман айтганда, ўлган кишининг руҳи қуш кўринишида тириклар орасига қайтиб келишига ишониш, ўлимдан сўнгги қайта тирилиш ва ҳаёт, унинг қаерда ва қандай давом этишига қизиқиш, марҳумлар манзили ҳақидаги турли ибтидоий-мифологик қарашлар дунё халқлари эртақларида асосий мотивлардан бири ҳисобланади.

Марҳумлар руҳини қуш қиёфасида қайта тирилади деб қараш айрим қушларга нисбатан халқнинг эътиқодий муносабатда бўлишига олиб келган. Жуда кўп халқлар орасида булбул хушовоз, сайроқи; турна билан қалдирғоч кўклам даракчиси; лайлак муборак ҳожикүш, лочин овчи ва илгир, тўтиқуш одамга ҳамдарду суҳбатдош сифатида қаралади ва эъзозланади. Кўпчилик каккунинг сайрашига қараб ёки конорейка билан ўз умри ҳақида фол кўради.

Хулоса қилиб айтганда, жаҳон халқлари фольклорида, жумладан, немис ва ўзбек оғзаки ҳамда ёзма адабиётида булбул, турна, лочин, каклик, қарчиғай, оққуш, қарға, қузғун, укки, бойўғли каби қуш турлари кўп образлантирилади. Уларнинг ҳар бири бадиий асар матнида гоҳ ижобий, гоҳ салбий маъно-мазмун ташиб келади.

## THE PROBLEM OF INTERTEXTUALITY IN MODERN LITERATURE

Sharipov Mamur Mansurovich

BukhSU, a teacher

English literature department

**Abstract** – *The article provides a brief overview of English and Uzbek literature, as well as comments on the problem of intertextuality in English and Uzbek literature. In addition, examples are given and analyzed based on a comparative analysis of the modern literature.*

**Key words:** *modernist prose, intertextuality, literary criticism, intertext, psychology, polyphony, subjectivity, metaliterature.*

Modernism and postmodernism are trends that have taken root in the soil of world culture: “there are poets, schools and even entire literary periods that have passed “under the sign of the Quote”. So XX century gave at least two peaks of its activity: "the beginning and the end of the century." Therefore, the study of intertextuality in modernist and postmodernist works is especially appropriate. N. Kuzmina notes that these two time periods are characterized by "a global strategy of intertextuality, focused on a literary quotation as a kind of standard of an intertextual sign."

The delimitation of modernism from postmodernism is one of the debatable issues in modern literary criticism. Some researchers believe that modernism and postmodernism in literature cannot be strictly distinguished and separated, since they still coexist in parallel in interweaving and numerous contacts. Modernism at the beginning of the 20th century, according to the metaphorical expression of D. Zatonsky, "worked diligently for a postmodern result."

No one doubts the affinity of postmodernist poetic searches with the searches of modernist and avant-garde artists. For example, if in French literature with modernism of the early twentieth century. all postmodernists are united by formal searches, rapprochement with other arts, and with the avant-garde - a characteristic craving for the destruction of existing structures, then the same trend is observed in the literature of other countries: we can assume that that in Russia postmodernism becomes a reflection and completion of Russian modernism, but at the same time a factor that continues the avant-garde tendencies of the 1920s and 1930s.

Serbian literary critic I. Negrisorac proposes to distinguish at least two global positions of postmodernism from modernism. If the modernist heritage dominates in the first, then the innovative potential dominates in the second: “The first position is indicated by borrowing techniques codified in the past, in fact, in the modernist tradition, which leads to postmodernist eclecticism. The second aims at a reassessment of literary values and its efforts to restructure the text, which approaches the search for the avant-garde. The German philosopher A. Gehlen

defines modernism as "a syncretic confusion of all styles and possibilities", which also indicates the potential impossibility to cardinaly and with certainty distinguish between the artistic practices of modernism and postmodernism.

While modernism and postmodernism use similar art forms, techniques and ideas, there are a number of specific features in which they differ. These features also include the attitude to the intertext, which is manifested in the strategies of intertextuality, the use of certain forms and the provision of specific functions for them in a work of art. One of the indicative signs by which modernism is fundamentally different from postmodernism is its worldview - faith in historical progress, in the ability of mankind to change the world for the better.

D. Zatonsky, characterizing modernism and postmodernism from this point of view, notes that "the first one somehow requires an Earthly paradise, and, therefore, this Paradise still believes, and the second, in general, does not believe with everyone". This explains the "characteristic search for positive ideals, the assertion of the national idea, the appeal to God, Christian morality, the emphasis on the exclusivity and omnipotence of the individual in the field of spirituality" inherent in many modernists.

Another fundamental sign of modernism is that modernist writers, refusing to follow reality, are trying to model the world, and, as you know, "one step remains from the model of the world to myth." Even A. Losev noted: "It is not the subject to which poetry is directed that is poetic, but the way it is depicted, i.e. after all, a way of understanding it. The same can be said about mythology. Such an attitude of modernists to the subject of the image radically affects the perception and use of the intertext (as a text of culture) in their works. Modernists create a new world (and a new myth about it), a subjective virtual reality through allusions, reminiscences, mirror literary reflections. It is no coincidence that it is in modernism that the construction "mise en abyme", or "heraldic construction" becomes relevant and becomes widespread.

The choice of intertext elements and the principles of their combination in the text, as N. Fateeva notes, should have a certain conceptual setting for modernists, which is based on "the desire to cover the whole myriad of connections and relationships (to a certain extent freed from temporal dependence) that exist between concepts, phenomena and things in the world. At the same time, modernists postulate a plurality of potential variants of the culturological model of human existence and therefore focus not on the definition or approval of a particular model, but on the very process of its search.

This process acts as the generation of new meanings through the rethinking of old ones, enshrined in cultural experience in the form of classical artistic patterns (images, situations, motifs, symbols, etc.), and constitutes the main content of modernist works. It is also the main content of the "life creation" of modernist artists: "the interaction between frankly public and purely private matters is a purely "modernist" interaction."

#### **References:**

1. Bolshakova A. Y. Author's theory in modern literary criticism / A. Yu. Bolshakova // *Izvestiya RAN. Ser. lit. and yaz.* - 1998. - No. 5. - T. 57. 15–24pp.
2. Gasparov B. In search of the "other": (French and Eastern European semiotics at the turn of the 1970s) / B. M. Gasparov // *New Literary Review.* - 1995. - No. 14. 53–71pp.
3. Denisova G. V. In the world of intertext: language, memory, translation / G. V. Denisova. - M.: Azbukovnik, 2003. 300 p.

#### **ABDULLA QAHHOR "ASROR BOBO" HIKOYASI TAHLILI**

**Umarova Gulandom Nasilloevna**

BuxDU II bosqich magistranti

**Kirish.** Ma'lumki, o'zbek adabiyotida asrlar davomida ijodkorlar turli janrdagi asarlarni yaratishdi. Bu badiiyatdan bahra, kuch, ilhom olib ulg'aygan izdoshlar va shogirdlar ularni yanada rivojlantirib, yangi bir cho'qqiga olib chiqishdi. Roman, qissa, dostonlarning "kenjatoy"i bo'lgan kichik hikoya janri XX asrga kelib yangi bir taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Garchi,

kichik hikoyalar hadis, anekdot, masal asosan rivoyat tarzida uchrab kelgan bo'lsa-da, so'nggi yuz yillikda ularga boshqa bir tomondan ijodiy yondashildi. Endi biz hikoyani faqatgina ruhiy madad, diniy maslahat va yoki kayfiyatni ko'taruvchi vosita sifatida emas, balki kuchli psixologik insoniy kechinmalarni ifoda etadigan, kitobxonni fikrlashga kerak bo'lsa hukm chiqarishga majburlaydigan badiiy asar sifatida adabiyot maydonida namoyon bo'lganiga guvoh bo'ldik. Bu turdagi asar rivoji haqida so'z yuritilar ekan, uning zabardast namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Qahhorni yodga olishimiz tayin. Ko'plab romanlar, ocherklar, qisqa hikoyalar muallifi bo'lgan Abdulla Qahhor o'zining realistik hikoyalari bilan butun dunyoga mashhur.

**Asosiy qism.** A.Qahhorning «Asror bobo» hikoyasi 1943 yilda jang maydonida minglab ko'plab o'zbek o'g'lonlari jon olib, jon berishayotgan bir paytda yozilgan. Asar adib yurti-hozirda Farg'onaning Bog'dod tumani, Ultarma MFY ida sodir bo'lganligini hisobga olsak, hayotiy vaqega asoslangan deyishimiz mumkin. Hikoya “Ultarmalik Asrorqul Haydar otaning qadrdon oshnasi bo'lardi” degan jumla bilan boshlanadi. Bu jumlaning o'ziyoq o'quvchini jiddiyroq ko'hna bir mavzuda gap borishi haqida ogohlantirgandek, bu ikki inson hayotidagi voqealar bir-biriga chambarchas bog'liqligini yozuvchi ta'kidlamochi bo'ladi. Hikoya davomida esa asar qahramonining hayotida ko'rgan-kechirgan qiyinchiliklari xususida so'z boradi. Bu yerda yozuvchi modernizm adabiy oqimning elementlaridan keng va o'rinni foydalangan. Simbolizm-bu oqimning bir xarakteri bo'lib har bir voqea yoki ism, rang yoki biror jumladan ma'lum bir ma'no anglashiladi. Yozuvchi bu hikoyada ismlarga katta e'tibor qaratgan. Hikoyaning bosh qahramoni-Asrorqul ismining o'ziyoq ikki ramziy ma'noni beradi:

1. Asrorqul ismining lug'aviy ma'nosi – ko'chma ma'noda “Allohning sirli bandasi”, ya'ni ertasi nima bo'lishini bilmaydigan va har qanday ko'rgulikka quldek sabr etadigan;
2. Asror-“sir-asror” so'zi kundalik hayotda – o'z ma'nosida ishlatilib farzandining o'limini anchadan buyon yashirib kelayotgan sirli ota siymosi gavdalanadi.

Hikoyani boshidan oxiriga qadar bosh qahramonga Asrorqul deb murojaat qilinadi, lekin hikoya Asrorqul emas, balki “Asror bobo” deb nomlangan. Bundagi ramziy ma'no shundaki uning hayotidagi sirlilik uning hayoti boshidan oxiriga qadar davom etganida; uning ham bobo hayoti kabi ko'hnaligida. Zero, Haydar ota bilan ikkalalari orasidagi farq uncha katta bo'lmasa-da, Haydar otaga hikoya davomida “ota” so'zi qo'shib ishlatiladi. U otalardek Asrorqulni qochib yurgan kezlari bag'riga olib ko'maklashadi, yoshi o'ttiz beshga yetganda beva ayolga uylantirib qo'yadi. Aslida uning Asror bobodan katta ekanligi haqida biror yerda keltirilmagan. Ammo Haydar “ota” so'zi bilan, Asror “bobo” bilan qo'llaniladi. Haydar so'zning ma'nosi “haydar”-“jasur, mard”, “fikrini dadil aytuvchi inson” bo'lib, ayni mana shu xislatlar Haydar otada namoyon edi. Undagi bu jo'mardalikni “yo'q, juda joyida... Mayiz bo'libsan... Xo'sh, Yodgorboydan xat kelib turibdimi?” va yoki “sen kampirga tayinlaganing uchun kelganim yo'q, o'zimcha keldim.” kabi jumladan payqash mumkin.

Asrorqulning kichik o'g'li- **Abror** obrazi orqali yozuvchi ismiga monand “itoatkor, solih, yaxshi xulq egasi”ni tasvirlaydi. Mana shu o'rinda kitobxon chol va kampirning keyingi hayoti mana shu farzandi tufayli yaxshilanishiga umid bog'laydi. Asrorqul hukumatga qarshi gapirib qo'yib keyin qochib yurgan kezlari Usta Mo'min ismli bir kosibni qo'lida ishlaydi. **Mo'min**-“najot beruvchi, himoya qiluvchi” ma'noli ism bo'lib, u chindan ham Asrorqulga najot-yordam beradi, uyidan joy beradi, ish beradi, bag'riga oladi. Urushdan qaytgan yarador **Sodiqjon** degan yigit samovarga kelib, hayotining eng ayanchli, og'ir damlarini Asror otaga so'zlab beradi. Armani do'sti Og'abekovning o'lim oldi “Bola-chaqangni yaxshi ko'rsang, bola-chaqang to'g'risida o'ylama” degan gapini yetkazarkan. Safdoshlari orasiga bu jumlaning takror va takror aytganidan maqol bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. Armani do'sti buyrug'iga sodiqlik bilan bo'ysunib hujumga kechikkani sabab Og'abekovning o'limiga o'zini aybdor his etishi ham uni sadoqatli inson ekanini bildiradi. **Abdumajid** ismi esa “sharaflil”, “bag'ri keng”, “Ollohning tuhfasil” degan ma'nolarni ifodalovchi ismdir. Bag'ri keng insonligi tufayli ham Asrorqulga “ota”, “o'g'lingiz” kabi jumla bilan xat yo'llab, unga farzandi dog'ini boshidan kechirayotgan otaga dalda bo'larli murojaat qiladi. “Ollohning tuhfasil” ligi uni turmushga chiqqaniga yigirma olti kun bo'lgan rafiqasini bag'riga sog'-salomat qaytishidir. Asarda kampirning ismi keltirilmagan. Asar boshida unga “bir beva xotin” jumlasil bilan keyingi

o'rinlarda "kampir" deb murojaat qilinadi. Beva xotinning qayta turmushga chiqqach, yana hayotning achchiq sinoviga duch kelgani, uning umri mana shunday ahamiyatsiz, ko'zdan pana, qayg'uli o'tganini bildiradi.

Asar ma'nosini kitobxonga yetkazib berishda yozuvchi bir qancha iboralardan foydalanilgan. "Boshi toshdan bo'lsin", "yurakni qon qildi", "farzand dog'i", "o'pkasi to'ldi", "qishloqni boshiga ko'tardi", "kechqurunni g'amini yedi", "ko'ngil so'radi", "ko'ngil uzdi", "kitob ko'rsatdi", "san-manga bordi", "ishqi tushdi", "ko'zi yetdi" kabi iboralar juda o'rinli qo'llanib hikoya mazmuniga teran, betakror ma'no bag'ishlagan.

Ushbu hikoyadagi ba'zi bir tarixiy hozirgi davrda ishlatilmaydigan eskirgan so'zlar ham mavjud bo'lib asarga o'zgacha shukuh bag'ishlagan. "Ultarmada g'ulu chiqdi"- janjal chiqdi, "amin"- militsiya xodimi", "oq poshsho"- qirol, "guber"- hokim", "Haydar otaning jiyaniga bo'lishamiz" – uylantiramiz, "gitlerchilar"- gitlarning tarafdorlari, dushmand, "uzlukadi"- davolanishda uzilish bo'ladi", "to'qim tabiat"- ko'nikkan ma'nosidagi so'zlar bor.

Adib badiiy ko'chimlardan unumli foydalanib, « Haydar ota Usta mo'minni do'koniga chiqsa » - metonimiya, « Shahardan soldat kelib ancha odamni haydab ketdi"- personifikatsiya, "Olomon bir nimaga qasd qilib to'lishib turganda bir og'iz gap kifoya qiladi."-metaforalarni asar mazmunini ochib berishda qo'llagan.

Hikoyada qahramon tasviri bir necha o'rinda beriladi:

"Shu paytda Asrorqulning o'zi kelib qoldi. Haydar ota uni dabdurustdan tanimadi. Uning tetikligi, shaxdam qadam tashlashi yosh bolaga chiqqan soqolday kishini kulgisini qistatar edi; lekin xo'p ozibdi. qorayib ketibdi, shuni o'zi ham bilar ekan shekilli, oldini olib :

-Ozibmanmi, qorayibmanmi ?-dedi. »

« Haydar ota uning yuziga qaradi; nazarida Asrorqul yana ham qoraygan va hozir ham vujudidan tutun chiqib ketayotgandek ko'rindi. » hikoyani mana shu yerida bejizga « yana ham » so'zi qo'llanilmagan. Uning asli og'ir kechgan hayoti endigi « musibat » dan yana azob chekayotganini bildiradi. O'zining ahvolidan yaxshigina xabardor bo'lgan Asrorboboning bu gapi noqulaylikni oldini olish, o'zini bundan yomonroq ta'rifga tayyorlash uchun aytilgandi. Bu uning tashqi qiyofasi tasviri edi. Ichki kechinmalari vaziyat va qahramonlar dialoglarda keng ochib berilgan. Farzandining o'limini rafiqasidan sir tutish maqsadida yashirgan Asrorquldan kampiri hadeb xat so'rab xarxasha qilaverish holati quyidagi dialogda berilgan.

-Birontasini ko'rsatsangiz o'lasizmi? Hammaning yuragini qon qildingiz-ku?-dedi.

- Yaxshi xat yozsa ham yig'laysan, yomon xat yozsa ham yig'laysan, nima qilaman ko'rsatib?

-Yig'lasam, ko'z yoshini sizdan qarz olmayman.

- Tag'in!... Ammo-lekin, xo'p kaltakbop xotin bo'libsanda! Burungi zamon bo'lsa, bironta qovurg'angni butun qo'ymas edim!...

-Mana, uring, sindiring qovurg'amni! Qo'rqmay qo'ya qoling, arz qilmayman!

-Arz qilishingdan qo'rqmayman, xotin urgani nomus qilaman!"

Bu suhbatdan farzand dog'ini yengishda, yuraklaridagi o'tni bosishda ular achchiq-achchiq kesatliqlar qilishadi. Hikoyada g'amga botgan ota o'zini samovar, urushdan qaytgan askarlar bilan ovutadi. Kampir bechora esa choliga xarxasha qilishda nariga o'tolmaydi. Ostona hatlab ko'cha chiqmaydigan o'sha davr o'zbek ayollarini hamma narsani ichga yutishga mahkumdek tarbiyalashgan; ular zo'ravonlikmi, kasallikmi, og'ir judolikmi bariga miq etmay chidashgan.

**Xulosa.** Abdulla Qahhor hikoyalari mana bir asrki o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Uning asarlarida so'zni o'rinli qo'llay olish salohiyati, tilning boy imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llay olishi kitobxonni sehlalab, chuqur mushohada yuritishga undaydi. Undagi realistik voqealar o'sha davr insonlari hayoti, muammolari, kechinmalari xususida bugungi o'quvchi keng ma'lumot beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Qahhor. Anor-T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi 2021.
2. Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti,1988. 232 b. 86-bet.
3. Ozod Sharafiddinov. Abdulla Qahhorning olti tomligiga yozilgan so'z boshi. 1-tom, Toshkent,G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967

## LUG'ATLARDA VA ZAMONAVIY ILMIY ADABIYOTLARDA "MA'NAVIYAT" TUSHUNCHALARINING TAHLIL ETILISHI

Qudratova Sitara,  
BuxDU, magistrant

**Kirish.** O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin "ma'naviyat" ilmiy tushuncha sifatida tahlil qilinib, o'rganila boshlandi. Avvalo "ma'naviyatning o'zi nima?" degan savol qo'yildi. Inson va jamiyatning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha ijtimoiy-gumanitar soha (fanlar: til, adabiyot, tarix, dinshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika...) mutaxassisleri oldiga mazkur masalaga ilmiy yondashib javob topish muammosi vujudga keldi.

Ma'naviyat ma'nosi vaqt o'tishi bilan rivojlanib, kengayib bordi va turli ma'nolarni birga topish mumkin. An'anaga ko'ra ma'naviyat diniy islohot jarayonini bildiradi. Insonning asl qiyofasini tiklas, "Xudoning surati" dunyo dinlarining asoschilari va muqaddas matnlari misolida keltirilgan. O'rta asrlarda bu atama keng tarqalgan; boshqa diniy an'analar va kengroq amaliyotlarga, jumladan, ezoterik an'analar va diniy an'analarga nisbatan kengaytirilgan. Ruh atamasi "odamlar va hayvonlardagi tetiklantiruvchi yoki hayotiy tamoyil" degan ma'noni anglatadi.

**Asosiy qism.** "Ma'naviyat" atamasi o'rta fransuzcha spiritité so'zidan, ikkinchisi lotincha "spiritualitatem" (nominativ spirititas) dan olingan bo'lib, u ham lotincha spiritis so'zidan olingan.

Ma'naviyatning umumiy qabul qilingan yagona ta'rifi yo'q. Ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan atama ta'rifi uchun so'rovlar o'xshashliklarga ega bo'lgan ta'riflarning keng doirasini taklif qiladi. McCarroll tomonidan o'tkazilgan so'rovlar ma'naviyat mavzusida har biriga yigirma yettita aniq ta'riflar berdi, ular orasida "ozgina kelishuv" mavjud edi. Bu ma'naviyatni tizimli o'rganishga va topilmalarni mazmunli yetkazish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi. Qolaversa, ma'naviyatning ko'pgina asosiy xususiyatlari faqat ma'naviyatga xos emas; masalan, o'z-o'zini yuksaltirish, zohidlik, hammaga mansubligini tan olish ateist Artur Shopengauer tomonidan axloqiy hayotning kaliti sifatida ko'rilgan.

Kees Waaijmanning fikricha, ma'naviyatning an'anaviy ma'nosi "insonning asl qiyofasini, Xudo qiyofasini tiklashga qaratilgan qayta shakllanish jarayonidir. Islomda Muhammad. Houtman va Aupers zamonaviy ma'naviyat inson psixologiyasi, mistik va ezoterik an'analarning aralashmasi ekanligini ta'kidlaydilar.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "Sovet davrida o'zbek tilida chop etilgan "Filosofiya lug'ati"da bu tushunchaga o'rin ham berilmagan. Vaholanki, "ma'naviyat" va uning o'zagidan yasalgan "ma'naviy" tushunchalarning qo'llanish doirasi keskin kengayib, ularning lug'aviy va terminologik mazmunlari shunchalik boyib bormoqdaki, bu ma'naviyatni alohida ilmiy tushuncha sifatida o'rganishni, uning madaniyat, ong, tafakkur, dunyoqarash, ruhiyat hamda badiiy, siyosiy, axloqiy qadriyatlar va h.k. tushunchalar tizimidagi o'rnini aniqlashni, ular bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilishni taqozo etmoqda".

1969-yilda nashr etilgan "Farhangi zaboni tojiki" lug'atida "ma'naviyat" – "ma'naviyot" olami fikri va ruhi, ya'ni kishining ichki ruhiy va fikriy olami deb talqin qilingan va unga misol tariqasida "Axloqi Nosiriy" dan parcha keltirilgan: "Ma'naviyati inson mab dai surati vujudi na'viyati o'st (Mazmuni: inson ma'naviyati uning hayoti mazmunining yangilanishidir (hayot tarzining o'sishidir)). Lug'atda "ma'naviy" sifatlanishining birinchi mazmuni ma'niga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani dasturlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi PF – 1331-son Farmoyishi mansub, ikkinchi mazmuni inson fikri va ruhi, ya'ni ichki ruhiy olami va moddiylikning muqobili deb berilgan. 1981-yilda Moskva "Rus tili" nashriyoti nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "ma'naviyat" atamasi uchramaydi. Ammo uning o'zagi bo'lgan "ma'ni", "ma'no" so'zlari hamda "ma'naviy" va "ma'nan" sifatlanishi yoritilgan. "Ma'naviy" so'zining birinchi mazmuni kishining ichki, ruhiy hayotiga oid deb, ikkinchi mazmuni esa axloqiy (kishining ma'naviy qiyofasi) deb ifodalangan. Lug'atda "ma'ni" so'zi ikki mazmunda berilgan: so'zning birinchi mazmuni **ma'no**, ya'ni **so'zning ma'nosi**ni ifodalagan (Misol, "Gapga ham bir ma'ni bo'lishi kerak, - dedi Gulshan" Abdulla Qodiriy "Mehrobdan

chayon”). Ikkinchi mazmuni **aql, es-hush** deb ifodalangan. “Ma’no” tushunchasi so’z bilan ifodalangan tushuncha yoki ish-harakat, gap, maktub, asar va sh.k zamiridagi mazmun tarzida talqin qilingan (*So’zning to’g’ri ma’nosi, so’zning ko’chma ma’nosi*).

Mustaqillik yillarida nashr etilgan “O’zbek tilining izohli lug’ati” da “ma’naviyat” atama sifatida kiritilgan va quyidagicha izoh berilgan:

“Ma’naviyat” – (arabcha – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar) Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k tasavvurlari va tushunchalari majmui”. Lug’atda “ma’ni” va “ma’no” so’zlari alohida alohida berilgan bo’lsada, mazmun jihatdan deyarli farq yo’q. So’zning birinchi mazmuni **ma’no** (*So’zning ma’nosi*). So’zning mazmun tomoni, so’z bilan ifodalangan tushuncha. Ikkinchisi **mazmun** (*“Rustam esi kirib qolgan, kitob o’qib, har gapning ma’nosini tushunadigan bo’lgan”*. “Murodxon”) ni ifoda etgan. Uchinchi mazmuni **aql-hush, tayin** (*Ma’nisi yo’q odam. – Sizlarda ma’ni bormi, bema’nilar*. M.Qoriyev, Oydin kechalar); **ma’ni kirmoq** aql kirmoq, es hushli bo’lmoq. To’rtinchi mazmuni biror narsaning sababi, mohiyati, nima ekanligi; mohiyatni anglatishi ifoda etilgan. “Farhangi zaboni tojiki” lug’atida esa “ma’ni”/”ma’no” tarzida birga berilgani va beshta mazmunda yoritilganini ko’rish mumkin: 1. “mazmuni kalom” – so’zning mazmuni; 2. Fikr, g’oya; 3. Mohiyat, mazmun (falsafiy

tushuncha); 4. Tasavvufda – ruh, kishining ruhiy holati; 5. Sabab, bois. So’zning to’rtinchi mazmuni, ya’ni tasavvufdagi kishining ichki ruhiy olamini ifoda etib kelgan mazmuni boshqa lug’atlarda uchramaydi.

“Mustaqillik” izohli ilmiy-ommabop lug’atida “Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, dadiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar” deb ta’rif berilgan. Ta’rif hajm jihatidan qisqa bo’lsada, mohiyatan ancha keng. Ma’naviyat faqatgina kishilarning barcha tasavvurlari va tushunchalari bilan chegaralanib qolmay, balki butun jamiyat va millatning tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo’ljallari, ideallari hamdir. “Falsafa qisqacha izohli lug’ati”da ham yuqoridagi ta’rifning aynan o’zini uchratamiz.

**Xulosa.** “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “ma’naviyat” ga yanada kengroq ta’rif berilgan: “ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o’z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so’zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo’y-basti, ko’rinishi, kiyinishi va hatti- harakati va b. kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, his-tuyg’ularini o’z ichiga oladi...”

#### **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Bahodirovna, Akhmedova M. "Lexicographic Analysis of “Spirituality” Terms in English and Uzbek Languages." International Journal on Integrated Education, vol. 2, no. 5, 2019, pp. 140-143, doi:10.31149/ijie.v2i5.190 (<https://dx.doi.org/10.31149/ijie.v2i5.190>).
2. Akhmedova M.B. Ways of translation of ‘spirituality’ terms in English and Uzbek languages. Proceedings of the ICECRS, November 2019 (<https://doi.org/10.21070/icecrs.v4i0.124>), DOI 10.21070/icecrs.v4i0.124
3. Islomov Eldor, Ahmedova Mehrinigor Bahodirovna. The Essence of Spirituality in the Uzbek Language. XIII Международная Научно-Практическая Конференция " Язык И Культура", Челябинск, 26 апреля 2018 года

## **SOCIOLOGICAL APPROACH INTO LITERATURE**

**Nasriyeva Guzal Zulfiddin Kizi,**

Master student, BUKhSU

### **Annotation**

This work gives information about sociological approach into literature, the history of its origin ,relationship between society and written work .Influence of public life to the written literature, how authors illustrate social norms and social classes , interest in the impact of literature on the



political situation and - more specifically - public life. Critical and creative aspects, cultural aspects and the results are also represented and discussed by the authors.

**Key words:** methodological principles, society, sociological method, Marxist sociology, public life, criticism, cultural-historical school, historicism,

### **Introduction**

The sociological method is associated with the understanding of literature as one of the forms of social consciousness. This method emphasizes, first of all, the connections of literature with the social phenomena of certain epochs. The history of its origin goes back in the closest way to the cultural and historical school in literary studies. It is natural that in the nineteenth century the most important philosophical basis of this method was positivism. The sociological method is brought closer to the cultural-historical school by historicism, the desire to consider literature as an expression of the laws of the material culture of the people, attention to processes rather than to individuals, willingness to explain artistic creativity using the laws of other sciences (primarily economics, sociology, etc.), interest in the impact of literature on the political situation and - more broadly - public life. The sociological method can be used both to analyze the work itself "against the background" of public life, and to study its impact on readers, the public.

### **Main part.**

Sociological method in literary studies, methodological and methodological principles of the study of literature as a socially conditioned phenomenon. In accordance with this, the study of literature in its multilateral relations with society is called the sociology of literature, although, this term is often used in a narrower sense, denoting the borderline area of literary studies and sociology - the study of the existence and functioning of literature in society.

Despite the fact that the problem of the interaction of literature (art) and society was posed already at the early stages of the development of art, the question of the social nature of literature and methods of its study was determined only in the middle of the XIX century, following the realization of an independent subject of the science of sociology itself. At the same time, I. Ten identified the features of the sociological approach to literature, which was called "cultural-historical". Sharing the philosophical and methodological premises of positivism, Teng based his method on analogy with the methodology of natural science disciplines (like O. Kont, who considered sociology identical in nature to mechanics and biology); the question of the specifics of art (literature) was not put. Although Teng's idea of deterministic development of art is only of an initial nature, it and the associated concept of method as an instrument of objective scientific knowledge of art carried a positive content. In Russia at the end of the XIX century, cultural and historical methodology is represented, for example, by the works of A. N. Pypin. Simultaneously and independently of positivism, Marxist sociology emerged. Contained in the works of K. Marx and F. Engels' holistic aesthetic concept provides an answer to the fundamental questions of the sociology of literature: about the interaction of literature and society, about literature as a specific area of class ideology, about the place and position of the artist in a society divided into antagonistic classes, about the problem of realism, about socialist literature, about the universal content of art, etc. The methodological basis of Marxist sociology is historical materialism, which does not deny at all, but, on the contrary, presupposes the existence of its own specific methodology in the field of sociology of literature. At the end of the XIX century, the methodology of the classics of Marxism sought to follow their students F. Mehring, P. Lafargue; G. V. was an outstanding theorist of the sociology of art in the Dolenin period. Plekhanov, who, on the one hand, opposed the subjectivism of decadent and impressionistic criticism, on the other — against "economic materialism", which deduces the types of ideologies directly from the forms of production. At the same time, S. M. Plekhanov was characterized by an underestimation of the socially transformative role of literature and, to a certain extent, an abstract class approach in the interpretation of the work of some writers.

It was possible to overcome these shortcomings only from the standpoint of Leninism. V. I. Lenin's teaching on art and literature, among a number of other points, includes the following fundamental provisions: the theory of reflection, which is of fundamental importance for understanding the specifics of artistic creativity; the doctrine of two cultures in each national

culture, the principle of partisanship of literature, which gives an objective scientific criterion for cognition and evaluation of ideological phenomena . Classical examples of the application of Lenin's S. M. in the field of interpretation of literary phenomena are articles about L. N. Tolstoy and A. I. Herzen. Lenin's concept of art and literature was assimilated by Bolshevik critics V. V. Vorovsky, M. S. Olminsky and others; A.V. Lunacharsky played a special role in its propaganda and explanation.

Along with Lenin's methodology and in spite of it, vulgar sociology, which grew out of a one-sided and incomplete understanding of the Marxist S. M. Discussion of the 30s, became widespread in Soviet literary studies of the 20s. Pereverzev and his school, about the literary views of Plekhanov, revealed the schematism of the views of "vulgar sociologists", their characteristic "class fatalism", However, the sharpness of the tone with which their mistakes were criticized led to the fact that the study of literature and art in a specific sociological aspect temporarily falls out of the sphere of scientific interests, although Soviet literary studies .The 1980s and subsequent periods remained sociological in a broad sense, i.e. built on the foundation of historical materialism.

Bourgeois literary criticism of the XX century does not have a single philosophical base, as a result of which in the West "... there is no exhaustive sociological history of literature ..." (Verli M., General Literary Studies, Moscow, 1957, p. 176). Thus, in Germany in the 20s, S.M. was represented by the "sociology of literary taste", as well as attempts to create a sociology of art close to the methodology of "vulgar sociology" V. Gausenstein. A simplified understanding of the economic factor of social development (only in terms of "material means") has narrowed the angle of view of the French sociology of art and literature . In the USA and England, sociological research in the field of literary studies is associated with psychological and semasiological theories, and in recent decades with the methods of structuralism (L. Goldman).

Currently, the study of methodological problems of the sociology of literature in the USSR is at the stage of revival. As in general in sociology, research is conducted at various levels: from general theory to the development of a methodology for a specific sociological study of the impact of literature on the reader, the reader's taste of various social groups, etc. Limiting the tasks of the sociology of literature to one level is fruitless.

### **Conclusion**

Summing up, the sociological approach to literature involves locating an author and his or her work in their wider social context. On this reading, a work of literature can only be properly understood by examining the society in which it was written. Sociological approach considers the literary work as the product of social institutions. Its task is to interpret the literary work in terms of its connection to social, political and economical forces.

### **References.**

1. Dobrolyubov N.A. literary criticism. - M., 1979.
2. Marx K., Engels F. About art. 3rd ed. T. 1-2. - M., 1976.
3. Plekhanov G.V. literature and aesthetics. T. 1-2. - M., 1958.
4. Pisarev D.I. literary criticism: in 3 volumes / Comp. Yu.S. Sorokin. - 1981.
5. Voloshinov V.N. Philosophy and Sociology of the Humanities / Comp. YES. Yunov. - St. Petersburg, 1995.111
6. Paperno Irina. Semiotics of Behavior: Nikolay Chernyshevsky man of the era of realism / Authoriz. per. from English. T. Ya. Kazavchinskaya. M., 1996.
7. Georg Lukács. English Formalismus in der Weltliteratur. — Berlin, 1952.

## 4-ШЎЪБА. ФОЛЬКЛОРШУНОСЛИК ВА ЭЛЕКТРОН ФОЛЬКЛОР

### ОТА-ОНА FARZANDGA QO‘SH QANOTDIR

Hilola Safarova Oxunjonovna,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
Buxoro davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Maqolada Buxorolik shoir Samandar Vohidovning “Bolalik bilan pinhon suhbat”, “Esingdami bolalik damlar”, “Bolalikda oyni uzib olmoq istardim”, “Tushlarimda yurgin, bolalik”, “O‘zbek bola” singari she‘rlari asosida bolalik – inson umrining beg‘ubor fasli ekanligi ifodalanganligi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Bolalik bilan pinhon suhbat”, “Esingdami bolalik damlar”, “Bolalikda oyni uzib olmoq istardim”, “Tushlarimda yurgin, bolalik”, “O‘zbek bola”.

**Annotation.** Article by Bukhara poet Samandar Vakhidov "Secret Conversation with Childhood", "Do you remember your childhood", "I would like to take the moon as a child", "Childhood in my dreams", "Uzbek child" which states that childhood is a flawless period of human life.

**Key words:** "Secret Conversation with Childhood", "Do you remember your childhood", "I would like to take the moon as a child", "Childhood in my dreams", "Uzbek child".

Qo‘liga qalam tutib she‘r yozgan shoirki bor, avvalo, yo ota, yo ona sifatida farzand ko‘rganidan qancha quvonsa, farzandini ham shuncha suyib-ardoqlaydi, bag‘riga bosib to‘yib-to‘yib hidlarkan, unda o‘z kelajagini, xonadonining ertangi charog‘bonini, orzu-umidlari ro‘yobini ko‘rib, yuragida bor mehru harorat bilan erkalaydi, jigarbandiga qo‘sh qanot bo‘lib, har qanday ofatu kulfatlardan ko‘ksini qalqon qilib himoya qilishga butun borlig‘ini safarbar etadi. Buxorolik shoir Samandar Vohidov ijodidagi Ona va otaning duet shaklida bitilgan “Farzandning qo‘sh qanoti” she‘rida ona aytgan: “Ota mehri parvozlarga qanotdir, hayot asli ota bilan hayotdir!” “Otasi bor o‘g‘il ko‘ksi tog‘ bo‘lar, Otasi bor qiz qo‘rg‘onli bog‘ bo‘lar” va ota aytgan: “Ona ko‘ngli sarchashmai hayotdir, Ona mehri har mushkulga najotdir”, “Onalarsiz bog‘i rizvon xazondir, Ona bilan ikki jahon bo‘stondir!” kabi iqrorlarda bu haqiqat yorqin ifodalangan. Qolaversa, duet-she‘r yakunida bu haqiqat ota-onaning Ollohga munojoti tarzida jaranglaydi:

Ota-ona panohida har doim,  
Farzandlarni omon asra, Xudoyim.  
Ortimizda rahmat qolar iz qolsin,  
Pok izlarga gard inmasin, Ilohim!  
Ota-ona farzandga qo‘sh qanotdir,  
Sabolari sarchashmai sabotdir. [1,23]

Shoir she‘rlarida bolalik manzaralari turli rakurslarda chizilgan. Uning “Bolalik bilan pinhon suhbat”, “Esingdami bolalik damlar”, “Bolalikda oyni uzib olmoq istardim”, “Varrak uchirayotgan bola”, “Qizcham ilk bor”, “Tushlarimda yurgin, bolalik”, “O‘zbek bola” singari bir guruh she‘rlarida bolalikka kattalar nigohi bilan qaralib, bolalik – inson umrining beg‘ubor fasli sifatida g‘oyat zavqliligi, binobarin, inson sifatida shakllanishi o‘sha faslning qanday kechishiga bog‘liqligi, inson ulg‘aygan sari undan uzoqlasha borishi va uni qo‘msab, har lahzada yodga olib yashashi motivlari ifodalangan. Ayniqsa, “Bolalik bilan pinhon suhbat” she‘ri bolalikka g‘oyibona sog‘inch kayfiyatiga limmo-lim. Unda hayotning ancha-muncha tashvishlaridan ko‘zi pishgan va hatto bir qadar toliqqan otaning tashvishsiz va o‘yinqaroq bolaligini qo‘msab, qani endi yana bir bor bolaligimga qaytib, oqizoq o‘ynab yurgan kezlariga qaytish orzusi ifodasini topgan:

Ortga qaytmas ariqqa oqizib yubordimmi,  
Ariqlar bo‘ylab yurdim, topmadim oqizog‘im.  
Dalalardan chaqirdim, sas aylab umidimni,

Sasim besado ketdi, bolalik–bolli chog‘im.

Senga bir qaytolsaydim, zilol suvli ariqda–

Oqqush kabi cho‘milib, gunohlarim yuvarдим.

Charchagan chog‘er quchib, kuchga to‘lgan Anteyday,

Ruhim bosgan horg‘inlik qarg‘alarin quvardim. [1, 56]

Lirik qahramon o‘z bolaligini oqizoq kabi ariqlarda oqizib yuborgan, shu bois har qancha izlasada, endi uni topa olmaydi. Har qancha bolaligi kechgan dalalardan uni chaqirmasin, chaqirig‘i javobsiz–besado” qolaveradi. U esa yana va yana bolaligiga qaytishni, bolaligida cho‘milgan ariqlarning zilol suvlarida oqqushday cho‘milib, qilgan gunohlaridan forig‘ bo‘lishni, charchoqlarini antik dunyo mifologiyasi qahramoni Anteyday erni quchib, undan kuch olib, o‘sha ruhiy horg‘inligidan qutilishni istaydi. Shoir lirik qahramondagi bolalikni qo‘msash holatini tabiat manzarasi tasviri fonida ariq, dala, zilol suv, oqqush, er kabi obrazlar vositasida chizarkan, ruhiy holatga daxldor kuch va horg‘inlik mohiyatini o‘xshatish (Anteyday) va istiora (horg‘inlik qarg‘alari) kabi tasviriy vositalar orqali jozibali etib tasvirilaydi. Qarg‘a aksarin qora rangda bo‘lgani bois uning tusi horg‘inlik mohiyatini aniq ifodalaganini ta’kidlash joiz.

Lirik qahramon “qalb tarozusi pallasiga ko‘z solib, orzularidan armonining yuki vazminlik” qilayotganini sezarkan, bolaligidan keyingi ulg‘ayish yillaridagi qilmish-qidirmishlari, aniqrog‘i, hamisha ota-onasi yo‘rig‘idan yurmay o‘zgalardan egan pandlarini, kerakli joylarda haq so‘zni aytolmay, chaynalganlarini, katta bir amaldor buvisi o‘lganida kuyinib, qo‘shni kampir kasal yotsa, hol so‘rashga vaqt topmaganini, minbarlarda go‘yo butun dunyo tashvishini elkaga olganday so‘zamollik qilgani-yu, birovning kulgusidan “ustimdan kulmayotganmikin?!” deya hadiksiraganlarini, xullas, barcha rutubatlarni bir-bir ko‘nglidan kecharkan, o‘sha samimiy yig‘lab, samimiy kula bilgan beg‘ubor bolaligiga zoriqib murojaat qiladi:

Dardlarimni to‘kay deb, seni izlab kelgandim,

Onam quchog‘i kabi purziyo bolaligim.

Yo‘ldan toyganim uchun yig‘lab uzr so‘rardim,

Otam sabog‘i kabi purma‘no bolaligim. [1,45]

Shunday sarsari avholda qolgan lirik qahramon, ittifoqo, oqizoq o‘ynayotgan bir guruh bolalakaylarni ko‘rib, o‘z bolaligini qayta ko‘rganday, o‘sha og‘ir xayollaridan bir lahza bo‘lsada, qutilganday bo‘ladi:

Seni-ku topolmadim... Mana bir to‘p bolalar

Oqizoq qilgan nonni teng bo‘lishib emoqda.

O‘sha tanish ariqda bir guruhi cho‘milar,

Go‘yo hayron holimdan qiyqirishib kulmoqda.

Chashma topgan chanqoqning tashnaligi qonganday,

Ancha tiniqib qoldi loyqalangan xayolim.

Epkin esib gul bosgan gulxan qayta yonganday,

Xira ko‘zga qayta nur jilvalangan misoli. [1,88]

Ariq va oqizoq obrazlari lirik qahramonning bolaligini ham, ulg‘aygandagi siymosini ham tutashtirib turuvchi badiiy vosita: unda o‘tmish–lirik qahramonning bolaligi va bugun–lirik qahramonning ayni holatiga daxldor kayfiyati butun murakkabligi bilan zuhurotini topgan. Lirik qahramonning oqizoq qilingan nonni teng bo‘lib eyayotganlarini ko‘rib, bolaligini topganday o‘zini engil his etish zavqi “Chashma topgan chanqoqning tashnaligi qonganday” qanoatbaxsh, shundan “loyqalangan xayoli” ancha tiniqib qoladi va qalbidagi bolalik ehtirosi “epkin esib gul bosgan gulxan qayta yonganday” alangalanib, “xira ko‘zlarida nur qayta jilvalanib” ketganidan mamnuniyat sezadi. Shoir bolalik sog‘inchini shu xilda obrazli ifodalar orqali g‘oyat ta’sirli etib chiza olgan.

Shoir bolalarning ulg‘ayish jarayonida o‘z-o‘zlarini anglay borishlari, hatto ulg‘ayayotganlarini alohida ko‘rsatib qo‘yishga intilishlarini-da nozik kuzatadi. Hatto shu mavzuda qizi Vaziraga bag‘ishlab yozgan she‘rida “Qizalog‘im hamon bola-da”, degan kayfiyat bilan yashayotgan otaning holatini g‘oyat yorqin chizadi. Qizi otasiga erkalanishni g‘oyat xush ko‘radi, otasi ham qizining bunday erkalanishlaridan ko‘ngli yayrab ketadi. Qizalog‘i

ulgʻayganini namoyish etish uchun otasiga choy damlab kirsam, otasi buni odatiy hol deb qabul qiladi, maqtash oʻrniga beparvo qaraydi. Holbuki, qizi ilk bor otasiga choy damlagan edi. Qizaloq mana shundan norozi: “Labini tishlab, maʼyus chiqib ketadi.”

Qayta kirib mendan yuzin oʻgirar,

Kiprigida uzilmagan qatra yosh.

“Nima boʻldi?”

Yigʻlabsanmi, oʻrgilay?”

Suzilmagan choyga boqib, egar bosh.[2,106]

Shundan soʻnggina ota–lirik qahramon bu yigʻi sababini tushunib qizalogʻi ulgʻayishiga beparvo qaraganidan oʻkinchiga iqror keltiradi:

Qurib ketsin, loqaydlikning ildizi,

Sezmabman-ku shu mitti qalb shavqini.

Koʻz-koʻz etmoq boʻlgan balki yulduzim

Shu kech menga ulgʻayganin zavqini... [2,93]

Bu sheʼrda qiz boladagi ulgʻayish holatining anglanishi uning choy damlashga loyiq boʻlib qolganini koʻrsatish orqali ifodalangan esa, “Dor arqonda dorboz bola” sheʼrida oʻgʻil bolaning ulgʻayishi jarayoni ota kasbi dorbozlikni oʻrganish ahdini amalga oshirishi zamirida koʻrsatiladi.

Bu endi anglangan, maqsad sari yoʻnaltirilgan ulgʻayish. Chunki “dorboz bola iqbolini etim qilgan ana shu dordir”. Shu boisdan:

Etmoqchi u otajoni

Etolmagan nuqtaga,

Etguncha uning uchun

Vaqt yurishdan toʻxtagan.

“Uning uchun vaqtning yurishdan toʻxtashi” ota kasbini obdon oʻrganib, ota armonini ushalishi, ota barhayotligini taʼminlashiga oʻzining behad safarbar etishini anglatadi.

Samandar Vohidov oʻzbek bolalar sheʼriyati mavzular va obrazlar olamini boyitdi. U bolalik mavzuini ijtimoiy-estetik tadqiq etib, bolalik dunyosining rang-barang manzaralarini yaratdi. Qolaversa, bolalar epik poeziyasini xilma-xil shakllardagi stilizatsiyalash negizida yaratilgan sheʼriy ertaklar va xususan, kam uchraydigan hujjatli sheʼriy qissalari bilan boyitdi. Shu xizmati bilan yosh avlod maʼnaviy Kamolotini taʼminlashga hissa qoʻshib, oʻzbek bolalarining sevimli shoirlaridan biri sifatida boʻy koʻrsata bildi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Xayoling men bilan (sheʼrlar, gʻazallar, muxammaslar, doston)–“Buxoro” nashriyoti, 1997, 10,5 b.t.
2. Sunbula (Doston, sheʼrlar, gʻazallar).–“Buxoro” nashriyoti, 2002, 9,0 b.t.
3. Safarova Hilola Oxunjonovna, “THE CROW, THE OWL, THE RAVEN, THE SLICE, WHICH TURNED YOUR FLOWERS. (one of the example create of Samandar Vohidov)”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 211–216, Apr. 2021.
4. H.Safarova “HAPPINESS IS THE FLAG LANGUAGE, FROM NARRINESS I AM ALSO A TONGUE!”... ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF POET SAMANDAR VOHIDOV//Konferensii – 2020.
5. Maxmudova R. PISATEL, POSPEVIŪIY BOL NARODA. Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik xalqaro ilmiy forumi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar. // Konferensiya – 2021.
6. M.Rajabova, Safarova H.,Z.Amonova. Analytical and synthesized folklorism in Navors work. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. //Redakcionnaya kollegiya. –2021.
7. Safarova H.O., Rajabova M.B. Amonova Z.Q.FORMATION OF MUSAMMAT (OCTAVES) IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF BUKHARA (BASED ON THE POEMS OF SAMANDAR VAHIDOV). Cyberpsychology, Behavior and Social Networking. VOLUME 24, ISSUE 12 / DECEMBER 2021.

8. Amonova Z.Q., Safarova H.O., Rajabova M.B. The influence of the ideas of the hurufism sect on Nasimi's work. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 2, 2021. <https://cibg.org.au/> P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903 DOI: 10.47750/cibg.2021.27.02.561. В 5541-5549.
9. Қодирова Н. APPEARANCE OF A CRITICAL STYLE IN RELATION TO NEW UZBEK LITERATURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
10. Қодирова Н. Научно-литературное мышление и проблема стиля //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Қодирова Н. Ibrohim Naqqulov ijodida muallif nutqining o'ziga xosligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
12. Eshonqulov H. The Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
13. Eshonqulov H. Ma'shuqa va oshiq holiga xos istioralashgan epitetlarning qofiyalanishi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
14. Qodirova N. S. Problems Of Style And Creative Individuality In Literature //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 2. – С. 254-260.
15. NEMATOVNA A. S., SAIDBURKHONOVNA K. N., BEKMURODOVNA K. O. METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 5.
16. Ахмедова Ш. Н. ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 12-14.
17. Davronova S. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES.
18. Davronova S. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.

## INGLIZ ERTAKLARIDA RANG RAMZIYLIGI

**Fayzullayev Otabek Muxammadovich**

*Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi  
kafedrası mudiri, f.f.f.d(PhD), dotsent*

**Ziyadullayeva Aziza Akmalovna**

*Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik (Ingliz)  
mutaxassisligi II bosqich magistranti  
([aziziyodullayeva@mail.ru](mailto:aziziyodullayeva@mail.ru))*

**Kirish.** Inson hayoti turfa xil ranglarga to'raligi bilan ajralib turadi. Fizik jihatdan tahlil etiladigan bo'lsa, ongimizda idrok etiladigan ranglar bevosita yorug'lik to'qlini va uzunligiga bog'liq. Ranglar paydo bo'lishi va ularni ko'z bilan ko'rib, ongda idrok etilishi haqidagi nazariy tafsilotlar haqida olimlar tomonidan jiddiy izlanishlar olib borilganini inobatga olgan holda biz bu masalalarni yoritishdan chetlasib, mazkur maqolamizda rang ramziyliklari va ularning ertaklarda, xususan, ingliz ertaklaridagi mazmun-mohiyatini o'rganishga e'tibor qaratishni maqsad qildik.

**Asosiy qism.** Rang shunchaki jismoniy hodisa emas. Ranglar ijtimoiy-madaniy hayotning, insoniyatni o'rab turgan borliqning muhim qismidir. Negaki insonlar narsa, joy, voqea va kishilarni ranglar bilan uyg'unlikda tasavvur qilishadi. Rang-barang gullar esa obyekt va joylarni, inson ichki kechinmalarini namoyon etadi. Qo'shiqlar, ertaklar va his-tuy'ular bir-biriga ranglar orqali bog'lanadi. Oq rang – poklik, qora rang – yovuzlik, zulmat, yashil rang – yangi boshlanishlar, yoshlik kabi ramzlarni anglatadi. Demak, rang ham madaniy tushuncha

bo'lib, ma'lum darajada insoniyat madaniyatini aks ettirgan holda turli madaniy g'oyalar, his-tuyg'ular va qarashlar bilan bog'liq.

Turli millatlarda ranglar turli xil ma'no va mazmunga ega. Har bir xalq konseptosferasida ranglar o'ziga xos usulda namoyon bo'lishi ko'plab omillarga borib taqaladi. Insoniyat turli geografik muhitda yashab, kundalik hayotda turli xil ranglarga duch keladi, turli siyosiy va tarixiy yo'llardan o'tadi. Bu omillar xalqlar madaniyatida ham o'z aksini topadi, ya'ni madaniy meros muhit va tarixiy jarayonlarga qarab shakllanadi.

Ranglarni tushunish xalqlar madaniyatini va o'tmishni tushunish uchun ham muhim hisoblanib, bir qator savollarni keltirib chiqaradi. Masalan: Antik davrda muayyan xalq qanday ranglarni bilgan? Bu ranglarni nima bilan bog'lagan? Bu ranglar uning madaniyatida qanday aks etgan? va h.z.

Ingliz ertaklari to'plamlarida turli xil ranglar aks ettirilgan xilma-xil rasmlarga, xususan, Xans Kristian Andersenning ertaklaridagi Edmund Dulak tomonidan ajoyib tarzda chizilgan, ko'k ranglarda aks ettirilgan rasmlarga duch kelish mumkin. Biroq ertaklardagi muhitni his etish uchun, rangli suratlar bo'lishi shart emas, aslida ertaklarga illyustratsiyaning keragi yo'q. Ular har qanday o'rta asr rasmlari kabi yorqin ranglarga ega. Qondek qizil, qora daraxtdek qora, qordek oppoq.

*Once upon a time in the middle of winter, when the flakes of snow were falling like feathers from the sky, a Queen sat at a window sewing, and the frame of the window was made of black ebony. And whilst she was sewing and looking out of the window at the snow, she pricked her finger with the needle, and three drops of blood fell upon the snow. And the red looked pretty on the white snow, and she thought to herself, 'Would that I had a child as white as snow, as red as blood, and as black as the wood of the window-frame.'* [3]

Keltirilgan misolda deraza yonida tikish tikib o'tirgan qirolichaning qo'liga nina suqulib ketib, uning qo'lidan oqqan qon oppoq qor ustiga tushgani tasvirlangan. Qizil qon oppoq qor ustida chiroyli rang hosil qiladi. Qizil rang esa oppoq qorda go'zal ko'rinadi va u o'zicha: "Farzandli bo'lganimda qordek oppoq, qondek qizil va deraza romidagi yog'ochdek qora bola bo'larmidi", deb o'ylaydi. Ko'rinib turibdiki, bitta ertakning o'zida bir nechta ranglar ishlatilib, turli ma'nolarni anglatib kelmoqda.

"Uyqudagi go'zal" ertagining asosiy qismini pushti va binafsha ranglar egallaydi. Ammo bu yerda pushti va binafsha ranglar poklik va beg'uborlik ramzi sifatida tasvirlanmagan. "Oppoq oy" ertagida ko'proq sariq rang uchraydi. Ammo bu ertakdagi oppoq qor, oppoq choyshablar, oq ilonlar, oq kaptarlar, oqqushlar, oq patlarning barisi soflik va beg'uborlik ramzini ko'rsatib beradi. Qizil qon va qon kabi qizil atirgullar, qorong'i o'rmonlardagi yashil novdalar, qora qarg'alar, qora rangdagi daraxtlar, qora ko'mir, oltin sochlar, oltin rangdagi somon, oltin tojlar, oltin yigiruv g'ildiraklari bularning barchasi bir ertakning o'zida turli xil ma'nolarda talqin etiladi.

Oq, qora va qizil rang alohida mazmun va mohiyatga ega, chunki ular tabiatda kam uchraydi va shuning uchun e'tibordan chetda qolmaydi. Oq - begunohlik ramzi, bo'yalmagan qor rangi, uning ostida butun peyzaj o'zgaradi. Oq kaptar tinchlik timsoli, qora qarg'a donolik timsoli. "Snow White" ertagining ba'zi versiyalarida bu yovuz qirolichaning oppoq qorga qarshi ko'rilgan aksi qora qarg'a, qora daraxt va deraza ramkasidan ko'ra ko'proq keskin kontrastga ega. Qora g'ayrioddiy rang. Aksariyat qushlar jigarrangda va bugungi kunda ham qora qarg'alar va oppoq oqqushlarni kuzatish mumkin.

Kimyoviy bo'yoqlar paydo bo'lishidan oldin, qora rang kiyim uchun qimmat rang hisoblangan va ajralib turgan, ammo ko'pchilik qora rangdagi kiyimlarni kiyishga imkoni bo'lmagan.

Qizil ranglar ichida ko'p ma'noli va eng hissiyotli rangdir. Qizil tug'ilish, yaralar, urushlar, baxtsiz hodisalar, hayot va o'limni ifodalab keladi.

Oltin rangga quyoshning rangi sifatida qaralsa-da, quyosh oltindan ko'ra ulug'vorroqdir. "Singing, Springing Lark" filmidagi malika "quyoshdek porlaydigan yorqin" libos kiyadi,

“Norway qora buqasi” qahramoni esa liboslarda quyosh, oy va yulduzlarning ranglarini ochib berish uchun yorilgan yong‘oqlardan foydalanadi. Oltin yaxshilik, baxt va omadni anglatadi.

Osmon rangi bo‘lgan moviy rang ertaklarda g‘alati darajada kam uchraydi. G‘ayritabiiy ko‘k rang, ya‘ni yalmog‘iz rangi shu nomli (“The witch-light”) hikoyadan tashqari faqat bitta baqa haqidagi qayg‘uli ertakda ishlatilgan sun‘iy obyekt, ko‘k rangli ro‘molcha tasvirida ishlatilgan:

*An orphan child was sitting by the town wall spinning, when she saw a paddock coming out of a hole low down in the wall. Swiftly she spread out beside it one of the blue silk handkerchiefs for which paddocks have such a liking, and which are the only things on which they will creep. As soon as the paddock saw it, it went back, then returned, bringing with it a small golden crown [3].*

*Tarjimasi: Shahar devori yonida ip yigirib o‘tirgan yetim qiz devorning pastdagi teshigidan baqa chiqib kelayotganini ko‘radi. Qiz shosha-pisha baqalar o‘rmlashni yoqtiradigan ko‘k ipak ro‘molchalardan birini uning yoniga yoyib qo‘yadi. Baqa buni ko‘rgan zahoti orqaga qaytib, o‘zi bilan kichik oltin tojni olib keladi (tarjima muallifniki).*

Ertaklarda erkinlik, ozodlik, o‘zgarish, rivojlanish, keng maydon ramzi sifatida oltin rangdan ko‘p foydalanilishini “Oltin qo‘l” ertagi misolida ko‘rib chiqamiz:

*THERE was once a man who travelled the land all over in search of a wife. He saw young and old, rich and poor, pretty and plain, and could not meet with one to his mind. At last he found a woman, young, fair, and rich, who possessed a right arm of solid gold. He married her at once, and thought no man so fortunate as he was. They lived happily together, but, though he wished people to think otherwise, he was fonder of the golden arm than of all his wife’s gifts besides [1;102].*

Ertak qahramon o‘ziga xotin izlab butun mamlakat bo‘ylab sayohat qiladi. U yosh-u qari, boy va kambag‘al, go‘zal va sodda ayollarni ko‘radi, ammo ularning birortasini xotin sifatida tanlay olmaydi. Nihoyat, u o‘ng qo‘li oltindan yasalgan, yosh va boy ayolni uchratadi hamda unga uylanadi. Oltin qo‘lli ayolga uylanib, o‘zini eng baxtli erkak deb hisoblaydi. Ular birgalikda baxtli yashashadi. Atrofidagilarning u haqida boshqacha fikrda bo‘lishlarini juda xoxlasa-da, xotini va barcha sovg‘a-salomlardan ko‘ra uning oltin qo‘lini yaxshi ko‘rardi. Er xotining o‘limidan keyin uning qo‘lini kesib olib uyiga ketadi. Xotining bezovta arvohi shu kechasiyoq, erining oldiga keladi. Er va uning marhum xotini arvohi orasidagi suhbatni quyida keltirib o‘tamiz:

*Pretending not to be afraid, he spoke to the ghost, and said: “What hast thou done with thy cheeks so red?”*

*“All withered and wasted away,” replied the ghost, in a hollow tone.*

*“What hast thou done with thy red rosy lips?”*

*“All withered and wasted away.”*

*“What hast thou done with thy golden hair?”*

*“All withered and wasted away.”*

*“What hast thou done with thy Golden Arm?”*

*“THOU HAST IT!” [1;103.]*

*Tarjimasi:*

*U qo‘rqmagandek qilib, arvoh bilan gaplashdi va “Yonoqlaringni bunchalik qizartirib nima qilding?” deb so‘radi.*

*“Hammasi qurib, yo‘q bo‘lib ketdi”, deb javob berdi sharpa bo‘g‘iq ohangda.*

*Qizil lablaringga nima qildi?*

*“Hammasi qurib, yo‘q bo‘lib ketdi.”*

*“Oltin sochlaringga nima qildi?”*

*“Hammasi qurib, yo‘q bo‘lib ketdi.”*

*“Oltin qo‘lingga nima qilding?”*

*“BU SIZDA!” [Tarjima muallifniki]*



Keltirilgan dialogda red cheeks, rosy lips, golden hair, golden arm birikmalari ishlatilgan bo‘lib, mazkur qizil, oltin ranglardan erning xushomadgo‘yiligini, xotinning esa norozilik alomatlarini, xullas, erning marhum xotini bilan suhbatini qanday yakunlanganini bilib olish qiyin emas, chunki bezovta va qahrangan arvoh, qo‘lini kesib olgan erini tinch qo‘yishni istamaydi.

Mazkur ertakning boshlanishida oltinrang baxt va farovonlik ramzida ishlatilgan bo‘lsa, ertak yakunida o‘lim, ayriliq ramzini ifodalab kelgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, ingliz ertaklarida ranglar goh ijobiy, goh salbiy ma’nolarda ifodalangan, muayyan darajada insoniyat madaniyatini aks ettirgan holda turli madaniy g‘oyalari, his-tuyg‘ular va qarashlarni namoyon etib, kitobxonni ertaklarga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Joseph Jacobs. English Fairy Tales and More English Fairy Tales. – Oxford, England, 1911. – 408 p.
2. www.CALD Cambridge Advanced Learners’ Dictionary. Third edition
3. <https://steelthistles.blogspot.com/2014/04/the-colours-in-fairytales.html>

### **ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШДАГИ ЕТАКЧИ УСУЛЛАРГА ХОС АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАР**

**Файзуллоев О.М.**

БухДУ доценти

**Мухамадова А.О.**

БухДУ 3-курс талабаси

Фольклор асарлари таржимаси амалиётида таржимонлар кўплаб муаммоларга дуч келади. Бу муаммонинг бир учи лингвокультуремалар таржимаси жараёни билан боғлиқлигини алоҳида айтиб ўтиш жоиз.

Оғзаки яратилган матнга хос хусусиятлар, образ ва воситалар, ишора ва белгилар, рамз ва тимсоллар, энг муҳими, уларнинг тилидаги халқона қочиримлар, ўтмиш предметларини ифодаловчи айрим тарихий сўзлар, архетиплар, маъно кўчиш ва кенгайиш ҳолатлари каби жиҳатларни англамаган таржимон, тайинки, асар моҳиятини тўла очиб бериши қийин кечади. Бунда таржимоннинг фақат луғатлар билан ишлаши етарли бўлмайди. У бунда халқ тарихи, маданияти, адабиёти, тили билан боғлиқ хусусиятларни яхши билиши талаб этилади. Агар таржимон фольклорий билим, тарихий-этимологик тайёргарлик билан ишламаса, кутилган натижага эриша олмайди. Агар таржимон хатоликка йўл қўйса, рецепция жараёнини қийинлаштириш баробарида, асар мазмунининг тамомила тескари тушунилишига йўл қўяди.

Шундан келиб чиққан ҳолда, фольклор асарларидаги лингвокультуремалар таржималарини прагматик мувофиқлик билан амалга ошириш масалаларини ҳал этиш ва бунда мутаржимлар маҳоратини, етакчи таржима усуллари турларини, уларнинг хусусият ва тамойилларини тадқиқ қилиш зарурдир. Таржима амалиётида мутаржимлар энг кўп қўллаган ва қўллаши мумкин бўлган таржима усуллари қуйидагилар экани кузатилади:

1. **Муқобилини (эквивалентини) топиш усули.** Баъзи сўзларнинг (ҳатто айрим сўз-реалияларнинг ҳам) таржима тилида муқобил варианты, яъни асари таржима қилинаётган халқ тилида ифода топган сўз ёки бирикманинг маъно ва мазмун жиҳатидан мос кўриниши бўлади. Улар таржима қилиниши лозим бўлган сўзнинг айнан маъно ва мазмунини акс эттира олиши билан муқобиллик касб этади.

Таржимоннинг айнан ана шундай сўзларни билиши ва топа олиши унинг маҳоратини белгилайди. Айниқса, реалияларнинг таржима тилида айнан муқобилини бериш, таржимонга шу тилни мукамал ўзлаштирган бўлиши ва унинг маъно-мазмунини тўла акс эттира оладиган сўзни топиш вазифасини юклайди. Таржима жараёнида сўз ва ибораларнинг муқобилини топиш усули **адекват таржимага** эришишнинг муҳим шартларидан биридир.

2. **Сўзма-сўз (калькалаш) таржима усули.** Бунда бир тилда мавжуд сўз таржима тилидаги айнан шундай сўз билан алмаштириб қўя қолинади. Ҳолбуки, бунда сўз ва концептни фарқлашга тўғри келади. Негаки, бир тилдаги сўз бошқа тилдаги сўзга шаклан мос келса-да, маъносининг кенглиги жиҳатидан фарқланиши мумкин. Шунинг учун таржимон сўзма-сўз таржима усулига ёндашганла, агар сўз кетидан қувадиган бўлса, маъно бузилишига йўл қўйиши эҳтимолдан холи эмас.

3. **Сўзларни қўшиб таржима қилиш усули.** Таржимонлар баъзан матнда йўқ айрим сўзларни таржима матнига киритиб, қўшиб таржима қиладилар ва шу йўл билан матн мазмунини очиб беришга уринадилар. Бу ҳам аслида асосий табдил усулларидан биридир.

4. **Сўзларни тушириб қолдириш усули.** Бунда таржимонлар баъзи сўзларнинг муқобилини тополмаса, ундан воз кечиш, уни ўз яратаётган таржима матнидан атай тушириб қолдириш йўлидан боради. Тўғриси, таржимада сўз-реалиялар тушириб қолдирилса, матн мазмунига путур етади.

5. **Транслитерация усули.** Таржимада айнан бир миллатга мансуб сўз-реалияни қайта тиклашга имкон бўлмагани учун фойдаланиладиган ҳарфий усул бўлиб, унга кўра ўша сўз-реалия ёзувда таржима тилининг ҳарфлари орқали ифода этилади. К.Жўраевнинг ёзишича, таржимада транслитерация методи кўпроқ география ва этнографияга хос сўзларни ўгиришда қўлланади. Чунки айти географик жой номларининг ҳамда этнографизмларнинг, шунингдек, лингвокультурема, миллий реалияларнинг инглиз тилида эквивалентлари йўқ. Шу сабабдан таржимон транслитерация усулини қўллаш йўлидан боришга мажбур бўлади ва уларни таржимада айнан аслиятдагидек сақлашга уринади.

Таржима матнларида киши исмларини қайта тиклаш ҳам жиддий муаммо саналади. Шунинг учун бунда ҳам транслитерация усули мақбул ҳисобланади. Бироқ киши исмларини (антропонимларни) транслитерация усули орқали беришда таржимонлар олдида алифболар ўртасидаги кескин фарқ муаммоси кўндаланг туради.

Қ.Мусаев айтганидек: “Транслитерация усулидан фойдаланишнинг асосий сабаби – аслиятда қўлланилган миллий хусусиятли лисоний воситаларнинг таржима тилида мавжуд бўлмаганлиги туфайли аслиятнинг миллий хусусиятини таржима тили соҳибларига хос хусусият билан алмаштириб қўйиш ёки таржимани умуман бундай хусусиятдан маҳрум этиш каби ҳолатларга йўл қўймасликдан иборатдир. Транслитерация халқлар турмуш тушунчаларини акс эттирадиган хос сўзларни таржимада талқин этишнинг энг самарали усулларидан бўлиб, унинг ёрдамида аслиятнинг миллий хусусияти сиқик ҳолда талқин этилади”.

Таржима қилиш имкони бўлмаган миллий реалияларни таржимада қўллашда транслитерация усулидан фойдаланишнинг маъқуллиги ва самарадорлиги ҳақида Ҳ.Ҳамроев шундай дейди: “Транслитерация қўлланилиши таржима тилида реалияларга тўғри эквивалентларнинг йўқлиги билан шарҳланади. Бу ҳол биринчидан, икки халқнинг тараққиёт йўллари ва ҳаётининг ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлари турлича бўлганлиги, иккинчидан, реалияларнинг кўп ишлатилиши таржима тили уларни ҳазм қила олмаслиги ва ўқувчи учун реалиялар ажиб тушунмовчиликлар кетириши билан тушунилади”. Айти пайтда бу фикрни Ш.Исақова ҳам маъқуллаб ёзади: “Ҳар бир халқнинг фақат ўзигагина хос бўлган миллий сўзлар – реалияларни транслитерация йўли билан берган маъқул. Чунки транслитерация миллийликка хос тушунчаларни таржимада талқин қилишнинг энг қулай йўллари билан бири бўлиб, асл нусханинг миллий руҳини, тарихий вазият ҳамда персонажлар ижтимоий муҳитини сиқик ҳолда қайта тиклайди”. Бундай алоҳида таъкид Р.Ширинова, Р.Дониёров, Д.Ҳошимова тадқиқотларида ҳам кузатилади. Тадқиқотчилар фикрича, ҳар бир халқнинг миллий ўзига хослигини ифодаловчи, муқобилсиз сўзлар таржималарда транслитерация усули орқали берилиши мақсадга мувофиқдир. “Ҳар бир халқнинг миллий ўзига хослигини ифодаладиган специфик сўзларни таржима қилинаётган асарда транслитерация қилиб беравериш керак;

бунинг учун эса ҳар бир халқнинг миллий хусусиятини акс эттирувчи сўзларни оддий, миллий реалияларни акс эттирмайдиган сўзлардан фарқлай олиш ва уларни таржима қилишга йўл қўймаслик керак”.

**6. Таржимада синоним сўзлардан фойдаланиш усули.** Бу усулдан қачонки сўз ва сўз бирикмаларининг муқобил варианты топилмаса, уларнинг ўрнига маънодош сўзларни қўллашга тўғри келиши эҳтиёжи туфайли фойдаланилади. Аммо бунинг натижасида рецепторга тушунарсиз жумлалар пайдо бўлиши мумкин. Бундай муаммолар эса кўпинча асл матнда хос сўзлар учраганда туғилади. Т.Сайдалиев таржимада синонимлардан фойдаланиш зарурати ҳақида алоҳида тўхталиб, шундай дейди: “Сўз ва иборалар таржимасида синоним сўзлардан унумли фойдаланиш бу борада таржимоннинг юкини бир қадар енгиллаштириши мумкин”. Матни аслиятдагидек ифодалаш учун сўзнинг аниқ маъносини аниқлашчи синонимини топишга тўғри келади.

**7. Изоҳ келтириш усули.** Таржима жараёнида муқобили, эквиваленти топилмаган сўз ва тушунчаларни рецепторга тушунарли қилиб етказиш мақсадида қўшимча изоҳ сўз, изоҳ жумла, изоҳловчи тағмат келтириш усулидир. Агар таржима жараёнида хос сўзларни ўгиришда таржима тилида келтириладиган вариантлар уларнинг маъносини тўла аниқлаш олмаса, уларга изоҳ бериш зарурати туғилади. Бошқа ҳолатларда эса изоҳ ва шарҳлар бериш шарт ҳисобланмайди. Кўпинча реалияларни беришда бу усул жуда қўл келади. Негаки, реалияларни таржима матнларида келтиришда, уларнинг аниқлаётган маънолари муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун уларга матн остида изоҳ ва шарҳлар келтириб ўтиш, китобхон учун ўша реалиянинг прагматик хусусиятларини аниқлашда муҳим роль ўйнайди. Таржимачилик амалиётида бу усул анча унумли экани кузатилади. Кўпинча сўз-реалиялар таржимада ё транслитерация усули билан, ё изоҳ ва шарҳлар воситасида талқин этиш заруратини туғдиради.

Таржима матнини изоҳ ва шарҳлар билан таъминлаш рецептор учун қулайлик туғдириш йўллари билан бири бўлиб, у орқали таржимада қайта яратилган матннинг тушунарли бўлиш сифати ортади.

**8. Трансформация усули.** Унинг лексик трансформация ва грамматик трансформация каби кўринишлари мавжуд. Айтайлик, таржимада қиёсий тасвирларни акс эттиришда грамматик трансформациянинг синтактик мослашув туридан фойдаланиш мумкин.

**9. Ижодий таржима усули.** Бунда таржимон матнга ижодий ёндашади. Агар бунда ижодий ёндашув меъёри ортса, натижа кўнгилдагидай бўлмайди. М.Жавбўриев таъкидлаганидек: «Таржимон ижодкорона иш кўришга ҳақли, лекин ўз меъёрида» бўлиши лозим.

**10. Генерализация усули.** Таржимада маънони умумлаштириш усулидир. Ундан кўпинча қиёсий тасвирлар таржимасида фойдаланилади. Бунда таржимон генерализация трансформация усулига ҳам таянади. Бу усул: «конкретлаштиришнинг акси бўлиб, аслиятдаги тор маъноли сўзни таржима тилидаги кенг, умумлаштирувчи сўз билан алмаштиришни кўзда тутати».

**11. Конкретизация (аниқлаштириш) усули.** Таржимада конкретизация (аниқлаштириш) усули жуда муҳим ўрин тутати. У лексик-семантик трансформациянинг асосий турларидан биридир. Бу ҳақда Ғ.Раҳимов шундай изоҳ келтиради: “Конкретлаштириш лексик-семантик трансформациянинг асосий турларидан бири бўлиб, луғавий маънони таржима тилида конкретлаштириш, генерализациялаш (умумлаштириш), модуляция (маъносини кенгайтириш) ҳисобланади». Ш.Сироҷиддинов эса у ҳақда шундай ёзади: “Таржимада прагматик салоҳиятни маромига етказиш йўлида таржимон конкретизация (аниқлаштириш) каби бошқа усуллардан ҳам фойдаланиши мумкин. Лозим бўлган тақдирда турли изоҳлар бериш ва икки маданият ўртасида коммуникацион яқинликка олиб келадиган ҳар қандай имкониятдан ижодий фойдаланиш даркордир.”.

**12. Таржимада модуляция усули.** Таржимада сўз ва ифодаларнинг маъносини кенгайтириб бериш усулидир.

13. **Таржимада шартли муқояса усули.** Таржима матнида тасвирлаб келтирилаётган предмет ва ходисаларнинг таржимон томонидан ички қиёсланишидир. Шу асосда таржимон муқоясавий тасвирда қиёсланаётган объектларнинг хусусиятларига алоҳида диққат қаратади. Натижада таржима матни аниқ ва тушунарли бўлади. Бунга эришиш учун таржимон юксак билим, тажриба, маҳорат ва истеъдод соҳиби бўлмоғи лозим. Д.Ҳошимованинг фикрича: “Таржима жараёнида муаллифнинг шартли муқояса усули хис қилинмас экан, таржима мужмал ва тушунарсиз бўлади. Агар ўзи истаган сўздан фойдаланиб кетаверса, оқибатда муаллиф фикрини баён этувчи, шартли муқоясани ифодаловчи сўзлар қолиб кетса, албатта, таржимада ғализлик юзага келади, аслиятга сингиб кетган муаллиф маҳоратига путур етади”.

14. **Сўз аналогияси бўйича ёки маънони яқинлаштириб таржима қилиш усули.** Агар таржима қилинаётган тилда аслиятда қўлланган сўзнинг муқобили бўлмаса, шу йўлдан фойдаланиб, таржима жараёнида ўша муқобилсиз сўзнинг маъносига ўхшаш ва яқин сўз танланади”.

Хулоса қилиб айтганда, фольклор асарларининг таржима матнлари устида ишлаш анча мураккаб жараён бўлиб, уларда ифодаланган реал ёки романтик воқеликни, образ ва тушунчаларни, ахлоқий-эстетик қарашларни ёрқин акс эттириш учун мутаржимлардан янги изланишлар олиб бориш, ўзига хос усулларни излаб топиш талаб этилади.

#### **Адабиётлар:**

1. Ҳошимова Д. – Б.186.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. – Б.93.
3. Ҳамроев Ҳ., Исақова Ш. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши. Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2004. – Б.115-116.
4. Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.16.; 1Дониёров Р. Бадиий таржимада миллий хусусиятларни акс эттириш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1962. – №5. – Б.73; Д.Ҳошимова. – Б.239.
5. Дониёров Р. Бадиий таржимада миллий хусусиятларни акс эттириш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1962. – №5. – Б.73.
6. Сайдалиев Т. Бобур лирикаси бадииятининг русча таржималардаги талқини: Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2002. – Б.106.
7. Жавбўриев М., Ғафуров И. Таржиманинг ижодий жараёнлари ва прагматизм // Қиёсий таржимашунослик ва таржима назарияси муаммолари. (Республика илмий анжумани материаллари). – Тошкент, 2007. – Б.8.
8. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – Б.131.
9. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б. 31.
10. Ҳошимова Д. – Б.125.
11. G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo`stoni, 2012. – Б.121.

#### **РЕАЛИЯЛАРНИ ТАРЖИМАДА ҚАЙТА ТИКЛАШ**

**Файзуллоев О.М. БухДУ доценти  
Мухамадова А.О. БухДУ 3-курс талабаси**

Реалиялар матннинг прагматик хусусиятларини янада ёрқин очиб беришга олиб келади. Улар воқеаларни реал тасвир этишда, шу халққа хос бўлган расм-русум, урф-одатларни акс эттиришда фаол намоён бўлади. «Реалиялар асар тилининг ажралмас қисми бўлиб, улар ёрдамида муаллиф қаҳрамон образини яратади, халқнинг миллий хусусиятини тасвирлаб беради. Улар бадиий асарнинг миллий колоритини ифода этади, турли услубий

вазифаларни бажаради, ҳодиса ва предметларнинг хусусиятини ҳаққоний, тўғри тасвирлашга ёрдам беради» деб ёзади бу ҳақда таржимашунос Ҳ.Ҳамроев.

Бир халқ урф-одати иккинчи бир халқ урф-одаида такрорланмаслиги ёхуд айнан ўзидек акс этмаслиги мумкин. Шарқ халқларининг ҳаёт тарзи европа халқларининг турмуш тарзидан жуда катта фарқ қилади. Реалияларни таржимада қайта тиклаш қизиқарли, айти пайтда, мураккаб ва мунозаралидир. Бир мамлакатдан иккинчи бир мамлакатга бориш ва унга хос ҳаёт тарзига кўникиш инсондан жуда катта матонат ва масъулият талаб этади. Таржимада реалияларни ифодалаш мутлоқ прагматикага асосланиши лозим. Уларни таржима матнида қўллаётган чоғида таржимон реалияга мос муқобил топа олмайди. Уларни транслитерацияда беришга мажбур бўлади. «Транслитерация усулидан фойдаланишнинг асосий сабаби – аслиятда қўлланилган миллий хусусиятли лисоний воситаларнинг таржима тилида мавжуд бўлмаганлиги туфайли аслиятнинг миллий хусусиятини таржима тили соҳибларига хос хусусият билан алмаштириб қўйиш ёки таржимани умуман бундай хусусиятдан маҳрум этиш каби ҳолатларга йўл қўймасликдан иборатдир. Транслитерация халқлар турмуш тушунчаларини акс эттирадиган хос сўзларни таржимада талқин этишнинг энг самарали усулларида бўлиб, унинг ёрдамида аслиятнинг миллий хусусияти сиқик ҳолда талқин этилади». Дарҳақиқат, таржима тилига ўгирганда улар шу халққа хос тушунчани англатиши зарур. Акс ҳолда ўқувчи чалғийди. Аслият прагматикасини англамайди. «Маълумки, ҳар қандай бадиий асар, биринчи навбатда, шу асар ёзилган тилда сўзлашувчи китобхонлар оммасига мўлжалланади. Шу сабабли уларда айнан шу халққа мансуб бўлган ижтимоий-сиёсий, маданий-маиший турмуш тарзи, анъана, кийим-кечакка, таом ва шу кабига оид воқеа- 227 ҳодисалар баён қилинади. Таржимон бундай асарни таржима қилишга киришар экан, аслият ва таржима тилидаги прагматик номувофикликларни ҳисобга олиб, тегишли ўринларда матннинг тўла тушунилишига эришиши учун зарур ўзгартиришлар киритишга мажбур бўлади». Шу билан биргаликда назарий муаммоларни ҳам акс эттиради. Дарҳақиқат, бундай ҳолатларда ҳар бир реалия таржимасига эътиборли бўлишни талаб этилади. Буларни таржима матнида қайта тикланишида матнда ифодалаётган маъно ва мазмунини назардан четда қолдирмаслик лозим. Таржима матнида реалиянинг ҳам муқобили кўрсатилиши мумкин, лекин айнан шу миллатга мансублик даражасида қайта тиклашга имкон бўлмагани учун уларни транслитерация орқали ифодалаган маъқул. Реалияларни таржима матнида ифода этишда, уларнинг матнда ишлатилишига эътибор қаратиш ва англатаётган маъноларини назардан четда қолдирмаслик керак. Ҳар бир ифодаланаётган реалия таржима матнларида прагматик мувофикликни сақлаши ва уларни ўзга халқлар учун тушунарли бўлиши, яъни прагматик хусусиятларни акс эттириши таржима қондаси даражасидаги шартлардандир. Шуни ҳам айтиб ўтиш жоизки, реалияларга матн остида изоҳ ва шарҳлар келтирилиб, китобхон учун реалиянинг прагматик хусусиятларини очиб бериш зарур. Зотан, реалияларни таржима матнларида келтиришда, уларнинг англатаётган маънолари муҳим аҳамият касб этади. Реалияларнинг бирини иккинчиси билан алмаштириш ёки тушириб қолдирилиши матн мазмунига путур етказди. Китобхон учун бу жумла тушунарсиз бўлиб, прагматик номувофикликни келтириб чиқаради.

Таржимашунос олим Ш.Сирождиновнинг таъкидлашича: «Таржимон ўз олдида ўзбек мумтоз адабиётини таржима қилиш мақсадини қўяр экан, биринчи навбатда, прагматик таъсир кўрсатиш йўллари излаши, ўзбек рецептори каби хорижлик рецептор ҳам бадиий-эстетик завқни туюши учун қандай янги усул ёки восита лозим бўлса ишга солиши лозим. Таржиманинг прагматик қиммати ана шундагина ошади». Ҳақиқатдан ҳам, таржимондан ҳар бир реалиянинг таржима матнида акс этиши ва муқобил вариантини келтиришда, шу тилда ифода этилаётган реалиянинг айнан шу халқ тилида маъно ва мазмунини ифода эта оладиган сўзни топа билиш талаб этилади. Реалияларнинг таржима тилида айнан муқобилини бериш, таржимондан шу тилни мукамал ўзлаштирган

бўлишни ва унинг маъно-мазмунини тўла акс эттира оладиган сўзни топиш вазифасини юклайди.

Реалияларни таржимада қўллашда транслитерация усулидан фойдаланишнинг маъкуллиги ҳақидаги юқоридаги тўхтамларимизни таржимашунос Ҳ.Ҳамроев тўла-тўқис қўллаб-қувватлайди. Чунки, ҳақиқатдан ҳам, асл реалияларни таржима қилиш мумкин эмас: «Транслитерация қўлланилиши таржима тилида реалияларга тўғри эквивалентларнинг йўқлиги билан шарҳланади. Бу ҳол биринчидан, икки халқнинг тараққиёт йўллари ва ҳаётининг ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлари турлича бўлганлиги, иккинчидан, реалияларнинг кўп ишлатилиши таржима тили уларни ҳазм қила олмаслиги ва ўқувчи учун реалиялар ажиб тушунмовчиликлар кетириши билан тушунилади». реалиялар кўпроқ транслитерация усулида берилган. Уларни китобхон учун тушунарли бўлишини кўзлаб изоҳ ва шарҳлар воситасида таъминлаган. Таржимон таржима матнида хос сўзларнинг рецепторга тушунарсиз бўлмаслиги учун аслият матни тилида сўзлашувчи миллатнинг урф-одатларидан хабардор бўлиш даркор. Агар реалиялар таржима тилида нотўғри талқин этилса, таржиманинг умумий мазмунига путур етказди. Таржималарнинг бирида тўлиқ иниъкосини топмаган реалиялар иккинчи бир таржимада ўз ифодасини топмаслиги мумкин. Баъзан таржималарда мутаржимлар ижодқорликка берилади, айримларида шарҳ ва изоҳларга кенг ўрин беради. Аслият матнининг мазмунан бошқа асарга айланишига сабаб бўлади. Хос сўзларни таржима матнида ифодалаш учун улар англатаётган маъно ва мазмунни тўла англаб етиш зарур. Уларнинг айнан маъно ва мазмунини акс эттирувчи муқобил сўз топилмаса, бу хос сўзларни транслитерация орқали қайта яратиб, изоҳ ва шарҳлар бериб ўтиш керак. Таржима матнида хос сўзларни келтиришда таржима тилида келтириляётган вариантлар баъзан уларнинг маъносини тўла англата олмай қолади. Бундай ҳолатларда уларга изоҳ бериш зарурати туғилади. Ҳар доим изоҳ ва шарҳлар бериб уларнинг ўрнини тўлдириш шарт эмас, айрим ҳолларда уларни муқобил вариантлари бўлса келтириш керак бўлади. «Ҳар бир халқнинг фақат ўзигагина хос бўлган миллий сўзлар – реалияларни транслитерация йўли билан берган маъкул. Чунки, транслитерация миллийликка хос тушунчаларни таржимада талқин қилишнинг энг қулай йўллари билан бири бўлиб, асл нусханинг миллий руҳини, тарихий вазият ҳамда персонажлар ижтимоий муҳитини сиқик ҳолда қайта тиклайди». Реалиялар таржималарини амалга оширишда транслитерация усулини қўллаш самарали ҳисобланади.

#### **Адабиётлар:**

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. – Б.93.
2. Ғ.Раҳимовнинг ушбу фикрлари бевосита таржима амалиётидан келиб чиқади.
3. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.33.
4. Исақова Ш. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши. Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2004. – Б.115-116. 242

### **O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA FITONIMLARNING KO‘CHMA MA’NOLARI LINGVOPOETIKASI**

**Muqimova Gulnora Rashidovna,**

BDU mustaqil tatqiqotchisi,

Buxoro viloyat XTXQTMOHM

Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi.

gulrash82@mail.ru. tel: 907457798

**Annotatsiya.** Inson tabiat qo‘ynida ekan, xohlaydimi yo‘qmi u tabiatga murojaat qiladi. Tabiatda bo‘ladigan har bir voqea va hodisalar insoniyatning nutqida yanada sayqallanadi. Ayniqsa fitonimlarning xalq og‘zaki ijodida ko‘chma ma’noda kelishi leksikaning boyishiga xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, Bahor sayllarida «Boychechak xabari» yoki «Boychechak»,

«Lola», «Guli surx» «Qizil gul» kabi bolalar qo‘shiqlari aytiladi. Masalan “Boychechak” – bolalar kuylaydigan mavsumiy va marosim qo‘shig‘i. Unda ifodalangan boychechak obrazi ko‘chma ma’noda ishlatilib, xalqning o‘tmishidan xabar beradi.

**Kalit so‘zlar:** mutolaa, mutolaa madaniyati, badiiy matnlar, folklor, janrlar, fitonim.

Ma’lumki metafora ma’lum bir narsa va buyumning nomini boshqa buyum va narsaga biror tomondan o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘chirish ma’nosini anglatadi va bunda ifodalangan tasvir tushunchalardan birining muhim sifatini ta’kidlaydi, inson qiyofasi, jonli va jonsiz tabiat dunyosi, inson faoliyati sohalari, shuningdek inson tomonidan ishlab chiqarilgan narsalar bilan taqqoslanadi. Inson shu tabiat qo‘ynida ekan, xohlaydimi yo‘qmi u tabiatga murojaat qiladi. Shu murojaat xalq og‘zaki ijodida «Boychechak xabari» yoki «Boychechak sayli», «Lola sayli», «Guli surx» sayli «Qizil gul sayli» kabi sayllarda bolalar qo‘shiqlari aytiladi. Bu qo‘shiqlar ma’lum bir mavsumda aytiladi. Bu qo‘shiqlarda aynan fitonimlarning kelishi insonni tabiat bilan yanada bog‘laydi va har bir fitonim ishtirok etgan qo‘shiqlarning o‘z tarixi bor. Shuningdek, qo‘shiqda ifodalangan fitonimlar metafora yo‘li orqali ko‘chgan. Masalan “Boychechak” – bolalar kuylaydigan mavsumiy va marosim qo‘shig‘i. Boychechak qadimda Navro‘z elchisi sifatida bolalar quvonchiga sabab bo‘lgan.

“Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak”

naqarotining mazmun mohiyati katta-yu kichikka birdek tushunarli. Biroq qo‘shiqni yod olgan, zavqqa to‘lib kuylagan kichiktoylar uning mazmunini teran anglaganlaridagina xalq madaniy tarixi, milliy qadriyatlarimizdan voqif bo‘ladilar. Qo‘shiqning birinchi bandi shunday boshlanadi:

Boychechagim boylandi,  
Qozon to‘la ayrondir.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozon-tovog‘ing vayrondir.

Qo‘shiqda qadimgi ajdodlarimizning ilk bahor kunlaridagi “qozon to‘ldi” marosimi va bahor kelganiga ishora qilinayotir. Negaki, boychechak bahor elchisi ekan, endi yaylovda o‘t-o‘lanlar ko‘karadi, sigir-echkilar suti ko‘payadi, issiq boshlanishi bilan hamma ayronxo‘rlikka o‘tadi. Kishilarning qozon to‘ldirib ayron tayyorlashi va bir-birlariga ulashishi xayrli udumlardan sanalib, xalqda uni bir-biridan qizg‘anganda ro‘zg‘orga putur etishi mumkinligi aytilgan. Boychechak haqidagi qo‘shiqlarning genezisi juda qadimiy davrlar bilan bog‘liqligi qo‘shiqning keyingi bandida ko‘rinadi:

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog‘ochga osdilar,  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

Bu tarixan hosildorlik kulti bilan bog‘liqligini zamondosh o‘quvchiga tushuntirish lozim. Folklorshunos olimlar e’tiroficha, o‘simliklar kultining paydo bo‘lishi ibtidoiy madaniyat davri bilan bog‘liq. “Arxaik dunyoqarashda, – deb yozadi A.Musaqulov,– butun tabiat kabi o‘simliklar ham jonli va ongli deb tushunilgan va ko‘pgina xalqlar o‘zlarining ilk ajdodlarini o‘simliklar totemi bilan bog‘lashgan” *Boychechak – badavlat, muqaddas, ilohiy gul degan ma’nolarga ham ega. Olimlar ta’kidicha, qo‘shiqlarda boychechak to‘ng‘ich go‘zal qizga o‘xshatiladi.* Yuqoridagi misralar ham shu ma’noda juda qadim davrlarda ko‘klamgi marosimlarda qizlarni qurbonlik qilish marosimidan nishona ekani e’tirof etilgan. Qo‘shiqdagi:

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog‘ochga osdilar.  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

misralari shunday talqinga asos bo‘lgan. Zotan unda ta’riflangan boychechak – erta bahorda ochilgan gul ekanligi bilan birga tarixiy hodisalarning umumlashma obrazi hamdir. Qo‘shiq tugagach, boychechakxonlarga sovg‘a-salomlar berishgan. Shu ma’noda:

Boychechagim boylandi,  
Ko'chama-ko'cha aylandi.  
Boychechagim ko'k somsa,

Cho'ntaklargay joylandi,– misralari orqali bolalarning ilk boychechakni olib, hovlimahovli suyunchi so'rashi, keksalar uni yuzlariga sutib, "omonlik-omonlik",– deya eguliklar, pullar berishlari, ko'k somsalar pishirishlari poetik ifodalangan.

Xulosa. Bizdagi mavjud ertak, doston, qo'shiq va boshqa janrlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, folklor asarlarida ko'proq xalqimizning samoviy jismlar, o'simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan bog'liq eng qadimgi tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Bu tasavvurlar tilimizdagi ko'plab so'zlarning ko'chma ma'noda kelishiga, obrazli badiiy tafakkur tarzining shakllanishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev. M, Eshonqulov.J, Folklorshunoslikka kirish. ( O'quv qollanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 180 bet.
2. Mumatov. A. B. Zamonaviy lingvistika o'quv qo'llanma. Toshkent.: "Noshir" nashriyoti, 2019. 168 bet.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: - T.: Mumtoz so'z, 2010. - 228 b.
4. . Mahkamov. N, I. Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 2013
5. Oq olma, qizil olma. - T., 1972. - B. 86
6. Ochilov. E. Umrboqiy qo'shiqlar. T.: "Sharq", 2002–224 b.
7. Safarov, Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: T.: Musiqqa, 2010. 368 b.

## "FRANSUZ VA O'ZBEK ERTAKLARINING QIYOSIY TAHLILI ("UCH OG'A- INI BOTIRLAR" VA "ETIK KIYGAN MUSHUK" ERTAKLARI MISOLIDA)"

**Rustamova Feruzabonu,**  
*BuxDU, o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Badiiy adabiyotda o'zining salmoqdorligi bilan ajralib turadigan xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, ertaklar bolalarni to'g'ri tarbiya qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ertaklarning turmush tarzidagi asosiy roli yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishi uchun zamin hozirlashdan iboratdir. Maqolada o'zbek va fransuz xalq ertaklari bo'lmish "Uch og'a-ini botirlar" hamda Sharl Perroning "Etik kiygan mushuk" ertaklarining o'xshash jihatlari qiyoslandi. Turli madaniyat, turli din vakillari tomonidan yaratilgan ertaklarda bir qancha o'xshashliklar mavjudligini dalillar asosida keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, madaniyat, ertak, janr, ijobiy kuchlar, yaxshilik, qahramon, taqdir, afsonaviy hodisalar, badiiy adabiyot, voqealar, meros, tegirmonchi, hayotiy tajriba, millat, urf-odat.

Xalq og'zaki ijodi juda katta madaniy merosga ega. Undagi janrlarning har birida o'zgacha bir salmoq va rang-baranglik mavjud. Xalq og'zaki ijodidagi eng qiziqarli va sirli janr ertakdir. Ertakni nafaqat bolalar balki kattalar ham sevib tinglaydilar. Shuning uchun ham ertaklar mazmunan boy, ta'sirchan va betakror janr hisoblanadi. Ertaklarda bir qator xususiyatlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi hamisha xalq hayoti, dunyoqarashi, urfodatlar bilan chambarchas bog'lanishidir. Insonlarning ertaklarga yoshligidan to umri davomida murojaatining sababi, ertaklar ularga ham axloqiy, ham ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir.

Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Butun dunyo xalq ertaklarida el-yurtini asrab-avaylovchi, mard, jasur, har qanday qiyinchiliklardan o'ta oladigan qahramonlar ulug'lanadi, yaxshilik, albatta, yomonlik ustidan g'alaba qozonadi. Ertaklar barchaga birdek yetib borishi uchun, ayniqsa, yosh kitobxonlar qalbiga tez singishi uchun sodda va tushunarli bo'ladi. Ertakning yana bir muhim xususiyati



shundan iboratki, u bolalarni jonivorlarni asrab-avaylashga, tabiatni sevishga, unga nisbatan g'amxo'rlik qilishga da'vat etadi.

Xalqimizda "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" degan naql bor. Ertaklar shunchaki bir xalq og'zaki ijodining bir janri bo'lib qolmay, balki insonlarni ezgulikka, yaxshilikka undovchi, ularga turli qahramonliklar orqali zavq-shavq ulashuvchi ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dunyoda xalq va elatlar ko'p bo'lgani singari ularning adabiyoti ham turlichadir. Ammo har birining xalq og'zaki ijodi va shuningdek o'z bolalariga aytib beruvchi ertaklari mavjuddir. Har qaysi millatning ertaklari ming yillar avval to'qilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib yashab keladi. Undagi qahramonlar, afsonaviy hodisalar millatning qon-qoniga singib ketadi.

Sharq va G'arb turfa millatlar, turfa tushunchalar, bo'lsa-da, ularning madaniy aloqalari mustahkamligini, qadim-qadimdan bu aloqalari mavjudligini ertaklardagi o'xshashliklar orqali bilish mumkin. Jumladan, fransuz yozuvchisi Charl Perro qalamiga mansub "Etik kiygan mushuk" ertagi va o'zbek xalq ertaklaridan o'zining sermazmunligi bilan ajralib turuvchi "Uch og'a-ini botirlar" ertagida bir qancha o'xshash jihatlari mavjud.

Birinchiidan, "Uch og'a-ini botirlar" ertagida voqealar uch aka-uka o'rtasida bo'lib o'tadi. Ertakning nomidan ham bilish mumkin-ki, unda uchta og'a-ini asosiy qahramonlardir. Charl Perroning "Etik kiygan mushuk" ertagida ham tegirmonchining uch o'g'li va ularning kelgusi taqdiri haqida gap boradi. Ikkala ertakda ham boshlanma deyarli bir xillik aks etgan: "Bor ekan, yo'q ekan, bir zamonda bir kishi bo'lgan ekan".

Ikkinchiidan, yuqorida tahlilga tortilgan ikkala ertakda ham ota obrazi mavjud bo'lib, epizodik obraz sifatida beriladi. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida ota "boy ham, kambag'al ham emas ekan" deya juda qisqa, ammo tushunarli qilib ta'riflanadi. Bundan ko'rinadiki, oila o'rtahol darajada. "Etik kiygan mushuk" ertagida esa uch aka-ukaning otasi tegirmonchi bo'lib, ularning turmush darajasi ham "Uch og'a-ini botirlar" ertagi bilan bir xil.

Uchinchiidan, har ikkala ertakda qoldirilgan meros hamda uning taqsimlanishi masalasi ba'zi jihatlari bilan farq qilsa-da, lekin mazmunan o'xshash deyish mumkin. Masalan, "Otasi bir kuni ularni oldiga chaqirib, har birining peshanasini silab: -O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdani keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchiidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim - quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchiidan, yarog' bilan tanishtirdim - yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchiidan, qo'rqitmay o'stirdim - qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling - bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang - xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang - baxtsiz bo'lmaysiz. Bundan boshqasini o'zingiz biling. Sizlarga qora toyni, saman toyni, ko'k toyni asbobanjomlari bilan tayyorlab qo'ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'ldirdim. Baxtingiz yo'lda, topib olmoq uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing", - tarzida "Uch og'a-ini botirlar" ertagida otaning o'g'illariga ham maslahati, ham ularga beradigan bor boyligi shular ekanligi oydinlashadi. U o'g'illarini shu yoshgacha yaxshi tarbiya berib ulg'aytirganini o'zi ular uchun har qanday boylik-u merosdan afzalligi namoyon bo'ladi. Bu orqali o'zbek xalqining azal-azaldan moddiyatga emas, balki ma'naviyatga urg'u beradigan xalq ekanligini bilishimiz mumkin.

"Etik kiygan mushuk" ertagida esa tegirmonchi umri oxirlagan chog'ida o'zida bor bo'lgan bitta tegirmon, bir eshak va mushugini o'g'illariga meros qoldiradi. Aka-ukalar otalaridan qolgan merosni tezda taqsimlashadi. Kattasi tegirmonni, o'rtanchasi eshakni, kenja o'g'ilga esa bittagina mushuk qoladi, xolos. Bundan ko'rinadiki, har bir xalq urf-odat, madaniyat jihatdan bir-biridan tubdan farq qiladi.

To'rtinchiidan, hayvonlar obrazi ertakdagi qahramonlar darajasiga ko'tarilishi ya'ni «Uch og'a-ini botirlar» ertagida ham, «Etik kiygan mushuk» ertagida ham asosiy qahramonlardan tashqari hayvonlar obrazi ishtirok etishi va ularning ertakdagi tutgan rollari, ertakning voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatishi deyarli bir xillikni kasb etgan. «Etik kiygan mushuk» ertagida ertakning nomidan ham bilish mjmkiniki, undagi voqealar silsilasi mushukning harakatlari atrofiga

qurilgan. Bu ertakda mushuk aqlliligi va ayyorligi bilan xo'jayini bo'lmish kenja o'g'ilni markiz darajasigacha ko'tarilishiga yordam beradi. Otasidan meros qolgan bu mushuk kenja o'g'ilning haqiqiy boyligi edi chunki, uning uddaburonligi bilan u qirolning kuyovi bo'ladi va juda katta boylarning egasiga aylanadi. «Uch og'a-ini botirlar» ertagida esa to'ti obrazi hikoya ichida keltirilgan bo'lsa-da, ertakning mag'zini chaqishda yosh kitobxonga yordam beradi. Yuqoridagi ertakda mushuk uddaburon, aqlli va ayyor sifatlarida ifodalangan bo'lsa, ushbu ertakda to'ti vafodor, og'ir, bosiq va mehribon sifatlari bilan namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining donoligi shundaki, bolaning qalbiga ertaklar orqali yo'l topadi va uni tarbiyalaydi. Misol uchun, birgina to'ti obrazi orqali va'daga vafo qilish lozimligini, hech qachon birovning haqqiga xiyonat qilmaslikni singdiradi. Garchi ushbu fikrlar to'ti tilidan keltirilsa-da, barchaga birdek namuna bo'la oladigan darajada ta'sirchanligini saqlagan: «-Yo'q, podshohim, sizning menga ko'rsatgan iltifotingiz yomon yo'lga boshlamaydi, qanday bo'lsayam va'da ulug', muqaddas narsa, uni buzish yaramaydi. Va'dani buzmoq og'ir gunoh, so'z beraman – so'zimda turaman, debdi to'ti». Xalqimizda so'z muqaddas sanaladi. Ayniqsa, birovga nisbatan aytilgan so'zga, berilgan va'daning bajarilishiga katta ahamiyat qaratiladi.

Beshinchidan, tahlilga tortilgan har ikkala ham afsonaviy maxluqotlarning ishtirok etishi. «Uch og'a-ini botirlar» ertagida botirlar safarga chiqqan payt ikkinchi kechada o'rtancha botir ajdarni yengish voqeasi keltiriladi. Ajdar – afsonaviy maxluq bo'lib deyarli barcha xalqlar xalq og'zaki ijodida uchraydigan, qanotli, og'zidan o't purkaydigan, ikki va undan ortiq boshi mavjud bo'lgan obraz hisoblanadi. U o'zbek xalq og'zaki ijodida, asosan, yovuzlik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, ertaklarda qahramonlar duch keladigan to'siqlardan biri sifatida ifodalangan. Sharl Perroning «Etik kiygan mushuk» ertagida ham odamxo'r maxluq obrazi keltirilgan bo'lib, odatda odamxo'rlar juda yirik va qo'rqinchli qilib tasvirlanadi. Ertaklarda bolalarni qiziqtirish hamda ajablantirish maqsadida odamxo'r obrazlari ishlatiladi. Shuningdek, ertakdagi asosiy qahramonning dovyurakligini oshirish, voqealarni qiziqarli tarzda kechishi uchun ham odamxo'r obrazlari beriladi. «Etik kiygan mushuk» ertagidagi odamxo'r obrazi turli xildagi hayvonlar qiyofasiga evrilishi bilan boshqa ertaklardagi odamxo'r obrazlaridan farq qiladi. Ammo soddaligi bilan mushuk hiylasining qurboniga aylanadi. Garchi chet el xalq og'zaki ijodida bu obraz ko'p uchrasa-da, ammo o'zbek xalq og'zaki ijodida odamxo'r obrazi juda kam uchraydi.

Oltinchidan, "Uch og'a - ini botirlar" ertagida ham, "Etik kiygan mushuk" ertagida ham podshoh (qirol) obrazi mavjud. Shuningdek, ikkala ertakning voqealar tizmasida podshoh ertak qahramonlariga o'z qizini uzatishini ko'rish mumkin. Ertaklarning yakunlanishida ham o'xshashliklar mavjud bo'lib, qahramonlar o'z yorlari bilan baxtli-saodatli hayot kechirganliklari akslanadi. Masalan, Otasi ham bularning kelishini eshitib, uch bo'lak hovli bog' tayyorlab qo'ygan edi. Har birlari tayinlangan joyga ko'chib kirdilar. Qizlar kuyovlari bilan rohat-farog'atda yashab, murod - maqsadlariga yetdilar. ("Uch og'a- ini botirlar" ertagidan).

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda aytish mumkinki, deyarli barcha ertaklarning u qaysi millat ertagi bo'lishidan qat'iy nazar, g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsad ya'ni yaxshilik va murodga yetishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan sug'orilgan. Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sibo'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham ertaklar sevib o'qiladi, miriqib tinglanadi va eng asosiysi, yosh avlodning ma'naviy - axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.ertak.uz](http://www.ertak.uz)
2. <http://audio.ziyonet.uz>

## O'ZBEK XALQINING KENJA O'G'IL HAQIDAGI ERTAKLARI, TO'PLAMLAR NASHRI VA O'RGANILISHI

Nilufar Zokirova Hamidovna

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich magistranti

[Zakirovanilufar244@gmail.com](mailto:Zakirovanilufar244@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola kenja botir haqidagi o'zbek xalq ertaklarining to'planishi va bu ertaklarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ularning o'zbek folklori va madaniyatida tutgan o'rni ustida o'zbek ertakshunos va folklorshunos olimlarning olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, maqola kenja botir ishtirokidagi ertaklar to'plami va nashri to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

**Kalit so'zlar:** kenja botir, genezis, personaj, sehrli-fantastik ertaklar, feodalizm, motiv.

O'zbek xalq ertaklari boy syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitstion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o'z o'rniga ega. Ularda xalqning qadimiy urf-odatlarini, marosimlari hal qiluvchi rol o'ynagani tufayli xalq milliy qiyofasi butun bo'y-basti bilan gavdalangan bo'ladi. Shu sababli ular, uzoq asrlardan beri tarixchilar, qadimshunoslar, etnologlar, o'lkashunoslar va adabiyotchilar, folklorshunos va tilshunoslarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ingliz va o'zbek xalq ertaklari orasida o'xshash mavzularni ko'plab uchratish mumkin. Bu jihatdan ertakdagi o'xshash mavzular sayyor syujetlar qatoriga kiritiladi. Bu syujetlardagi o'xshashlik, milliy jihatlardagi moslik adabiy aloqalar sohasida o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biridir. Chunki har bir millat va elat vakili o'z tarixida boshqa millat vakili tarixi namunalarini uchratishi mumkin.

Janr atamasi M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "etuk" tarzida qo'llangan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda xam cho'pchak, utuk, matal, varsaqa kabi so'zlar ertak manosini anglatadi. Ertaklar xalqning ijodkor vakillari tamonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht ba'zan ijtimoiy vaqealarni to'qib qiziqarli tarzida bayon etilishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurashi, falsafasi aks etadi. Qadimgi zamonlardan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan ertaklar zamonning o'zgarishi natijasida ro'y bergan yangiliklarni xam o'ziga singdirib boradi. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o'xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayotida o'xshashliklarning ko'pligidan darak beradi.

Ma'lumki o'zbek xalq sehrli ertaklarining syujet tizimi g'oyat rang-barang bo'lib, unda sarguzashtlarning kenja o'g'il obrazi bilan bog'liq talqini asosiga qurilgan epik matnlar muhim o'rin tutadi. Bu tipdagi sehrli ertaklarning yetakchi personaji kenja o'g'il hisoblanadi. Ertakning an'anaviy boshlamasida oilada uch o'g'il bo'lishi va muayyan "yetishmovchilik" (sirli ravishda o'g'irlangan narsani topib kelish, vafot etgan otaning mozorida poyloqchilik qilish, muayyan shartni bajarish, ov yoki safarga chiqish kabi) tufayli o'zga epik yurtga qarab safarga otlangan aka-ukalarning sarguzashtlari asosan kenja o'g'il obrazi bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Shuning uchun ham bunday ertaklarni "kenja o'g'il haqidagi ertaklar" tipi sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq.

G'.Jalolov o'zining bu boradagi tadqiqotlarini sehrli-fantastik ertaklarning genezis va morfologiyasi masalalariga bag'ishladi. Uning "O'zbek xalq ertaklari poetikasi" (1976) monografiyasida sehrli-fantastik ertaklarning kelib chiqish ildizlari, tuzilishi, ayrim badiiy xususiyatlari, obrazlar tarkibi maxsus tadqiq qilingan.

An'anaga ko'ra, bu turdagi ertaklar syujeti g'aroyib sarguzashtlar tasviriga boyligi, juda qiziqarliligi, ya'ni epik syujetning butunicha sarguzasht xarakteriga egaligi bilan farqlanib turadi. Sarguzashtga sabab bo'luvchi holat, ya'ni ekspozitsiya uch aka-uka oilasidagi biror yetishmovchilik, noodatiy narsa yoki hayvonni qidirib topish ehtiyoji, dushmanning xuruji, ota vasiyati yoki shartini ado etish, sinovdan o'tish bilan bog'liq ravishda motivlashtiriladi. Bu tur

ertaklar syujetining tuguni aka-ukalarning zumrad daraxt bargini o'g'irlagan qushni qidirish ("Bulbulig'yo"), pishgan tariqni payhon qilgan tulporni topish ("Abulqosim"), shoh tushida ko'rgan qushni olib kelish ("Misr podshohi"), podshoning xafa bo'lib uchib ketgan tilla qo'ng'iroqli qushini qaytarib olib kelish ("Erkenja"), ota tomonidan sinalish ("Pahlavon Rustam"), yo'qolgan ot, olma va boshqa narsalarni topish ("Mamajon va Qunduzoy", "Kenja Botir") maqsadida safarga otlanishi tarzida ifodalanadi. Epik an'anaga ko'ra, izlangan narsa yoki jonzot o'zga olamga mansub bo'lib, uning topilishi bevosita kenja botir sarguzashtlari bilan bog'lanib tasvirlanadi.

1991-yilda M. Jo'rayev kenja botir haqidagi o'zbek xalq ertaklarini alohida majmua holida chop ettiradi. U mazkur to'plamga yozgan so'z boshisida bu obrazning yuzaga kelishi to'grisida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "O'rta Osiyoda yashovchi turkiy elatlar orasida kenja o'g'il katta akalariga nisbatan yuqoriroq mavqega egadir. Akalar har doim kenjani o'z panohlariga olib unga qo'ldan kelgancha yordam berib kelishgan. Jumlada, akalari alohida mustaqil bo'lib/ ko'chib ketishgan taqdirda ham, kenja ota-onasi yonida qolib, ularning chirog'ini yoqib o'tirgan. Hatta ayrim ertaklarda otaning kasb-hunari ham kenja o'g'il tomonidan davom ettirilgan. Turmushda kenja o'g'ilning alohida hurmatga sazovor bo'lganligi sababli folklorda ham uning sarguzashtlariga keng o'rin beriladigan bo'lgan.

O'rta Osiyo turkiy xalqlari ertaklarini qiyosiy tadqiq etgan yana bir folklorshunos olim H. Egamov o'z monografiyasining "Sehrli-fantastik ertaklar asosiy obrazlari tipologiyasi" deb atalgan uchinchi bobida ona, o'gay ona, qiz, yalmog'iz kabi personajlar qatorida kenja o'g'il obrazi tahliliga ham alohida o'rin ajratgan. U o'z kitobida kenja o'g'il haqidagi "Misr podshohi", "Bulbuligo'yo", "Badal qorachasi", "Sehrli olma", "Uch og'a-ini botirlar", "Abulqosim" kabi o'zbek ertaklari, "podshoning o'g'li", "Qorajon botir" kabi turkman ertaklari, "Malik Mammed" nomli ozarbayjon ertagi, "Uch og'ayni yigit" nomli qoraqalpoq ertagi, "Abdurahmon podshoh", "Kenedining uch o'g'li" singari qozoq ertaklarini qiyosiy tahlil qilgan. Olimning fikricha, kenja o'g'il obrazining kelib chiqishi faqat minorat udumi bilan emas, balki dualistik tasavvurlar bilan ham chambarchas bogliqdir. Chunki turkiy xalqlarning uch aka-uka haqidagi ertaklarida og'ainilarning meros uchun o'zaro kurashi fonida tasvirlanuvchi konflikt, ziddiyat ham mavjud bo'lib, bu tip sujetlarning tarixiy asoslari dualistik miflarga bog'lanadi. Ya'ni qachonlardir mifologiyada yetakchi o'rin tutgan dualistik tushunchalar davrlar o'tishi bilan xalq ertaklariga ham o'tgan va aka-ukalar o'rtasidagi qarama-qarshilikning bir ko'rinishiga ta'sir ko'rsatgan.

Kenja botir haqidagi ertaklar to'plami muharrirlar tomonidan to'planib hali hanuzgacha chop etilib kelinyapti. H. Anvarova tomonidan 2022-yilda "Yosh kuch" nashriyoti bilan hamkorlikda "Ur to'qmoq" nomli ertaklar to'plamini nashr ettirdi. To'plamning 18-39- betlari "Uch og'a-ini botirlar" ertagiga bag'ishlangan bo'lib, ertak uch aka-ukaning uzoq yurtga safarga otlanganligi bilan boshlangan. Ertakda kenja uka qolgan akalaridan ko'ra jasurroq va donoroq qilib tasvirlanadi. Safar davomida akalarini har xil kulfatlardan qutqaradi, borgan yurtning podshohining ko'nglidan joy olib uning kenja qiziga uylanadi va oxirida akalari bilan birga o'z yurtiga qaytib keladi. Xuddi shu ertak Miryusuf Mirsalikov tomonidan 2020-yilda tuzilgan "Birlashgan o'zar" ertaklar to'plamida hamda Mansur Afzalovning 1972-yilda chop ettirgan "O'zbek xalq ertaklari" nomli ertaklar to'plamining birinchi tomida ham keltirilgan.

Oybek Haydarov 2020-yilda "Ziyo nashr" nashriyoti bilan birgalikda "Mahmud Yamoqchi" nomli ertaklar turkumini nashrdan chiqardi. Bu to'plamning 50-72-betlarida "Kenja" ertagi keltirib o'tilgan. Bu ertakda cholning uch o'g'li bo'ladi va uchovi ham bir go'zal malikaga oshiq bo'ladi. Uch og'il malikaning vasliga yetishish maqsadida yo'lga chiqishadi va yo'lda turli xil sinovlar va mushkulotlarga duch kelishadi. Ammo kenja botir o'zining dovyurakligi, to'g'riso'zligi va ziyrakligi tufayli malikaning va podshohning ishonchini qozonadi va o'z yori bilan birgalikda uyiga qaytadi.

Mustaqilligimizdan oldin ham o'zbek xalq ertaklari sevib o'qilgan hamda ularni chop ettirish to'xtab qolmagan. O'zbek xalqi farzandlarini ertaklardan bahramand bo'lib ulg'ayishi va ulardan axloqiy-madaniy ozuqa olishi uchun azal-azaldan harakat qilib kelgan. Jumladan, Sovet respublikasi davrida bir qancha ertaklar to'plami va antalogiyalari xalqqa taqdim etilgan. Ular

orasida M. Abdurahimov tarjimasida asosida 1965-yilda chop etilgan “Osiyo xalqlari folklori” kitobining “O‘zbek xalq ertaklari” turkumi, “Shoh va donishmand chol” (3-22-betlar), 1951-yildagi “O‘zbek xalq ertaklari” (5-17-betlar) kitobi va 1968-yilda nashr qilingan “Chalpak yoqqan kun” (3-25-betlar va 139-155-betlar)ertaklar to‘plamlarida “Kenja botir” va “Uch og‘a- ini botirlar” ertaklari mavjud.

#### **Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar:**

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida, Toshkent,1981, p.112-113.
2. Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. –T.: Fan, 1964 yil.
3. Jalolov G‘. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. –T.: Fan, 1979.
4. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi, 1980. 320 b.
5. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. - Toshkent.: Fan, 1988.-B.63-84.
6. Мелетинский Е.М. Герои волшебной сказки происхождение образа, «Академия Исследований Культуры» «Традиция», Москва - Санкт-Петербург, 2005.
7. Мелетинский Е.М., Неклюдов С.Ю., Новик Е.С., Сегал Д.М. Проблема структурного описания волшебной сказки//Труды по знаковым системам. Т. 4. Тарту, 1969. p.150.

### **ЎЗБЕК ФОЛЬКЛОРИДА РАНГЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МИФОЛОГИК ҚАРАШЛАР МОҲИЯТИ**

**М.Ё.Рўзиева,**

филология фанлари бўйича фалсафа

доктори(PhD), доцент

**ruziyevamohichexra557@gmail.com**

**Таянч сўзлар:** фольклор, рухият, рамзийлик, образ, тасвирий ифода, мифология, магик қарашлар, анимизм, тотемизм, ранг, ок, қора, қизил, кўк, сарик, яшил.

**Ключевые слова:** фольклор, психология, символизм, символ, символический образ, цвет, цветоведение, поэтические символы, символический смысл, символика, магические взгляды, мифологические взгляды, анимизм, тотемизм тюркский фольклор, традиционность, цвет, белый, чёрный, красный, синий, жёлтый, зелёный.

**Key words:** folklore, symbol, poetics, colour symbolism, poetic symbols, animism, totemizm, symbolic meaning, colour, white, black, blue, red, yellow, green

**Аннотация** Ушбу мақолада ўзбек фольклоридаги ранг ва у билан боғлиқ мифологик қарашлар, уларнинг келиб чиқиш асослари, халқ қарашларига, маросим ва ритуалларга таъсири, рангларнинг магик хусусиятлари ҳақида сўз боради.

**Аннотация** В данной статье рассматриваются цвета в узбекском фольклоре и связанных с ними мифологических представлениях, основы их происхождения, их влияние на народные представления, обряды и ритуалы, магические свойства цветов.

**ANNOTATION** *This article discusses the colors in Uzbek folklore and related mythological views, the basics of their origin, their impact on folk views, ceremonies and rituals, the magical properties of colors.*

Ранг табиатда мавжуд барча нарсаларнинг тусини, белгисини, атроф-муҳит гўзаллигини намаён этиш баробарида азалдан улар билан боғлиқ турли кайфият, ўй-кечинма ва ҳис-туйғуларни ҳам ифодалаб келади. Шу боисдан одамлар рангларга катта аҳамият берганлар ва унинг хусусиятларини ўрганишга ҳаракат қилганлар. Буюк файласуф Абу Наср Фаробий “Фалсафий саволлар ва уларга жавоблар” асарида “Ранг нима?” деган саволга: “Ранг ялтироқ жисмнинг нимага ялтироқ бўлганининг чегарасидир, у жисмларнинг юзида ифодаланади,” – дея жавоб берганди.<sup>1</sup> Ушбу жавоб мантикий

<sup>1</sup> Абу Наср Фаробий. Фалсафий саволлар ва уларга жавоблар. – Т.: Фан, 1953. – Б. 74.

нуктаий назардан рангга муносабатни, баҳони билдиради. Аммо инсонларнинг ранглар ҳақидаги дастлабки билим ва тушунчалари мифологик тасаввурлар, қадимги диний эътиқодий қарашлар, ижтимоий-маданий ҳаёт, урф-одат ва маросимлар билан алоқадор мураккаб жараёнларни ўзида мужассам этади. Жумладан, ибтидоий одамларнинг анимистик, тотемистик, фетишистик, магик қарашларида рангларга инонч ва эътибор алоҳида ўрин тутади. Рангларнинг магик кучига ишониш, уларни магик ҳимоя воситаси деб қараш барча халқлар ўртасида мавжуд. Бу хил эътиқодий қараш изларини ер юзида умр гуздорлик қилаётган барча қабила, элат, халқларнинг маросимлари, фольклори ва кўҳна санъат намуналарида кузатамиз. Қадимги даврларда одамлар барча рангларни тўлиқ илғай олишмаган. Улар тасавурида уч асосий бўёқ – оқ, қизил, қора ранглар муҳим роль ўйнаганлигини ранглар ибтидоси, уларнинг тадрижий ривожини, маъно қўламларининг кенгайиши тадқиқ этилган барча тадқиқотларда ўқиш мумкин<sup>1</sup>. Кўринаётгани, инсонлар қадимдан оқ, қизил, қора рангларини ўз ибтидоий турмушларининг маълум қирралари билан боғлаб тушунганлар. Рангларни табиатдаги нарсаларнинг кўринишига қараб аниқлаганлар. Аслида бизни ўраб турган моддий борлик турли-туман рангга эга. Кўз кўрадиган ҳар бир предмет ранги билан бир-биридан ажратилади. Шу боисдан ранглар нарсаларни бир-биридан фарқлашда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Масалан қадимги одамлар оловни қизил, қуёшнинг ёрқин нурини оқ, узокдан кўришиб турадиган тоғни қора деб атаган, бу хил тушунчалар уларнинг ранг ҳақидаги тасаввурлари, дунёқарашларида муҳим ўрин тутган.

Ўзбек халқ маросимлари ва фольклорида ҳам оқ, қизил, қора рангларнинг умуминсоний рамзий маъноларга уйғун мазмунга эга эканлигини кўриш мумкин. Жумладан, халқимиз орасида анъанавий тўй маросимларида ранглар рамзига алоҳида эътибор берилади. Масалан, никоҳ маросимлари билан боғлиқ анъаналарда **оқ ранг** муҳим ўринга эга. Бу маросимдаги оқликлар (оқ ранг билан боғлиқ рамзийликлар) ёшларнинг бахтли ва порлоқ келажаги, турмуши рамзини ифодалаб келади. Никоҳ тўйининг илк босқичи бўлган совчилик удумида оқ ранг муҳим ўрин тутади. Совчиликка борилганда қиз томон рози бўлса, оқлик (оқ рўмол, оқ ҳолва) бериш одати мавжуд. Шундан сўнг қуёв томон келинга оқ рангли никоҳ қўйлаги ва катта оқ харир рўмол жўнатган. Никоҳ тўйида келин-қуёв оқ рангдаги сарполар кийишади. Келин учун тўй олдида жўнатилган сарпола устига оқ сурпга ўралиб ойна қўйилган. Бу ойна ўралган оқ сурпли тугун туй куни келин-қуёв гўшангага кирганда “ойна кўрсатар” удумини ўтказиш муддатидагина очилган. Қуёв учун тикилган тўн кийдирилганда унинг эгнига қуёвнинг бўйи баробар оқ ип ўтказилиш одати ҳам бор. Ипнинг сабоғи қуёвнинг бўйидан кам бўлмаслигига алоҳида эътибор қилинган. Бу ирим бўлажак оиланинг бахтли ҳаёт йўли узун бўлиш истагини ифода қилган. Никоҳ куни қуёв хонадонига кузатилаётган қиз отасининг оёғига бош қўйиб, ундан “оқ фотиҳа” – розилик олади. Никоҳдан сўнг қуёв хонадонига келтирилган келинчак оқ ун, оқ мато – пояндоз, оқ сут билан кутиб олинади. Қудаларнинг юзига ҳам ун суртиб кўришиш одатига республикамизнинг барча вилоятларида бугунги кунгача амал қилиб келинмоқда. Баъзи жойларда келин-қуёвга оқ рангдаги кигиздан ўтов тикилади.

Оқ рангнинг рамзий маъносини тўйдан сўнг келинни хонадон супрасига ўтиргизиб, ун ва ёғга қўлининг теккизилишида ҳам кўриш мумкин. “Қуёв чақирди” маросимида қуёв ҳам остонада оқ пояндоз солиб кутиб олинади.<sup>2</sup>

Мучал тўйида 12 ёшдан 13 ёшга қадам қўйган ўғил-қизларга оқ либослар кийдирилади. Бу удумнинг тарихий илдизлари зардуштийлик билан боғлиқ. Зеро, зардуштийларнинг сидрапўшлик удумида ҳар бир зардуштий ўн беш ёшга тўлгач, унга оқ матодан чакмон, қўйлак кийгизиб, бошига салла ўраб, белига оқ қўйнинг

<sup>1</sup> Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 2. – М., 1982. С. 107. История науки о цвета. Древний мир. С. 43. Интернет. <http://www.4chakra.ru>. Миронова Л.Н. Цветоведение. Минск, 1984. С. 19-25.

<sup>2</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Б. 101.

етмиш икки тола юнгида тўқилган белбоғни боғлаш одат бўлган ва бу одат салкам ўн уч аср давом этган. Оқ кийим зардуштийлар диний эътиқоди рамзи бўлган. Оқ либоснинг зардуштийлик рамзи эканлиги борасида “Яшт”нинг “Митра қасидаси”да алоҳида таъкидланган.

Суннат қилинаётган болага ҳам оқ кўйлак кийдирилади. Ушбу жараёнда боланинг онаси жимжилоғини косадаги унга солиб туриш одати ҳам бор. Бу ирим-одатлар заминиде оқ ранг поклик, покизалик тимсоли ҳисобланиши билан бирга рамзий маънода боланинг улғайганлигини ҳам ифодалайди.

Ўзбек халқ маросимлари ва удумларида оқ рангнинг илоҳий кучлар билан боғлаб тушиниш излари тўлиқ сақланиб қолган. Масалан: тириклик сувини тотган Хизрнинг оқ сақолли, оқ саллалик, оппоқ либосли қария сифатида тасаввур этилиши кенг тарқалган. Яна бир эътиборли факт, халқ ўртасида эътиқод билан қадрланувчи, хонадонда кўрилса устига ун сочиб, сут билан сийланувчи оқ илон образида Хизир намоён бўлади деб тушунилади.<sup>1</sup> Бу ўринда оқ илонга ун сепиб, сут берилиши махсус ўтган маросим изларини ўзида сақлаган. Қадим мифологик дунёқарашга кўра оқ ранг “худолар ранги, кўзга кўринмас қудратли кучлар ранги”<sup>2</sup> сифатида илоҳий деб қаралганлигининг излар мусулмон оламида ҳаж зиёратини адо этиш мақсадида “Худонинг уйи” (Каъба)га борувчилар махсус оқ кийимда йўлга чиқишлари ҳам исбот этади.

Қуёш, олов, ғалаба, куч-қудрат, шиддат, жасорат, жўшқинлик, уруш, қон рамзий маънолари билан чамбарчас боғлиқ қизил рангнинг халқ маросимларда тутган ўрни ҳам алоҳида диққатга сазовор. Сурхондарёда ўтувчи никоҳ тўйида қизил рангга алоҳида эътибор қаратилади. Маълумотларга кўра, ўтов – қора уйга келин туширган қайнона “келин салом”да келинига: “Сен яшайдиган ўтов – қора, осмон – кўк, дала - дашт – яшил, қозон-ўчоғинг – қора, сочинг – қора, улар ичида алоҳида кўзга ташланиб юришинг учун қизил кўйлак кийдирдим, илоё, сен кўк кўйлак кийма, қорага ботма, қизамиққа чалинма, юзинг кўйлагингдек қизил бўлиб юрсин” деб қизил кўйлак кийдирад экан.<sup>3</sup> Одатда келинчак тўйдан кейин токи биринчи фарзандни кўргунга қадар қизил ёки алвон кўйлак кийиб юрган ва бу кийим унинг келинлик белгиси ҳисобланган. Шундан бўлса керакки, айрим қўшиқларда қизил кийган ёр таърифи алоҳида эътиборни тортади:

*Қизил-қизил рўмоллар қизда бўлар,*

*Қизни суйган бандаси мирза бўлар.*<sup>4</sup>

Фольклоршунос А.Мусакулов алоҳида таъкидлаб ўтганидек, тўй қўшиқларида, (айниқса, никоҳ тўйи қўшиқларида – М.Р.) қизил ранг, одатда, қиз, оқ ранг эса йигит рамзи бўлиб келади.<sup>5</sup> Лирик қўшиқларда оқ ва қизил ранг ёнма-ён қўлланилганда эркак ва аёл маъноларида келишини қатор мисоллар билан ёритиш мумкин. В.Тернер африка маҳаллий халқлари маросимларида оқ ва қизил ранг бинар хусусият касб этиб бу ўринда оқ – эр кишини қизил – аёл маъносини ташишини ёзган. Айни хусусиятни ўзбек маросимлари ва фольклоридаги оқ ва қизил ранг бинар шаклда келган ўринларда ҳам кўрамиз.

Фольклоршунос Ж.Эшонқулов “Алпомиш” достонини тадқиқ этар экан Барчиннинг Қолмоқ юртида ўтовини алоҳида тутган ўрнини талқин этган. “Барчиннинг элдан ажралиб, баланд бир тепаликка ўтов тикиши достонда шундай тасвирланади: “Ўн минг уйли қўнғиротдан чиқариб, Барчиннинг ўтовини кўтариб, ҳу анадай овлоқ тепанинг бошига тикиб қўйди. Бул ўтовда қирқин қанизлари билан Барчин ўтирди.” Бу ерда диққатимизни тортадиган икки жиҳатга тўхталиб ўтиш зарур. Биринчиси – Барчин ўтовининг тепаликка тикилиши. Тепалик, тоғ бу қадимда маросимлар ўтказиладиган муқаддас аждодлар руҳи яшайдиган жой ҳисобланади. Иккинчиси – ўтовнинг оқ ва бахмал эканлиги. Оқ ва қизил (бахмал) ранг, авваламбор, икки олам (эркак ва аёл

<sup>1</sup> Ўша асар, стр.114-115

<sup>2</sup> Миронова Л.Н. Цветоведение. Минск, 1984. С. 60.

<sup>3</sup> Аширов А. Ранглар маъно ташийди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2008 йил

<sup>4</sup> Тўй муборак ёр-ё.Б. 34.

<sup>5</sup> Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010.-Б.

бирлигининг макони) ҳақидаги қадим тушинчаларни ўзида ифода этган. Шунинг учун ҳам бу икки ранг эпосда ҳам, маросимларда ҳам аниқ рамзий маънога эга.

**Қора ранг**ни мархумлар дунёси, ўликлар салтанати, кўрқув, зулмат, жаҳолат, ёвузлик, ғам-андухнинг ранги сифатида тасаввур қилинган. Бунга ишорани халқ йиғиларида ёрқин қузатиш мумкин:

*Чўбин отизга миниб,  
Қоронғуликка сингдингиз.  
Мани – суйган фарзандийизи  
Кимларга ташлаб кетдингиз.  
Отажоним, вой отам-а,  
Меҳрибоним, вой отам-а.<sup>1</sup>*

Кўшиқда “чўбин от” (ёғоч от) тобутни, “қоронғуликка сингиш” тушунчаси эса ўлимни, бу ёруғ дунёни тарк этишни англатади.

Халқ орасида “қора ош”, “қора овқат”, “қора шўрва” бирикмалари ҳам ишлатилади. Одатда, мотам маросими овқати “қора ош” деб юритилади.

Шарқий Европа давлатларида ҳам қора ранг ёруғликка қарши туман, жаҳолат, ёвузлик, ғам-андух белгиси, эътиқодсизлик, гуноҳкорлик рамзи сифатида талқин этилган. Шунингдек, қора ранг ўлим (ҳар жихатдан) маъносинигина англатмайди, балки дунёвий лаззатлардан воз кечиш, ўз нафсини енгиб, тоат-ибодатга кириш рамзи ҳамдир. Шунинг учун руҳонийлар, монахлар – қора кийишган. Яъни бу кийимдаги кишилар ўлимни бўйнига олиб, бу дунёнинг ўткинчи лаззатларидан ўзларини тийган тоифанинг рамзий белгиси бўлган. Л.Миронова: “Қора ранг – фасллардан қиш фаслини, дунё томонларидан шимолни, сайёралардан Меркурийни, предметлардан сувни, жониворлардан тошбақа ва илонни рамзан ифодалаб келган”,<sup>2</sup> – дейди. Олимлар оқ, қора, қизил рамзий “ранг учлигини” инсоният яратган энг қадимий рамзлардан деб ҳисоблашади. Муҳими, бу уч ранг туғдирувчи рамзий тушунчани дунё халқларининг кўпчилик қисмида бир-бирига уйғун келишидадир. Умуман айтганда, юқорида келтирилган мисоллар қизил, оқ, қора рангларнинг маъно товланишларида ҳаётдаги ижтимоий муносабатлар таъсирида тадрижий ўзгаришлар юз берганлигини тасдиқлайди.

Маросимлар тизимида ва фольклор намуналарида оқ ва қизил ранг бирлигига қора ранг қарама-қарши маънода келиши қадим асосга эга. Хусусан, зардуштийларнинг муқаддас китоби “Авесто”да дунё икки қутбга бўлинганлиги бунинг ёрқин мисолидир. Бу қутблар бир-бирига зид икки тушунчани ифодалаб келган. Улар эзгулик ва ёвузлик тушунчалари бўлиб, Аҳурамазда ва Аҳриман тимсолида талқин қилинган. Бунда ёвузлик ва ўлим кўз илғамайдиган қоронғулик дунёси тарзида тасаввур қилиниб, қора рангда; кўзга кўринадиган моддий борлик, тириклар олами эса оқ рангда таърифланади.<sup>3</sup>

Қадимги инсонлар маълум бир рангдаги нарсалар, жониворлар одамзотни магик ҳимоя қилиш қудратига эга деб тушуниб, ранг магиясига алоҳида ишонч билан қараганлар. Шунинг учун ибтидоий одамлар кўпинча таналарини, юзларини ҳар хил ранглар билан бўяб ҳам юрганлар.<sup>4</sup> Бунда, асосан, қизил ва оқ ранглар кўпроқ ишлатилган. Қабила ёки уруғ бошлиғи Худонинг ердаги сояси, деб қаралгани сабаб маъбудларга алоқадор бўлган оқ ранг билан юзига, танига махсус излар чизиб юрган. Қабиланинг оддий аъзолари эса бадан ва юзларини қизил ранг билан бўяшган. Шунингдек, улар қизил тусдаги тақинчоқлар, парлар тақиб юрганлар. Жангу жадаллар вақтида жангчилар ўз танларига қора ранг суртиб олишган. Бу билан улар ўзларини ўлим келтирувчи, мусибат ёғдирувчи Аҳриман қиёфасига солганлар.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Бўзлардан учган ғазал-ай, –Б.22.

<sup>2</sup> Миронова Л.Н. Цветоведение. – С. 67.

<sup>3</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 171.

<sup>4</sup> История науки о цвета. Древний мир. С. 43. Интернет. <http://www.4chakra.ru>

<sup>5</sup> Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 2. – М., 1982. С. 107.



Жангчиларнинг юзига қора суртиш таомили ҳозиргача сақланиб қолганлиги кузатилади.

Ранглар магиясига ишонч рудиментларини турли ирим-одатлар таркибида кузатиш мумкин П.Г.Богатырев: “Қизил ранг кўз тегишига қарши энг кенг тарқалган воситалардандир”<sup>1</sup>, - деб ёзади. Дарҳақиқат, халқимиз орасида ҳам бу фикрни тасдиқлайдиган айрим одатлар, ирим-сиримлар бор. Жумладан, аёлларнинг чаккасига гул тақиб юриши ёки каштадўзларнинг кийим-кечакларга гул солиши анъанасида бу қадимий дунёқараш анъаналари турибди. Шунингдек, қизил кийим кишини кўздан асрайди, деб қаралган.

Халқона қарашга кўра, турли ранг ва шакллардаги газмол парчаларидан улаб тикилган “куроқ” ёмон кўзлардан сақловчи ҳимоя воситаси ҳисобланган. Шу сабабли ҳам келин куёв учун тутилган гўшанга, уларнинг никоҳ тўйига атаб тикилган кўрпа-ёстиклар асосини куроқ мато ташкил этган. Маълумки, куроқда ҳар хил катталиқдаги мато қийқимлари ўзаро рангига қараб жойлаштирилади. Куроқ тайёрланишига хос ана шу “келиштириш” жараёни унинг моҳиятига ҳам мосдир. Куроқдаги ранглар асосини оқ, қизил ёки маълум ўринларда оқ, қора ташкил этади. Янги туғилган чақалоққа асосан ўғил болаларнинг бешик анжомларида куроқ асосий ўрин эгаллайди. Бу хил маросимларда куроқ келин-куёв кўша қариб курашиб, ўзларидан кўпайсин, бешик анжомларидаги куроқ эса бола изидан кўп болалар курашиб келсин деган рамзий маъноларни ифодалаш баробарида, ўзига хос ёмон кўздан асровчи восита сифатида ҳам қаралган.

Дунё халқларининг ранг тасаввурларида таянч ўринга эга оқ, қизил, қора рангларининг рамзий, тимсолий маънолари тадрижида бу рангларнинг ҳар бири ички ўз-ўзига зид келувчи маънода қўлланилишини кузатиш мумкин. Айни ҳолат оқ ва қора ранглари мисолида ёрқин намаён бўлади. Жумладан Навоийшунос И.Ҳаққулов қора рангнинг туркий халқлар дунёқарашада ижобий маънода кенг қўлланилганлигини бир қатор тарихий ва мифологик фактлар ва Навоий ижоди мисолида ўрганар экан, бу рангнинг муқаддас саналганлигини, қадимдан, яъни турклардаги “Қорабош туғ”, “Сияхпўшлар” каби эътиқодларда намоён бўлганлигини ва Аббосийлар халифасининг байроғи ҳам қора рангга бўлиб, бу ранг уларнинг хусусий ранги саналганлигини билдириб ўтади.

Умуман айтганда, ҳар бир халқнинг рангларни ўрганиш бўйича орттирган маълум тажрибаси бор. Ранг билан боғлиқ мифологик тасаввур- тушунчалар фольклор таркибида қанчалик кенг қўланилган бўлса тадрижий равишда ёзма адабиётда ҳам анъанавий ўрин эгаллайди, янги-янги талқинлар, маъно қатламларини намоён этади. Бир сўз билан айтганда инсониятнинг рангга доир қарашлари оддийдан мураккабга қараб, босқичма-босқич ўсиб, ривожланиб, бойиб боради.

## HUMBOLT TA'LIMOTIDA RUH VA TIL TALQINI

**Jumayev Erkin Boltayevich, f.f.f.d. (PhD), BuxDU**

**Tel: +998906149365, E-mail: [e.b.jumayev@buxdu.uz](mailto:e.b.jumayev@buxdu.uz)**

**Xudoyev Samandar Samatovich, BuxDU**

**Tel: +998973051787, E-mail: [s.s.xudoev@buxdu.uz](mailto:s.s.xudoev@buxdu.uz)**

*Annotatsiya:* Maqolada umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboldtning til paydo bo'lishi borasidagi fikrlari, til bilan tafakkur munosabati masalasiga doir qarashlari qisqacha sharhlanadi.

*Аннотация:* В статье кратко комментируются взгляды основоположника общей и теоретической лингвистики Вильгельма фон Гумбольдта на происхождение языка и его взгляды на взаимосвязь мышления и языка.

<sup>1</sup> [www.opazan.ru/news/bogatiryov.html](http://www.opazan.ru/news/bogatiryov.html).

*Annotation:* The article briefly comments on the views of the founder of general and theoretical linguistics, Wilhelm von Humboldt, on the origin of language and his views on the relationship between thinking and language.

*Kalit soʻzlar:* ruhiy faoliyat, metod, intellektual instinkt, tafakkur, sistema, yaxlitlik, sintez, grammatika, leksika, affiks, suffiks, oʻzk, sintetik amal, fleksiya, predikat, subyekt, botiniy tendensiya.

*Ключевые слова:* умственная деятельность, метод, интеллектуальный инстинкт, разум, система, целостность, синтез, грамматика, лексика, аффикс, суффикс, корень, синтетическое действие, флексия, предикат, субъект, внутреннее тенденция.

*Key words:* mental activity, method, intellectual instinct, mind, system, integrity, synthesis, grammar, vocabulary, affix, suffix, root, synthetic action, inflection, predicate, subject, internal tendency.

Inson ruhining tarkibiy qismlariga ong, shuur, aql, zakovat, fahm, farosat, tamiz, fikr, tafakkur, tasavvur, tushuncha, idrok, xotira, zehn, his-tuygʻu va hakozi kiradi. Ruhiy faoliyat 1) axloq, 2) til, nutq 3) madaniyat, tamaddun, 4) ilm-fan, sanʻat kabi koʻrinishlarda namoyon boʻladi.

19 - asr boshida Ovrupoda tilning ruhiy - ijtimoiy xilqat ekanligiga asoslanib taʼlimot yaratilgan. Bu taʼlimot asoschisi olmon olimi Vilxelm fon Humboltdir (1767–1835). Atoqli olim ushbu taʼlimotini Yava orolidagi kavi tili xususida nomli uch jildli asari muqaddimasida bayon qilgan. Muqaddima 1830-1835 yillarda yozilgan boʻlib Insoniyat tili qurilishining rang - barangligi va uning bashariyat ruhiy taraqqiyotiga taʼsiri deb nomlangan. V. Humbolt umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi deb eʼtirof etilgan. V. Humbolt (Humboldt, Gumboldt) taʼlimotida tillarning paydo boʻlishiga doir nuqtai nazar eʼtiborga molik. Humboltgacha ustuvor boʻlgan qarashlardan biriga koʻra til tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyot natijasida asta - sekinlik bilan oddiydan murakkab ga tamoyili asosida paydo boʻlgan. Bu karash hatto mustaqillikning dastlabki yillarida ham ona tili darsliklarida uchraydi: *Kishilar ilgari gapirmaganlar. Ular birgalikda mehnat qilishgan. Mehnat ja rayonida biror narsani aytish yoki soʻrash zarur boʻlgan . Shunday qilib, ogzaki nutq kelib chiqqan. Nutq kishilarning ahil yashashi va ishlashi ga yordam beradi.* V. Humbolt bu fikrni inkor etib til birdan paydo boʻlgan deydi. Negaki til insonning botini, fitrati, unga xos boʻlgan xususiyatdir. Tilning paydo boʻlishiga nisbatan bunday qarash mazmunan Qurʼoni karimning Baqara surasi 31 - oyati bilan hamohangdir.

V. Humboltning **til bilan tafakkur** munosabati masalasiga doir qarashi ham diqqatga sazovor. V. Humboltgacha tafakkur yetakchi mavqega ega, til uni ifodalovchi vosita boʻlib fikrni shakllantirishda ishti rok etmaydi degan qarash, nuqtai nazar ustuvor boʻlgan. V. Humbolt esa til tafakkur bilan teng mavqe - maqomga ega negaki til bilan tafakkur ibtidodan ayni bir narsa - xilqat boʻlgan deydi. Bunday hukm chiqarishda V. Humboltga oʻzi asoslagan metod - yondashuv imkon beradi. Bu yondashuvga koʻra inson faqat til bilangina insondir. Tilning paydo boʻlishi uchun inson aslida inson boʻlishi kerak edi (maymun emas demoqchi). Inson tili uning ongi (Vernunft, razum) bilan ajralmasdir. Buni tushunish uchun insonga xos farosat (Verstand, rassudok) ning faoliyat - tabiatini bilish darkor.

Til zarurat taqozosi bilan insonning botin - siyratidan paydo boʻladi va qonuniyat sifatida inson ongi - aqli quvvatining faolli gini talab qiladi. Insonning mislsiz bu qobiliyatini V. Humbolt ongning intellektual instinkti (Intellektueller Instinkt der Vernunft) deb ataydi. Bunda deb uqtiradi atoqli olim farosat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Negaki tilning har bir unsuri paydo boʻlishi uchun farosatning faolligi zarur. Lekin farosatning oddiygina faoliyati ni ham anglab idrok etib boʻlmaydi.

V. Humbolt diqqat - eʼtiborini intellektual faollikka qaratadi. Bunda u borliqning fikrga aylanishida roʻy beradigan fundamental - tayanch amal - akt (den Act der Verwandlung der Welt in Gedanken)ni nazarda tutadi. Aniqroq aytganda intellektual quvvat tilga qanday taʼsir qilib til oʻz navbatida unga qanday taʼsir etadi degan masalaga eʼtibor beradi.

Til fikr hosil qiluvchi organ - a'zodir (Die Sprache ist das bildende Organ des Gedanken). Ruhiy aniqrogi intellektual faoliyat botiniy xususiyat bo'lib uning ro'y berishini odatda sezib bo'lmaydi. U tovush vositasida moddiylashadi va uni idrok qilish imkoni tug'iladi. Shunga ko'ra intellektual faoliyat bilan til yagona birlik butunlik hosil qiladi. Zarurat taqozosiga ko'ra tafakkur doimo til tovushlari bilan bog'langan - aloqador bo'ladi. Aks holda fikr aniq ravshan bo'lmay tasavvur tushunchaga aylana olmaydi. Boshqacha aytganda tushuncha hosil bulishi uchun sezgi a'zolari ish - faoliyati ruh faoliyatining ichki jarayoni bilan sintetik aloqaga kirishi lozim. Bu esa faqat til vositasida ruy beradi. Tilsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Binobarin tafakkurning o'zi ham mumkin bo'lmaydi. Farosat borliqdagi narsa mavjudotni idrok qilishi uchun nutqiy tovush aniq - ravshan bo'lishi darkor. Borliqdagi narsalar ham botiniy sabab bilan ro'y beruvchi faoliyat ham insonga ko'p belgi - sifat bilan ta'sir etadi. Lekin farosat narsalardagi umumiylikni aniqlashga harakat qiladi. U qiyoslaydi, qism - bo'laklarga ajratadi va ularni bir - biri bilan bog'lab ulab tobora yirikroq birlik hosil qilishga intiladi. Farosat hodisalarni muayyan birlik sifatida qabul qiladi shu bois o'zini almashtiradigan, o'zi o'rniga qo'llanadigan tovushdan ham shuni talab etadi. Binobarin tovush ruhiy faoliyatga moslashadi.

Tafakkur umuman til bilan emas, ma'lum darajada ayrim til bilan bog'liq bo'ladi deb yozadi V. Humbolt. Bu masala ijtimoiy - falsafiy xususiyatga ega bo'lib V. Humbolt unga, aniqrog'i xalq va til munosabatiga ham alohida e'tibor beradi. V. Humbolt xalq - millatni til maqom - statusiga ega bo'lgan inson ruhining individuallashgan - xususiylashgan shaklidir deydi. Boshqacha aytganda insoniyatning tillarga bo'linishi uning xalqlarga bo'linishi bilan aniqrog'i xalq ruhi bilan mos keladi. Xalqning tili va ruhiy quvvati alohida va biri ikkinchisidan keyin rivojlanmaydi. Ular intellektual - ma'naviy qobiliyatning ajralmas ayni bir harakat - faoliyatidan iborat bo'ladi. Intellektual faoliyat bilan tilni ajratsak da aslida (amalda) bunday ajralish yo'q. Xalq ruhining o'ziga xosligi bilan uning tili tuzilishi tartiboti o'zaro shu darajada qo'shib birlashib ketganki ulardan biri bo'lsa albatta ikkinchisi ham mavjud bo'ladi. Til xalq ruhining suvrati - zohiridir. Boshqacha aytganda xalqning tili uning ruhi, xalq ruhi esa uning tili demakdir. Bu qadar o'xshash boshqa biror narsa xilqat mavjud emas. Qanday qilib ular ayni bir va anglab bo'lmay digan manbadan paydo bo'lganligi sirligicha qolaveradi. Ayni paytda xalq ruhining o'ziga xosligini tildan ajratib alohida o'rganib keyin uning o'ziga xosligini tilga tatbiq etib bo'lmaydi.

V. Humboltning xalq ruhi atamasini qo'llashdan maqsadi tillar ning farqlanish shart-sharoiti va sababini aniqlash bo'lgan. Boshqacha aytganda tillarning farqi va o'ziga xos xususiyatini bayon qilishda faqat tovush faktori bilan cheklanib qolish yetarli emas. Tillarning farqini tushuntirishda pastki pogonada qolib ketmay yuqori pog'onaga ko'tarilish lozim deydi. Bunday holda ular orasidagi farq ruhga asoslanib tushuntiriladi. V. Humbolt talqinida til faqat xalq ruhini aniqlash vositasi sifatida emas, uning paydo bo'lish omili sifatida ham qaraladi.

V. Humbolt ta'limotida til mazmun - mohiyatiga ko'ra faoliyat (Tätigkeit), quvvat (Energeia) anikrogi ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat bo'lsa tuzilishi jihatdan butunlik, tizim (sistema) dir. Boshqacha aytganda V. Humbolt tilni siyratiga ko'ra ruhiy quvvat, suvrati jihatdan esa butunlik, yaxlit ne'mat, xilqat deb tushunadi. Shu butunlikning har bir unsurida uning xarakterli belgilari mujassam bo'ladi. Shunga kura bitta unsurga qarab tilning suvratini aniklash mumkin. Binobarin tilni tadqiq qilishda diqqat - e'tiborni til suvratining botiniy ruhiy faoliyat bilan bog'likligi va ularning o'zaro ta'siri masalasiga qaratish darkor. Bunday holda tillarning tuzilishidagi mavjud tafovut sababini aniklash imkoni tug'iladi. Buning uchun esa avvalo har bir tilga xos shaklni aniqlash lozim. Fikr ifodalashga xoslangan ruhiy faoliyat doimiy - uzluksiz va bir xilda amalga oshadi. Bunday bo'lishining boisi shuki ayni bir ruhiy quvvat vositasida ro'y beradi. Uning asosiy vazifasi jamiyat a'zolarining bir - birini tushunishiga imkon berishdir.

Alohida - alohida tovushlarni fikr ifodalashga xoslaydigan ruhiy faoliyatning jamiki aloqa va tartibotidagi bor barqarorlik hamda bir xillikdan tilning formasi (shakli, suvrati) hosil bo'ladi. Tilning o'ziga xos shakli har doim ham uning eng kichik unsurlarida ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Shu bois ularning har biri alohida olib qaralganda tilning shakli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Binobarin butunlik, yaxlitlik tushunchasiga murojaat qilishga to'g'ri

keladi. Tabiatiga ko'ra tilning shakli ruhiy jihatdan bir xil, o'xshash bo'lgan ayrim unsurlarning sintezi (birikishi) dan iborat.

Bunday o'xshashlik asosida xalq o'ziga ajdodlaridan meros bo'lgan tilni o'zlashtiradi. Ushbu o'xshashlik tilni tadqiq qilishda o'z aksini topishi kerak. Ana shunday yo'l tutilmagina tarqoq unsurlardan ana shu o'xshashlikka ko'tarilib til haqida aniq tasavvurga ega bo'linadi. Bunday yondashuvsiz alohida unsurlarning o'ziga xos jihatini tushuna olmaymiz. Ularning o'zaro real aloqasini atamasa ham bo'ladi. Binobarin tilning xususiyatini anglash uchun uning unsurlari qo'llanishini kuzatish lozim.

Yuqoridagi qisqacha sharhdan avvalo shu narsa ma'lum bo'ladiki tilning shakli deganda faqat grammatik shakl emas, uning butun tizimi - organizmi tushuniladi. Tilni grammatika va leksikaga ajratib o'rganish amaliy ahamiyatga ega, tilni nazariy jihatdan tadqiq qilishda esa bu farq o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shu bilan bir ga buyuk tabiatshunos - biolog va tilshunos olim tomonidan til ruhiy ijtimoiy xilqat deb e'tirof etilganligi anglashiladi.

Til shakli - organizmi tarkibiga kiruvchi birliklar sintez deb ataluvchi amal yordamida hosil bo'ladi. Bu amalni tug'diruvchi kuch ruhiy quvvatdir. Sintezning o'zini ifoda etuvchi moddiy vosita bo'lmaydi; shuni tushunishimiz kerakki sintez amali xuddi chaqmoqqa o'xshab tilni nurlantirganini sezmay qolamiz, u biz idrok qila olmay digan jabhadan paydo bo'lib unsurlarni biriktirib birlashtiradi, yaxlit holga keltiradi. Masalan u yoki bu tilda o'zak suffiks yordamida otlik xususiyat kasb etadi, ushbu suffiks mazkur tushunchani ot tur kumiga mansubligini ko'rsatuvchi moddiy belgi bo'lib xizmat qiladi. Ammo sintetik amal vositasida ongda ro'y beradigan turkumga man sublik so'zni talaffuz qilganda hech qanday vosita bilan ifoda etil maydi. Holbuki sintetik amal ro'y berganligi suffiks bilan o'zakning o'zaro tobeligi va ularning yaxlitligini ko'rsatib turadi. Boshqacha aytganda bunday holda o'ziga xos ifoda ya'ni bevosita emas, balki mazkur ruhiy faoliyatdan kelib chiqadigan bilvosita ifoda mavjud bo'ladi. Bunday sintetik amal haqiqiy ruhiy faoliyatga xos bulib ikkita o'zaro birlashuvchi unsurdan uchinchi unurni hosil qiladiki unda ikkala unsur ham o'zining mustaqilligini yo'qotadi.

Ruhiy quvvat darajasi barcha xalqda bir xil bo'lmaganidan til birliklari jumladan so'zning shakli (formasi) va uning yaxlitligi bir xil bo'lmaydi. Ayrim tilda ushbu ikki hodisa so'z o'zagida tovush o'zgarishi yoki qo'shimcha qo'shish bilan sodir bo'ladi. O'zakda to vush o'zgarishi ro'y berganda so'z o'zgarmay turli shakl hosil bo'ladi. Qo'shimcha qo'shilganda o'zak anglatgan tushuncha o'zgarmay so'z turli mu nosabatga kirishishi mumkin. Bunda qo'shimcha o'zak bilan uyg'unlashib ketadi. Bunday qo'shimcha fleksiya deb nomlanib shunday xu susiyat ustuvor bo'lgan til flektiv til deb ataladi. Bunga sanskrit misol bo'ladi. Qo'shimcha aslida so'z bo'lib o'zak bilan uyg'unlashib ketmasa suffiks (yoki affiks) deb ataladi. Bunday xususiyat ustuvor bo'lgan tillarga nisbatan esa keyingi paytlarda agglyutinativ atamasi qo'llanmoqda. Bunday til ham grammatik munosabat ifodalaydi ammo ruhiy quvvat darajasi bir qadar sust bo'ladi deyish mumkin. Shu bois fleksiyaga xos xususiyat namoyon bo'lmaydi. Benazir iste'dod sohibi yirik nazariyotchi olim G'.Zikrillayev aytganidek *birorta tilni ham to'liq agglyutinativ til deb bo'lmaydi. Shunday tillar borki ularda so'z faqat o'zak ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday tillarda grammatik munosabat so'zning gap (nutq) dagi o'rniga bog'liq bo'ladi. Jumladan xitoy tili shunday xususiyatga ega.*

Til birliklaridan tushuncha ifodalash uchun xoslangan so'zga uni hosil qiluvchi unsurlarning turli darajadagi yaxlitligi xos bo'lga nidek fikr ifodalash uchun xoslangan gapga ham yaxlitlik xos. Bu yaxlitlik so'zdagi kabi gapda ham uch xil ko'rinishga ega. Jumladan flektiv tillarda so'zning o'zida gap bilan aloqadorlikka ishora mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra gap bo'laklarga bo'linib farosatga ro'baro' bo'ladi. Gapning yaxlitligi ana shu bo'laklardan hosil bo'ladi. Gap o'zgarmaydigan so'zlardan tuziladigan tillarda uning yaxlitligini hosil kilishda nofonetik vositalar yordam beradi. Bularga so'zning gapdagi o'rni va o'zgarmaydigan maxsus so'zlar kiradi. Boshqa bir guruh til da esa sodda gap o'zining zarur bo'laklari bilan birgalikda bitta so'z shaklida namoyon bo'ladi. Binobarin gapning yaxlitligi so'z doirasida o'z ifodasini topadi. Aksariyat tilga har uchala usul u yoki bu darajada xos. Ammo ayrim tilda ulardan bittasi ustuvor bo'ladi. Bunga misol qilib sanskrit, xitoy va meksika tilini ko'rsatsa bo'ladi. Meksika

tilida sodda gap markazi (yadrosi) da fe'l turadi. Gapning boshkaruvchi va boshqariluvchi qismlari esa unga bi rikadi. Ular fe'lga fonetik vositalar yordamida birikib butunlik hosil bo'ladi: *pi - paca - qua* men go'sht yeyman. Shu bilan birga fe'lga qo'shib yoziladigan so'zlar alohida ham qo'llanadi. So'z yaxlitligi mukammal bo'lgan tillarda esa boshqariladigan olmosh fe'l shakliga qo'shilishi mumkin. Masalan yahudiy tilida boshqariladigan olmosh qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Sanskritda esa turlanmaydigan va qo'shma so'zda ergash gap mujassam bo'ladi.

Til birliklari sintez natijasida hosil bo'lishi va u millatning ruhiy quvvatiga mos turli darajada namoyon bo'lishi yuqorida aytiladi. Bu amal ayniqsa gap tuzishda aniq va ravshan o'z ifodasini topadi. Bunga fe'l, boglovchi va nisbiy olmosh xizmat qiladi.

Sodda gapda sintetik amal ifodasi fe'lning grammatik vazifasini tashkil etadi. Uning o'zi avvalo turlanadigan ot kabi ushbu amal natijasida uz unsurlarining uzak bilan birikishi natijasida hosil bo'lgan. Hosil bo'lgan shakl ushbu amalni gap doirasida qayta takrorlash uchun xoslangan bo'ladi. Ana shu xususiyat bilan fe'l sodda gap tarkibidagi boshqa so'zlardan keskin farq qiladi. Ayni bir sintetik amal vositasida u borlikdagi predikatni sub'ekt bilan biriktiradi. Bunda borliq ish - harakatga aylanadigan faol predi kat bilan subyektga qo'shiladi. Shunday qilib birikadi deb o'ylangan narsa haqiqatan ham holat yoki hodisaga aylanadi. Natijada obrazli qilib aytganda fikr fe'l vositasida o'zining botiniy qarorgohini tark etib voqelik dargohiga o'tadi ya'ni voqe bo'ladi. Binobarin u yoki bu tilning o'ziga xos xususiyati haqida gapirganda fe'lda uncha zamon shakli, buncha mayl va tuslanish bor deyishning o'zi kifoya qilmaydi. Negaki bunday fikrlar fe'l tilning asl mohiyati, uning nervi, asa bi ekani haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Shu bois fe'l turku mida ushbu tilning sintetik quvvati, uning vazifasi qanday ifoda etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Diqqat - e'tibor ana shu masalaga qaratilsa til shakllanishining botiniy tendensiyalarini chuqur tahlilu tadqiq qilish imkoni tug'iladi. Sanskritda fe'lning birikish layoqati to'liq grammatik asosda ifoda etiladi. Shunga kura sodda gapda fe'l boshqa so'z turkumlaridan keskin farq qiladi. U bilan ot bir - biridan aniq chegaralangan. Faqat ayrim holdagina otdan (qo'shimcha bilan) fe'l hosil bo'ladi. Malay tillari oilasiga mansub tagal, tavan tilla rida esa fe'l bilan ot (ism) orasida keskin chegara yo'q. Ayni bir so'z ham ot ham fe'l sifatida ishlatilaveradi, har bir otni fe'lga aylantirish mumkin; zamon va mayl ko'rsatkichlari fe'lga qo'shilib o'z ma'nosini saqlab qoladi va hokazo.

Amerika tillaridan deyarli hammasining tuzilishiga baho be rishda odmoshga asoslanish lozim. Bu tillarda olmosh otda egalik fe'lda boshkaruvchi va boshqariluvchi kabi turlarga bo'linadi. Tilda odatda ularning shakli har xil bo'ladi. Jumladan beton tilida olmosh fe'lga qo'shilganda boshqaruv xususiyatiga ega bo'ladi, egalik olmoshi esa o'rni bilan farqlanadi. Egalik olmoshi otdan oldin kelsa shaxsni ko'rsatuvchi olmosh fe'ldan keyin turib qisqargan holda qo'llanadi: rau + tucu uyim yoki mening uyim, humasoirru odamman yoki men odam man ma'nosini anglatadi. Ammo bunday olmosh barcha fe'lga qo'shila olmaydi. Bunday holda fe'l bilan olmosh uygunlashib ketganidan haqiqiy grammatik shakl hosil bo'ladi. Negaki urgu fe'ldan qo'shimchaga o'tadi, so'z yaxlitligi hosil bo'ladi. Ingliz tilida ham ayni bir so'z ot va fe'l sifatida qo'llanganda urg'u oxirgi buginga tushsa maz kur so'z fe'l bo'ladi. Amerika tillarida olmoshning qo'shimchaga aylanishi ular tanlagan yo'lning to'g'riligidan dalolat beradi. Negaki bunday holda ularga flektivlik xos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda V. Humbolt ta'limotiga tayanib ish tutish milliy tillarning qurilishi - tuzilishi (sistemesi) ni o'rganishda ham ularni qiyosiy - tipologik jihatdan tadqiq qilishda ham har qanday asarni bir tildan boshqasiga tarjima qilishda ham amaldagidan boshqacharoq yondashishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Зикриллаев Ф. Рух ва тил. – Тошкент, “Фан”, 2018, 141-бет.
2. Худоев С. ВЫРАЖЕНИЕ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

3. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. The use of the past tenses in German and English //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 61-66.
4. Zikrillaev G. N., Jumaev E. B. INTERPRETATION OF TEXT AND QUESTIONS RELATED TO THIS MATTER IN FOREIGN LINGUISTICS //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 3. – С. 79-88.
5. Jumaev E. B. EXPRESSION OF THE INDIRECT QUESTION IN SPEECH AND MICROTEXT IN UZBEK LANGUAGE //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 138-139.
6. Zikrillaev G. N., Jumaev E. B. ACTUAL PROBLEMS OF THE UZBEK LINGUISTICS //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 1. – С. 87-93.
7. Рузиев Я. Б. Текстовая характеристика выражения будущего времени в немецком языке //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2018. – Т. 135.

## МУНДАРИЖА

Зарипов Ботир Комилович. Тил яшаса, миллат яшайди .....	3
Ҳамраев Мирали Мухаммеджанович. Кучли жамиятда кучли маънавият мужассам .....	4
Обиджон Ҳафизович Ҳамидов. Тил – миллат қиёфасининг бир бўлаги .....	5
Лутфия Мирзаева. Уч буюк қадрият: маънавият, маърифат, маданият. ....	6
Зиёда ҒАФҒОРОВА. Навоий қаламида Бухоро ва бухороликлар талқини.....	11

### **I ШҶЪБА. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ҶҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ. МЕДИАЛИНГВИСТИКА ВА ЛИНГВИСТИК**

<b>ТАДҚИҚОТЛАР .....</b>	<b>15</b>
Н.Б.Атабоев. СОСА МАНБАЛАРИДА МОРФОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАДҚИҚИ.....	15
Haydarov Anvar Askarovich. FONOSTILISTIK TAKROR.....	16
Rasulov Zubaydullo Izomovich. AXBOROT-DISKURSIV TAHLIL ASOSLARI XUSUSIDA	20
Jalilova Lola, Ergasheva Fatima. ADULTS` CHALLENGES IN ENGLISH LEARNING PROCESS.....	21
Jalilova Lola, Sirojeva Kamila. TPR- ONE OF THE MOST SUCCESSFUL METHODS OF CHILD DEVELOPMENT .....	24
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna. ACADEMIC INTEGRITY: DEVELOPING HOLISTIC UNIVERSITY APPROACH AND POLICY .....	27
Rakhmatov Ahmad Pirmukhammadovich. FLIPPED LEARNING IN THE EDUCATIONAL PROCESS: ESSENCE, ADVANTAGES, LIMITATIONS .....	30
Nazarov Rustam Irkinovich. A MODERN METHOD TO TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER INSTITUTIONS.....	32
Nazarov Rustam Irkinovich. MOTIVATION TO STUDY FOREIGN LANGUAGES AMONG STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES.....	35
Xudoyberdiyeva Gulasal Shuxratovna. "GARRI POTTER" ROMANLAR TO'PLAMIDA PSIXOLOGIYA .....	38
Ro'ziyeva Nilufar, A.A.Haydarov. TILSHUNOSLIKDA FONOPRAGMATIK KONNOTATSIYA MASALALARI .....	40
N.A.Axmetova, G.A.Rahmonova. PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIK: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH .....	42
Moxichexra Aliyeva. INTEGRATIVE PEDAGOGICAL THOUGHT IN THE ERA OF THE EASTERN RENEAISSANSE. ....	44
Ochilova Zulaykho Hasanovna. LEARNING LANGUAGE IS NEED OF TIME. ....	46
D.Sh. Qurbonova. TOPISHMOQLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG`LANISHLI NUTQINI O`STIRISH.....	47
Aslanova Nozima Hakimovna, Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INFORMATSION MATNLAR TAHLILI ASOSIDA YANGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA UNI O'Z TAJRIBASI BILAN BOG'LASH KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	51
Kadirova Zarina Bahodirovna. NEWSPAPER LANGUAGE AND METHOD .....	53
Rakhimova Zarina Uktamovna. THE LANGUAGE AND STYLE OF MASS MEDIA .....	55
Ахмедов Б.Я. РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ .....	57
Абдуллаева Нилуфар. ПОЭТИК ҶЙИНДАН ФОНЕТИК ҶЙИНГА .....	59
Safarova X.S. INGLIZ TILIDAGI FRANTSUZ O'ZLASHMA SO'ZLARINI ASSIMILYATSIYA QILISH TURLARI.....	61
Жумаев Аббосжон Акмалович. “НАВОДИР УЛ - ВАҚОЕЪ” – МАЪНАВИЙ МЕРОС ВА НОДИР ТАРИХИЙ МАНБА.....	63

Алимова Нозима Ражаббоевна, Исмоилов Иброҳим. ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИЯ, ИНДИВИДУАЛ ВА ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ ВА ФАРҚЛАРИ .....	67
N.X.Aslanova, Z.S.Nutfulloyeva. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATINI EGALLASHDA BADIY MATNLAR USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH .....	69

**2-ШЎБА. XXI АСР ИНГЛИЗ ВА АМЕРИКА АДАБИЁТИ. АДАБИЁТ, САНЪАТ ВА ЗАМОН. ҚИЁСИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ..... 73**

Pak Olga. THE USING OF EMOTIVENESS IN CHARLES DICKEN'S NOVELS .....	73
Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna. EXPLANATION OF AGRICULTURAL TERMS IN DICTIONARIES .....	77
Xajiyeva Feruza Melsovn, Rajabova Zebiniso Anvarovna. AMERIKA YOZUVCHISI LAYLA LALAMI IJODINING XRONOLOGIK TADQIQI.....	79
O.Kh.Ganiyeva, Z. .Tilakova. ESSENTIAL CRITICISM OF “ADOLAT MANZIL” (“JUSTICE VENUE”) BY ADIL YAKUBOV .....	82
O.X.Ganiyeva, Sh.B.Xodjayeva. ERNEST HEMINGUEY – MOHIR NOSIR.....	84
Nazarova Navbahor Ahrorovna. ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	86
Umarova Xurshida Zikiryoxonovna. FALSAFIY-PSIXOLOGIK ROMAN XUSUSIYATLARI (“GERSTOG” ROMANI MISOLIDA) .....	88
Xabibullayeva R.M. ONA MAVZUSIDAGI SHE'RLARNING BADIY XUSUSIYATLARI (TASHBEHLAR TAHLILI).....	89
Xamdamova Gulnoza Xotam qizi. O'ZBEK ('QIZIMGA MAKTUBLAR'-O'. UMARBEKOV) VA AMERIKA (TUESDAYS WITH MORRIE-A. MITCH) ADABIYOTI XOTIRA ASARLARINING QIYOSIY ANALIZI VA ULARNING MUSHTARAK XUSUSIYATLARI.....	92
Sobirova Zarnigor Rahimovna, Gayratova Dilnoza G`ayrat qizi. O'ZBEK VA XORIJ ADABIYOTIDA EVFEMIZMLARNING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISHI.....	94
Sobirova Zarnigor Rakhimovna, Zamira Baxramova Raximovna. DEFINITION OF BARBARISM AND HISTORY OF OCCURRENCE .....	96
Шаҳодат Усмонова. ЗАМОНАВИЙ ГАЗЕТА МАТНИДА ЭКСПРЕССИВ КОНТЕКСТЛАР: РИТОРИК ТАҲЛИЛ.....	99
Rakhmatova M.M., Botirova N.F. CHICANO POETRY: NEW TENDENCIES IN AMERICAN POETRY .....	102
Qurbonova Nodira Roziqovna, Yoriyeva Maftuna Umedovna. THE DESCRIPTION OF NATIVE AMERICAN STEREOTYPES IN THE NOVEL ‘THE LAST OF THE MOHICANS’ BY FENIMORE COOPER. ....	103
Elmanova Mastura Toshnazarovna, Xusainov Abdulaziz. WONDER WOMAN OR TRUE STORY OF MODERN RECORD OF THE GREATEST WRITES OF OUR TIME. ....	106
Djumayeva Gulnora Zokirovna. “THE LAW AND THE LADY” WRITTEN IN THE GENRE OF “LADIES’ ROMANCE” BY WILKIE COLLINS.....	109
Jabbarova Malohat Hamdamovna. A DESCRIPTION OF THE ARTISTIC IMAGE OF THE WORKS OF GUY DE MOPASSAN AND ABDULLAH QADIRI.....	112
Khaitova Gulshan Bahodirovna. PROBLEMS OF TRANSLATION OF TERMS RELATED TO MELIORATION AND AGRICULTURE IN ABSTRACTS.....	114
Hayotova Dilafró'z Zoyirovna. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA “VATAN” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI VA TADQIQI.....	116
Ruzmetova Ozoda Alimovna. MATEMATIK TERMINLAR SHAKLLANISHIDA LEKSIK DERIVATSIYANING O'RNI.....	121
Jalilova Lola, Sharopova Farida. INGLIZ ADABIYOTIDA HIKOYA JANRI RIVOJI .....	122



Jabborova Ruxsora Jobirovna. THE COMBINATION OF WAR AND LOVE IN THE NOVEL "A FAREWELL TO ARMS" .....	124
Насридинова Ситора Уткировна, М.Р.Киличева. О.ҲЕНРИ ҲИКОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЁЗУВ УСЛУБИ .....	126
Kholmurodova Osiyo Iskandarovna. A.QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR VA MENROBDAN SHAYON" ASARLARINING INGLIZCHA TARJIMA TURLARIDAGI FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNING MADANIY XUSUSIYATLARI.....	129
Raximova Nilufar G'iyosovna. "ALISA MO'JIZALAR MAMLAKATIDA" ERTAK MATNIDA ALLEGORIK TUSHUNCHALAR .....	131
Kamolova Feruza. THE ROLE OF SETTING IN ANGELA CARTER'S "NIGHTS AT THE CIRCUS" .....	133
Erkaeva Dilnoza Baxtiyorovna. FILM DISCOURSE IN THE CONTEMPORARY WORLD: SEMIOTICS AND ANALYSIS .....	135
Rakhimova Ugiloy Akbarovna. JANE EYRE AND WIDE SARGASSO SEA'S TREATMENT OF FEMINISM AND ITS REFLECTION IN CHARACTER ANALYSIS .....	137
Raxmatova Shaxrizoda Baxtiyorovna. FEMINISTIK VA EKOFEMINISTIK G'OYALAR VA ULARNING YARATILISH TARIXI .....	141

### **3 – ШЎЪБА. АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК, АДАБИЙ ЖАРАЁНЛАР, АДАБИЁТДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ВА МАЪНАВИЯТ МАСАЛАЛАРИ. .... 144**

Ahmedova M.B. "MA'NAVIYAT" TUSHUNCHASINING TAHLIL ETILISHI VA TURLICHA TALQINLARI .....	144
Давронова Шоҳсанам Ғайбуллоевна. ИСАЖОН СУЛТОН ИЖОДИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАБИАТИ ВА УСЛУБ МАСАЛАСИ ("ОНА ЮРТ СОҒИНЧИ" ҲИКОЯСИ МИСОЛИДА) .....	146
Kasimova Ra'no Raxmatulloevna, O'roqova Mexriniso O'ktamovna. ARTUR KONAN DOYLNING "YO'QOLGAN DUNYO" ASARIDA ILMIY-FANTASTIKA JANRI IFODASI .....	149
Адизова О.И. БАДИИЙ АСАРЛАРДА БИОГРАФИК МЕТОД АСОСИДА ИЖОДКОР ШАХСИЯТИНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ .....	151
Амонова Зилола Қодировна. ҲОФИЗ ХОРАЗМИЙ ИЖОДИДА МАНСУР ХАЛЛОЖ ТИМСОЛИ.....	155
Mekhriniso Rajabovna Kilicheva. SELF-HELP GENRE: FACTORS AND GENDER READERSHIP .....	158
Qodirova Nasima Saidburxonovna, Abdullayeva Farangiz Azim qizi. JO'RA FOZIL NIKOYALARI POETIKASI XUSUSIDA .....	160
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. SAN'ATGA OID LISONIY BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR .....	163
Vozorova Rufina Sharopovna. TARJIMA QILISHDA VA'ZI YONDASHUVLAR .....	166
М.Таирова. НЕКОТОРЫЕ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЛОВОГО ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА .....	169
Сайфуллоев Бахшилло Нематуллоевич. ФРАНЦУЗ-ЎЗБЕК АДАБИЙ АЛОҚАЛАРИДА ТАРЖИМОН МАҲОРАТИ (АЛБЕР КАМЮНИНГ "ВАБО" АСАРИНИНГ ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАСИ МИСОЛИДА) .....	171
Ходжиева Нигина. ЛЕКСИКА ФРУКТА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВАИ.....	174
Safarova Zarina G'iyosovna, Sayliyeva Gulrux Aynidinovna. THE GRAMMATICAL ANALYSIS OF METAPHOR AND SIMILE IN THE LITERATURE .....	176
Sabirova Sabina Olimovna. THE CLASSIFICATION OF COMPLEX SENTENCES IN FRENCH .....	178
Gulnoza Jumaeva Izatulloevna. THEORY OF LACUNA AND THE PROBLEMS OF TRANSLATION EQUIVALENCE.....	181

Gulruh Jurakulova. DESCRIPTION OF THE THEME EDUCATION IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY CHARLOTTE BRONTË .....	183
Sohibova Zarnigor Nusratilloevna. O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA QISH FASLI TASVIRI VA RAMZIY MA‘NO .....	185
М.М.Махмудова. “Ғарбу-Шарқ девони”даги тасаввуфий ғоялар Садриддин Салим Бухорий таржимасида.....	187
Жумаев Акмал Ахматович. “ҚУШ-РУҲ” БИЛАН БОҒЛИҚ ЭЪТИҚОДИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ НЕМИС ВА ЎЗБЕК ЭРТАКЛАРИДАГИ ЎХШАШ ТАЛҚИНИ .....	191
Sharipov Mamur Mansurovich. THE PROBLEM OF INTERTEXTUALITY IN MODERN LITERATURE.....	194
Umarova Gulandom Nasilloevna. ABDULLA QAHHOR “ASROR BOBO” NI KOYASI TAHLILI.....	195
Qudratova Sitara. LUG‘ATLARDA VA ZAMONAVIY ILMIY ADABIYOTLARDA “MA‘NAVIYAT” TUSHUNCHALARINING TAHLIL ETILISHI .....	198
Nasriyeva Guzal Zulfiddin Kizi. SOCIOLOGICAL APPROACH INTO LITERATURE.....	199
<b>4-ШЎБА. ФОЛЬКЛОРШУНОСЛИК ВА ЭЛЕКТРОН ФОЛЬКЛОР .....</b>	<b>202</b>
Nilola Safarova Oxunjonovna. ОТА-ОНА FARZANDGA QO‘SH QANOTDIR.....	202
Fayzullayev Otabek Muxammadovich, Ziyadullayeva Aziza Akmalovna. INGLIZ ERTAKLARIDA RANG RAMZIYLIGI .....	205
Файзуллоев О.М., Мухамадова А.О. ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШДАГИ ЕТАКЧИ УСУЛЛАРГА ХОС АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАР .....	208
Файзуллоев О.М., Мухамадова А.О. РЕАЛИЯЛАРНИ ТАРЖИМАДА ҚАЙТА ТИКЛАШ .....	211
Muqimova Gulnora Rashidovna. O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA FITONIMLARINING KO‘CHMA MA‘NOLARI LINGVOPOETIKASI.....	213
Rustamova Feruzabonu. "FRANSUZ VA O‘ZBEK ERTAKLARINING QIYOSIY TAHLILI ("UCH OG‘A-INI BOTIRLAR" VA "ETIK KIYGAN MUSHUK" ERTAKLARI MISOLIDA)" .....	215
Nilufar Zokirova Hamidovna. O‘ZBEK XALQINING KENJA O‘G‘IL HAQIDAGI ERTAKLARI, TO‘PLAMLAR NASHRI VA O‘RGANILISHI .....	218
М.Ё.Рўзиева. ЎЗБЕК ФОЛЬКЛОРИДА РАНГЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МИФОЛОГИК ҚАРАШЛАР МОҲИЯТИ.....	220
Jumayev Erkin Boltayevich, Xudoyev Samandar Samatovich. Humbolt ta‘limotida ruh va til talqini .....	224

